Kirish. Dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma‘naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv jarayonlarida ishtirok etayotgan davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy sohalarida davlat hamda jamiyat oldiga hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarining o‘zgarayotganligi, destruktiv axborot oqimining shiddatli tus olishi fuqarolarning ijtimoiy-psixologik xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etib, individual, guruhiy va jamiyat darajasida tegishli ishlar olib borilishini taqozo etmoqda.

Inson salomatligi, sog‘lom turmush tarzi uning ham jismonan, ham ruhan baquvvat, ham tafakkurining sog‘lom bo‘lishiga, ma‘naviy va axloqiy yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi. E’tirof etish lozimki, inson salomatligi uning oqilona turmush tarzi bilan chambarchas bog‘lik. Shunday ekan, eng avvalo, salomatlikning o‘zi nimani anglatishini tushunib olish maksadga muvofiq. Salomatlik – odam organizmining biologik -jismoniy, ruhiy-ma‘naviy holat bilan mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligi hisoblanadi. Sihat-salomatlik har bir kishi uchun baxt-saodat, uning mehnat unumdorligini, mamlakatning ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy qudratini, xalq farovonligini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi [14;40-b.]

Asosiy qism. Shaxsning ichki va tashqi tana a‘zolari favquloddagi hodisalar va vaziyatlarga moslashgan emas (stixiya, halokat, tasodif, stress, affekt, xavf-xatar-risk). Agar shaxsda sanogen tafakkur rivojlanmas ekan, unda turli vaziyatlardan qo‘rqish bilan bog‘liq his-tuyg‘ularni oldindan sezish, payqash, kurashish, yengish kabi shaxsiy imkoniyatlar mavjud bo‘lmaydi. Shuning uchun hayotga endi qadam qo‘yayotgan o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish har qachongidanda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maktab

amaliyotchi psixologlari, o‘qituvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilik bu masalaga ilmiy-psixologik nuqtai nazardan yondashishlari shart.

Sog‘lom tafakkurda namoyon bo‘ladigan tafakkurning tezligi xususan favqulodda vaziyatlarda kerak bo‘ladi, biror qarorni juda qisqa muddat ichida qabul qilish talab qilinadi. Fikrning tezligi maktabda o‘quvchilarga ko‘proq zarur bo‘ladi. Masalan, ayrim o‘quvchilarni doskaga chiqarib yangi masalani yechish so‘ralganda, hayajonlanib, butun sinf oldida o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar. Bu salbiy emosiyalar go‘yo ularning tafakkurini tormozlab qo‘yadi. Fikr juda sekin va tez-tez muvaffaqiyatsiz ishlay boshlaydi. Ayrim o‘quvchilarning ana shu individual xususiyatlarini, ularning aqliy qobiliyatlarini to‘g‘ri baholash bilan maxsus hisobga olish zarurdir.

Metodologiya. Rus akademigi I.P.Pavlov ta‘biri bilan aytganda - fikrlash tufayli inson «borliqning hokimiga» aylangan bo‘lsa, xayvonlar abadiy «tabiat quli» bo‘lib qolaverdilar. Shuning uchun tafakkur voqelikni bavoysita, so‘z yordami bilan umumlashgan tarzda aks ettirish jarayoni hisoblanadi. Atrof-muhitdagi hodisaning tashqi ifodasi sezgi, idrok, tasavvur proseslarida yorqin, obrazli tarzda, turli alomatlarini, fazoviy joylashishi va harakatida aks etadi. Tafakkurda esa inson ularning murakkab bog‘lanishlarini anglab yetadi [7;8-b.]. Tafakkur – inson psixik faoliyatining yuksak formasi bo‘lib, inson tajribasida, sezgi, idrok va tasavvur asosida vujudga kelgan va taraqqiy qilib boradi.

J.Piajening qarashlariga ko‘ra, shaxsning rivojlanish davrlaridan 3-davr ya‘ni rasman operatsiya davri(11-15 yoshni) aynan o‘smir yoshli o‘quvchining komillikka, mustaqillikka, keng tafakkur yuritishga o‘tish bosqichidir. Komillikni shakllantirishda avvalo, sanogen tafakkurni rivojlantirish masalasi qo‘yiladi. Komillik- o‘quvchini o‘z salomatligini asrash va o‘z faoliyatini jamiyat ravnaqi, ezgulik sari yo‘naltirish, shuningdek zamonaviy hayotda mavjud bo‘lgan turli tibbiy, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy tahdidlardan o‘zini muhofaza qilish bilimi va malakalari majmuasidan iboratdir[8;30-b.].

“Inson hayotining asosiy qonuni sifatida shaxsning ustunlik va afzallikka intilishini ko‘rsatish mumkin. Bu intilishning konstruktiv yo‘nalishda qo‘llanishi faoliyatni umumjamao manfaatidan kelib chiqib, amalga oshirishga xizmat qiladigan shaxslar faoliyatida namoyon bo‘ladi” deb ta‘kidlagan edi ingliz olimi A.Adler [1;23-b.].

K.Rodjersning ta‘kidlashicha, insonning barcha harakatlari qandaydir bir umumlashtiruvchi motiv asosida yuzaga keladi va amalga oshiriladi. Mazkur motivni u faollashuvga moyillik va rag‘bat- deb ataydi [12].

Rus psixolog olimi P.Ya.Galperinning fikriga ko‘ra, tafakkur bu oriyentirlash - tadqiqot faoliyati, oriyentirovka jarayoni, ya‘ni oriyentirovka — bu jarayon, oriyentirovka — faoliyatidir. Olim psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda sub‘yektning tafakkurga oriyentirovka qilish jarayonini o‘rganishdan iborat deb tushuntiradi [4;145-b.].

Nemis psixiatri K.Leongardning (1903-1988) shaxs tipologiyasiga ko‘ra sanogen tafakkuri rivojlanmagan insonlar - o‘zini-o‘zi boshqara olmaslik, tafakkur qilmaslik xohish va intilishlari yuzasidan nazoratning sustligi, fiziologik mayllarning ustuvorligi bu tipdagi shaxslarda uyg‘unlashib ketishi haqida fikr yuritadi. Ularga instinktivlik, impulsivlik, qo‘pollik, mijg‘ovlik, badqovoqlik, beadablik, orsizlik, qo‘pol munosabatlarga moyillik xosdir. Bunday kishilar turli nizo va munozaralarni keltirib chiqarib, ularning faol ishtirokchisi bo‘lishadi. Serjahl, serzarda, jizzaki bo‘lib tez-tez ish joylarini o‘zgartirib turishadi, jamoadagilar bilan chiqisha olishmaydi”- deb ularga ta‘rif beradi[6;54-b.].

Amerika professori T.Shibutani (1920-2004) “Ijtimoiy psixologiya” darsligida: shaxs tafakkurini nazarda tutib - “Agar odam o‘z bo‘lsada o‘zini-o‘zi anglay olsa, demak, u o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi” - deb ta’kidlagan. Demak inson avvalo o‘zini anglashi, o‘z xulq-atvorini nazorat qila olishi, shaxtlararo munosabatlarda o‘zini to‘g‘ri boshqara olishi zarur. Bunday shaxsiy vazifani sanogen tafakkurni rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin bo‘ladi [11;51-b.].

P.I.Ivanovning fikricha, «tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to‘g‘ri), to‘liq, chuqur va umumiy lashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag‘in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi»- deb ta’riflanadi [7;261-b.].

A.V.Petrovskiy “Tafakkur - ijtimoiy muhit asosida vujudga kelgan, ijtimoiy-munosabat bo‘lib, nutq bilan chambarchas bog‘liq, muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur vokelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir», - degan fikrni ilgari surgan.

A.V.Petrovskiyning qarashlaridan ma’lumki, shaxsning taraqqiy etishi, sog‘lom bo‘lishi, sanogen tafakkurining rivojlanishida interindivid (faoliyatda shaxslarning sub’yektiv munosabatlari) shaxtlararo munosabatlarning ta’siri muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda metaindivid ya’ni (atrofdagi kishilarning “hissasi”) ijtimoiy muhit katta ta’sir ko‘rsatadi [8;13-14-b.].

L.C.Выготский shaxsning ijtimoiy hayotida tafakkurning ahamiyatini: “Tafakkur hissiy bilish endi yetarli bo‘lmay qolgan yoki hatto ojizlik qilib qolgan joyda boshlanadi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarini davom ettiradi va rivojlantiradi” – degan qarashlar bilan izohlagan [3;15-b.].

Rus psixologi O.K.Tixomirov “Tafakkur,-deb yozadi psixolog olim, o‘z dunyoqarashi bilan voqelikni umumlashtirib, bivosita aks ettirishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasiga va foydalanadigan vositalariga hamda o‘sha umumlashmalar yangiligiga bog‘liq ravishda turlarga ajratishdan iborat bo‘lgan jarayon, ya’ni bilish faoliyatidir” [10;26-b.].

Yu.M.Antonyan tadqiqotlarida insondagi patogen g‘oyalar muayyan voqea-hodisa, narsa-buyumlar yoki ijtimoiy tuzilmalarga yo‘naltirilishi, sub’yektning frustrasiyasi oqibatida alkogolizm, giyohvandlik yoki suisid kabi vayronkor harakatlar qilishga undashini ko‘rsatib beradi [1]. Binobarin, shaxs o‘z salomatligini (jismoniy, ruhiy, ma’naviy) saqlashi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashi zarurligi shubhasiz. Bunda sanogen tafakkurni rivojlantirish uchun o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda uchrashi mumkin bo‘lgan patogen tafakkur xususiyatlarini rivojlanishini oldini olish lozim.

Tafakkurning ahamiyati to‘g‘risida O‘zbekistonda psixologiya fanining ilk asoschilaridan bo‘lgan ustozimiz M.Davletshin quyidagi fikrni bildiradi: “...Odam ko‘zining alohida suratda tuzilganligi odamning olamni bilish imkoniyati uchun mutlaq chegara emas. Bizning ko‘zimizga boshqa sezgilargina qo‘shilib qolmay, balki shu bilan birga, tafakkurimizning faoliyati xam qo‘shiladi” [5;43-b.].

E.G‘oziyevning fikriga ko‘ra: - “Tafakkurning mazmundorligi ko‘p jihatdan emosional kechinmalarga — hayratda qolish, taajjublanish, yangilikni his qilish kabilarga bog‘liq. Mazkur hislarning paydo bo‘lishi tafakkurning ko‘tarinki ruhda kechishini ta’minlaydi, kishiga zavq-shavq, maroq bag‘ishlaydi. Mulohazalar, fikrlar, tushunchalar, hukm va xulosa chiqarishlarning chinligi (yolg‘onligi), to‘g‘riligi (noto‘g‘riligi), adekvatligi (noadekvatligi) insonda ishonch va shubhalanish xislarining mavjudligi bilan belgilanadi. Kishilar uchun quvonchli, yoqimli, maroqli

kayfiyat va kechinmalar fikr yuritish jarayonlarini tezlashtiradi, fikrlash sur’atini kuchaytiradi. Aksincha, noxush kechinmalar, xafaxonlik, qo’rqinch, zo’r berishlik (stress) singari emosional holatlar mulohaza yuritishni susaytirishi, uning mahsuldorligini kamaytirishi mumkin. Emosional holatlar fikrning yo’nalishiga bevosita ijobiy va salbiy ta’sirini o’tkazib turadi”[13].

*Birinchi*dan, emotsiyalar nafas olish a’zolarining ishlarida o’zgarish yasaydi. Masalan, yoqimli his-tuyg’ular ishga tushganda nafas olishning tezligi va ampitudasi ortadi, yoqimsiz his-tuyg’ular ustun kelganda kamayadi, qo’zg’algan vaqtda nafas harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi, zo’r berish vaqtda-sekinlashadi va yuzakilashadi, hayajon vaqtda tezlashadi, hamda kuchsizlashadi, kutilmagan holatda, hayron qolishda zudlik bilan tezlashadi, qo’rquvda sekinlashadi va hokazolar.

Turli emotsional holatlarda nafas olishning o’zgarishi

- a) xursandlikda nafas olish bir minutiga 17 marta;
- b) faol xafalikda 9 marta;
- v) qo’rqishda 64 marta;
- d) jahl chiqqanda 40 marta.

*Ikkinchi*dan, emotsiya imo – ishoralarda, mimikada, ya’ni kishining yuzida bo’ladigan harakatlarda hamda butun badanning ma’nodor harakatlarida ko’rinadi.

*Uchinchi*dan, gumoral harakatlardagi, ya’ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o’zgarishlarni va shuning bilan birga modda almashishida bo’ladigan yanada chuqur o’zgarishlarni o’z tarkibiga oladi.

Tahlillar. Sanogen tafakkur so’rovnomasiga ko’ra, o’smir o’quvchilarda o’rtacha miqdorni namoyon qilganligi va bu o’quvchilarda sog’lom psixik tafakkur rivojlanish darajasi yuqori ekanligi bilan belgilanadi. Sanogen tafakkur darajasining bahosi shkalasiga ko’ra, o’quvchilarda bu shkala yuqori natijani tashkil qilishi va emosional xulq-atvor holatining yuqoriligi baholanishidan darak beradi. Sanogen tafakkur shkalasining o’smir o’quvchilarda yuqoriligi ta’lim jarayonida konstruktiv bilimlarning to’g’ri darajada shakllanganligi, ularda emosional bilimdonlikning yuqoriligidan darak beradi. Sanogen tafakkur darajasi o’quvchilarda yuqorini aks ettirganligi va natijalarga erishishda kuchlarni safarbar etishini anglatadi. O’smir o’quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining psixologik omillariga ko’ra o’quvchilarda sanogen tafakkur darajasining barqarorligi, oilaviy munosabatlardagi ta’lim-tarbiyaning to’g’ri yo’lga qo’yilganligi, ta’lim muassasalarida kuchli bilimlarning berilganligi va ustoz-shogird tizimining rasional ravishda kechishi bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Oxirgi shkala ya’ni ijtimoiy fikr shkalasiga ko’ra o’smir o’quvchilarda yuqori natijani tashkil qilishi, ular bevosita o’zlari bilan boshqalarning fikrlarini ham inobatga olishi, jamiyatda belgilangan talablarga mos tarzda harakat qilishi, ijtimoiy me’yorlarga amal qilishi va sosial persepsiya shakllanganligini belgilab beradi. Shaxs xususiyatlari so’rovnomasiga ko’ra, Styudent-t mezoni bo’yicha xavotirlanish, sanogen tafakkur va ijtimoiy fikr shkalalari o’zaro ahamiyatli korrelyasiyalarni, muvaffaqiyat motivi esa, past darajani tashkil qilgan. Keyingi jadvalda Stefanson so’rovnomasi bo’yicha o’quvchilardan olingan natijalar tadqiq qilingan. (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Shaxs xulq-atvori so’rovnomasi bo’yicha umumiy o’rtacha ko’rsatkichlar (Styudentning t-mezone bo’yicha)

Shkalalar M

(n=80) Standart og‘ish (n=80) t-statistika
($p \leq 0,05$); ($p \leq 0,01$)
tobe 6,60 1,336 0,60
mustaqil 6,93 1,421 0,92
kirishimli 6,45 1,339 0,45
odamovi 6,95 1,176 0,95
kurashuvchi 6,58 1,196 0,57
kurashdan qochuvchi 6,55 1,218 0,55

Natijalar. O‘smir o‘quvchilarda Q-sortirovka so‘rovnomasi bo‘yicha umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichi “tobelik” shkalasi bo‘yicha o‘quvchilarda 6,60 ni tashkil etadi. Bu esa standart ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtachani tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan o‘smirlar qadriyatlarini, ijtimoiy va axloqiy etik normalarini to‘g‘ri qabul qila oladi. Guruh bilan hamkorlikda ishlashga moyil bo‘lishadi, lekin ko‘pincha o‘quvchilar guruhdami yoki boshqalar bilan bo‘lgan munosabatida ishonchi sustligi tufayli ular hamkorlikda ishlashga biroz qiynalishadi. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan o‘smirlar tashqi ta’sirlarga berilishmaydi, ularda agressivlik holatlari kam kuzatiladi, boshqalarga qaram bo‘lishni ham xohlashmaydi. O‘smirlar sanogen tafakkuri rivojlanishida ota-onasiga, do‘stlarining fikr-mulohazalariga tayanishadi.

“Mustaqil” shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich o‘smir o‘quvchilarda 6,93 ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan o‘smirlarning xulq-atvorida, xatti-harakatlarida mustaqillik kuzatiladi. Lekin, ular yetarli darajada mustaqil emas, hayotiy bilimlarining kamligi tufayli ular ma’lum qarorlarni mustaqil qabul qilishga, o‘z fikrlarida qat’iy turishga va mustaqil bayon qilishga qiynalishadi.

“Kirishimlilik” shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich o‘smir o‘quvchilarda 6,45 ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan o‘smirlarning hissiyotlari beqaror bo‘lgani uchun ularning kayfiyatlari tez-tez o‘zgarib turadi, muloqotga tez kirishishadi, kichik guruhda emosional aloqalarni o‘rnatishga va o‘z fikrlarini ochiq oydin aytishga qiynalishadi. O‘z hissiyotlarini ko‘rsatmaslikka va boshqalarda yaxshi taassurot uyg‘otishga harakat qilishadi.

“Odamovi” shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich o‘smir o‘quvchilarda 6,95 ni namoyon qilgan. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan o‘smirlar o‘z hissiyotlarini ifodalashga, tashabbus ko‘rsatishga qiynalishadi. Tanimagan insonlari bilan munosabatga kirishishga qiynaladi, lekin ular qaror qabul qilishda juda ehtiyotkor bo‘lishadi.

“Kurashuvchi” shkalasi bo‘yicha o‘rtacha shkala o‘quvchilarda 6,58 ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan o‘smirlar guruh hayotida faol qatnashishadi, guruh a‘zolari bilan kurashishga moyilligi bor. Ular shaxslararo munosabatda yuqori o‘rin egallashga, do‘stlariga, tengdoshlariga nisbatan yuqori natijalarga erishishga harakat qilishadi. O‘smirlar hamisha o‘z maqsadi sari doim olg‘a intilishadi, o‘z kuchiga va aqliga tayanib ish ko‘rishi natijasida tafakkur xususiyatlari shakllanadi.

“Kurashdan qochuvchi” shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich o‘smir o‘quvchilarda 6,55 ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘zaro munosabatga kirishishga qiynalishadi, guruhda yuzaga keladigan janjallarda betaraf bo‘lishga harakat qilishadi. Ko‘pincha guruhda nizoli vaziyatlar yuzaga kelganida ular birinchi bo‘lib o‘zlarini chetga olib qochishga yoki bo‘lmasam guruh a‘zolari bilan murosas qilishga moyil bo‘lishadi. Shuningdek, o‘smirlar do‘stlarini tanqid qilishdan qochishadi, o‘z his-tuyg‘ularini boshqalarga ko‘rsatmaslikka harakat qilishadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkingi, sanogen tafakkur samarasi - u ilm, vaziyat va amallardan iborat. Lekin fikrning xos samarasi ilm bo‘lib, undan boshqa narsa emas. Agar qalbdan ilm hosil bo‘lsa, qalb holati o‘zgaradi. Qalb holati o‘zgarsa, a’zolar faoliyati ham o‘zgaradi. Sanogen tafakkur barcha yaxshiliklar uchun asos va kalitdir. Insoniyat xavfsizligi, davlatlarning milliy manfaatlari, kelgusi avlodlarning barqaror kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarga aylanganligi ham, jamiyat kelajagi bo‘lgan o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish ijtimoiy talab hisoblanadi.

REFERENCES

1. Adler A. Praktika i teoriya individualnoy psixologii. SPb., 2003 – B-23.
2. Alimbayeva Sh “O‘smirlar o‘quv faoliyatida xavotirlanish namayon bo‘lishining psixologik xususiyatlari” nom dis T.: 2012,- B.149.
3. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. –S.665.
4. Galperin P.Ya., psixologii tvorcheskogo myshleniya// Voprosy psixologii. G.1982 – № 5
5. Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R. “Qadimgi Sharq mamlakatlarida psixologik fikr taraqqiyoti”. – T.: 1995. –B.26.
6. Leongard K. Aksentirovannyye lichnosti (sbornik). Kiyev. 1981.-B.23.
7. Общaya psixologiya / Pod red. A.V.Petrovskogo. - M., Pavlov I.P. Mozg i psixika 1986. - S. 201-202.
8. Petrovskiy V.A. Psixologiya neadaptivnoy aktivnosti. – M.: Rossiyskiy otkrytyy universitet, 1992. – S.222.
9. Piaje J. Affektivnoye besoznatelnoye i kognitivnoye besoznatelnoye. Voprosy psixologii. № 6., 1996. –S.25 - 31.
10. Tixomirov, O. K. Psixologiya myshleniya / O.K.Tixomirov. – M., 1984. –B.134.
11. Shibutani T. Sosialnaya psixologiya. M.: Feniks, 2002. – S.544
12. Ellis A. Gumanisticheskaya psixoterapiya:rasionalno-emosionalnyy podxod/Per.s angl.- SPb.:Izd-vo Sova; M.: Izd-vo EKSMO-.Press, 2002. – B.272.
13. G‘oziyev E.G‘. “Tafakkur psixologiyasi”T.:“O‘qituvchi»nashriyoti, 1990.-B.15.
14. Morosanova V.I. Individualnaya samoregulyasiya i xarakter cheloveka // Vopr. psixol. –M, 2007,- S 59-68.

CHET TILINI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA O‘RGATISHNING AHAMIYATI VA USULLARI

Durdona Azizova Avazbek qizi

Nordik Xalqaro Universiteti Xorijiy tillar kafedrası, Katta o‘qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157191>

Annotatsiya. Bu maqolada chet tillarini, (asosan ingliz tilini) imkoniyati cheklangan bolalarga o‘rgatishning sabablari va ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, aynan qanday metodikalar qo‘llanishi va ularning beradgan natijalari haqida ham fikr yuritiladi. Avvalo, nega aynan imkoniyati cheklangan bolalarga biz til o‘rgatishimiz kerak degan savolga javob berishimiz kerak. Hozirgi innovatsion zamonda, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar maktablarda zo‘ravonlik va cheklovlarning sezilarli darajada oshgan ko‘rsatkichlariga duch kelishmoqda. Bunig natijasida jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatda siqib chiqarishga intilishlarni ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlari: imkoniyati cheklangan, interaktiv, didaktik, o‘yin turlari, tajriba qilish, didaktik o‘yin turlari, kinestetik, demotivatsiya, vizual o‘rganuvchi.

Аннотация. В данной статье представлена информация о причинах и важности обучения иностранным языкам (в основном английскому) детей с ограниченными возможностями. Также обсуждаются какие методы используются и их результаты. Прежде всего, нам необходимо ответить на вопрос, почему мы должны учить языку детей с ограниченными возможностями. В сегодняшнюю эпоху инноваций учащиеся с ограниченными возможностями сталкиваются со значительно возросшим уровнем издевательств и ограничений в школах. В результате этого можно увидеть усилия по подавлению детей с ограниченными возможностями в обществе.

Ключевые слова: инвалид, интерактив, дидактика, виды игр, экспериментирование, виды дидактических игр, кинестетик, демотивация, визуал.

Abstract. This article provides information about the reasons and importance of teaching foreign languages (mainly English) to children with disabilities. What methods are used and their results are also discussed. First of all, we need to answer the question of why we should teach language to children with disabilities. In today's era of innovation, students with disabilities face significantly increased levels of bullying and restrictions in schools. As a result of this, efforts can be seen to suppress children with disabilities in society.

Keywords: disabled children, interactive, didactics, types of games, experimentation, types of didactic games, kinesthetic, demotivation, visual.

Kirish. Ma’lumki shu kungacha til o‘rgatish va uning samarali usullari haqida juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan va ko‘pchiligi samarali yakunlangan. Hozirgacha keltirilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, tilni turli metodiklarda o‘rgatilishi nafaqat aqlan va jismonan sog‘lom bolalarda, balki imkoniyati cheklangan bolalarda ham yaxshi samara berishiga umid qilamiz. Shuningdek, A.F. Osborni ng 1939- yilda fanga olib kirgan va sinagan didaktik o‘yin turlari haqida ham ma’lumotlar keltiriladi. Avvalo, *didaktika* (1) iborasiga ta’rif beramiz.

Didaktika bu [qadimgi yunoncha](#): *didaktikos* — „o‘rgatuvchi“, „ta’lim beruvchi“) — [pedagogikaning](#) tarmog‘i. Ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadi. „Didaktika“ atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o‘qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan O‘rganish natijasida didaktik yo‘llarda tilni o‘rgatish samarali

usul ekanligi xulosalandi. *Didaktik o‘yin* (2) - ta’lim beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta’limiy

maqsadlarga erishishga yani o‘tilgan o‘quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinni o‘tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, chet tilini o‘rgatishda didaktik o‘yinlardan, rasmni farqlang yoki rasmdagi narsa-hodisalarning nomlarini chet tilida ayting kabi Didaktik o‘yinlar esa bolalarning aqliy qobiliyatini ishlatishga qaratilgan aralash turdagi o‘yinlar hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab yoshidagi bolalarga aqlni ishlatib, harakatlar bilan ta’lim berish asosan AQSHda 60- yillarning boshida keng tarqaldi. Boshqa g‘rab davlatlarida ham asta sekinlik bilan aql bilan ishlash yoki aqlni aralash o‘yinlarda ishlatish keng qo‘llanilgan. Masalan, didaktik o‘yinlarning aqliy hujum usulini birinchi marta 1939- yilda A.F. Osborn qo‘llagan (3). Bu usulni g‘oyalar to‘plami (banki) deb ham nomlagan. U quyidagi turdagi didaktik o‘yin turlarini fanga olib kirgan.

-muommoli vaziyat yaratish;

-g‘oyalarni shakllantirish ularning eng samaralisini tekshirish va baholash.

Asosiy qism. Imkoniyati cheklangan bolalarning hammasida aslida yangiliklarni o‘rganishga va izlanishga imkoniyatlari turlicha holatda bo‘ladi. Sababi ularning imkoniyatlari turli tarafdin cheklangan bo‘ladi. Masalan, kimdira eshitish, kimdira gapirish yoki harakat tarflama cheklangan bo‘lishimumkin. Ahamiyatli bo‘lish kerakki, imkoniyati cheklangan bolalar deb, ularga bilim berish salohiyatini kamaytirmaslik yokida umuman tashlab qo‘ymaslik kerak. Albatta, imkoniyati cheklangan bolalar alohida o‘qitish va o‘rganish metodlariga, alohida muhit va individual yondashishga muhtoj bo‘lishadi.

Bunday mahsus bolalarni o‘qitishda turli ko‘zgzama materiallari, didaktik o‘yinlart va interaktiv mashg‘ulotlar qo‘llansa, ularda ilm o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ham ortadi va yaxshi natijalarni ham ko‘rsatishadi. Demak, maxsus bolalarni o‘qitishda biiz quyidagilarga e‘tiborli bo‘lishimiz kerak:

- muqobil dastur mavjudligi;

-dasturni ta‘minlovchi maqsad va ma‘lum natija ko‘zda tutilganligi;

-darsni rejaları va ko‘rgazma matreallari shakllantirilganligi;

-kerakli texnologiyalar bilan ta‘minlanganligi;

- muqobil sharoit va muhit yaratilganligi;

-pedagog o‘qituvchi birligiga maxsus terapevtlar biriktirilganligi.

Nogiron bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondiradigan qo‘llab-quvvatlovchi va inklyuziv ta‘lim muhiti bilan ta‘minlash juda muhimdir. Bu jismoniy muhitga o‘zgartirishlar, o‘quv dasturlarini moslashtirish va ixtisoslashgan o‘qituvchilar, terapevtlar yoki yordamchi xodimlarning qo‘shimcha yordamini o‘z ichiga olishi mumkin.

Nogiron bolalar tegishli qo‘llab-quvvatlash, turar joy va inklyuziv ta‘lim imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyati bilan ta‘minlansa, o‘z ta‘lim yo‘lida katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkinligini tan olish muhimdir. Nogironlarning jamiyatga qo‘shilishi va qabul qilinishi ularning o‘rganish qobiliyati va umumiy farovonligini oshirish uchun juda muhimdir.

Aynan til o‘rgatish bo‘yicha ingliz tilini misol qilib oladgan bo‘lsak, ingliz tilini o‘rgatish - juda interaktiv bo‘lishi kerak. Shuninhdek, bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, qo‘shiq aytishga, o‘ynashga, rasm chizishiga, raqsga tushushiga yoki berilgan ma‘lumotni qanday yetqizilayotganiga e‘tibor berish kerak. Ammo, ko‘p imkoniyati cheklangan bolalarda diqqatni

jamlash va harakatlarni muqobil tarzda qaytarish qiyin kechadi. Bunday holatda, pedagog psixologik jihatdan ham bilimlari borligi qo‘l keladi. Sababi maxsus bolalarni ma’lum bosim yoki yoki stress bilan ushlab o‘tish faqat zararga ishlaydi. Tilni o‘rgatayotgan o‘qituvchi, turli xil qattiq qoidalarda, va bolalarning qilgan xatolarini doimo to‘g‘rilashdan qochishlari kerak. Sababi maxsus bolalarda oddiy bolalarga qaraganda xatoliklar qilish tez- tez uchraydi va bu ularni demotivatsiya bo‘lishlariga olib kelishi mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalarda, o‘zining holatidan kelib chiqqan holda, leksik yoki grammatik birliklarni tinglab tushunish, rasmlar va o‘qib berish orqali tilga qiziqtirish va o‘rgatish hozirgi zamonaviy metodikalarni ichiga kiradi. Imkoniyati cheklangan bolalarning aksariyati “Kinestetik” va “Vizual” (4) turdagi o‘rganuvchi bolalarga kirishadi. Sababi, shu turdagi bolalarda rasmlar, raqamlar, ushlab tegib ko‘rish va ko‘rsatilgan harakatlar orqali tez o‘rganishadi.

Tahlil va natijalari. Imkoniyati cheklangan bolalarni til, ingliz tilini qay darajada o‘rganib ketishlari borasida judda ko‘p tadqiqotlar va izlanishlar o‘tkazilgan. Ulardan biri “Adam Muller Guttenbrunn” Arad o‘rta maktabi bilan 2014-yil may oyida o‘tqiziladi (5) va uning natijasi hammani hayratda qoldiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, maxsus ta’limga muhjud bolalarda muhitning ahamiyatligi, dasturning tuzib chiqilganligi va maxsus iqtidorli yoki tayyorlangan pedagoglarning kerakligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xulosa. Keltirilgan misollar va metodikalardan shuni xulosa qilosh mumkinki, imkoniyati cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, bolalar chet tillarini o‘rgana olishadi. Faqatgina bunda yuqorida keltirilgan talablar birgalikda qo‘llanishi va maxsus iqtisoslashtirilgan ustozlarni jalb qilinish kerakligi e‘tiborga olinishi kerak. Ayniqsa, ingliz tili o‘qituvchisi har bir dars uchun beriladigan ma’lumotlarni ko‘rgazlamalar va kerakli o‘quv qo‘llanmalar bilan boyitsagina, yaxshi natijalar ko‘rsatilishi mumkin.

REFERENCES

1. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta’lim nazariyasi). O.O‘Yu uchun qo‘llanma.T., Sharq, 2006y.
2. Raximova A.E. Didaktik o‘yinlarning turlari va ularni olib borishga doir talablar. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5.
3. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar - ta’lim - tarbiya sifat va samaradorlik omili. Toshkent-2010y
4. J Postgrad Med. Understanding your student: using the VARK model. 2014 Apr-Jun;60(2):183-6. doi: 10.4103/0022-3859.132337.
5. Alina Nicoleta Padurean. (2014). Teaching English Language to Children with Special Educational Needs. “Aurel Vlaicu”, University of Arad, 77 Revolutiei Boulevard, Arad, Romania. TEM Journal – Volume 3 / Number 4 / 2014. www.temjournal.com.

**ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ — НАИБОЛЕЕ ПЕРЕДОВАЯ СИСТЕМА
ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ
СОВРЕМЕННОГО ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА**

Сулейманова Тохтахон Гайназаровна

Доцент кафедры Общая психология Андиганского государственного университета им. З.

М.Бабура

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157195>

***Аннотация.** В настоящей статье анализируется актуальность развития инклюзивного образования на позицию цивилизованного государства относительно своих граждан, имеющих инвалидность. Подчеркивается значимость явления инклюзивной культуры для современного демократического общества. Указывается, основные социально психологические, педагогические факторы развития инклюзивного образования. Развитие инклюзивного образования зарубежом. Обращается внимание на социальный статус людей с инвалидностью в настоящее. Иллюстрируются основополагающие принципы, необходимые для выстраивания грамотного взаимодействия с людьми с инвалидностью. Подчеркивается наличие возможностей и мобильности при ограничениях в состоянии здоровья у людей с инвалидностью.*

***Ключевые слова:** дети с ограниченными возможностями,; инклюзия; этика взаимодействия; социальная интеграция ; Инклюзивное обучение ,потребности, коррекция.*

***Abstract.** This article analyzes the relevance of the development of inclusive education to the position of a civilized state regarding its citizens with disabilities. The importance of the phenomenon of inclusive culture for a modern democratic society is emphasized, the main socio-psychological, pedagogical factors of the development of inclusive education are indicated. Development of inclusive education abroad. Attention is drawn to the social status of people with disabilities at the present time. The fundamental principles necessary for building competent interaction with people with disabilities are illustrated. It emphasizes the availability of opportunities and mobility with disabilities in people with disabilities.*

***Keywords:** children with disabilities; inclusion; ethics of interaction; social integration; Inclusive learning,needs, correction*

ВВЕДЕНИЕ

Инклюзивное, или включенное образование - термин, используемый для описания процесса обучения детей с особыми потребностями в общеобразовательных школах. «Инклюзия» в переводе с англ. языка inclusive-означает "включенность», [4]

Инклюзивное образование — наиболее передовая система обучения детей с ограниченными возможностями здоровья, основанная на совместном обучении здоровых детей и детей-инвалидов. Обучаясь вместе, дети учатся жить вместе, стираются границы между инвалидами и здоровыми людьми.

Главным и важным аспектом инклюзивного образования является исключение всяческой дискриминации людей с ограниченными возможностями

Инклюзивное образование – процесс развития общего образования, который подразумевает доступность образования для всех, в плане приспособления к различным

нуждам всех детей, что обеспечивает доступ к образованию для детей с ограниченными возможностями .

Инклюзивное обучение нацелено на предоставление качественного образования всем детям, независимо от их способностей и положения. Принцип инклюзивности также предполагает, что дети с ограниченными возможностями должны жить в семьях и учиться с ровесниками в обычной школе для того, чтобы получить положительное эмоциональное и социальное развитие. Основное правило – доступность для детей с ограниченными возможностями и инвалидностью, направленная на решение проблем и трудностей социализации.

Инклюзивное образование старается разработать подход к преподаванию и обучению, который будет более гибким для удовлетворения различных потребностей в обучении и воспитании детей. Помимо общих законов и общеизвестных дидактических принципов, инклюзивное образование подчиняется специфическим принципам: [6]

1. Ценность человека зависит не только от его способностей и достижений. Каждый человек уникален!

2. Каждый человек способен чувствовать и думать!

3. Каждый человек имеет право на общение и на то, чтобы быть услышанным.

4. Подлинное образование может осуществляться только в контексте реальных взаимоотношений: все люди нуждаются друг в друге, все люди нуждаются в поддержке и дружбе ровесников и наставников.

5. Для всех обучающихся достижение прогресса скорее может быть в том, что они могут делать, чем в том, чего не могут.

6. Разнообразие усиливает все стороны жизни человека. Эти ценности отражались не только на том, как персонал школ относится к детям, но и на взаимодействии взрослых, искренней радости талантам и особенностям каждого человека к которому происходит в ходе социальной интеграции

Интеграция – это продуктивная совместная и творческая субъект-субъектная деятельность всех участников образовательного процесса, это единое системное воздействие, выработанное совместными усилиями профессионалов разных профилей, которые научились обсуждать обучающего на одном языке. Детям с особенностями развития сегодня вовсе не обязательно обучаться в специальных учреждениях, напротив, получить более качественное образование и лучше адаптироваться к жизни они смогут в обычных условиях школы или вуза. [4]

Инклюзивное обучение направлено прежде всего на социальную интеграцию детей с ограниченными возможностями независимо от их социального положения, физического, эмоционального и интеллектуального развития и создают им условия на основе психолого педагогических приемов, ориентированных на потребности этих детей.

Отличительная черта инклюзивной формы образования – учёт индивидуальных образовательных потребностей всех детей, не подразделяя их на обычно развивающихся и «особых».

Основным критерием эффективности включающего инклюзивного образования является максимальная социальная адаптация, а в дальнейшем - профессиональная и трудовая адаптация детей с ограниченными возможностями здоровья и детей - инвалидов, наряду с освоением им академических знаний .Учеба в инклюзивном классе полезна не

только детям с инвалидностью, но и их нормотипичным сверстникам. Ребята становятся более корректными и толерантными, учатся учитывать особенности и потребности других людей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ

В исследовании использовались логические, исторические, последовательные и объективные методы научного познания, а для раскрытия темы использовались описательные и сравнительные методы. В статье объективно освещены педагогические условия развития инклюзивного образования в Финляндии, Америке, Израиле в Узбекистане, новый закон об образовании республики Узбекистан, решения Президента Республики Узбекистан как методический источник для разьяснения актуальности темы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В настоящее время болонское соглашение, в части инклюзии как реформы, поддерживающей и приветствующей различия и особенности каждого ученика (пол, раса, культура, социальный класс, национальность, религии, а также индивидуальные возможности и способности

В сорока странах реализуют инклюзивное образование в общеобразовательных учреждениях. Сегодня в Узбекистане проводится масштабная работа по эффективной организации системы инклюзивного образования, формированию физически здорового и гармонично развитого поколения, обеспечению внедрения эффективных форм и методов обучения в образовательный процесс. [2]

Понятие «Инклюзивное образование» впервые указано в новой редакции Закона Республики Узбекистан «Об образовании», принятой 23 сентября 2020 года. Утверждена концепция развития инклюзивного образования в системе народного образования в 2020-2025 годах. [1]

Если дети с особыми потребностями будут получать образование в обществе с детьми с нормальным психофизическим развитием, это обстоятельство станет гарантом того, что такие дети смогут интегрироваться в общество с наименьшими препятствиями

Современном мире вопросы социальной интеграции детей с ограниченными возможностями является одним из самых актуальных проблем .

В течение 20 лет в Финляндии развивается инклюзивное образование. Образовательные учреждения применяют принципы инклюзии, вот некоторые из них: – несмотря на свои возможности, все дети обучаются в основной школе; – в школах имеются специализированные и общие классы, в которые дети распределяются после консультации с родителями. Именно родители решают, в каком классе будет обучаться их ребенок; – детям, у которых нарушен слух, предоставляет – в основном штате школы имеются ставки специального педагога, помощника учителя, социального работника, медицинской сестры. В настоящее время в каждой финской школе имеется трехуровневая система поддержки учащихся. В их нормативной базе образования это было отражено в 2010 году.

Итак, общая поддержка – это первый уровень. Его осуществляет учитель класса. Все вопросы, касающиеся учащегося, учитель решает самостоятельно и с родителями. Если этой поддержки недостаточно, учащегося переводят на второй уровень – интенсивной поддержки. На этом уровне подключается мультидисциплинарная команда, включающая соучительство, помощника учителя. Учащийся обучается по индивидуальному плану, и если за полгода он не исправляет свое положение, то наступает третий уровень поддержки,

которая определяется как специальная. Это решение принимает комиссия, беря во внимание результаты медико-психологического обследования ребенка. Этот ребенок обучается в специальном классе. Эти классы немногочисленные (8 – 10 детей), обучение ведет специальный педагог. Дети в этом классе обучаются 11 лет, и за это время учащийся получает девятилетнее образование. Инклюзивная система образования также организуется и на дому, с дополнительной оплатой учителям... Ведется электронная система досье воспитанников в дошкольных учреждениях, что помогает администрации школы иметь информацию о детях, которые придут к ним, так как досье содержит все данные о будущих учащихся. [3]

Инклюзия – норма в Израиле. Дети с определенными образовательными потребностями уже более 30 лет обучаются в обычных школах, и только в исключительных случаях ребенок определяется в специальные коррекционные центры. В этой стране о таком ребенке заботятся все, а именно: государство, родители, друзья, одноклассники, волонтеры, сотрудники образовательных учреждений. Основными достижениями для таких учащихся считаются его собственные достижения. Большую точечную работу специалисты проводят с этими детьми, проводя раннюю диагностику. Подготовка детей с ограниченными возможностями проводится по специальной программе «From prevention to inclusion», чтобы ребенок, достигнув школьного возраста, мог обучаться. С рождения проводится скрининг состояния их здоровья. Отслеживается процесс их развития. С учетом каждого заболевания определяется индивидуальная программа подготовки этих детей к дальнейшему обучению. Все дети, независимо от заболевания, за год до школы посещают дошкольное учреждение, где обязательно проходят психологическую диагностику. В израильских школах для детей с ограниченными возможностями существуют так называемые «транзитные первые классы», «классы интенсивной коррекции». В этом классе учатся не более 12 детей, и каждый ребенок обучается в своем темпе при сопровождении психолога, дефектолога и специалиста по развитию речи. В израильских школах используется индивидуальный вид инклюзии с учетом нозологии ребенка. Несомненно, вызывает интерес наличие «обратной инклюзии», феномен которой заключается в том, что обычные дети приходят на определенные уроки в коррекционные классы и занимаются совместно с детьми с ограниченными возможностями. [3]

В США педагоги работают с детьми-инвалидами по программе «Инклюжен». В законе, принятом в 1973 году, были заложены основы обучения таких детей. В нем сенаторы предусмотрели финансирование образовательных учреждений, создание специальных программ обучения с учетом индивидуального подхода к каждому ребенку и их реализацию. Инклюзия рассматривается зачастую исключительно как обучение детей с инвалидностью в общеобразовательных школах вместе с их сверстниками.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Инклюзивный подход направлен на более полное взаимодействие всех участников образовательного процесса (детей, родителей, педагогов и персонала). Совместное сотрудничество создает особую среду и культуру, в которой абсолютно все будут равноценны и причастны. Практика совместной работы и участия основывается и поддерживается совместно разделяемыми ценностями учеников и персонала школы, в соответствии с которыми учитывались особенности каждого ребенка или взрослого. Право на общение и обучение есть у всех людей. Образование неотделимо от реальных

отношений между людьми. В поддержке и дружбе сверстников нуждаются все люди. Прогресс в обучении любого человека заключается в том, что он научился делать, а не в том, чему не научился. Инклюзивное обучение является одним из основных институтов социализации обеспечивающие гармоничное развитие личности детей с ограниченными возможностями. Инклюзивное образование способствует не только социализации детей с особыми потребностями, формированию у них навыков самостоятельности, социальной адаптации, но и созданию толерантного и включенного общества, где каждый человек имеет право на образование и участие в общественной жизни.

Инклюзивное обучение даёт возможность детям развивать социальные отношения через непосредственный опыт для людей с особыми образовательными потребностями должны учитываться определенные условия, без которых обучение будет весьма затруднительным:

[6]

1) обеспечение соблюдения прав учащихся на осуществление полноценного образования;

2) эргономически доступная среда (пандусы, лифты, специально оборудованные туалеты, профилакторий, ЛФК, медицинский кабинет, специально оборудованный спортивный зал и др.);

3) организационно-методическая поддержка учебного процесса (индивидуальные учебные программы; инновационные информационные технологии в учебном процессе; воспитательная работа, используемая в учебном процессе; текущий и итоговый контроль знаний учащихся);

4) мониторинг инклюзивного образования (отслеживание индивидуальных образовательных достижений учащихся и др

При правильной организации инклюзивного образования необходимо учитывать что:

– во-первых, инклюзивное образование наиболее приемлемо для детей с с ограниченными возможностями , с которыми была рано начата коррекционнопедагогическая работа (с момента выявления нарушения в развитии);

– во-вторых, ребёнок с нарушениями в развитии, обучаясь совместно с нормально развивающимися сверстниками, не перестаёт нуждаться в удовлетворении его особых образовательных потребностей со стороны дефектологов и должен оставаться под патронатом системы специального образования; – в-третьих, инклюзия не может носить массовый характер, поскольку в условиях «включённого образования» ребёнок с с ограниченными возможностями поставлен перед необходимостью овладеть государственным образовательным стандартом наравне с нормально развивающимися сверстниками. Как правило, это оказывается посильным для детей с высоким уровнем психофизического развития, близким к норме. [9]

Инклюзивное образование позволяет разрушить границы неравенства между здоровыми детьми и детьми с ограниченными возможностями образуя такое общество, в котором у всех детей равные возможности и права.

REFERENCES

1. Постановления Президента Республики Узбекистан от 13.10.2020 года № ПП -4860 о мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания детей с особыми образовательными потребностями закон республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года №ЗРУ-637
2. Инклюзивное образование: методология, практика, технологии: Материалы международной научно-практической конференции (20—22 июня 2011, Москва) / Моск. гор. психол.пед. ун-т; Редкол.: С. В. Алехина и др. – М.: МГППУ, 2011. – 244 с.
3. Интегрированное и инклюзивное обучение в общеобразовательном учреждении. Инновационный опыт / авт.-сост. А.А. Наумов, В.Р. Соколова, А.Н. Сегедова. – Волгоград : Учитель, 2012. – 147с.
4. Екжанова, Е.А. Отечественная концепция интегрированного обучения // www.psyedu.ru
5. Малофеев, Н.Н. Специальное образование в меняющемся мире. Россия: учеб.пособие для студентов пед. вузов. В 2 ч. Ч. 1 / Н.Н. Малофеев. – М.: Просвещение, 2013. – 320 с.
6. Мёдова Н.А. Инклюзивное образование в схемах и таблицах: методическое пособие / ТОУНБ им. А. С. Пушкина, Отдел организации обслуживания инвалидов по зрению; МБЛПУ ЗОТ «Центр медицинской профилактики»; отв. за выпуск А. А. Коваленко. – Томск, 2012. – 24 с.; – (В помощь реабилитологу).
7. Организация работы с учащимися с ограниченными возможностями здоровья в условиях внедрения инклюзивного образования: методические материалы / Под научной ред. Н.А Палиевой, д.п.н.. - Ставрополь: ГБОУ ДПО СКИРО ПК и ПРО, 2012. - 152 с.
8. И.А. Ерина, С.Н. Передерий, Инклюзивное обучение: особенности практической реализации в мировой и отечественной образовательной практике мир науки, культуры, образования. № 6 (85) 2020
9. О. В. Козлитина, Ю. С. Масловская, Л. В. Турищева Психологические аспекты инклюзивного образования Педагогическая мастерская 2015

INKLYUZIV TA’LIMDA BOLALAR ADABIYOTI PEDAGOGIK INSTRUMENT SIFATIDA

Muminova Dinara Ramizullayevna

Nordik Xalqaro Universiteti (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157203>

***Annotatsiya.** Respublikamizda o‘tkazilib kelayotgan ta’lim islohotlari inklyuziv ta’limni ham inobatga olib kelmoqda. Inklyuzivlik zamonaviy pedagoglar dunyosining asosiy tarkibiy qismidir. Inklyuziv bolalar adabiyoti bolalarda inklyuziya tamoyillarini rivojlantirishda muhim instrument hisoblanadi. Olimlarning ta’kidlashicha, bolalar kitoblari insonni uning shaxsiy xususiyatlari, boshqalardan farq qiladigan jihatlari uchun qabul qilishni va hurmat qilishni o‘rgatadi. Ushbu maqolada qanday qilib pedagog samarali inklyuziv ta’lim uchun kitob va material tanlashi va kerak bo‘lsa yaratishi haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, inklyuziv bolalar adabiyoti, inklyuziv matnlar.*

***Аннотация.** Реформы, проводимые в республике учитывают также важность инклюзивного образования. Инклюзивность сегодня, это основная часть педагогического процесса современного педагога. Инклюзивная детская литература является важным инструментом в развитии принципов инклюзивности среди детей. Согласно исследованиям, детская литература помогает человеку принимать и уважать другого исходя из его личных качеств и отличительных черт от других. Данная статья показывает, как педагог может отбирать детскую литературу или создавать детские тексты для организации эффективного инклюзивного образовательного процесса.*

***Ключевые слова:** инклюзивное образование, инклюзивная детская литература, инклюзивные тексты.*

***Abstract.** The reforms carried out in the republic also consider the importance of inclusive education. Inclusivity today is the main part of the pedagogical process of a modern teacher. Inclusive children's literature is an important tool in developing the principles of inclusion among children. According to research, children's literature helps a person accept and respect others based on their personal qualities and distinctive features from others. This article shows how a teacher can select children's literature or create children's texts to organize an effective inclusive educational process.*

***Keywords:** inclusive education, inclusive children’s literature, inclusive texts.*

Kirish

***“Birga o‘qishni o‘rgangan o‘quvchi,
Ertaga birga yashashni biladi.”***

UNESCO

O‘zbekistonda oxirgi yillar inklyuziv ta’limga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada 2020 yil 13 oktyabrda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilinadi, shuningdek 2021 yilda O‘zbekistonda alohida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar tasdiqlandi. [1] Bu hujjatlar umumta’lim maktablarida korreksion sinflarni ochishni ham ko‘zda tutgan. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qaroriga muvofiq: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida 2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimida

inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi: [2]

- alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘qiydigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- ushbu ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o‘quv qurollari, turli kasblar bo‘yicha o‘qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ta’lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko‘tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar), shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta’minlash (maxsus o‘qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo‘yicha mutaxassislar);
- alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta’minlash va boshqalar.

UNESCO(Birlashgan Millatlar Ta’lim, Bilim va Madaniyat Tashkiloti) xalqaro tashkilotining ta’rifiga binoan, “ta’limga inklyuziv yondashuv deganda ta’lim jarayonida har bir shaxsning ehtiyojlarini hisobga olish va barcha o‘quvchilar ishtirok etgan holda birgalikda maqsadga erishilish tushuniladi. Bu degani har bir bola ta’lim olish imkoniyatiga ega va har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va o‘rganish ehtiyojlari borligi tan olinishi kerak. [3]

Tahlil va natijalar

Inklyuzivlik zamonaviy pedagoglar dunyosining asosiy tarkibiy qismidir. Inklyuziv sinf qanday ko‘rinishini tushunish o‘qituvchilar va ota-onalar uchun ham juda muhim, chunki ular o‘z farzandlari uchun eng yaxshi ta’limni topishga intiladilar. Inklyuziv sinfni yaratish barcha o‘quvchilarni muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Inklyuzivlik - bu turli qiyinchiliklarga va ba’zi iqtidorlarga ega o‘quvchilarga nisbatan dunyoqarash va munosabatlarni o‘zgartirishdir. Inklyuziya deganda har bir bola uning jismoniy holati va qobiliyatlaridan qat’iy nazar yaxshi ta’lim, munosabat va e’tibor olishini tushunish kerak. Inklyuziv ta’lim nafaqat amaliyotlar to‘plami, balki kerakli munosabatdir ham. Bu shuni anglatadiki, maktablar, bog‘chalar, sinfxonalar va maktabdan tashqari barcha mashg‘ulotlar uchun eshiklar har bir bola uchun chinakam “ochiq” bo‘lishidir. Bolalar bunday maskanda ma’lum ehtiyojga ega va ega bo‘lmagan qat’iy nazar tengdoshlari bilan birga bo‘lish va ta’lim olish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘lishidir.

Talimda inklyuziya bilan integratsiyani farqlash muhim. Inklyuziyada maxsus ehtiyoji bor bolalar ta’lim olishlari uchun sinfda kerakli sharoit, xizmat va imkoniyatlar yetarlicha bo‘ladi. Integratsiyada esa alohida ehtiyoji bor bolalar boshqa bolalar bilan birga bir sinfda faqat jismonan bo‘ladilar, lekin ta’lim olish jarayonida qatnasha olmaydilar yoki ular uchun maxsus yondashuvi ta’lim yo‘lga qo‘yilmagan bo‘ladi.

Inklyuziv ta’lim deganda 2 yondashuv tushuniladi:

1. Alohida ta’lim ehtiyoji bor bolalarga ta’lim berish. Bunda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan materiallar turli ehtiyojlarga javob beradigan formatlarda mavjud bo‘lishi kerak. Bunda ko‘rish yoki eshitish qobiliyati buzilgan o‘quvchilar, shuningdek o‘rganishda boshqa qiyinchiliklarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan bolalar ehtiyojlari hisobga olinadi. Ta’lim maskani

va ta’lim materiallari turli darajadagi kognitiv, jismoniy va hissiy qobiliyatlarga ega bo’lgan bolalar uchun munosibligi ta’linlanadi.

2. Ta’lim materiallari(darsliklar, kitoblar, slaydlar va hokazo)ning o’zida ilustrasiyalar, qahramonlar, matn va jins, irq va shaxsiyatning boshqa jihatlariga sezgir bo’lgan inklyuziv tildan foydalaniladi.

Inklyuziv bolalar adabiyoti bolalarda inklyuziya tamoyillarini rivojlantirishda muhim instrument hisoblanadi. Inklyuziv bolalar adabiyotiga badiiy adabiyot, hikoyalar, rasmi kitoblar, grafik romanlar, she’riy romanlar, she’rlar, sarguzashtlar va boshqa janridagi boshqa ko’plab matnlar kiradi. Unda turli madaniyatlar, turli tuzilmalarga ega oilalar, turli darajadagi ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarga ega odamlar, iqtisodiy darjasi har xil odamlar namoyon etilishi kerak.

Inklyuziv adabiyotlar “ko’zgilar” kabi o’quvchilarga o’zlarini tasvirlash imkonini beruvchi vositalardir. [4]

Inklyuziv bolalar adabiyotining muhim bir samarali tomoni shundaki, uni o’qiydigan alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar o’zlarini yolg’iz his qilmaydilar.

Inklyuziv bolalar adabiyoti ta’lim jarayonining muhim qismidir, unda turli ehtiyoj va kelib chiqishdagi bolalar ishtirok etadilar. Olimlarning ta’kidlashicha, bolalar kitoblari insonni uning shaxsiy xususiyatlari, boshqalardan farq qiladigan jihatlari uchun qabul qilishni va hurmat qilishni o’rgatadi. [5] Kitoblar orqali bolalar boshqa bolalar bilan o’xshashlik tomonlarini va turlicha ekanliklarini ko’ra oladilar va bunga ijobiy munosabat shakllantria oladilar. Wopperrerning ta’kidlashicha bolalar inklyuziv darslik va adabiyotlarda asosiy qahramon yoki boshqa qahrmonlarning maxsus ehtiyojlarga ega ekanliklarini qayta-qayta ko’rganliklari tufayli ularning ehtiyojlarini chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. [6]

Inklyuziv kitoblarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, unda turli diniy qarashlarga ega bolalarni ko’rish mumkin. Bu holat bolalarda qahramonga qaratilgan empatiya orqali tolerantlik hissini shakllantirish imkonini beradi.

Inklyuziv kitoblar hilma-xillikni qadrlaydigan va hurmat qiladigan tolerant jamiyatni rivojlantirish uchun zarurdir. Bunda barcha shaxslar, ularning kelib chiqishi yoki kimligidan qat’iy nazar, o’zlarini adabiyotda ko’rish imkoniyatiga ega bo’lishlari ta’minlanadi.

Inklyuziv bolalar adabiyoti quyidagi turlarga ajratilib o’rganiladi: [7]

- Har xil madaniyat haqidagi kitoblar (masalan, g’arb, sharq madaniyati, ularning orasidagi farq va o’xshashliklar).
- Har xil millatlar haqidagi kitoblar (masalan, koreyaliklar haqidagi kitoblar, millatning o’zbeklarga o’xshash tomonlari).
- Har xil oilaviy tizimni namoyon qiladigan kitoblar (masalan ota-onasi ajrashgan oilalarning o’ziga xosliklari).
- Turli jismoniy ehtiyojga ega insonlar haqidagi kitoblar (masalan, ko’zi ojiz yoki boshqa jismoniy ehtiyojligi mavjud bolalar)
- Turli emotsional ehtiyojlarga ega inosnlar haqidagi kitoblar (masalan, autist bolalar, ularning qobiliyatlari)
- Turli ijtimoiy-iqtisodiy qatlamdagi insonlar haqidagi kitoblar (masalan boy, kambag’al, asbaiy va muloyim qahramonlar).

Bugun inklyuziv ta’lim nafaqat til, din, madaniyat va jismoniy ehtiyojlarni nazarda tutadi, balki jins, mental salomatlik, yosh, ideologiya kabi omillarni o’z ichiga oladi. Bugungi globallashuv jamiyatda biz birga yashashni, bir-birimizni hurmat qilishga va tushunishga

o‘rganishimiz kerak.

Inklyuziv ta’lim adabiyotida turli nuqtai nazarlar, madaniyatlar, jinslar, qobiliyatlar va tajribalar ifodalandi. Inklyuziv kitob o‘qish empatiyani rivojlantiradi. Inklyuziv adabiyotlar o‘quvchilarga turli madaniyatlar, an’analar va insonlarni o‘rganish va qadrlashga yordam beradi, shu bilan ko‘plab bo‘shliqlarni bartaraf qiladi va inklyuziv jamiyatni rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida turli xil kelib chiqishi, maxsus ehtiyoji va tajribasi bo‘lgan odamlar bilan yaxshiroq munosabatda bo‘lish va ularni tushunish imkonini beradi. Inklyuziv jamiyat davr talabidir, buni ta’lim jarayoni rivojlanayotgan paytda inkor etib bo‘lmaydi.

Inklyuziv adabiyotlarni o‘qish stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlarga qarshi kurashishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Pedagogik jarayonda qanday qilib inklyuziv o‘qishni tashkil qilish mumkin:

- Kitoblarning turlari darajalari turli hil bo‘lishini ta’minlash.
- Matn turli xil texnologiyalar orqali barcha ehtiyojli bolalar uchun yetkazilishini ta’minlash.
- O‘quvchilarda o‘qiganlarini tushunganliklarini qanday namoyon qilishlarini o‘zlari tanlay olish imkonini belgilash.

Inklyuziv kitob tanlaganda pedagogning vazifasi nimadan iborat:

1. Kitobni baholash va qo‘yilgan maqsadga muvofiqligini ko‘rish;
2. Kitob mazmunidan kelib chiqqan holda bolalar bilan bo‘ladigan suhbat mavzularini topish;
3. Kitob orqali qilsa bo‘ladigan faoliyatlarni belgilash va amalda qo‘llash;
4. Inklyuziv o‘qish jaryeonini ish rejasi bilan integrasiya qilish.

Bugun O‘zbekistonda inklyuziv bolalar adabiyotlari deyarli mavjud emas. Shuning uchun pedagog bu borada kreativ bo‘lib, matnlar va inklyuziv rasmlarni birlashtirgan holda, yuqoridagi tamoyillarga asoslangan holda bolalarga qizqararli inklyuziv slaydlar ko‘rinishida taqdim etishlari mumkin.

Misol uchun Zumrad va Qimmat ertagini quyidagi inklyuziv matnlarni qo‘shgan holda bolalarga tanishtirish mumkin. (Slayd 1) Bunday matnlar bolalarda empatiya va tolerantlik tuyg‘ularini shakllantirishda yordam beradi. Bugun ta’lim jaryeonida, inklyuziv adabiyotlar tanqis paytda pedagog shunday qo‘shimcha materiallar yaratishi orqali bolalarda alohida ehtiyojli bolalar tushunchasini shakllantirishga, alohida ehtiyojli bolalar ehtiyojlarini bolalarga tushunarli tarzda tushuntirishga hamda bolalarda empatiya tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi.

Bir zamonda katta bir soy bo‘yida kichkina bir uy bo‘lar ekan. Bu uyda chol, uning Zumrad degan qizi, o‘gay ona va uning Qimmat degan arzanda qizi turar ekanlar. Kampirning Zumradni ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q ekan. U hadeb qizni urib, qarg‘ab, bechoraga birpas ham tinchlik bermas ekan. Zumrad chiroyli, odobli, muloyim, aqlli qiz ekan. **Lekin Zumradning ko‘zlari ko‘rmas ekan.** Qimmat esa ishyoqmas, injiq va dimog‘dor ekan. Uning butun kuni urish-janjal va to‘polon bilan o‘tar ekan. **Zumrad ko‘zlari ojiz bo‘lishiga qaramy uyda ko‘p ish qilishga o‘rgangan ekan.** Erta bilan barvaqt ko‘zasini ko‘tarib, soy yoqalab



<p>buloq boshiga borarkan, yo‘lda uchragan lola gullar <u>Zumradga soyga tushib ketmasligi uchun yordam berib turar ekanlar.</u> Zumrad maysalar ustida o‘tirib dam olganida gullar uni olqishlar, bulbullar quvonib unga hikoyalar aytib berarkanlar.</p>	
---	--

Slayd 1. “Zumrad va Qimmat” ertagini inklyuziv matnga almashtirish.

Bunday matnlar dars jarayonida rasmlar bilan birga keltirilsa, inklyuziv ta’lim jarayoni yanada sifatli va samaraliroq bo‘ladi.

Inklyuziv ta’lim jaryonida kitob tanlashda yoki inklyuziv matnlarni shakllantirishda pedagog quyidagi omillarga ahamiyat berishi lozim:

1. Pedagog muntazam ravishda turli madaniyatlar, o‘ziga xosliklar va tajribalar bilan o‘zi tanish bo‘lilshi kerak.
2. Inklyuziv adabiyotlar haqidagi sharhlar, tavsiyalar va maqolalarni o‘qib turishi kerak.
3. Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega muallif va ilustratorlar adabiyotini izlashi kerak.
4. Kutubxona, kitob do‘konlari va kitob blogerlar sharhlarida inklyuziv kitoblar haqidagi ma’lumotlar muntazam ravishda izlab turishi kerak.
5. Respublikada inklyuziv ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan tanish bo‘lishi kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inklyuziv ta’lim ilg‘or va adolatli jamiyatning asosi bo‘lib, har bir shaxs, o‘z qobiliyati yoki farqlaridan qat’iy nazar, sifatli ta’lim olish huquqiga ega, degan asosiy tamoyilni o‘zida mujassam etadi.

Bugungi jadal rivojlanayotgan global landshaftda inklyuzivlik imperativi hech qachon bunchalik muhim hisoblanmagan. Bu nafaqat turli xil o‘quvchilarda tolerantlik va ma’suliyatlilik hissini uyg‘otadi, balki innovatsiyalar va muammolarni hal qilish davri uchun juda muhim bo‘lgan istiqbollar, ko‘nikmalar va hissiyotlarni rivojlantiradi. Inklyuziv ta’lim ko‘proq rahmdil, hamdard va tushunadigan dunyo uchun poydevor yasaydi, bunda odamlar o‘zlarining noyob ehtiyojlari uchun qadrlanadi va hech kim ortda qoldirmaydi. Bugun inklyuziv ta’lim bu shunchaki axloqiy ehtiyoj emas, bugungi kunda u har bir jamiyatning strategik zaruratidir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”.
3. “Sub-Education policy Review Report Inclusive Education”, UNESCO xalqaro tashkiloti, 2021. Web sahifa: https://en.unesco.org/sites/default/files/inclusive_education_final_-_january_2021.pdf.
4. Bishop, R. S. Mirrors, windows, and sliding glass doors - scenic regional. Reading is Fundamental. Retrieved April 16, 2022. Web sahifa: <https://scenicregional.org/wp-content/uploads/2017/08/Mirrors-Windows-and-Sliding-Glass-Doors.pdf>.
5. Monoyiou E., & Symeonidou S., The wonderful world of children's books? Negotiating

diversity through children's literature. International Journal of Inclusive Education, 20:6, 2016. 588-603, DOI: 10.1080/13603116.2015.1102338)

6. Wopperer, E. Inclusive Literature in the Library and the Classroom. ProQuest. 2011. Web sahifa: <https://www.proquest.com/openview/ed3ba48e0015fcfab37ede97df987c96/1>.
7. Lynch E., The Benefits of Using Inclusive Literature in Kindergarten through Fifth Grade Classrooms, Guidelines for Selecting Inclusive Texts, and Resources to Help Teachers, Librarians, and Community Members use Inclusive Children’s Books, Bowling Green State University, Honors Projects, 2022.

INKLYUZIV TA’LIMNI JORIY ETISH OLDIDA TURGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi

Pedagogika fakulteti ish yurituvchisi

baxromovaguljamol97@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157221>

***Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimini joriy etishning zarurati, mazkur tizimni joriy etish oldida turgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, integratsiya, boshlang‘ich tayanch korreksion sinf, ta’lim, induvidial xususiyatlar, ijtimoiy xulq.*

***Аннотация.** В статье изложена необходимость внедрения системы инклюзивного образования в нашей стране, проблемы, стоящие перед внедрением этой системы, и пути их преодоления.*

***Ключевые слова:** инклюзивное образование, интеграция, первичный базовый коррекционный класс, воспитание, индивидуальные особенности, социальное поведение.*

***Abstract.** The article describes the need to introduce an inclusive education system in our country, the problems facing the implementation of this system and ways to eliminate them.*

***Keywords:** inclusive education, integration, primary base correction class, education, induvidial characteristics, social behavior.*

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’limiga e’tibor so‘nggi yillarda eng dolzarb masala sifatida diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch-korreksion sinflar faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim muassasalarimizda sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikdagi ta’lim tizimining joriy etilishi yurtimizda xalqaro inson huquqlari me’yorlariga mos islohotlar amalga oshirilayotganining dalilidir.

Inklyuziv o‘qitish masalasi butun Jahon hamjamiyatida tan olingan va xayrixoxlik bilan amalga oshirilishi ta’lim siyosatining eng asosiy yo‘nalishidir. Yangi taxrirdagi Konstitutsiyamizning 50-moddasida: “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi” deb belgilab qo‘yilganligi mamlakatimizda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim jarayoni tashkil etilganligining qonuniy dalilidir. [1]

“Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorda malakatimiz ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni joriy etishning me’yoriy-huquqiy asoslari, joriy etish tartibi, me’zonlari belgilangan. [2] Unga ko‘ra, o‘quvchilarning bino ichida harakatlanishi va ta’lim olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda inklyuziv va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar tashkil etiladi. Qarorda inklyuziv ta’lim sinfi hamda boshlang‘ich tayanch korreksion sinf atamallari quyidagicha ta’rif berilgan:

-inklyuziv ta’lim sinfi maktabdagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning boshqa (sog’lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta’lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf.

-boshlang’ich tayanch korreksion sinfi – maktabda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun alohida tashkil etilgan boshlang’ich sinf.

O’quvchilarni mazkur sinflarga qabul qilish hududiy xalq ta’limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko’ra, ota-onalar yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Inklyuziv va boshlang’ich tayanch-korreksion sinflarga faqat bir xil tashxisdagi o’quvchilar qabul qilinadi.

Ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni joriy etishning barcha uchun afzallik tomonlari ko’p. Inklyuziv ta’limga jalb etilganda alohida yordamga muhtoj bo’lgan o’quvchilar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o’ziga-o’zi xizmat ko’rsatish malakalarini yaratadilar;
- ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o’quv materiallarini o’zlashtiradilar;
- tengqurlari bilan turli o’yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
- jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o’yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtni kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo’lishlari mumkin;

- do’stona muhitda do’st orttiradilar;

- turli ko’ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar.

Inklyuziv ta’limga jalb etilganda boshqa (sog’lom) o’quvchilar:

- do’stona muhitni yaratadilar;

- maxsus ehtiyojli bolalarga g’amho’rlik qiladilar, ularni turli o’yinlarga jalb qiladilar;

- sinf tadbirlarida ishtirok etadilar;

- tozalik va ozodalikni ta’minlaydilar;

- jamoa oldida ma’suliyat hissini rivojlantiradilar;

- didaktik va o’yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar.

Ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni joriy etish jarayonida hal etilishi kerak bo’lgan ko’plab muammolar ham mavjud.

- Pedagog xodimlarning ruhiy va jismoniy kamchiliklarga ega bolalarning individual xususiyatlari haqida to’la ma’lumotga ega bo’lmaganliklari;

- o’quv ish rejalarini, qolaversa, ta’lim-tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil qilish masalalari;

- imkoniyati cheklangan bolalarning yot muhitga moslashuv va guruhdagi o’zaro munosabatlar;

- ota-onalarning inklyuziv ta’limga munosabati;

- ota-onalar uchun nogiron bolalarni o’qitish tizimi, inklyuziv ta’lim tizimi haqidagi o’quv qo’llanmalarining yo’qligi;

- maxsus ehtiyojli bolalarni uyda o’qitish uchun mutaxassislarning mablag’ bilan ta’minlash tizimining joylarda talab darajasida yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi;

- nogiron bolalar oilasi bilan maktabning uzviy aloqasi yo’qligi;

- nogiron bolalarni maktabga kelishi uchun transport bilan ta’minlash masalalari;

- chekka qishloqlardagi tashxisning yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi;


- nogironlar aravachalari, qo’ltiq hassalar, eshituv apparatlari, ko’zoynaklar, travmatologik poyafzallarning yetishmasligi;

- davlat tomonidan kasb-hunarga yo’naltirish, ish bilan ta’minlash, muammolari to’laqonli hal qilinmaganligi;

- nogiron bolalarga qarovchi ota-onalar uchun nafaqaning yo‘qligi;
- tevarak-atrof muhitini nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabati;
- nogiron bolalar bilan ishlash mahallalarda yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi va nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati yetarli emasligi;
- nogiron bolalarning ota-onalaridagi huquqiy bilimining yetarli emasligi va davlat tomonidan belgilangan imtiyozlarni bilmasligi;
- ta’lim muassasalari uchun kadrlarning yetarli emasligi;
- inshootlarning maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi;
- malaka oshirish tizimida umumta’lim pedagoglarini maxsus ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qayta tayyorlash ishlari talab darajasida emasligi.

Inklyuziv ta’limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o‘rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, barcha maktablar eshigiga o‘quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko‘tarila olmaydilar, hatto qo‘ltiqta yozilgan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog‘lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o‘tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o‘rindiqlar hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo‘lishi kerak. O‘qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo‘lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish yetarli bo‘lmaydi. Bunda o‘quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o‘rganishlari kerak. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og‘zaki informatsiyani olishlari kerak. O‘quv rejasini bunday differensiyalash o‘qituvchilarda o‘z ishlariga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab ma’muriyati buning uchun o‘qituvchilarga imkon yaratib berishi kerak. Bunday ijodiy yondashuv o‘quv rejasiga qattiq talab qo‘yilgan joylarda birmuncha qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. [3]

Inklyuziv ta’lim tizimini samarali tashkil etish, barcha imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni umumta’lim tizimiga qamrab olish hamda ijobiy natijalarga erishish uchun mavjud muammolari ularni bartaraf etish yo‘llarini izlab topish hamda amalga oshirish lozim. Buyuk Britaniya davlati “Bolalarni qutqaring” tashkiloti, uning boshqa mamlakatlardagi tashkilotlari inklyuziv ta’limdagi asosiy to‘siqlarni xalq ta’limi tizimi va maktablarga qo‘yadi. [4] Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qo‘yayotgan davlatimizda bunday to‘siqlarni o‘z-o‘zini boshqarishning milliy modeli bo‘lgan mahallalarda hal etish mumkin. E’tiborsizlik (1), yashirish (2), mablag‘ masalasi (3), sharoitga moslashmaslik (4), kambag‘allik (5), sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi (6), kamsitish (7), qaramlik (8), kutilmagan holatlar (9) kabi to‘siqlarni mahallalarda bemalol bartaraf etsa bo‘ladi, yoki bu muammolarni hal etishni quyidagi jadval asosida shunday tasdiqlash mumkin.



Finlyandiya Integratsiyalashgan bolalarga yordamlashish maktab tibbiy xizmati ishchilari va mahalliy o‘zini–o‘zi boshqarish organlarining ta’lim xizmati tomonidan ta’minlanadi. Birinchisi turli mutaxassis va terapevtlar (logopedlar, psixoterpevtlar, psiximotor terapevtlar) tomonidan amalga oshiriladigan yordam dasturi uchun javob beradi. Ikkinchisi integratsiyalashgan bolalar uchun ta’limning zarur sharoitlarini ta’minlashga mo‘ljallangan. Zarur bo‘lgan holda o‘quv dasturi bolaning imkoniyatlariga mos ravishda o‘zgartirilishi mumkin. Maxsus ta’limga o‘tkazilgan har bir o‘quvchi uchun unga zarur o‘quv jadvalini nazarda tutadigan individual reja tuziladi. O‘quv rejasi bola farovonligi uchun javobgar barcha jamoa tomonidan birgalikda tuziladi. Jamoaga o‘quvchining o‘zi, uning ota-onasi, u bilan ishlaydigan pedagog, mutaxassis va ekspertlar kiradi. O‘quvchi hamma vaqt yoki faqat ayrim darslarga kelib, asosiy guruhda o‘qishi mumkin. Maktab shtatida maxsus pedagoglar, ijtimoiy xodimlar va maslahatchilar mavjud – ularning bari o‘qituviga yordam ko‘rsatadi. Maxsus o‘qituvchi sinf o‘qituvchisi va uning yordamchisiga ko‘maklashish hamda maxsus guruh yoki yakka tartibdagi mashg‘ulotlarga o‘quvchi olish uchun asosiy guruhga kelishi mumkin. Dars o‘tkazish jarayonida zaruriyatga qarab boshqa mutaxassislar (logoped, LFK uslubshunosi) ham ishtirok etishlari mumkin, ammo, odatda ular davolashni individual asosda o‘tkazadilar. [5]

Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim muassasalarida o‘qitish ya’ni inklyuziv ta’lim uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratish lozim:

- nogironlikni erta tashxis qilish;
- umumta’lim muassasalari binolarida alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan barcha shart-sharoitlar (inshootlar)ni yaratish;
- korreksion yordamni amalga oshirishning markaziy tarmog‘ini ko‘paytirish;
- umumta’lim muassasalari va maxsus ta’lim muassasalari o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatish, ya’ni —birodarlashgan muassasalar faoliyatini yuzaga keltirish;
- ayrim nogiron bolalarni umumta’lim muassasalari sharoitida o‘qitishni tashkil etish maqsadida umumta’lim pedagoglari malakasini oshirish, qayta tayyorlash kurslaridan o‘tkazish va ularni maxsus yordamchi vositalar, o‘quv-metodik adabiyotlar, uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlash, shuningdek maktabda turli dasturlar yordamida ta’limni tashkil etish;
- barcha bolalar uchun ta’lim sharoitini yaratish va ta’lim samaradorligini oshirish;
- MTMda turli xil nuqsonli bolalarning xarakter va individual xususiyatlari, rivojlanishi haqida seminarlar, pedagogik kengashlar, davra suhbatlari o‘tkazish, mutaxassislar tayyorlash;
- o‘quv ish rejalarini tashkillashtirishda bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularga alohida yondashuvli ish rejaları ishlab chiqish;
- imkoniyati cheklangan bolalarning oilasi va MTM o‘rtasida uzviy hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish;
- ota-onalarga inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyatini tushuntirish;
- imkoniyati cheklangan bolalarga qulay shart-sharoit yaratish, fazilatlarga yo‘g‘rilgan munosabatni rivojlantirish;
- sinf o‘qituvchisiga maslahat va yordam berish;
- zaruriy o‘quv qo‘llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta’minlash;
- ota-onalar, ko‘ngillilar yoki katta o‘qituvchilar tomonidan zarur bo‘lgan yordamlarni ta’minlash;
- o‘quv reja, dars jadvali, baholash mezonlariga moslashtirish va o‘zgarishlarga ko‘niktirish masalalarini shakllantirish;

- o‘qituvchilar ko‘nikma va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratish;
- faol qo‘llab-quvvatlovchi rahbar va shu kabilarni o‘z ichiga olgan ijobiy maktab muhitini tashkil etish va ta’lim jarayonida do‘stona munosabatni shakllantirish;
- bolalarni aniqlash va baholashda ma’muriyatga yordam ko‘rsatish;
- ijtimoiy, psixologik va sog‘liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirish;
- inklyuziv ta’limni qo‘llovchi moliyaviy man‘ba mexanizmini aniqlash, uni qonuniy jihatdan himoyalash; [6]
- alohida yordamga muhtoj bolalar bilan aloqador turli tashkilotlar, bo‘limlarni birgalikda faoliyat ko‘rsatishini, markaziy muvofiqlashtirish;
 - davlatlararo keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish;
 - imkoniyati cheklangan bolalar uzluksiz inklyuziv ta’limini takomillashtirish;
 - metodik majmualar (dastur, darslik, o‘kuv reja metodik qo‘llanma; va tavsiyalar) yaratish;
 - yangi tahrirdagi DTSlarini maxsus ta’limga moslashtirish;
 - imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim maktablarida ta’lim olishlarini nuqson turiga ko‘ra (ko‘rish, eshitish, aqliy va nutqiy rivojlanishini) e’tiborga olgan holda individual rivojlantiruvchi variativ o‘quv reja -dasturlarini ishlab chiqish;
 - respublikadagi imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatishning markalashtirilgan bazasini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida yaratish;
 - inklyuziv ta’limni amaliyotga tatbiq etishda moliyaviy ta’minot va xususiy manba’lardan foydalanishni kengaytirish;
 - inklyuziv maktab uchun kerakli moddiy-texnik ba’zani o‘rganish bo‘yicha takliflar kiritish;
 - zarur bo‘lgan yordamchi texnik vositalar bilan ta’minlash masalalarini davlat, davlatdan tashqari byudjetlar (xorijiy investitsiyalar, grantlari) asosida amalga oshirish;
 - umumta’lim, maxsusta’lim pedagoglarini hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishini amalga oshirish va imkoniyati cheklangan hamda soglom tengdoshlari orasida do‘stona munosabatni shakllantirish.

Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o‘ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Har qanday jamiyatda har bir bola noyob, maxsus ehtiyojli bolalar esa boshqa bolalar singari huquq, ehtiyoj va intilishlarga ega degan dalilni idrok etish zarurati mavjuddir. Ushbu bilimlarni chuqurlashtirish bu imkoniyati cheklangan ish olib borish bola, oila, hamjamiyat darajasida hamma uchun muhimdir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-4860.

3. Shomahmudova R.Sh. Inklyuziv ta’lim (Xalqaro va O‘zbekistondagi tajribalar). Toshkent-2011.
4. Fayziyeva U., Nazarova D., Kolbayeva X. J. Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limi. O‘XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef. XBJ.T.,2005
5. X.N.Muzaffarova, D.Tangirova “Inklyuzv ta’lim” fani bo‘yicha o‘quv metodik qo‘llanma . Jizzax davlat pedagogika instituti. 2011 y.
6. “Inklyuziv ta’lim” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti. Toshkent -2014.

**MUTAXASSISLIK FANLARNI O‘QITISHDA
INNOVATSION TA’LIM
TEKNOLOGIYALARI**

**INNOVATIVE EDUCATIONAL
TECHNOLOGIES IN SPECIALIZED
SUBJECT TEACHING**

**ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ
ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ
ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ**

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARI KASBINI TAKOMILLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN MALAKAVIY TALABLAR

Panjiyev Qurbonniyoz Berdiyevich

Xalqaro Nordik universiteti Musiqa ta’limi kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori (DCs),
professor v.b., Turon Fanlari akademiyasi akademigi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157360>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari kasbini takomillashtirishga qo‘yiladigan malakaviy talablarini belgilashda ularni kasbiy ijrochilik, musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlaridagi faolliklari, bu borada o‘zbek xalq musiqa ijodining imkoniyatlari, O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta’lim islohotlari samaradorligi, yoshlarni musiqa kasbini egallashlaridagi malakaviy talabalar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** musiqa, ta’lim, pedagogika, malaka, talablar, kasbiy ijrochilik, musiqiy-nazariy bilimlar, islohot, o‘qitish, tizim, kuy, qo‘shiq.*

***Аннотация.** В данной статье изложены квалификационные требования к освоению молодёжью профессии учителя музыки, виды деятельности в процессе приобретения данной профессии будущими учителями музыки, в усвоении ими навыков профессионального исполнительства, музыкально-теоретических знаний, рассматриваются возможности узбекского народного музыкального творчества, а также отмечается эффективность образовательных реформ Республики Узбекистан.*

***Ключевые слова:** музыка, образование, педагогика, навык, квалификационные требования, профессиональное исполнительство, музыкально-теоретические знания, реформа, обучение, система, мелодия, песня.*

***Abstract.** This article expounds the qualification requirements for young people to master the profession of a music teacher, the types of activities in the process of acquiring this profession by future music teachers, in their acquisition of professional performance skills, musical theoretical knowledge, the possibilities of Uzbek folk musical creativity are considered, and the effectiveness of the educational reforms of the Republic Uzbekistan is noted too.*

***Keywords:** music, education, pedagogy, skill, qualification requirements, professional performance, musical theoretical knowledge, reform, training, system, melody, song.*

Kirish. Musiqa ta’limi – inson musiqiy bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo‘lib, individual ruhiy rivojlanishni va musiqiy bilimlarni o‘zlashtirishni o‘z ishiga oldi [5]. Musiqa ta’limi jarayoni bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining yuqori tayyorgarlikka ega bo‘lgan professor-o‘qituvchi rahbarligida orttiriladigan bilim, ko‘nikma va malakaviy kompetentsiyalarni egallashiga, ularni kasbiy (ijodiy) iste’dodlarini namoyon etishga xizmat qilish bilan bir qatorda, fikrlash va ijodiy faoliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi, o‘zbek xalq qo‘shiqlarini mazmun-mohiyatini oshishga e’tibor qaratishi lozimligini ko‘rsatadi.

Musiqa ta’lim mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o‘tishi asosida to‘plagan boy tajribalari natijasida, uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari shu faoliyatdan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya’ni, modullik tizimga asoslangan o‘qitish metodikasi va texnologiyalarini o‘zida takomillashtirib bormoqda, musiqa ta’limi sohasida ham so‘ngi yillarda musiqani o‘qitish faoliyat turlarini takomillashtirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratildi. O‘zbekiston ijtimoiy hayotida, jumladan oliy ta’limi tizimida XXI asrning ikkinchi o‘n

yilligida katta o‘zgarishlar yuz berdi [1]. Respublikada musiqa ta’limi tizimi bilan bir qatorda pedagogika sohasining bakalvriat ta’lim tizimida vokal xonandaligi, sholg‘u ijroshiligi kabi yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda 2020-2021 o‘quv yilidan pedagogika institutlari oshildi. Ko‘pgina nodavlat oliy ta’lim muassasalarida musiqa o‘qituvchisi kasbini beruvchi kadrdar tayyorlash yo‘lga qo‘ilib, uchbu tizimni takomillashtirish bo‘yicha samarali ishlar yo‘l qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimsha shora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori ijrosi yuzasidan soha vakillari, tajribali professor-o‘qituvchilar, metodistlar tomonidan “Maktabgasha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida musiqa ta’limining uzviyligini ta’minlash kontseptsiyasi” tayorlandi. Uchbu kontseptsiya o‘z mazmun mohiyatidan kelib shiqqan holda har bir ta’lim sohasi, fanlar bo‘yicha davlat ta’lim standarti, malaka talabalari, dasturlarni ishlab shiqishda yo‘l ko‘rsatuvchi, strategik uzviy hujjat hisoblandi. Unga binoan musiqa fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi “Uzluksiz ta’lim dasturlari” majmuasini tayyorlashning maqsad va vazifalari belgilandi [3]. Shuningdek, o‘quv va fan dasturlarini takomillashtirish jarayonida xalqaro tajribalar jumladan, Angliya, Bolgariya, Rossiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Finlyandiya tajribasi o‘rganildi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturlarini tahlil qilishda YuNISEF ko‘magida Singapur, Koreya, Yaponiya, Gonkong dasturlari, Prezident maktablari bilan Kembridj tajribasi, shuningdek, ko‘pgina oliy ta’lim muassasalarida Finlandiya ta’lim texnologiyasi o‘quv dasturlari o‘rganildi va amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Asosiy qism. Professional ta’lim dasturlari YuNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagishi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashgan holda tasdiqlandi. U hujjat bilan 8 ta malaka darajasiga mos ravishda “Bilimlar”, “Mahorat va ko‘nikma”, “Kompetentsiyalar”, “Malakaning mos darajasiga erishish yo‘llari” belgilandi.

Bunda asosiy maqsad bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini musiqiy qobiliyatini shakllantirish, o‘stirish, rivojlantirish va ruhan, ma’naviy va ma’rifiy xislatlarini tarbiyalash uchun, kelajakda malakali mutaxassis kadr sifatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetentsiyalar bilan maqsadli va belgilangan tizim asosida qurollantirishga xizmat qildi.

O‘zbek qo‘shiqchilari vositasida ta’lim berish, yoshlarga musiqa bilim berish, ularda ko‘nikma malaka va pedagogik kasbiy kompetentsiyalarni hosil qilish, yangi ijodiy qobiliyatlarini oshishga, o‘z ustida muntazam ishlashga undashga qodir bo‘lgan ijodiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalaydigan kuchli vositadir.

Musiqa ta’limi bakalvriat ta’lim yo‘nalishining kasbiy faoliyat turlari - pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy, tashkiliy boshqaruv, ishlab shiqarish etib belgilandi. Ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi bloklar, fanlarga ajratilgan umumiy soat foizlar tahlil qilindi. Unga ko‘ra, o‘quv rejada keltirilgan fanlar aynan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qilish lozimligini ko‘rsatdi. 2020-2021 o‘quv yili uchun ishlab shiqilgan o‘quv rejada keltirilgan fanlar aynan o‘zbek milliy xususiyatidan kulib shiqqan holda qayta ishlab shiqish lozimligini ko‘rsatdi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga ahamiyat berilar ekan, shu o‘rinda “XXI asr vabosi” deb nom olgan va butun dunyoga katta havf solib turgan “ommaviy madaniyat” o‘zining “girdobi”ga asosan millati, madaniyati, urf-odati, san’ati, milliy estetik tarbiyasidan yiroqroqda bo‘lgan tajribasiz, o‘quvsiz shuningdek, milliy qadriyatlardan uzoqroqda bo‘lgan yoshlarni tortib borayotganligini ham unutmashimiz lozim. Dunyoning

shiddat bilan rivojlanib, axborot uzatish jadallashi, uyali telefon orqali internet tarmoqlariga ulanish, yaroqsiz va keraksiz ma’lumotlarni olish va jo‘natish o‘ziga kelayotgan yoshlarning ongiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmayapti.

Bugungi zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi jarayonida yoshlarni “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlit qilib borishi, ta’lim va tarbiya masalasiga har qashongidan ham jiddiyroq e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Ustida shet el bayroqlari yoki turli yarim-yalong‘osh qizlar sura’ti tuchirilgan kiyimlarni kiyib, qulog‘ida nauchnik taqib, shovqinli tovuchlardan iborat bo‘lgan ritmlarni “kuy-ohang” sifatida qabul qilayotgan yoshlarimizni ko‘rib, ko‘rmaslikka olish nohaqlikdir. Bunday yengil, shovqinli ritmik tovuchlar yoshlar ongi va tafakkurini sayozlashtirib, kishik qolibga solib qo‘yadi. Bu esa ertaga ularni xalqimiz madaniyati va ma’naviyatiga xos bo‘lmagan turli oqimlar ta’siriga oson tuchib qolishiga olib keldi [12]. Xuddi ana shu salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini o‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti vositasida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish borasida aynan ta’lim-tarbiya jarayonida milliy musiqaga alohida e’tibor qaratishi lozimligini ko‘rastadi. Shunki milliy musiqa san’atining mazmunan rang-barangligi, alla, yor-yor, o‘lan, qo‘shiq, terma, yalla, terma, lapar, katta ashula, maqom va boshqa qaysi bir janr bo‘lmasin, u o‘zining dilbar ohangi, sho‘x usullari nola-yu, serjilo qoshirmalari bilan o‘zbek millatining tabiatini, o‘zgaga o‘xshamas udum va urf-odatlarini musiqiy ohanglar orqali tarannum etadi va har bir o‘quvchi yosh uni tuchunadi, his hayajon bilan idrok etish va undan qalb to‘la zavq-shavq olishi tabiiy holdir [5].

Ta’lim tizimida talaba yoshlarni o‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodi asosida tarbiyalashda ta’lim va tarbiyaning birligiga erishish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuni alohida nazarda tutmoq lozimki, bu tarbiyaning muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlar ta’limoti orqali amalga oshirib borishi mumkin. Ular quyidagilardir:

- dastur asosida tashkil etiladigan har bir o‘zbek xalq musiqa ijodi nuqtai nazardan aniq maqsadga qaratilganligini ta’minlash;

- dars uchun musiqiy materiallarni, o‘rgatish metodlarini, uslub va vositalarni to‘g‘ri tanlay olish;

- o‘qituvchi tomonidan har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlarini, musiqiy qobiliyatlarini, ijro va idrok imkoniyatlarini hisobga olishi;

- talabalarda kasbiy musiqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan mantiqiy, maqsadga muvofiqlik uzluksizlikning ta’minlangan bo‘lishligi;

- musiqiy estetik tarbiya jarayonida o‘qituvchi tomonidan talabalarning hissiy, ijodiy va ahloqiy faoliyatlarining mutanosibli ta’minlangan bo‘lishligi ko‘zlangan maqsad sari yetaklaydi.

O‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti tarbiyasida ta’lim bilan tarbiyani muchtarak bo‘lishligi ta’limning ilmiy ongli, ko‘rgazmali, tuchunarli, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkam bo‘lishi kabi tamoyillarga jiddiy amal qilgan holda olib borilishiga erishish lozim [6]. Shuning uchun ham musiqiy fanlarni o‘qitishda o‘qituvchi o‘z oldiga talabalarni musiqiy estetik madaniyatlarini takomillashtirishni maqsad qilib qo‘ysa, u holda quyidagi asosiy ko‘rsatkishlar provard natijaga erishiniladi:

- talabalarda o‘zbek milliy qo‘shiqchilik ijodiyotiga nisbatan qiziqish va havas tobora orta boradi;

- darsdan tashqari musiqa mashg‘ulotlari jarayonida talabalarning ijodiy faolligini va tashabbusi orta borishida o‘zbek xalq qo‘shiqlari va uning mazmun mohyatini tuchunadi;

- o‘zbek xalq qo‘shiqlari o‘zining xuchohang, she‘r mazmunini oshib berishda musiqani hamohangligi, asarlardan xuchsozlik, xuchovozlik va undan go‘zallikni anglay olishni, unga o‘z munosabatini bildira olish malakalarini shakllantirib boradi;

- musiqiy estetik faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim ko‘nikma va tajribalarni o‘zlashtirgan bo‘ladi;

- talabalarda o‘zbek xalq musiqa san‘ati ta‘sirida avvalam bor milliy o‘zlikni anglash, millat va milliy mentalitetga xos bo‘lish, insoniy go‘zallikka intilish, rostgo‘ylik, do‘stlikni qadrlash kabi axloqiy estetik tuchunshalarni tarkib topadi. Auditoriya mashg‘ulotlarida o‘zini tuta bilishi, muommala, kiyinish kabi estetik madaniyatning bir qator sifatleri takomillashadi.

O‘zbek milliy qo‘shiqchilik san‘ati hamda uni o‘qitish, ta‘limiy va tarbiyaviy jihatlari haqida gap ketar ekan talaba-yoshlarda eng avvalo sog‘lom didni shakllantirib borish e‘tiborda bo‘lishi kerak [7].

Yuksak badiiy didni tarbiyalashda san‘atning hamma turlari muhim va ularning har biri o‘z xususiyati va imkoniyatiga ega. Mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalari pedagogika sohasi musiqa ta‘limida kasbiy musiqiy tarbiyani amalga oshirish, talabalarda yuksak pedagogik badiiy didni tarbiyalash uchun zaruriy zamin hozirlab berishni, yoshlarga san‘at asarlarining estetik mohiyatini singdirishni muhim tarmog‘idir. Shu munosabat bilan oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchisida kasbiy-pedagogik musiqa tarbiyani amalga oshirishda ularning musiqiy ma‘lumotlariga alohida e‘tibor berish, ularni dastur talablariga muvofiq aynan kasbiy faoliyatlarida zarur bo‘lgan bilim bilan qurollantirish, o‘zbek musiqa san‘ati haqida bilim – ma‘lumotlarni shuqur, puxta o‘zlashtirishga erishish eng muhim vazifalardandir. Talabalarda kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan malaka talablarini amalga oshirishda ta‘lim tizimining butun hayoti barobar qatnashsada, biroq, aynan musiqiy-nazariy mashg‘ulotlarining alohida ahamiyati bor. Ya‘ni bu jarayonda o‘zbek xalq qo‘shiqlari ta‘sirshan vositadir. Bu borada eng ma‘suliyatli vazifa musiqa o‘qituvchilariga topshiriladi. Talaba yoshlarning har bir o‘rganilayotgan asarni diqqat va e‘tibor bilan tinglashiga, uning ifoda vositalari va mazmunini to‘la idrok etishiga o‘rgatishi zarurki, bu shunshalik odat tusiga kirib boradi va badiiy didni o‘stirishda muhim rol o‘naydi. Bundan tashqari talaba darsni badiiy did tarbiyasining quyidagi asosiy vositalaridan foydalangan holda olib borishi kerak. Jumladan:

qiziqarli repertuar tanlashda asarning nota matni bo‘lishi; o‘zida ijroshilik malakalarini puxta o‘zlashtirish va tarbiyalashda musiqiy sholg‘ular bilan ta‘minlanishi; xonandalik malakalarini o‘stirib borishda ovoz bilan ishlashda jihozlangan auditoriya; musiqa tinglash va tahlil qila bilishda ovoz eshitiish uskunalari; musiqa sholg‘ularida ijroshilik mahoratini doimiy ravishda mustahkamalab borishda musiqiy sholg‘ular mavjudligi [11].

Musiqaning hayotimizda tutgan o‘rni beqiyos. U ona allasi bilan mehr-muhabbat, ezgulik, muruvvat tuyg‘ulari qalbimizga joylaydi [2]. Ayniqsa, milliy qadriyatlarimiz bo‘lgan raqs, folklor, xalq qo‘shiqchilik san‘atida ma‘naviy me‘rosni asrab-avaylab kelishda o‘ziga xos omilar mavjud. Xalqimizning ma‘naviy kamolotida barsha san‘atlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Jumladan, qo‘shiqchilik san‘ati ham bu borada alohida ahamiyat kasb etishi va uning bu boradagi o‘rni bor. Negaki, qo‘shiqni har kuni televidenie, radio to‘lqinlari, ko‘sha-kuyda, bozorlarda, hatto avtotransport vositalarida ham eshitamiz. Quloqqa yoqadimi-yo‘qmi eshitish (tinglash)ga majburiy. Yoshi ulug‘lar ham bu holatga ko‘nikib bo‘lishdi. Shuning uchun bugun qaerga bormaylik, kim bilan suhbatlashmaylik, gap aylanib o‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyotiga xos bo‘lmagan ijroshilarga kelib taqaladi. Haqiqatan, yangi-yangi ovozlari ko‘payib boryapti, biroq,

ular ayrim holarda nimani kuylayotganligi yoki bunday aytimlar orqali nima demoqshi ekanligini o‘zlari ham ba’zi hollarda tuchunmay qolayotganligi, endi o‘z kelayotan uzluksiz ta’lim tizimi yoshlarining ongi va shuuririga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi tashvishli hol.

Mamlakatimizda iste’dodli yoshlarning emin-erkin ijod qilishi uchun barsha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, “O‘zbekiston - Vatanim manim”, “Yagonasan, muqaddas Vatan”, “Nihol”, “Yangi avlod”, “Yangi nomlar”, “Kelajak ovozi” [2] kabi ko‘rik-tanlovlar va nodavlat oliy ta’lim muassasalarida musiqa o‘qituvchisi kasbini beradigan Respublika iqtisodiyot tarmoq sohalari uchun kadrlar tayyorlanishi, uchba talabalarning dunyo mamlakatlari orasida festivallar iste’dodlarning yuzaga shiqishida katta omil bo‘lyapti. Bu sohaga muayyan tayyorgarliksiz kirib kelayotgan xonandalar ham oz emas. Ana shunday “musiqiy ukuvi yo‘q”, “ruhiy tayyorgarligi past” xonandalar tufayli sayoz, tumtaroq matnli qo‘shiqlar ko‘payib bormoqda. Bu borada ommaviy axborot vositalari orqali tez-tez shiqishlar ham bo‘lyapti. Bugun qo‘shiq ijroshiligi san’ati va qo‘shiqchi xonandalar oldida talay vazifalar turibdi. ‘

Bu o‘rinda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish, o‘zida bilish qobiliyatlarini hamda fikrlash qobiliyatlari va harakatlarini hosil qilishda yo‘l ko‘rsta oladigan ijodiy faoliyat jarayoniga ehtiyoj zarurdir. Bu passiv jarayon emas, balki talabani ijodkorlikka, tabiat va jamiyatni tuchunishga undaydigan, kelajakda o‘z o‘rnini topishga xizmat qiladigan faol, ijodiy faoliyat va mehnat jarayonidir. Musiqa ta’limi yo‘nalishida ta’lim oluvshi bilmaslikdan bilishgasha, noto‘g‘ri va noaniq bilishdan tobora to‘liqroq va aniqroq, shuqurroq bilishgasha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi. Bu degani u o‘z ustida ijroshilik mahoratini oshirib, uni tobora takomillashtitib boradigan uzluksiz faoliyat turidir.

Ijodiy faoliyatni tashkil qilishda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining vazifasi o‘zbek xalq qo‘shiqlari ustida muntazam va mustaqil ishlashini qo‘llab quvvatlashidir. SHuning uchun ham talabalarning ishki kuchlarini uyg‘otuvshi va unga qoniqish olib keladigan beixtiyoriy, ijodiy musiqa ijroshiligini tashkil qilish o‘ta muhimdir. Aynan mustaqil ta’limni, fikrlashni tarbiyalash, musiqa ta’limining ijodiy vazifalarning asosiy maqsadidir. Bu maqsad to‘la - to‘qis amalga oshirish mumkin, lekin buning uchun o‘quv faoliyati faollashadigan, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini fikrlashga undaydigan, ularda ijodiy muhitni yaratadigan, o‘z ustida muntazam ishlaydigan, agarda talaba xonandalik mahorati kuchli bo‘lsa, ko‘proq sholg‘u bilan (albatta yoshiga mos) kuylashi, agar sholg‘u ijroshiligida moyillik kuchli bo‘lsa, shalib kuylash bo‘yicha ko‘proq ustida mashq qilishi lozim bo‘ladi. Bunda talaba tomonidan ijro repertuari asosida musiqa asarini bosqishma bosqish o‘rgatib borishi va mustaqil uyda muntazam shug‘ullanib, uchbu asarni taktma takt va ritmik ijrosini o‘rgatib borish lozim bo‘ladi.

Musiqiy ma’lumotlarni o‘zlashtirishga qaratilgan barsha amaliy ish shakllarining o‘zida ularni ijodiy yo‘lga yo‘naltirish imkonini beradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari o‘quvchi yoshlar bilan ishlash jarayonida o‘zlarini bor mahoratlarini ularga namoyish etishlari lozim. O‘z faoliyatlarida o‘zbek xalq qo‘shiqlarini kasbiy tayyorgarligida qanday qo‘llash kerak va uni qanday ijro etish kerakligini o‘zlarining mahoratlarida ko‘rtarishlari shart. Ijod qilish istagi va ijod qilishga bo‘lgan ishtiyoqni singdirish talabaning kelgusi faoliyatining xohlagan sohasiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 3-modda asosiy tuchunshalar mazmunida ta’lim bilan tarbiyani birgalikda olib borish masalasi asosiy vazifa qilib belgilangan[1]. Bugungi kunda davr va zamoni shiddat bilan rivojlanishi musiqa ta’limi tizimini

tubdan takomillashtirish, yuqori ijroshilik mahoratiga ega bo‘lgan iste’dodli malakali kadrlarni tayyorlash masalasidir.

Musiq ta’lim yo‘nalishi talabalarida musiqiy-nazariy fanlarni o‘qitish jarayonida ta’lim va tarbiyani bevosita bir-biri bilan bog‘lab olib borishi kerak. Bu ishda o‘zbek xalq qo‘shiqlarining imkoniyatlari benihoya kattadir. Musiqa inson ruhi va aqliy rivojiga o‘zining ta’sirini o‘tkazadi va uning estetik hissiyotini faollashtiradi.

Ijodiy faollik talabalar tafakkurining o‘rishga, xotiraning rivojlanishiga, musiqani ongli idrok etishga yordam beradi. Bunda talabalarning yoshi va imkoniyatlariga mos keladigan repertuar tanlash, ularning ijodiy faolligini oshirish zaruriy shartidir. Repertuar tanlashda o‘zbek xalq qo‘shiqlarining mazmunan boy, rang-barang, ko‘rinishlarini talabalarning yoshi va idrokiga mos, qolaversa, tarbiyaviy qimmatga ega bo‘lishi kerak.

Musiqiy-nazariy fanlari dars mashg‘ulotlarining samarali bo‘lishi guruhda o‘quvchilarni ijodiy faolligini oshirishga ham bevosita bog‘liq. Talabalarning ijodiy faolligini oshirish ularning so‘z mahoratiga, muloqat qilish san’atiga ega bo‘lishni taqozo etadi. O‘zlashtirilayotgan dars mashg‘uloti qiziqarli hikoya va suhbat bilan diqqatini asar mazmuniga, musiqiy obrazlarga jalb etadi. Kompozitor va bastakorlarning ijodiy biografiyasiga oid hikoyabop qiziqarli voqea va lavhalardan parshalar keltirishi bilan bir qatorda, biron bir asarning yaratilishi tarixini bayon qilishi, orqali talabalarning bilish qobiliyatini o‘stirishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasini yangi ma’lumotlar bilan boyitadi [12].

Oliy ta’lim muassasalari pedagogika sohasi musiqa ta’lim yo‘nalishlarida auditoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish samaradorligini oshirishda eng qulay vositalarni izlab topish, innovatsiyalar kiritishga harakat qilish tavsiya etiladi. Kasbiy-pedagogik ishlarni tashkil etishda asosiy e’tibor talaba shaxsining kasbiy tayyorgarligiga qaratilishi lozim. Bunda yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribalardan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Talabalarni kasbiy jihatdan tarbiyalash jarayonida xalq pedagogikasi asoslariga tayanish, sharq mutaffakirlarining dono fikr-mulohazalaridan, shuningdek, jahon umuminsoniy qadriyatlaridan foydalanish lozim[6]. Auditoriya mashg‘ulotlari jarayonida musiqiy-nazariy bilimlar mazmunini birinchi navbatda tizimli va majmualiy tatbiq etishga ko‘ra uch vazifa birligi “ilmiy, rivojlanib borish”, “psixologik va pedagogik jarayonlar muchtarakligi, ta’lim jarayonida va jamiyat talabalarini e’tiborga olish”, “yangisha bilimlarga amal qilish” kabi bir qator qoidalar asosida tarkib topishini ko‘rsatdi. Ular asosida talaba shaxsiyatiga nisbatan yo‘nalish belgilaniladi. Bu maqsadlarga erishish uchun talabalar bilan aynan o‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida o‘zlarining kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirib borishlari lozim.

Buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy qadriyatlari, ming-ming yilliklarni qamragan betakror va jozibali madaniyatiga asoslangan ma’naviy merosimizni qayta tiklash, asl holatini saqlash va uni kelajak avlodga yetkazish maqsadida mamlakatimizda ulkan ishlarni amalga oshirilib kelinmoqda. Qolaversa, jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishning yana bir muhim asosi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka erishish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon jamiyat qurish yo‘lida yoshlarga bo‘lgan e’tibori naqadar yuksakligidan dalolat beradi.

Inson shaxsini, uning yuksak ma’naviy fazilatlarini kamol tortirish, milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat va e’tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [8]. Bu o‘rinda milliy musiqa san’ati yosh avlod ma’naviyatini shakllantirish va

yuksallantirishda katta ijtimoiy tarbiyaviy, kasbiy-pedagogik kasb etuvshi dolzarb ilmiy va amaliy pedagogik muammo ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan o‘quvchi-yoshlarni ijodkorligini shakllantirish, ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, musiqa san‘at turlari bo‘yicha o‘z iqtidorlarini namoyish etish borasida tavsiya etilgan 5 ta tashabbusning “Yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilishni ta‘minlash shoralari”ni ko‘rish kabi qator vazifalar 1-Tashabbusda belgilab berildi.

Oliy ta‘lim muassasalari pedagogika sohasi musiqa ta‘limi yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ta‘limini tashkil etishda aynan musiqa san‘ati turlari bo‘yicha to‘garaklarni o‘rni katta ahamiyatga ega bo‘lib, dars mashg‘ulotlaridan tashqari ta‘lim – tarbiya ishlarini olib borishda uchbu vositalardan unumli foydalanish yaxshi natijalarni berdi. Musiqa san‘ati turlari bo‘yicha oliy ta‘lim tizimida tashkil etiladigan to‘garaklarning “Xor bo‘lib kuylash”, “Xalq sholg‘u asboblari to‘garagi”, “Vokal”, “An‘anaviy xonandalik”, “Estrada xonandaligi”, “Folklor jamoasi”, “Teatr” va “Raqs to‘garaklaridan keng foydalanishni tavsiya etiladi [11].

Qo‘shiqni kuyini o‘rgatish - birinchi bandning matni yodlangandan so‘ng, qo‘shiqning kuyini o‘rgatishga kirishish mumkin. Bu ish talabalarning ham o‘qituvchining ham diqqat e‘tiborini talab etadi. Kuyni o‘rgatish oldida uni biron musiqa asbobida shalib yoki qo‘shiqning birinchi bandini aytib talabalarga yaxshi eslatib o‘tish kerak. Natijada ular o‘rganilayotgan qo‘shiq to‘g‘risida ansha to‘la taassurot olishadi. Shubhasiz, talabalar oldiga qo‘shiqning notasi, sholg‘u asboblarda ijroshilik mahoratiga ega bo‘lgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari ijrosida ansambl bo‘lib kuylash biz kutgan natijani beradi va o‘zbek xalq qo‘shiqchilik vositasida ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Keyinshalik talabalar ijroni puxta o‘zlashtirish jarayonida mukammal musiqiy obrazni tarkib topganligini xis etadilar. Qo‘shiqning kuyini o‘rganib olishda muayyan izshillik mavjuddir. Odatda kuy musiqa tarkiblari bo‘yicha o‘rganib boriladi. Dastlab birinchi tarkib, so‘ngra ikkinshi, uchinshi va h.k. Tarkiblar tahlil qilinadi va o‘rgatiladi. O‘qituvchi ularning har birini ohangi bilan aytadi va ikki-uch marta shalib beradi, undan keyin o‘zi bilan birgalikda ma‘lum tarkibni ohangi bilan aytishni talabalardan talab qiladi. Odatda, talabalar dastlab qo‘shiqni dadil aytisha olmaydi, ammo bir nesh bor takrorlash tufayli tobora dadil aytadigan bo‘lishadi. Bordi-yu o‘rganilayotgan tarkib talabalarga yetarli darajada tuchunarli bo‘lmasa, uni yana bir marta shalib va aytib beradi. Bu o‘rinda me‘yorni bilish va xatto ma‘lum bir tarkib o‘zlashtirilmagan taqdirda ham, uni o‘rganish ustida uzoq to‘xtalib qolmaslik lozim. Shuni unutmashlik kerakki, bunday holda talabalarning diqqati zaiflashadi, shu sababdan ular sharshab, passivlashib qolishadi, bu esa ta‘lim natijasiga salbiy ta‘sir qiladi. Shuning uchun qo‘shiqni qiyin joyiga keyinroq yana qaytish ma‘qul.

Qo‘shiqning murakkab va nozik ovoz sakramalari bor joylarini sinshiklab o‘rgatish lozim. Bu paytdagi qiyinshiliklar odatlanilmagan intonatsiya (davra)lar bilan, qo‘shiq quyidagi sakrashlar bilan, alteratsiya kabilarning noqulayligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [5]. Bunday qiyinshiliklarni qunt va g‘ayrat bilan bartaraf qilish zarur, agar kuy tamomila to‘g‘ri o‘rganib olinmasa, xatolarini tuzatish nixoyatda qiyin bo‘ladi, ba‘zan esa ularni tuzatish mumkin bo‘lmaydi. Bu xolda, o‘qituvchi xatolarga yo‘l qo‘ymasligi uchun qo‘shiqni uyda takrorlamaslikni talabalarga uqtirib qo‘yadi. SHuningdek, kuyni ritmik tomondan murakkabligi tufayli, uni o‘rganish qiyinshiliklari yuz berishi mumkin. Kuyning talabalar idroki uchun murakkab bo‘lgan ritmik shaklini shapak shalib, qo‘shiq bo‘g‘inlarini ko‘rsatish yo‘li bilan osonlashtirish mumkin.

Qo‘shiqning ma’lum bir bo‘g‘ini kuylanayotgan joylari talabalarni dam-badam qiynab turadi. Bunday joylarni she‘r bilan kuylamay, balki “lya” singari neytral bo‘g‘inlar bilan kuylash foydali bo‘ladi; bunday kuylash idrok etishni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Tez tempda (sur‘atda) yozilgan qo‘shiqlarni faqat sekin tempda o‘rganish lozim, aks holda, intonatsiya va ritm aniqlashtirilmay qoladi, demak, qo‘shiq pala-partish ijro etilgan bo‘ladi. SHu sababli, kuyni yaxshi o‘zlashtir gandan keyingina tempni kompozitor tomonidan ko‘rsatilgan darajaga asta-sekin yaqinlashtirish mumkin. Bundan tashqari, tez templi qo‘shiqlarni o‘rgatishda ularning solalarini aniq talaffuz etilishiga erishish, qo‘shiq tamomila o‘rganib bulgunga qadar harakat qilish zarur. SHaxdam qo‘shiqlar o‘rganilganda shoshilish va xovliqish yaramaydi. Sekin aytiladigan qo‘shiq ustida shaqqonlik bilan ishlash zarur, aks holda talabalar xotirasida noaniq usullar qolib ketish oqibatida qo‘shiq o‘rganilishi yoki tashlab ketib qolish kabi salbiy xolatlarga uchrab qolish mumkin bo‘ladi.

Qo‘shiq o‘rgatish jarayonida har xil usuldan foydalanish zarur. Har bir guruhda xuchovoz, ba‘zan musiqaga juda qobiliyatli talabalar bo‘lishi tabiiydir. Ular qo‘shiq ohangini o‘rganishda o‘qituvchining yordamshilari bo‘ladilar. Guruhdagi parta qatorlari o‘rtasida musobaqa uyuchtirgandek bo‘lib, talabalarning qo‘shiq ohangini qanshalik bilishlarini tekshirib ko‘rish foydali bo‘ladi, bunday metod talabalarni faollashtirishga yordam qiladi va ijodiy ruxlantiradi. Dastlabki kurslardan boshlab, eng oddiy qo‘shiqlarni notaga qarab o‘rganishni tashkil etish zarur. Buning uchun o‘qituvchi oldindan katta vatmn qog‘ozda yoki dars boshlanishiga qadar guruh doskasida qo‘shiq yozuvini tayyorlab qo‘yadi. Solfedjio qila boshlash oldida talabalarning hammasi ayni bir vaqtda notalarni 2-3 marta o‘qib shiqadi, Shundan keyin ular kuyni bir nesh marta solfedjio qilishga so‘ngra uni solalari bilan aytishga urinib ko‘rishlari lozim. Oliy ta’lim muassasasida dastlabki kursdan boshlab darsda bir ovozlik qo‘shiqlardan tashqari, ikki ovozli qo‘shiqlar qiyinroq, uch ovozlik qo‘shiqlar o‘rganiladi. Bunday qo‘shiqlarni o‘rganishda har bir partiya bir ovozlik qo‘shiq o‘rganilganidek, sinshiklab o‘sha metod bilan o‘rganib shiqilmog‘i kerak. Bu yerda o‘qituvchi o‘zini hamisha nazorat qilib borishi va qandaydir bir xor partiyasining ishiga ortiq darajada berilib ketmasligi lozim. Aks holda, dars mashg‘ulotlari davrida tartibsizlik va shovqin kabi holatlarni kelib shiqish oqibatlarini oldini olish lozimbo‘ladi. Vaholanki, bunga xesh qanday sharoitda aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Goh bir partiya bilan, goh boshqa partiya bilan navbatma-navbatlash kerak. O‘qituvchi birinshi ovozdagi talabalarga boshlang‘ish tarkibni o‘rgatib bo‘lgash, shu tarkibni o‘zini ikkinshi ovozdagi talabalarga o‘rgatadi. Shundan keyin ikala partiyani albatta birlashtirib, asosiy diqqatni ikkinshi ovozlarga qaratish zarur.

Keyingi tarkiblarning hammasi xudi shu tarzda o‘rganiladi. So‘ngra ular, bir ovozlik qo‘shiqni o‘rganilgandagi kabi birlashtiriladi. Talabalarning qo‘shiq kuyi vatekstini yaxshi eslab qolishlari uchun bita dars yetarli emas. Shu sababdan, qo‘shiq muayyan vaqt davomida ko‘p takrorlanadi va asta-sekin o‘rganib olinadi. Bu jarayon mustaqil ta’lim bilan albatta mustahkamlanishi shart.

Auditoriyadan tashqari to‘garak darslarida qo‘shiqlarning badiiy ijrosi ustida ham Ijro etish detallari ustida ishlagandan so‘ng qo‘shiqni o‘rganishga o‘z vaqtida o‘ta bilish lozim, yuksak ashula hesh qashon yaxshi va qat‘iy ovoz bilan yangramaydi. O‘qituvchi badiiy obraz ustida ishlar ekan, turli ijroshilik usullarining zarurligini talabalarga yaqqol ko‘rsatib berishi va ana shu usullarini beixtiyor emas, balki ongli ravishda bajarishlariga intilishi kerak[10]. Qo‘shiq talabalarni zeriktira boshlasa, uning ustida olib borilayotgan ishni vaqtinsha to‘xtatish va repertuarda yangi qo‘shqlar paydo bo‘lganidan keyin, yana shu qo‘shiqqa qaytish ma’qul. O‘quv

yilining shoragi yoki yarim yili oxirida bir darsni ilgari o‘tilgan barsha qo‘shiq va ashulalarni takrorlashga bag‘ishlash mumkin, buning uchun kishik kontsert uyuchtiriladi, bunda talabalarning hammasi ayni bir vaqtda ham ijroshilar, ham eshituvshilar hisoblanadi. Auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari musiqiy ta‘lim va tarbiya shaklida talabalar umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi musiqa madaniyati dasrlari, musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, o‘quvchilar saroylari, bolalar teatrlariga o‘quv yoki malakaviy pedagogik amaliyotni o‘tash uchun safarbar etish musiqa to‘garaklarida o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamalashda zamin yaratadi.

Tarbiya - har tomonlama yetuk, o‘zida axloqiy poklik, ma’naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san’ati yetakshi o‘rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa san’atini inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma’naviy yetuk, milliy an’analarga sodiq va sadoqat ruhida “komil inson” etib tarbiyalashda shubhasiz oliy ta‘lim muassasalarining pedagogika sohasi musiqa ta‘limi ixtisosligi bo‘yicha tayyorlanayotgan kadrlarning roli bilan musiqa to‘garaklarini faoliyati shak-shubhasiz kattadir. Uchbu kadrlar asosan quyi bo‘g‘in uzluksiz ta‘lim tizimi o‘quvchi-yoshlariga bilim asoslarini singdiradi. U o‘quvchi-yoshlarni ilmiy dunyoqarashini shakllanishi va mustahkamlanishi yo‘lida asosiy poydevor bo‘lib hizmat qiladi.

Talaba-yoshlarning badiiy to‘garaklar orqali hayotga qiziqishi, ularda kreativ - ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishi va rivojlanishida, ayniqsa, hayotga bo‘lgan his-tuyg‘ularini o‘sib borishida, atrof-muhit, jamiyat taraqqiyotida kuzatish qobiliyati va dunyoqarashini shakllanishida musiqa san’atidan foydalanish davr talabi. Milliy musiqa madaniyatimiz, xususan, musiqa san’ati turlari hisoblangan xonandalik va sholg‘i ijroshiligi mahoratini egallagan har qanday inson qalbida yovuzlik, vatanfuruchlik, tajavuzkorlik, fitnakashlik va boshqa insoniylikka xos bo‘lmagan xususiyatlardan yiroq bo‘lib, qalbida, ongi shuurida bunyodkorlik, ijodkorlik, mehr-muhabbat, Ona-Vatanga sadoqat va millatga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Qo‘shiq, musiqa insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarga yaxshilik qilishga undaydi. Har bir qo‘shiq, musiqa orqali insonda yashirilib yotgan qobiliyat va iqtidorlarni topish imkoniyati yuzaga keltiriladi[9]. Xonandalik san’ati odamlardagi yomon sifatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Milliy madaniy merosni o‘rganish va o‘zlashtirish orqali o‘zbek millatiga mansubligi bilan faxrlanish hissini uyg‘otadi. Milliy musiqiy madaniyat aynan ma’naviy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismi sifatida talaba-yoshlar tarbiyasida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi ana shu xususiyatlarni har bir talaba o‘z boshidan keshirmog‘i lozim.

Oliy ta‘lim tizimi pedagogika sohasi musiqa ta‘limi tizimida musiqa to‘garak ishlarining asosiy maqsadi yoshlarimizga musiqa tarbiya ko‘nikmalarini singdirish, kasbiy bilim, ko‘nikma va tajribalar bilan qurollantirish asnosida o‘quvchilarni Vatanga, millatga muhabbatini, komil inson qilib hamda o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, havaskorlik to‘garak a‘zolarini ko‘rik tanlovlarga tayyorlash hozirgi kunda alohida o‘rin egallaydi.

Milliy ta‘lim va tarbiya o‘z mazmunida insonrarvarlik, vatanrarvarlik, milliy g‘urur, axloqiy va umuminsoniy fazilatlarini mujassam etishi bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta‘lim va tarbiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri ham talaba-yoshlarda milliy ong va milliy madaniyatni tarkib tortirishdan iboratdir [4]. Mazkur masalalardan kelib shiqqan xolda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga ta’sir etuvshi motivlar ishlab shiqildi. Mazkur motivlarning provard natijasi shubhasiz, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini ta’minlovshi faoliyat turlarini takomillashtirishga ta’sir ko‘rstadi. Xonandalik mahoratini yaxshi egallagan, sholg‘u asboblaridan kamida ikkitasida

ijroshilik tajribalariga ega bo‘lgan va musiqiy-nazariy bilimlarni yuqori saviyada o‘zlashtirgan sa, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi hisoblangan talaba ertaga umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida musiqa o‘qituvchisi sifatida to‘laqonli faoliyat yuritadi.

O‘zbek xalqi milliy qadriyatlari tizimida xalq musiqa ijodiyoti aholi hayotining barsha tomonlarini badiiy aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Unda xalqimizning turli davrlaridagi tarixiy-badiiy ko‘rinishlari bilan birga xalq pedagogikasining eng ilg‘or, oliyjanob g‘oyalari umumlashganligi bois, yoshlarning badiiy-estetik va axloqiy, ma‘naviy tarbiyasida foydalanish ta‘lim sohasiga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtmani bajarishda qo‘l keladi. So‘ngi yillarda milliy musiqiy boyliklarni tiklash, to‘plash, nashr qilish hamda ta‘lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishning ilmiy pedagogik asoslarini o‘rganish bo‘yicha e‘tiborga molik ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bu o‘lkan bebaho xazinaning qamrovi va ko‘lami oldida qilinayotgan ishlar ko‘lami yanada kengayganligini yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak mazkur masalada shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning shaxsiy tashabbusi kuchayganligini ko‘rish mumkin.

Qudratli tarbiya kuchi va ta‘sirshanlikka ega bo‘lgan xalq musiqa ijodiyotidan ta‘lim tizimida, xususan, bo‘lajak oliy ta‘lim muassasalari pedagogika sohasi musiqa ta‘limi yo‘nalishlarida dars va darsdan tashqari turli madaniy-ommaviy tadbirlar, badiiy havaskorlik to‘garaklari, ko‘rik-tanlovlarga tayyorlash va undan keng foydalanishni yanada kuchaytirish, birinshidan, ta‘lim mazmunini boyitsa, ikkinshidan ta‘limning milliy negizini mustahkamlaydi. Oliy ta‘lim tizimida auditoriyadan tashqari tashkil etiladigan musiqiy mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish ijobiy natijalarga erishish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi:

1. Pedagogika sohasi musiqa ta‘lim tizimida auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari musiqa to‘garaklarida musiqa ijodiyoti namunalaridan keng foydalanishda ularni quyidagi ma‘lum mezon va talablarga ko‘ra tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

a) Musiqa san‘ati turlari bo‘yicha tashkil etiladigan to‘garaklarda ishtirok etadigan talaba-yoshlarning san‘at turi bo‘yicha iqtidorini aniqlash va shu asosda musiqa asarlari repertuarini tanlash va har bir ishtirokshining qiziqishi, shuningdek, mashg‘ulotlarni o‘zlashtirishini hisobga olish;

b) Repertuar tanlashda talabalarni kasbiy mahorati, musiqiy qiziqishi, qobiliyati va ijroshilik imkoniyatlariga to‘g‘ri kelishi;

v) Tanlangan asarlarni o‘quvchilarning musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini, pirovard natijada milliy madaniyatini shakllantirish nuqtai-nazaridan tarbiyaviy ta‘sirshanlikka ega bo‘lishi;

g) Talabalarda o‘qishga, mehnatga, ijodkorlikka, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag‘bat uyg‘otishi;

d) O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti namunalarining hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan umumhalq bayramlari, madaniy-ma‘rifiy va ommaviy tadbirlar mavzulariga mosligi;

s) Asarlarni o‘rganish ta‘limning boshqa tarkibiy qismlarini (musiqa savodi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi) o‘zlashtirish uchun ahamiyatliligi yoki ijobiy ta‘sir ko‘rsatish xususiyatiga egaligiga e‘tiborni qaratilishi shart bo‘ladi.

2. O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti namunalaridan ta‘lim va tarbiya maqsadlarida foydalanishda auditoriyada o‘rganilgan mavzularni mustahkamlashga xizmat qiladigan nuqtai-

nazaridan yondashish. Bunda, auditoriya va auditoriyadan tashqari jarayonda xalq musiqasi namunalarini o‘rganish, ijro etish ishlari ular haqidagi tarixiy, adabiy, nazariy manbalardan imkon qadar ko‘proq foydalanish orqali amalga oshirilishini ko‘zda tutdi. Bu pedagogik talab musiqiy-nazariy mashg‘ulotlarning asosiy faoliyat turlari mazmuni va mohiyatiga muvofiq holda ish yuritishni nazarda tutadi. Ya’ni, erkin tanlov asosida o‘rganilgan asar ayni vaqtdagi asosiy maqsad va hal etilayotgan vazifalarga ijodiy yondashish xarakterida bo‘lishi lozim.

3. Auditoriyadan tashqari faoliyatda o‘rganish uchun tanlab olingan asarlar talabalarni an’anaviy mumtoz va folklor yo‘nalishida mustaqil bilimlar olishga bo‘lgan talab va istaklariga mos kelishi, to‘garak rahbari tomonidan mashg‘ulotlarni tashkil etishda e’tiborda tutilishi lozim. Bu pedagogik shart-sharoit o‘z mazmunida talaba-yoshlarni musiqiy iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga shiqarish uchun izshil va maqsadli mashg‘ulotlar olib borishni nazarda tutadi. SHuningdek, bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchilarni auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarga imkon qadar keng va ommaviy jalb qilishni kuchaytirishni uqtiradi.

4. Xalq musiqa ijodiyotiga murojaat qilganda ularni qaysi mahalliy musiqa uslubga xosligi, janri, ijrodagi sholg‘ular ishtiroki, raqs jo‘rligi va boshqa shu kabi xususiyatlarga e’tibor berish eng muhim shartlardan biri sifatida hisoblanadi. Shunki, bu jihatlar xalq musiqasini eng muhim xususiyatlarini aks ettiradi va talabalarni umummusiqiy bilish darajasini takomillashuviga, milliy musiqaning o‘ziga xos uslublarini, ijroshilik an’analarini shuqur o‘zlashtirishlariga ijobiy ta’sir etadi, ta’kidlab o‘tilgan ta’lim va tarbiya maqsadlarga erishishni kafolatlaydi.

5. Oliy ta’lim tizimi pedagogika sohasida musiqa o‘qituvchisi auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatda talabalarni xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borishga nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan doimiy ravishda tayyorgarlik ko‘rib, o‘z bilim, ko‘nikma va tajribalarini oshirib borishi lozim. Shunki, bu faoliyatda musiqa professor-o‘qituvchilari va to‘garak rahbarining muvoffaqiyati uning xalq tarixi, madaniyati, urf-odatlar va an’analari, shuningdek, musiqa san’atidan qanshalik keng bilim va ko‘nikmalarga ega ekanligiga hamda shaxsiy namunasiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon bo‘lib, uzoq vaqt davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim, mahalla, do‘stlari, jamoat tashkilotlari, artof-muhit, ommaviy axborot vositalari, musiqa, san’at, adabiyot, tabiat va musiqiy to‘garaklar bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi barsha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o‘zaro hamkorlikning ta’sir doirasi orqali talaba-yoshlarni tarbiyalash va tarbiyaning ustunligini ta’minlagan holda, ularni shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan muhitni ta’minlashdan iboratdir.

O‘zbek xalq musiqa ijodining bosh maqsadi – birinshidan, talaba-yoshlarni bo‘sh vaqtlarini maqsadli tashkil etish emas, balki, ularni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ijodiy qobiliyatlarini tarkib toptirish, kasbga qiziqtirish va mehr uyg‘otishdan iborat bo‘lishi, shuningdek, ularni milliy musiqiy ruhda tarbiyalash bo‘lsa, ikkinshidan, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, tarixiy an’analariga, urf-odat hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab shiqib amalga joriy etishdir.

Bularni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalarni – *birinshidan*, shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovshi va musiqiy rivojlanishi, uning iste’dodi va qobiliyatlarini har tomonlama namoyon qilish uchun imkoniyat yaratish bo‘lsa, *ikkinshidan* yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tuchunib olishiga ko‘maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila

bilishini shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish; *uchinshidan*, o‘quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlarini, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish; *to‘rtinshidan*, har bir talabaning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko‘rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga shiqarish va yanada qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash; *beshtinshidan*, insonravarlik odobi me‘yorlarini shakllantirish (bir-birini tuchunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg‘onshilik, tuhmat, shaqimshilikka qarshi turishni) keng qo‘lanishi; *oltinshidan*, vatanravarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o‘zaro munosabat-muloqotni o‘rganish, o‘z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo‘lib turishi; O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Bayrog‘iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash; *yettinshidan*, mustaqil davlatimiz – O‘zbekiston Respublikasining ishki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish. Uning tinchlik sevarlik, demakratiya va boshqa davlatlarning ishki ishlariga aralashmaslik, oshkora-oshiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ishki siyosatini to‘g‘ri tuchuntirmoq; *sakkizinshidan*, turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarini shakllantirish; *to‘qqizinshidan*, sog‘lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo‘lish istagini shakllantirish; *o‘ninshidan*, yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o‘rgatish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari kasbini takomillashtirishga qo‘yiladigan malakaviy talablarini belgilash imkonini beradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-637-son. 23.09.2020 (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunshilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2018 y., 07/18/4038/2243-son, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish shoralari to‘g‘risida”gi 2020 yil 15 maydagi 287-sonli qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish shora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 26 maydagi PF-6000-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.05.2020 y., 06/20/6000/0673-son.
5. Karomatov F.M. O‘zbek xalq musiqasi merosi. XX asr. Terma, yalla, karsak, kirish maqolasi. T. II. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985. 2-23 b.
6. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. T.: T.: Fan, 2004

7. Ibrohimov O.A. O‘zbek xalq musiqa ijodi (metodik tavsiyalar I qism), Toshkent, 1994 y. – 62 b.
8. Muslimov N.A. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. 2012. O‘quv qo‘llanma. 6,1 b.t.
9. Mannopov S. O‘zbek musiqasi madaniyati va san’ati tarixiga bir nazar. Farg‘ona. 2006. 132
10. Mustafiev Sh. Globallashuv sharoitida talabalarni g‘oyaviy-estetik tarbiyalash texnologiyasi (Badiiy to‘garaklar faoliyati misolida). Dissertatsiya. 2018. 175 b.
11. Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: 2021. 274 b.
12. Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. T.: 248 b. Nizomiy nomidagi TDPU kutubxonasi.

O‘QUV FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA TALABALAR TAHLILY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI INNOVATSION USULLAR

¹Lutfullaeva Nigora, ²Xakimova Shoxida

¹Xalqaro Nordik universiteti Psixologiya va maktabgacha ta’lim kafedrasida dotsenti, Ph.D
E-mail: zarnigor1971@mail.ru

²Xalqaro Nordik universiteti Psixologiya va maktabgacha ta’lim kafedrasida kat.o‘qit.
E-mail: hakimova_shohida@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157378>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta’lim jartayonida talabalarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi, muammoli ta’lim metodlari - tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradigan samarali usullar ekanligi hamda tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda qo‘llanilgan “SWOT”-tahlil va muammoli vaziyat usullarining natijalari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tahliliy fikrlash, tafakkur, noan’anaviy usul, “SWOT”- tahlil, strategiya.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается технология развития аналитического мышления учащихся в процессе обучения, проблемные методы обучения - эффективные методы, развивающие аналитическое мышление, а также результаты “SWOT”- методов анализа и проблемных ситуаций, применяемых для развития аналитического мышления.*

***Ключевые слова:** аналитическое мышление, мышление, нетрадиционный метод, “SWOT”- анализ, стратегия.*

***Abstract.** this article describes the technology of developing students' analytical thinking skills in the educational process, that problem based learning methods are effective methods that develop analytical thinking skills, as well as the results of "SWOT" - analysis and methods of problem situations used in the development of analytical thinking skills.*

***Keywords:** analytical thinking, thinking, unconventional method, "SWOT"- analysis, strategy.*

Kirish

So‘nggi yillarda pedagogikada insonparvarlashtirishning kengayishi natijasida mutaxassislar tahliliy faoliyatning turli qirralarini katta qiziqish bilan o‘rgana boshladilar. Talabalarning tahliliy faoliyati mustaqil o‘rganish, sabab-oqibatli bog‘lanishlarni tahlil qilish, shubhalanish, qadriyatli yo‘nalishlarni amalda tatbiq qilish, o‘z ustida ishlash, layoqatlarini turli holatlarda sinovdan o‘tkazish, izlanishlar, shaxsiy hayotiy tajribasini baholash jarayonida amalga oshadi.

Tahliliy faoliyat – kasbiy hayotiy ijodkorlikning tarkibiy qismi bo‘lib, yangiliklarni izlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Tahliliy faoliyatning asosiy belgisi talabalarning muntazam voqelikni tahlil qilishidadir. Masalan, talaba darsda, mustaqil bilim olish jarayonida, darsdan tashqari ta’lim-tarbiyaviy vaziyatlarda, do‘stlari bilan muloqot jarayonida, o‘qituvchilari bilan suhbatda, o‘zi yolg‘iz qolganda o‘z fikrlari, his-tuyg‘ularini aniqlash maqsadida tahliliy faoliyatga kirishadi. Bu o‘quv jarayonining o‘ziga xos jihatlari bilan muvofiq kelib, talabalar o‘z-o‘zlarini namoyon qilish asosida o‘qish, o‘rganish faoliyatini amalga oshiradilar. Bu esa ular ijodiy faoliyatining ajralmas qismidir. Bu ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ijodiy faoliyat ko‘rsatish usuli sifatida tavsiflanadi. Shuning uchun ham talabalarning tahliliy nuqtai nazarga ega bo‘lishlari ularning ijodiy, bilish faoliyatlari mohiyatini anglashlariga ko‘maklashadi. Ayni vaqtda bunday

tarzdagi tahliliy nuqtai nazar ruhiy jihatdan shaxsiy yangilanishni vujudga keltiradi. Bunday yangilanish talabalarning fikrlashlari, qayta fikrlashlari, intellektual kechinmalarida namoyon bo‘ladi. Ba’zi hollarda talabalar faoliyatlarini shunchaki maqtov eshitish maqsadida amalga oshiradilar. Bunday talabalar uchun o‘qish, o‘rganish jarayoni turli operatsiyalarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning boshqa faoliyatga jalb etilishlari shaxsiy bilish jarayonlarini boshqa bir muayyan hodisaga o‘xshatish asosida ijodiy faoliyat va to‘laqonli muloqot uchun imkoniyat yaratiladi. Talabalar uchun nafaqat o‘rganilayotgan hodisa, balki o‘rganilayotgan fikrlar ahamiyatli hisoblanadi. Talabalarning shaxsiy tajribalari ularning ichki olamini namoyon qiladi. Bu tajriba talabalar rivojlanishining ichki sharti bo‘lib, ular ichki olamining murakkab tuzilishini ifodalaydi. Bu jarayonda talabalar tajribalarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, bilimlarni amaliyotga tatbiq etadilar. Ular faoliyatning qulay usullarini qo‘llaydilar, voqelikni tahlil qiladilar, yangi fikrlarni izlaydilar, faoliyat usullarini tanlaydilar, o‘z faoliyatlari natijalarini baholaydilar, o‘z kechinmalarini tartibga soladilar, muhim qarorlar qabul qiladilar. Talabalarning shaxsiy nuqtai nazarlarini faollashtiruvchi vaziyatlarni vujudga keltirish asosida ularni shaxsiy vazifalarni bajarishga undash, tanlov ko‘nikmalarini namoyon qilishlari, fikriy-ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari mustaqil rivojlanishlari uchun sharoit yaratadi. Mazkur sharoitlar quyidagilardan iborat:

- o‘quv jarayonining ijodiy xarakter kasb etishi – o‘quv jarayonida talabalar oldiga ularni ijodiy faollikka undovchi topshiriqlar qo‘yiladi;

- o‘quv jarayonining dialogga asoslanganligi – o‘quv jarayonida talabalarning o‘quv matnlari mualliflari, o‘qituvchilar, kursdoshlari bilan muloqot qilishlariga imkoniyat yaratiladi;

- hayotiy vaziyatlarni turli o‘yinlar yordamida modellashtirish – bu jarayonda talabalar o‘zlarini mustaqil tarzda boshqarish tajribasini o‘zlashtiradilar, ularda shaxsiy vazifalar paydo bo‘ladi va muayyan faoliyatga xos xulq-atvor ko‘nikmalari shakllanadi.

Talabalarni ijodiy faollikka undovchi o‘quv vaziyatlarida quyidagilar alohida ajratilib ko‘rsatilishi lozim:

- pedagogik tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quv predmeti doirasida pedagogik faoliyat sub’ekti sifatida didaktik materiallarni o‘qitish maqsadi bilan bog‘liq holda aniq tasavvur etadi, talabalarning shaxsiy vazifalarini dolzarblashtiradi va o‘quv predmetini o‘zlashtirishga undaydi;

- mustaqil ijodiy faollik ko‘rsatishga ehtiyoj sezadigan talabalar bilan o‘qituvchi alohida ishlaydi;

- didaktik vositalar tizimini o‘qituvchi muntazam takomillashirib boradi.

Talaba hamda o‘qituvchining tajribasi jarayonli xarakterga ega. Talaba va o‘qituvchi uchun bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining o‘zi emas, balki ular orasida shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlarning talabalar tajribasiga singdirilishi ahamiyatlidir. Talabalar bosqichma-bosqich yangi munosabatlarga kirishar ekanlar, o‘zlari uchun ahamiyatli bo‘lgan bilimlarni boyitadilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mavzuni o‘rganish davomida soha olimlarining qator ilmiy asarlari, g‘oyalari tahlil etildi va ular malakaviy ishimizning nazariy asoslarini tashkil etdi: Xususan, Safarova, F.Yuzlikaev, E.Yuzlikaeva, B.Ma’murov, V.V.Serikov kabi olimlarning ushbu muammoning shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasiga asoslangan holda g‘oyaviy qarashlari; S.L.Rubinshteyn

A.N.Leontev, P.Ya.Galperin, A.V.Brushlinskiy, N.Yu.Postalyuk M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner tomonidan talabalarda ijodiy faollikni shakllantirish muammosi, tafakkur ijod va tahlil jarayoni asosi ekanligi, hamda tafakkurni psixologik jihatdan o‘rganilgan tadqiqotlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar va mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’lim usullarini yoritib beruvchi adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish tashkil etdi.

Tahlil va natijalar

Ma’lumki, hayot davomida har bir talaba o‘zining shaxsiy bilim olish uslubini ishlab chiqadi va muntazam takomillashtiradi. U o‘zi qo‘lga kiritgan natijalarni namoyish qilish usullari, sheriklari bilan muloqotga kirishish, o‘quv ijodiyoti namunalarini baholash va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini kengaytirib boradi. O‘qituvchi har doim talabalarga o‘quv faoliyatining yangi mantig‘ini izlashlari, tahliliy faoliyatning yangicha darajasiga ko‘tarilishlariga ko‘maklashadi hamda ularni ijodiy vazifalarni bajarishga yo‘naltiradi. Shu tariqa, fikrni yoki fikriy ijodiy faoliyatni amalga oshirish talabalarning xulq-atvori va rivojlanishini jadallashtiruvchi omiliga aylanadi. Har qanday masalani yechish mobaynida, tahlil qilish davrida odam uning shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilib, aqlini ishlatganidagina yechimga keladi va bunda tafakkur jarayoni amalga oshadi.

Tafakkur jarayonidagi aqliy faoliyatda har bir masalani to‘g‘ri yechish uchun zarur bo‘lgan shart bilimga ega bo‘lishlikdir. Bilimli bo‘lish va uni ishlata bilish aqliy faoliyatning samarali ishlashi, fikrning o‘sishi uchun zarur bo‘lgan shart. Insonning aqliy mehnat faoliyatini shakllanganlik darajasini aniqlashda idrok etish, tahlil qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi intellektual xususiyatlarni mezon sifatida qabul qilishga e’tibor qaratish kerak. Demak, tahlil talaba tabiatiga xos hodisa bo‘lib, uning ongi singari, xotirasi, layoqati, his etishi, sezgilari bilan bevosita bog‘liq psixik jarayondir. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan talabalarning shaxsiy nuqtai nazarlarini faollashtiruvchi vaziyatlarni vujudga keltirish asosida ularni shaxsiy vazifalarni bajarishga undash, tanlov ko‘nikmalarini namoyon qilishlari, fikriy-ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari mustaqil rivojlanishlari uchun sharoit yaratish muhim hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonining o‘ziga xos xususiyati talabalarga tahlil qilish, o‘quv mashg‘uloti mazmunini fikran uni bajarish usullaridan farqlash, o‘zini mustaqil ijodiy jarayonning sub’ekti sifatida anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishga imkoniyat yaratishdan iborat. Bu jarayonda ular tahliliy faoliyatning turli turlari va darajalaridan foydalanadilar. Bunday tahliliy faoliyat muayyan hodisani asoslash, zarur usullarni tanlash, natijalarni tekshirish jarayonida amalga oshadi. Talabalarning tahliliy ongi bilimlarni o‘zlashtirish, qurish va tekshirish, faoliyatning barcha bosqichlarida tanqidiy fikrlash jarayonini boshqaradi. Tahliliy jarayonlar muayyan shakllarga ega. Aksariyat tadqiqotlarda, faoliyat sub’ektining tanqidiy fikrlashga moyilligi, o‘z nuqtai nazarini asoslash, izohlashga intilish, savollar qo‘ya olish, o‘z-o‘zini mos tarzda baholashga tayyorlik, munozaraga kirisha olish layoqati ko‘rsatib o‘tilgan. Demak, tahlil talaba tabiatiga xos hodisa bo‘lib, uning ongi singari, xotirasi, layoqati, his etishi, sezgilari bilan bevosita bog‘liq psixik jarayondir.

Erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirish muammosi ta’lim muassasalarida o’quv - tarbiyaviy ishlarni pedagogik va psixologik texnologiya asosiga qurish kerakligini talab qilmoqda. Bu jarayon, albatta yengil oson kechmaydi, chunki bugun ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o’qitish tizimini to’la ilmiy asoslangan pedagogik tizim bilan aylantirish lozim. Haqiqatdan ham ijtimoiy tajriba elementining tarkibiy qismi - bilim, ijodiy faoliyat, ob’ektiv borliqqa munosabat – bu psixologik jaryon negizida, zamonaviy pedagogik tizim doirasida shakllantiriladi. Pedagogik-psixologik texnologiya esa amaliyotga joriy etilayotgan pedagogik tizim loyihasi hisoblanib, uni tarkib toptirish uzoq va mashaqqatli kechishi tabiiy holatdir.

Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko’nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta’lim muammoli ta’lim deb ataladi.

Muammoli ta’limning ilk g’oyalari amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda o’qitish o’quv rejasi bo’yicha emas, balki o’yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan. J.Dyui muammoli ta’lim asosi sifatida quyidagi yo’nalishlarni belgilagan: ijtimoiy; konstruktiv; badiiy ifodaviy; ilmiy-tadqiqot.

Muallif ko’rsatilgan yo’nalishlarda ta’limni tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalangan: so’z; san’at asarlari; texnik qurilmalar; o’yinlar; va mehnat.

O’tgan asrning 60-yillarida esa muammoli ta’lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L.Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g’oyasi muammoli ta’limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

Muammoli ta’limning asosini muammo yoki muammoli vaziyat tashkil etib, muammoli ta’lim texnologiyalari ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Ko’p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari: 1) ma’lum bilimlar; 2) noma’lum bilimlar; 3) mavjud tajriba.

Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma’lum bo’lgan pedagogik xarakterdagi masala.

Muammoni qo’yish quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. Muammoni izlash.
2. Muammoni qo’yish.
3. Muammoni hal qilish.

Ta’lim jarayonida muammoni qo’yish bir necha bosqichda kechadi (1-jadval).

1-jadval


Muammoni qo’yish sathlari

1-bosqich	O’qituvchi muammoni qo’yadi va talabalarni uni hal qilishga yo’naltiradi
- bosqich	O’qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarning o’zlari mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi
- bosqich	O’qituvchi muammoni qo’rsatib bermaydi, balki unga talabalarni ro’para qiladi. Talabalar muammoni anglagan holda uni o’zlari shakllantirib, muammoni yechish usullarini tahlil qiladi

Muammoli ta’lim usullari quyidagi ko’rinishda uchraydi:


1. Muammoli vaziyat – talabalarning ma’lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog‘liq ruhiy holati bo‘lib, u hal etilayotgan masala bilan bog‘liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi.

Muammoli vaziyat metodi esa – talabalarni muammoli vaziyatga to‘qnash kelishini ta’minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo‘l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat. Ta’lim jarayonida muammoli vaziyat metodi qo‘llanilganda talabalarning faoliyatlari quyidagi tizim (1 - chizma) asosida tashkil etiladi:



1 - chizma. Muammoli vaziyatda talabalarning ish harakatlari

2. “SWOT-tahlil” strategiyasi. Strategiya muammoning asosiy to‘rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o‘rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, tahlil qilish imkoniyatlarini topadi. U yordamida muammoning quyidagi to‘rt jhati (2-chizma) tahlil qilinadi:



2– chizma. “SWOT-tahlil” strategiyasi

Strategiyani qo‘llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Bunday hollarda o‘qituvchi strategiyaning asosiy mohiyati yoki biror bosqichini talabalarning bilimi darajasiga moslab, unga tushunarli so‘zlar bilan ifodalashi (o‘zgartirishi) mumkin. O‘qituvchi tomonidan talabalarga strategiyaning mohiyati, afzalliklari haqida yetarlicha ma’lumot berilishi ular tomonidan hal etiladigan muammo mohiyatining to‘la tushunilishini ta’minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

Tadqiqotimiz birinchi qismida biz “Iqtisodiyotning rivojlanishi va investitsiya” mavzusini “SWOT”-tahlil usulidan foydalanilib, talabalarga tadbirkorlik bilimlarini shakllantiruvchi tajribani amalga oshirdik. “SWOT” - tahlil metodi - g‘oya, jarayon, tajriba hamda ish natijalarini tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodni qo‘llash - talabalar muammoga ko‘p variantli yechimlar izlashga o‘rganadilar. Bu esa talabalarda ushbu holatni har tomonlama tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Darsni tashkil etish uchun iqtisodiyot fani o‘qituvchisi bilan dars mashg‘uloti rejasini tuzib chiqildi, bunda birinchi nazorat guruhida 25 nafar talabalar bo‘lib, ular bilan mashg‘ulotni an’anaviy tarzda olib bordik. Ikkinchi guruh - tajriba guruhi bo‘lib, undagi 27 nafar talabalar 4 guruhga ajratildi va har bir guruh uchun “SWOT”-tahlil jadvali bo‘yicha vazifa topshirildi. Mashg‘ulot davomida har bir guruhga berilgan umumiy vazifani bajarish va uning natijalari asosida taqdimot tayyorlash kerakligi aytib o‘tildi.

Mashg‘ulot davomida mavzu bo‘yicha iqtisodiyotga oid ma’lumotlar keng bayon etildi. Masalan, kapitalga bo‘lgan talab va taklif bank foiz siyosati bilan tartibga solinishi va bank foiz stavkasidan farq qilgan holda investitsiyalardan ko‘tiladigan natija qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsiyalarga talab shu qadar ko‘proq bo‘lishini bu esa o‘z navbatida investitsiyalarni moliyalashtirishning manbai tarzida bank kreditiga talabni yanada oshirishi haqida fikr yuritadi. Xalqaro kredit munosabatlaridagi ahvol ular bevosita yoki bilvosita tarzda, qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish yuli bilan yuzaga kelishini, real investitsiyalar xalqaro kredit munosabatlari vositasida amalga oshirilishini va u kapitalning xalqaro muomalasi doirasida kreditor portfel investitsiyalarini amalga oshirilishini tushuntiradi. Kapitalning xalqaro muomalasida mamlakat bilan bog‘liq quyidagi tavakkalchiliklarga e’tibor beriladi: siyosiy vaziyat, iqqisodiy rivojlanish yo‘nalishlari, hukumatning byudjet siyosati hamda uning jamg‘armalar va investitsiyalarga ta’siri, narxlar va valyuta kursini barqarorlashtirishga yo‘naltirilgan pul-kredit siyosati, mamlakat tavakkalchiligi makbul bo‘lgan hollarda investitsiyalardan daromad olish imkoniyatlari kabilarga izoh beradi. Chet el investitsiyalari kapital eksport qiluvchi mamlakatlarning importyor mamlakatlar iqqisodiy sub’ektlari hamda ko‘shma korxonalar real va moliyaviy aktivlariga kiritgan mablag‘laridir. Chet eldan investitsiyalash kapital oqimining bir iqqisodiyotdan boshqasiga chiqib ketishini bildiradi, boylklarni yanada foydaliroq shartlarda joylashtirish va investitsiyalar chet ellikka - kapital egasiga qaytishiga qadar nisbatan uzoq vaqt davomida mablag‘lar oqimini ta’minlash maqsadlarini nazarda tutadi. O‘zbekistonga bevosita chet el investitsiyalarini ishlab chiqarish kapitali tarzida yangi loyihalarga jalb etilishi maqbulroqdir. Bu bilan ilg‘or, ekologik toza texnologiyalar, zamonaviy texnika va texnologiyalar, mehnatni oqilona tashkil etishni joriy qilish hisobiga sanoatning jadal rivojlanishini ta’minlash mumkin bo‘ladi. O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet sarmoyasi

ishtirokini kengaytirmay turib, iqqisodiy tizimda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin emas.

Ushbu masalalarni o‘z ichiga olgan dars mashg‘ulotini barcha talabalar tinglab bo‘lgach nazorat guruhida an’anaviy tarzda o‘qituvchi monologi asosida savol-javob, fikrlar almashinuvi amalga oshirildi. Tajriba guruhiga esa “SWOT”-tahlili jadvali bo‘yicha o‘quv faoliyatini olib borish sharoiti yaratildi. Tajriba guruhida talabalar investitsiyalash mazmunini tushunib olganlaridan keyin ana shu jarayonni har taraflama tahlil etish vazifasini bajardilar.

“SWOT” — tahlili jadvalidan foydalanish jarayonida talabalar mavjud holatni tahlil qilishdi, baholashdi. Tahlil va sintez qilish yo‘li bilan biror mantiqiy qaror qabul qilishga o‘rganishdi.

1-bosqich. “SWOT” – tahlili jadvalini tuzish qoidasi bilan tanishdilar.

2-bosqich. Kichik guruhlar ichida jadval to‘ldirildi.

3-bosqich. Faoliyat natijasi taqdimot qilindi (2-jadval).

2-jadvali

Investitsiya jarayonini tahlili

<p>S-kuchli tomoni</p> <p>Iqtisodiyotga savdo, texnologik, informatsion, moliya oqimlarni olib kiradi. Ishlab chiqarishni jadallashtiradi, ayrim tarmoqlar rivojlanishini rag‘batlantiradi, ilg‘or texnologiyani boshqarish va tashkilotchilik tajribalarini olib kiradi. Daromaddorlik, kapitallashuv, likvidlik, aniq maqsadlar ko‘zlanadi.</p>	<p>W- kuchsiz tomon</p> <p>Keskin xo‘jalik disproporsiyalarini yaratishi, ijtimoiy to‘qnashuvlarni keltirib chiqarishi, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Investitsiya oqimlarining yo‘nalishi o‘zgarib turishi, bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib yurishi.</p>
<p>O- imkoniyatlar</p> <p>Investitsiya kirib keladigai mamlakatda soliq, ijara va boshqa tushumlarning ko‘payishiga imkon yaratadi. Samaradorlik, ishlab chiqarishni o‘stirish, bozorlarga kirib borish imkonini yaratadi.</p>	<p>T- xavf-xatar</p> <p>1 Investitsiya kiritilayotgan davlat bilan bog‘liq xavf(siyosiy ijtimoiy beqarorlik)</p> <p>2.Shartnoma yoki investitsiyaga qadar xavf (munosib sheriklar topish, intellektual boylikni hosil qilish hukuqiy asoslari)</p> <p>3.Operatsion yoki investitsiyalashtirilgandan keyi xavf (foyda taqsimlanishi, mahalliy bozorlar marketingi)</p>

Dars jarayonida talabalar quyilgan muammolarni jadval asosida tahlil qilishga harakat qilishdi. Ular tomonidan faollik kuzatildi. Qiziqish kuchayib bordi.

“SWOT” — tahlili jadvalidan foydalanishda shakllantirilgan kichik guruhlar uchun o‘qituvchi tomonidan 15 daqiqa vaqt ajratildi. So‘ngra, bajarilgan vazifa talabalar tomonidan taqdimot shaklida rasmiylashtirildi hamda ular baholash mezonlari asosida ko‘rib chiqildi. O‘tilgan mavzuni o‘rganilganlik darajasi ikki guruhda ham dars yakunidagi savol-javob, test savollari asosida tekshirildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, nazorat guruhga nisbatan tajriba guruhidagi talabalarning noan’anaviy darsdagi faolligi va o‘zlashtirish darajasi o‘zgarganligini guvohi bo‘ldik (3-jadval), ya’ni:

3- jadval

Nazorat va tajriba guruhlaridagi talabalarning o‘zlashtirish darajalari

№	O‘zlashtirish darajalari	Nazorat guruhi (n=25)		Tajriba guruhi (n=27)	
		soni	foizi	soni	foizi
1.	85,1% - 100% «A’lo»	2	8 %	4	15 %
2.	70,1% - 85% «Yaxshi»	6	24 %	9	33 %
3.	55,1% - 70% «Qoniqarli»	12	48 %	10	37 %
4.	0% - 55% «Qoniqarsiz»	5	20 %	4	14%

Agar an’anaviy darsda 25 nafar talabadan 20 nafari dars jarayonida faol qatnashgan bo‘lsa, “SWOT”— tahlili usuli asosida tashkil etilgan darsda 27 nafarning 25 nafari faol qatnashdi. Talabalar o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi natijasida dars qizg‘in va sermazmun o‘tdi. Mavzuni chuqur o‘rganishga qiziqish yuqori bo‘ldi, chunki har bir guruh o‘z mavqe uchun kurashdi.

Tadqiqotimizning ikkinchi qismida esa muammoli vaziyatlar usuli asosida tahliliy fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan tajriba ishlari esa Bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarda iqtisodiy bilimlarni yanada oshirish maqsadida “Tadbirkorlik, sarf-harajat va foyda” mavzusiga oid dars mashg‘ulotida tashkil qildik. Bunda yana nazorat va tajriba guruh a‘zolari ishtirok etishdi. Tajriba guruhidagilar 4 kichik guruhga ajratildi va har bir guruh uchun muammoli vaziyat yoritilgan varaqlar tarqatildi. Mashg‘ulot davomida har bir guruhga muammoli vaziyatning yechimini topishi va uning natijalari asosida taqdimot tayyorlash kerakligi aytib o‘tildi.

Darsga tayyorgarlik jarayonida muammoli vaziyat keltirilgan varaqlar tayyorlandi. Masalan:

1. Muammoli vaziyat

Muammoli vaziyat: Ishlab chiqarish kompaniyalar muassislari muvaffaqiyatli biznesni yo‘lga qo‘yish uchun yillab investitsiya kiritadilar. Biznesni butunlay yoki qisman investorga sotish masalasi yuzaga kelganda chekkan zahmatlarga yarasha eng yuqori narxda pullash istagida bo‘ladilar.

Muammoning qo‘yilishi: Xo‘sh investorlar qanday jalb qilinadi?

Muammoning (o‘qituvchi tomonidan) echimi:

1. Investitsiyalar jalb qilishga doimiy tayyorgarlik.
2. Kelgusi rivojlanish haqida uzoq muddatli tasavvur mavjudligi.
3. Biznesning qiymatini va narx omillarini tushunish.
4. Mustaqil ravishda audit o‘tkazish.
5. Moliyaviy hisobdorlikning to‘g‘riligi.

6. Aylanma kapitalini optimallashtirish.
7. Soliqlar.
8. Tajribali jamoa.
9. Fokusni saqlab turish
10. Ish jarayonidagi salomatlik.

2. Muammoli vaziyat

Muammoli vaziyat: Bir vaqtda boshlagan ikki kishining biznesi ikki xil tarzda bo‘ldi. Biznes yuritadigan odamning birida savdo gullasa, boshqasining aksincha, ishi yurishmay qoldi.

Muammoning qo‘yilishi: Tadbirkorlarda savol tug‘iladi - buning boisi nimada va qanday qilinsa ish amalga oshadi?

Muammoning (o‘qituvchi tomonidan) echimi:

1. Tajribali tadbirkorlar bilan maslahatlashish.
2. Sotuvlar hajmini oshirish (mijozlar kiruvchi oqimi, konversiya, o‘rtacha chek, xarid chastotasi va marja kabi koeffitsientlar formulasi).

3. Muammoli vaziyat

Muammoli vaziyat: Tadbirkorlarning eng ko‘p to‘qnash keladigan davlat tizimi bu soliqdir. Shunday bo‘lsa ham, ko‘p tadbirkorlar soliqqa tortish qonun-qoidalari, bu boradagi imtiyozlar, yengilliklar va javobgarliklar haqida yetarlicha tasavvurga ega emaslar. Bu jarayon yo‘lga yaxshi qo‘yilmagan.

Muammoning qo‘yilishi: Oddiy tadbirkorning soliq madaniyatini va bilimini kengaytirish uchun qanday amaliy chora-tadbirlar ko‘rilishi ko‘zda tutilgan? Boshlang‘ich tadbirkor o‘zi uchun mavjud imtiyozlarni, o‘z majburiyatlarini tushunarli tilda qaerdan olishi mumkin?

Muammoning (o‘qituvchi tomonidan) echimi:

1. Seminar treninglar va davra suhbatlarini o‘tkazish orqali.
2. Ommaviy axborot vositalarida chiqishlar orqali.
3. Bitiruvchilar va yosh kadrlarning soliq qonunchiligi sohasidagi bilimlarini yanada mustahkamlash orqali.
4. Mahallalarda fuqarolar o‘rtasida soliq majburiyatlarining bajarilish yuzasidan tushuntirishlar. o‘tkazilishi orqali
5. Elektron axborot tizimlarida interaktiv va axborot xizmatlarini ko‘rsatish orqali.

4. Muammoli vaziyat

Muammoli vaziyat: Aksariyat rivojlangan mamlakatlar jahon bozoriga chiqaradigan o‘z tovar va xizmatlari bilan mashhurdir: Shveysariya bank xizmatlari, Italiya kiyim-kechagi, Singapur moliyaviy xizmatlari. Boshqacha qilib aytganda muayyan mamlakat ayrim tovarlar ishlab chiqarishda yoki xizmatlarni ko‘rsatishda boshqalarga nisbatan afzalroqdirlar.

Muammoning qo‘yilishi: O‘zbekistonda ishlab chiqarishning qaysi tarmoqlarini rivojlantirish lozimligini kim va qanday aniqlaydi? Bu borada davlatning roli qanday bo‘lishi kerak? Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun O‘zbekistonda nima ishlab chiqargan ma’kul?



Muammoning (o‘qituvchi tomonidan) echimi:

1. Yengil sanoat.
2. Qishloq xo‘jaligi.
3. Mintaqaviy innovatsion markaz.
4. Iqtisodiy ochiqlik.
5. Raqobat.

6. Investorlar huquqlarini himoyalash, samarali sud tizimi.
7. Makroiqtisodiy barqarorlik.

Yuqoridagi muammoli vaziyat bilan ishlovchi to‘rt kishidan iborat kichik guruhlar shakllantirildi. Har bir guruhga vaziyat bilan tanishib chiqish uchun o‘qituvchi tomonidan 5 daqiqa vaqt ajratildi. So‘ngra guruhda o‘zaro fikr almashishiga imkon yaratildi. Har bir guruhda muammo tahlil qilish uchun ham 15 daqiqa vaqt berildi. Vazifa bajarilgach, talabalar muammo bo‘yicha taqdimot tayyorladilar hamda ular mezonlar asosida baholandi. O‘tilgan mavzuni o‘rganilganlik darajasi ikki guruhda ham dars yakunidagi savol-javob asosida tekshirildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida talabalar ancha ko‘nikma va malakaga ega bo‘lib, nazorat guruhiga nisbatan o‘zlashtirishda ancha ilgari ketganligi ma‘lum bo‘ldi. Bunda: Nazorat guruhidagi talabalarning 8% a‘lo; 20% yaxshi; 56% qoniqarli bo‘lsa, tajriba guruhi talabalaridan 22% a‘lo; 55% yaxshi; 15% qoniqarli tarzda o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega bo‘ldi. Nazorat guruhidagi talabalarning 4 nafari qoniqarsiz ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan bo‘lsa, tajriba guruhida bu ko‘rsatkich 2 barobariga kamaydi.



1-diagramma. Nazorat va tajriba guruhlaridagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalari

Talabalar o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi natijasida dars qizg‘in va sermazmun o‘tdi. O‘zlashtirish ko‘rsatkichi ikki baravar oshdi. Demak, o‘quv faoliyati davomida talabalarga mavzu yuzasidan tahliliy qobiliyatini shakllantirish uchun avval “SWOT” — tahlili jadvalidan foydalangan holda, so‘ngra tahliliy qobiliyatni oshirishga qaratilgan muammoli vaziyat usullaridan samarali foydalanish talabalarning mustaqil faolligini, tahlil qilishi malakasini keskin oshiradi. Bunda har bir talaba o‘z fikrini o‘zgalarga bemalol bayon eta oladi, o‘rtoqlarining fikrlari bilan tanishish, tanqidiy ravishda tahlil qilish malakasi oshadi.

Xulosa va takliflar

Ma‘lumki, an’anaviy dars o‘tishda ta’lim jarayonining markazida o‘qituvchi turadi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni turli xil, talabalar faolligini oshiradigan metodlar bilan boyitib borilsa, ularning o‘zlashtirish darajasi ko‘tarilishiga olib keladi.

1. Noan’anaviy ta’lim shakllaridan bo‘lgan, kichik guruhlarda hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish asosida tashkil etilgan dars natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar kichik guruhlarda hamkorlikda faoliyat yuritib, o‘zlari ham tinglovchi, ham axborotni yetkazuvchi, ham tahlil qiluvchi pozitsiyada bilimlarni puxta o‘zlashtirish imkonini kengaytiradilar.

2. Talabalarda iqtisodiy fanlarni o‘qitish jarayonida “SWOT”-tahlil usuli talabalarning tahliliy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, mutaqil va tanqidiy fikrlovchi hamda analiz va sintez kabi tafakkur jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi natijada mantiqiy qaror qabul qilishga o‘rganadi.

4. “SWOT” - tahlil jadvalidan foydalanish ko‘nikmasi talabalarda “Muammoli vaziyat” usullaridan samarali foydalanishga asos bo‘ldi. Chunki, ta’lim oluvchilarning bahslari, mushohadalari amalga oshiriluvchi analiz-sintez faoliyatiga asoslanadi.

5. Muammoli vaziyat usuli yordamida talabalar vaziyatlarni qanday baholash tizimini, holatini anglab yetdi, biror vaziyat yoki hodisani teran fikrlash, tahlil va sintez qilish yo‘li bilan to‘g‘ri munosabat bildirish malakasiga ega bo‘ladilar.

6. “Muammoli vaziyat” usuli o‘qitishning ijodiy, tahliliy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Bunday yutuq: bilimlarni o‘zlashtirishdagi mustaqillik, ta’lim oluvchilarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirishga yordam berishi, talabaning shaxsiy motivatsiyalari, bilishga doir qiziqishlarini shakllanishi, talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlanishi, talabaning dialektik tafakkurining rivojlanishi, ular tomonidan o‘rganilayotgan hodisalar va qonuniyatlardagi yangi aloqadorlikni yuzaga chiqarilishini ta’minlaydi.

REFERENCES

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma). –Toshkent, 2013. -277 B.
2. Karimova V.M. va boshqalar. Mustaqil tafakkurni shakllantirish masalalari. – T., 2003, 17-bet
3. Kamolova N.Q. Talaba-yoshlarni iqtisodiy tarbiyalashning milliy-ma’naviy asoslari. - T.: O‘zPFITI, 2004. - 62 b.
4. Mirsolieva M., Ibragimova G. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent, 2015.-110 b. 25-bet
5. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. – M., 2003, 57-68s.
6. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. 30-bet.
7. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T.: «Fan va texnologiya», 2007 yil, 27 - bet.
8. Shodmonov Sh. Sh., G‘afurov U.V. «Iqtisodiyot nazariyasi».-T., «Iqtisod-moliya». 2010.
9. O‘lmasov A., “Iqtisodiy bilim asoslari” 2010 yil.

ASSESSING THE TRAINING OF HEU’ STUDENTS IN THE FIELD OF VOCATIONAL EDUCATION THROUGH PEDAGOGICAL STRATEGY: ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN

Pozilova Shakhnoza Khaydaraliyevna

Associated professor (Researcher DSc), Institute for development of professional education,
Tashkent, Uzbekistan, informatikpozilova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157419>

***Abstract.** This article aims to develop a pedagogical strategy for preparing students for vocational education. The author presents the structure, components and conditions of preparation of students of higher education institutions for professional and pedagogical activity on the basis of a competency approach. The experimental sites were obtained in higher education institutions in Uzbekistan.*

***Keywords:** HEU’, pedagogical strategy, professional education, pedagogical activity, competitive approach.*

1. Introduction

According to the pedagogical theories of pedagogical scientists and practitioners of the world, in the development of professional readiness of students in higher professional education, the continuity of education, logic and need-based, the effectiveness of the education system the method is inextricably linked with the creation of a technical-technological, creative environment and educational space for the full realization of its hidden abilities through the use of its tools. Therefore, there is a need to ensure the continuity of teaching in vocational education, the development of educational processes and the orientation of the content of specialized disciplines to practical skills.

As part of the reforms in the higher education system in Uzbekistan, the President of the Republic of Uzbekistan approved the "Concept for the development of the higher education system until 2030". The concept includes "ensuring the coherence and consistency of general secondary, secondary special and higher education programs in order to achieve continuity of education." Special attention was paid to the formation of skills of students in the use of modern pedagogical technologies in the educational process, improving the infrastructure of pedagogical education, the provision of highly qualified professional teachers who have learned foreign languages in all secondary schools in the region. "Everywhere you look today, the tide of protectionist sentiment is flowing. We can respond to this fierce competition only through the widespread introduction of modern science, high technology and innovation". Therefore, in the research work carried out in the higher education system, it is important to design and implement pedagogical strategies in line with modern educational trends to ensure the quality and effectiveness of teaching, high intellectual potential and professional competence of specialists and their worthy place in the labor market.

Improving the methodological and scientific-methodological framework for the development of professional training of students in modern education on the basis of pedagogical-strategic design, the development of knowledge, skills and abilities of teachers in the pedagogical process of digital technologies, multimedia, advanced pedagogical technologies, Cultural Organization (UNESCO), International Project on Technical and Vocational Education (Germany), Educational Organization e-DEKA, Aghioi Theodoroi (Almyrra), Korinth Greece

(Greece), Dubnica Institute of Technology in Dubnica nad Váhom Slovakia (Slovakia), University of Research is being conducted in higher education institutions such as Management Education (Ukraine), Gazi University (Turkey), Universitas Negeri Malang, Academy of Education (Russia), Tashkent State Pedagogical University (Uzbekistan).


The following scientific results have been achieved on the problem of improving the professional and pedagogical training of students in the field of vocational education on the basis of strategic design: advanced teaching methods in vocational education and professional competencies of graduates based on the integration of digital technologies (Scientific and Cultural Organization (UNESCO)); Mechanisms for diagnosing the readiness of graduates in the technical field for professional activity and the development of professional competencies of graduates of employers in the manufacturing sector on the basis of training tools have been improved (University of Management Education), as well as Namangan Institute of Engineering and Technology (Uzbekistan).

The purpose of given article is to improve the pedagogical strategy of preparing students for professional activities in the field of vocational education.

2. Methodology

Areas of preparation of students for professional and pedagogical activity are developing with the most advanced methods and directions recognized worldwide. Today, new concepts and theories are being developed in connection with other areas of scientific research in this area, which are waiting for their widespread application. The direction of preparing students for professional and pedagogical activities in higher education is developing in harmony with the development of vocational and pedagogical and technical education as an integral part of general pedagogy, which is relatively young and developing in many areas. The main goal of the new stage of preparing students for professional and pedagogical activity is to train specialists who will be able to adapt to the changing world production conditions, to raise our economy to a new level and to develop a creative approach, independent thinking and application.

Deal to these we make up structure of preparing students in professional activity through competitive approach. (Pic.1.)



Pic.1. Preparing students in professional activity through competitive approach

It is one of the most important requirements for the qualification of a university student ready for a high level of professionalism, which reflects the level of competence in the chosen professional and pedagogical field. According to A.A.Kirsanov, "Preparing students for professional and pedagogical activities in higher education" is an aspect of the student's compliance with the requirements of the employer as a future specialist, high qualification and skills in professional and pedagogical activities, the level of competence in the chosen professional and pedagogical field.




Fig.2. Components of preparation of students for professional and pedagogical activity and conditions affecting it

The study identified the components of preparing students for professional and pedagogical activities: the level of knowledge, socio-personal and professional-pedagogical and conditions that affect the quality of preparation of students for professional-pedagogical activities (see Figure 2).

The development of preparation of students for professional activity in higher education, the pedagogical process in the professional formation of the specialist is carried out in the professional-educational space, which is a factor in determining the personal development, self-awareness, professional orientation of students in higher education.

3. Conclusion

In our study, professional education is given priority as a leading factor in improving the preparation of students for professional activities. In our opinion, the need to combine professional education in higher education stems from the formation of professional-pedagogical, personal and competent qualities of the graduate - a future specialist.

REFERENCES

1. Aleksandrova, Nataliya. Cross-Cultural Competence of Specialists Engaged in International Business, Economic Relationships and Management: Content and Structure (with a view to business challenges). In Future Human Image. Volume 6, 2016: 9-23.
2. Ergashev B.B. Monitoring employers Requirements to quality of Training Higher education Specialiss: Functions and Structure // eastern european Scientific Journal- Ausgabe. №1. 2019. S.145-150. <http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/963/1054>
3. Ergashev B.B. Design Tasks As A Method Of Training Specialiss - Future Informatic Teachers // The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN – 2689-100x). 31.03.2021. Pp: 446-449 Doi:<https://doi.org/10.37547/tajssei/> Volume 03Issue 03-68. <https://theamericanjournals.com/index.php/tajssei/article/view/920/867>
4. Azarova, Ludmila. Public relations higher education A Russian experience. In Higher Education in Europe. Vol. 28. 2003: 495–498.
5. Delikatnyy, Konstantin. Continuity in the «School-University» system. Knowledge, 1986. Educational program with the specialty «Media and communications». RMIT University, Australia. 2017. <http://www.rmit.edu.au/study-with-us/levels-of-study/research>
6. University. 2017f. <http://gspm.gwu.edu/strategic-public-relations-degree-requirements>. Ferrari, Maria. Overview of public relations in South America. In The global public relations handbook: Theory, research, and practice. Expanded and revised edition. Krishnamurthy Sriramesh, Dejan. Vercic (eds.). New York: Routledge, 2009: 704–726.
7. Czech Republic. In Higher Education in Europe. Vol. 28. 2003: 487–494. Saunders, Martha Dunagin. Negotiation as a model for teaching public relations professionalism.
8. Zlateva, Maria. PR education. An instrument for the transformation and development of human resources. Volume. 28. 2003: 511–518.
9. Xifra, Jordi. Undergraduate public relations education in Spain: Endangered species. In Public Relations Review. Vol. 33. 2007: 206–213.
10. An Asian perspective. In Journal of Communication Management. Vol. 7. 2002: 54–70. Tench, Ralph. Towards a Global Curriculum: A summary of literature concerning public relations education, professionalism and globalization. Report for the Global Alliance of Public Relations and Communication Management 2008: <http://www.globalalliancepr.usi.ch/website/sites/default/files/fedeles/Global%20Curriculum/Towards%20a%20Global%20Curriculum%20%20final%20Feb1.pdf>

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA PICRAT MODELINI ASOSIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI

Jo’rayev Muzaffarjon Mansurjonovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, “Informatika” kafedrasida dotsenti v.b, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157427>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyaga tayyorlashda texnologiya integratsiyasi modellarining ehtiyojlari, afzalliklari va cheklovlari bo‘yicha PICRAT modelini tahlillari keltirilgan. PIC (passiv, interaktiv, ijodiy) o‘quvchining ma‘lum bir ta‘lim stsensariysidagi texnologiyaga munosabatini bildiradi. RAT (almashtirish, kuchaytirish, o‘zgartirish) texnologiyaning o‘qituvchining oldingi amaliyotiga ta‘sirini tavsiflaydi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va kengayishi hamda bo‘lajak informatika o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablari oshishi munosabati bilan ularni tayyorlashda PICRAT texnologiya integratsiyasini o‘rgatish foydali model hisoblanib u aniq, mos va samaralidir, texnologiyani maqsadga erishish vositasi sifatida ta‘kidlaydi, va keng qamrovlilikni muvozanatlashtiradi.*

***Kalit so‘zlar:** “PICRAT” ta‘lim resurslari, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, PIC, RAT, ta‘limni raqamlashtirish.*

***Аннотация.** В данной статье представлен анализ модели PICRAT о потребностях, преимуществах и ограничениях моделей интеграции технологий при подготовке будущих учителей к профессиональной деятельности. PIC (пассивный, интерактивный, творческий) относится к реакции учащегося на технологии в данном сценарии обучения. RAT (замена, дополнение, модификация) описывает влияние технологии на предыдущую практику учителя. В условиях развития и распространения цифровых технологий и растущих требований к будущим учителям информатики PICRAT представляет собой полезную модель для преподавания интеграции технологий, которая является ясной, актуальной и эффективной, подчеркивает технологии как средство для достижения цели и обеспечивает всеобъемлющий баланс.*

***Ключевые слова:** Образовательные ресурсы “PICRAT”, профессиональная подготовка будущих учителей, PIC, RAT, цифровизация образования.*

***Abstract.** This article presents an analysis of the PICRAT model on the needs, advantages and limitations of technology integration models in the preparation of future teachers for professional activity. PIC (passive, interactive, creative) refers to the learner's response to technology in a given learning scenario. RAT (substitution, augmentation, modification) describes the impact of technology on a teacher's previous practice. With the development and expansion of digital technologies and increasing demands on future computer science teachers, PICRAT is a useful model for teaching technology integration that is clear, relevant, and effective, emphasizes technology as a means to an end, and is comprehensive. balances.*

***Keywords:** "PICRAT" educational resources, professional training of future teachers, PIC, RAT, digitization of education.*

Kirish. Jahonda ta’limning globallashtirish va xalqarolashtirish jarayonida raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash, ularning pedagogik faoliyatini shakllantirishning diagnostik tizimini takomillashtirish, ijodkorlik salohiyatini shakllantirishning elektron monitoringi tizimini yaratish, rivojlantirishning raqamli texnologiyasini joriy etishning metodik tizimini takomillashtirish, mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda turli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo’lajak o’qituvchilarning ijodkorlik salohiyatini raqamli texnologiyalar asosida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning modellarini takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so’ngi yillarda raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, bo’lajak o’qituvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishda raqamlashtirilgan, innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik modellardan foydalanish, “ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish”, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazalarini raqamlashtirilgan ta’lim sharoitiga moslashtirish me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash”, “...informatika... kabi boshqa muhim va talab yuqori bo’lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o’rganish”, “yuksak bilim va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy-pedagogik kadrlar zahirasini yaratish”⁴ kabi ustuvor vazifalar Harakatlar strategiyasida belgilangan bo’lib, “2022- 2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni natijasida raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish va raqamli texnologiyalaridan keng foydalanishning pedagogik imkoniyati kengaytiriladi.

Jahon oliy ta’lim muassasalarida raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish asosida informatika va boshqa yo’nalish talabalari, ularda raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko’nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirishning kreativ modulli texnologiyalari ta’lim jarayoniga tadbiiq etilmoqda. AQSh milliy fanlar akademiyasi, OECD, YuNESKO, sharqiy Xitoy va Shanxay universitetlari bilan hamkorlikda “Fanlarni o’rganish bo’yicha 1-xalqaro konvensiyasi” (2014); bo’lajak informatika mutaxassislarini CSTA K-12 CS Standards (2017) standart talablari asosida tayyorlash, zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalari asosida o’qitishning jahon ta’limi andozalariga mos ilg’or usul va metodlarini joriy etish, raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda ta’limning konseptual asoslari, uzviylik, uzluksizlik, kompetentlilikni rivojlantirish texnologiyalari¹ bo’yicha Yevropa davlatlari, Rossiya, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreyada raqamli ta’lim sharoitida texnologik innovatsiyalarning birligini ta’minlash, ta’lim muassasalarida ilmiy va zamonaviy pedagogik muhitni yaratish orqali bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tahlil va natijalari:

O’qitish texnologiyalari integratsiyasi o’qituvchilardan doimiy ravishda o’zgarib turadigan, siyosiy ta’sir ko’rsatadigan kasbiy talablar, doimiy ravishda rivojlanayotgan ta’lim texnologiyalari resurslari va kontent fanlari va kontekstlari bo’yicha o’zgaruvchan ehtiyojlar bilan

kurashishni talab qiladi. O‘qituvchilar o‘z talabalari kelajakda ta’lim texnologiyalaridan qanday foydalanishlari mumkinligini yoki ularning kasbiy faoliyati davomida texnologiyalar qanday o‘zgarishini oldindan ko‘ra olmaydilar. Shu sababli, talabalar o‘qituvchilarini texnologiya integratsiyasini mazmunli, samarali va barqaror usullarda amaliyotga o‘rgatish juda qiyin vazifadir. Biz ushbu ehtiyojga javob beradigan PICRAT nazariy modelini taklif qilamiz.

Hozirgi vaqtda talabalar o‘qituvchilariga samarali texnologiya integratsiyasini kontseptsiyalashda yordam berish uchun turli xil nazariy modellarni qo‘llaniladi, jumladan

Texnologiya, Pedagogika va Kontent bilimlari — TPACK;

O‘zgartirish - To‘ldirish - O‘zgartirish - Qayta aniqlash — SAMR;

Texnologiya Integratsiyani rejalashtirish — TIP;

Texnologiya integratsiyasi matritsasi — TIM;

Texnologiyani qabul qilish modeli — TAM;

Texnologiya integratsiyasi darajalari — LoTi;

O‘zgartirish - Amplifikatsiya - Transformatsiya — RAT;

Ushbu modellarga ta’lim texnologiyasini o‘rganishning uslubiy yondashuvlarini asoslash uchun adabiyotlarda ko‘pincha havola qilingan bo‘lsa-da, ta’lim texnologiyasini o‘rganishni yaxshilash yoki o‘qitish texnologiyalari integratsiyasi uchun ularning samaradorligi, aniqligi yoki qiymatini baholash uchun juda kam nazariy tanqid va minimal baholash ishlarini topish mumkin. Nisbatan kam sonli tadqiqotchilar ushbu modellarni tanqidiy baholash, ularni tasniflash va taqqoslash, ularning davomiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, taxminlar va ularni qabul qilish jarayonlarini tushunish yoki ushbu sohada yaxshi nazariya nima ekanligini o‘rganishga harakat qilganlar.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim texnologlari raqobatbardosh modellarni tanqidiy baholamasdan, ulardan foydalanishni tushunmasdan va vaqt o‘tishi bilan rivojlanishini o‘rganmasdan salbiy ta’sir o‘tkazadi. Amaliy texnologiya integratsiyasini shakllantiradigan nazariya va voqelik haqida tanqidiy munozarada qatnashmaslik amaliyotga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliyotning mavjud modellari va nazariy asoslarini tanqidiy muhokama qilish zarur bo‘lib, biz quyidagi kontseptual asosni taqdim etamiz, jumladan (a) nazariy modellarni nima va ular texnologiya integratsiyasini o‘rgatish uchun nima uchun kerak, (b) ular qanday qabul qilinadi va vaqt o‘tishi bilan ishlab chiqiladi, (c) ularni nima yaxshi yoki yomon qiladi va (d) texnologiya integratsiyasining mavjud modellari o‘qituvchilarni tayyorlashda qanday samaraga olib boradi. Ushbu fonda biz Hughes va boshqalarning oldingi ishlariga asoslangan talabalar o‘qituvchilarga texnologiya integratsiyasi savodxonligini rivojlantirishda rahbarlik qilishi mumkin bo‘lgan yangi nazariy modelni, PICRATni taklif qilamiz.

O‘qituvchilarning texnologiya integratsiyasini boshqarishning nazariy modeli sifatida PICRAT o‘qituvchilarga fikrlashni rag‘batlantirish, amaliyotga ko‘rsatma berish va talabalar o‘qituvchilarining ishini baholash imkonini beradi. Har qanday nazariy model ma’lum xususiyatlarni yaxshi tushuntiradi va boshqalarni e’tiborsiz qoldiradi, ammo PICRAT o‘qituvchi ta’limining o‘ziga xos konteksti uchun samarali bo‘lishi mumkin bo‘lgan talabaga yo‘naltirilgan, pedagogikaga asoslangan model bo‘lib, o‘qituvchilar tomonidan tushunarli va foydalanishi mumkin, chunki u texnologiya bo‘yicha eng foydali fikrlarni boshqaradi.

Ushbu modelni ishlab chiqishni o‘qituvchi o‘qitishda texnologiyadan foydalanganda o‘ylashi va baholashi kerak bo‘lgan ikkita eng muhim savolni, vaqt cheklavlari, mashg‘ulot cheklavlari va ularning o‘z ta’limotiga nisbatan erkin nuqtai nazarini hisobga olgan holda

boshlashi zarur. Talabalarga e’tibor qaratish uchun modellar zarurligini ta’kidlaydigan tadqiqotlarga asoslanib, bizning birinchi savolimiz “Talabalar texnologiya bilan nima qilmoqda?” O’qituvchilarning o’z pedagogik amaliyotlari haqida fikr yuritishlari muhimligini anglagan holda, bizning ikkinchi savolimiz: “Texnologiyadan foydalanish o’qituvchining pedagogikasiga qanday ta’sir qiladi?”

Uch darajali javob ko’rsatkichi bo’yicha o’qituvchilarning ushbu savollarga javoblari biz PICRAT deb atagan modelni o’z ichiga oladi.

PIC birinchi savol bilan bog’liq uchta variantni bildiradi (passiv, interaktiv va ijodiy);

RAT ikkinchi (almashtirish, kuchaytirish va transformatsiya) uchun uchta variantni ifodalaydi.

Xulosa:

PICRAT texnosentristik fikrlashdan qochib, o’qituvchilarga aniq, samarali va mavjud amaliyot va umidlarga mos keladigan kontseptual vositani taqdim etish uchun keng qamrovlilik va parsimonlikni muvozanatlashtiradi. PICRAT modelining kuchli tomonlarini doimo o’zgarib turadigan, siyosiy ta’sir ko’rsatadigan va intensiv kontekstli tabiatiga qaramay, o’qituvchilarni texnologiyani samarali integratsiyalash uchun o’qitishda foydalanishi mumkin bo’lgan ta’lim va o’z-o’zini aks ettirish vositasi sifatida ta’kidlaymiz. Shu bilan birgalikda kelajakdagi ilmiy tadqiqot ishlarimizda PICRAT modelini turli amaliyotlar va pedagogic sharoitlarda qo’llash, shu bilan birga uning o’qituvchilar amaliyoti, fikrlash va pedagogik o’zgarishlarni qanchalik samarali boshqarishi mumkinligini nazariy asoslangan yondashuvlarini umumiy tahlillarini bayon qilish rejalashtirilmoqda.

REFERENCES

1. Kimmons, R., Graham, C. R., & West, R. E. (2020). The PICRAT model for technology integration in teacher preparation. *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 20(1).
2. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon, and Muzaffar Mansurovich Botirov. "Characteristics Of Teaching Programming Based On Different Principles." *Eurasian Journal of Engineering and Technology* 17 (2023): 85-90.
3. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon, and Yuldashev Sherzod Sattorovich. "IMPORTANT ADVANTAGES OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS USING SPECIAL APPLICATIONS." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 126-133.
4. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon. "DESIGNING THE STRATEGY OF STUDENT INDIVIDUALITY IN INDEPENDENT RESEARCH ACTIVITY." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.4 (2023): 1048-1055.
5. Mansurjonovich, J. M., and Y. S. Sattorovich. "MAXSUS IZLAMALARDAN FOYDALANISH TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING MUHIM AVTOZYATLARI." *Ochiq kirish ombori* 4.3 (2023): 126-133.
6. Juraev, Muzaffarjon Mansurjonovich. "Pedagogical conditions for the development of vocational education through interdisciplinary integration into the vocational education system." *НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ*. 2021.

7. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon. "Methodological foundations for improving the content of training future ict teachers in the conditions of digital transformation of education." *Актуальные вопросы современной науки и образования* 9 (2022).
8. Amador, J., Kimmons, R., Miller, B., Desjardins, C. D., & Hall, C. (2015). Preparing preservice teachers to become self-reflective of their technology integration practices. In M. L. Niess & H. Gillow-Wiles (Eds.), *Handbook of research on teacher education in the digital age* (pp. 81-107). Hershey, PA: IGI Global.
9. Anderson, L. W., Krathwohl, D. R., & Bloom, B. S. (2001). *A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives*. New York, NY: Longman.
10. Archambault, L., & Barnett, J. (2010). Revisiting technological pedagogical content knowledge: Exploring the TPACK framework. *Computers & Education*, 55, 1656–1662. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2010.07.009>
11. Archambault, L., & Crippen, K. (2009). Examining TPACK among K–12 online distance educators in the United States. *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 9(1). Retrieved from <https://citejournal.org/volume-9/issue-1-09/general/examining-tpack-among-k-12-online-distance-educators-in-the-united-states>
12. Brantley-Dias, L., & Ertmer, P. A. (2013). Goldilocks and TPACK: Is the construct “just right?” *Journal of Research on Technology in Education*, 46, 103-128. <https://doi.org/10.1080/15391523.2013.10782615>
13. Burkhardt, H., & Schoenfeld, A. H. (2003). Improving educational research: Toward a more useful, more influential, and better-funded enterprise. *Educational Researcher*, 32(9), 3–14. <https://doi.org/10.3102/0013189X032009003>

**BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING
O‘RNI VA AHAMIYATI**

Kutlimuradov Karamaddin Allabayevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o‘qitish kafedrasida katta
o‘qituvchisi, (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157431>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillar to‘g‘risida bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** “Crafts” to‘garagi, ustoz-shogird an‘anasi, malakaviy amaliyot, Blum taksonomiyasi bilan adaptivligini ta‘minlash orqali xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini o‘qitish jarayonida loyihalash metodi, clever portfolio va “Eminbar” texnologiyalari*

***Аннотация.** В данной статье описаны научно-теоретические основы и принципы формирования профессиональных компетенций будущих учителей технологического образования на основе национальных ценностей.*

***Ключевые слова:** Метод проектирования, умное портфолио и технологии Eminbar в процессе обучения народным ремеслам и художественному дизайну путем обеспечения адаптивности с кружком «Ремесла», традицией мастера-ученика, профессиональной практикой, таксономией Блума*

***Abstract.** This article describes the scientific and theoretical foundations and principles of developing the professional competencies of future teachers of technological education based on national values.*

***Keywords:** Design method, clever portfolio and Eminbar technologies in the process of teaching folk crafts and artistic design by ensuring adaptability with the "Crafts" circle, master-apprentice tradition, professional practice, Bloom's taxonomy*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarorida oliy ta‘limning ma‘naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g‘oyalarga, yuksak ma‘naviyat va insoniylikning milliy an‘analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].


Mazkur qarorning asosiy mazmuni shundan iboratki, talabalar o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtini sevish, milliy qadriyatlar va tarixiy obidalarga nisbatan hurmat, ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan obidalarni asrash, ota bobolarimizdan farzandlarimizga, ustozlardan shogirdlarga o‘tib kelayotgan hunarmandchilikni rivojlantirish, milliy g‘oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni ongli va mustaqil kasb tanlashi uchun shart-sharoit yaratish, yo‘naltirish ishlarining samaradorligi vositalari va usullarini tatbiq etish hamda tadbirkorlik bugungi kunda texnologiya fani o‘qituvchilarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilariga xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanining hozirgi va kelajakdagi ustuvor vazifalarini belgilab olishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi [2]. Bu talabalarning olgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olishlariga imkon yaratuvchi asosiy omili hisoblanadi. Shu sababli xalq hunarmandchiligining jamiyat taraqqiyotida

tutgan o‘rni, uning o‘tmish va kelajakda rivojlanishida ijobiy ta’sir etadigan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarga qadriyat sifatida qarashimiz zarur. Yuqorida keltirilgan omillar asosida ilmiy adabiyotlarda qadriyatlarning rivojlanish darajalarini tahlil qilgan holda quyidagicha tasvirlash mumkin (2-rasm).

Milliy qadriyatlar haqidagi batafsil ma’lumotlar tayyorlash, ularni yoshlar ongiga singdirish asosida ilmiy dunyoqarashni kengaytirishda pedagogik samara beradi. Bu ketma-ketlik shaxs darajasiga erishgandan keyingi intellektual salohiyatga ega bo‘lgandan boshlab baholansa, talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoniyati tug‘iladi va ulardan ta’lim-tarbiya tizimida asosli ravishda foydalanishga erishiladi. Tadqiqot ishida xalq hunarmandchiligining yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, ularning odob-axloq tarbiyasining shakllanishida ta’siri e’tiborga olindi.

Bu maqsadda ta’limiy qadriyatlar mazmunini aniqlab olish talab etiladi (1-rasm).



1-rasm. Ta’limiy qadriyatning mazmuni

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish ilm-fan jadal suratlar bilan taraqqiy etayotgan bugungi davrda dolzarb

ijtimoiy-pedagogik muammo bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, ta’lim sohasida ta’lim oluvchi har bir yosh ertangi kun mutaxassisi hisoblanadi.



2-rasm. Qadriyatlarning rivojlanish darajalari (piramidasi)

Insonni har tomonlama kamol toptirish masalasi murakkab tarbiya jarayoni bo‘lib, jamiyat oldidagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida ajdodlarimizga mos tarbiyalash davlat va jamiyat rivojlanishining asosiy bosqichlarida katta ahamiyat kasb etadi. Tahdqiqot davomida talabalarda xalq hunarmandchiligi asosida milliy qadriyatlarni rivojlantirish turlari shakllantirildi. (3-rasm).



3-rasm. Qadriyat turlari

Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o‘quv uslubiy majmualardan unumli foydalanish asosida texnologik ta’lim o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyalarni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi [3].

Quyidagi jadvalda oliy ta’lim tizimida ta’limning maqsadlari va yondashuvlarda ifodalangan (1-jadval).


1-jadval

Oliy ta’lim tizimida ta’limning maqsadlari va yondashuvlari

Ta’lim qadriyatlari	Ta’limning maqsadlari	O‘rganish yondashuvlari
Idrok, ma’lumot, bilim,	Faktlar va manbalarga kirish. Milliy	Faol o‘rganish usullari

madaniyat.	qadriyatlar orqali fikrlashni shakllantirish. Haqiqatni mustaqil ravishda chiqarib olish qobiliyati	orqali mafkuraviy yondashuv tushunchalar bilan tanishish.
Hayotiy, tabiat (inson hayoti va insoniyat sivilizatsiyasining ichki qadriyati).	Inson hayoti va insoniyat sivilizatsiyasining ichki qadriyatlarini, milliy qadriyatlarini, ta’limiy qadriyatlar orqali dunyoqarashni shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni qo‘yish qobiliyati	Zamonaviy muammolarni hal qilishda va o‘rganishdagi yondashuvlar orqali o‘tmishdagi g‘oyalardan foydalanish

Milliy qadriyatlar eng avvalo, umuminsoniy, fuqarolik qadriyatlarini, oilaviy hayot va shaxsiy qadriyatlarining mohiyati va mazmuni, oilaviy hayotga o‘rgatish quyidagi hayotiy qadriyatlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi (4-rasm).




4-rasm. Hayotiy qadriyatlar


Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida qo‘llanilayotgan milliy qadriyatlar oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini yangicha yondashuvlar asosida shaxsiy salohiyati oshirishda quyidagicha tariflarni keltirib o‘tamiz. (5-rasm).

Talabalarni milliy qadriyatlar asosida har tomonloma tarbiyalash, ularning shaxsiy sifatlarini shakllantirish hamda o‘z sohasi bo‘yicha yaxshi bilimga ega kasbiy bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish orqali o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishlariga imkoniyat yaratish asosiy maqsad hisoblanadi.

Tadqiqot ishi jarayonida milliy qadriyatlarining mohiyati va mazmuniga oid tushunchalarni rivojlantirish orqali bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini milliy qadriyatlarga uyg‘unlashuviga imkoniyat yaratganligi ko‘rsatib o‘tilgan (6-rasm).



5-rasm. Talabning shaxsiy salohiyati



6-rasm. Talabalarda milliy qadriyatlarga oid tushunchalarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmi

Mazkur jarayonda oliy ta’limdagi qadriyatlar doirasida keltirilgan tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e’tibor qaratilishi, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda quyidagi tarbiyaviy va milliy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- boy ma’naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand bo‘lib borish;
- yoshlarni o‘z o‘tmishiga, milliy, diniy an’analariga hurmat bilan qarashi, o‘z millatining qadr-qimmatini va obro‘-e’tiboridan faxrlanish ilmiy izlanishlarning bugungi darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Biz tadqiqot jarayonida ishning obyektini sifatida qadriyatlar, qadriyat turlari, qadriyatlarning rivojlanish piramidasi, talabalarda milliy qadriyatlarga oid tushunchalarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmi, talabalarining shaxsiy salohiyati, hayotiy qadriyatlar, ta’limiy qadriyatlar bilan insonda shaxsiy mas’uliyati bir-biriga nisbatan tadqiq etildi. Chunki oliy ta’lim muassasalarida talabalarining jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari, hayotda faol ishtirok etishlari, vijdonan xizmat qiladigan kasb sohiblari bo‘lishlarida pedagog olimlarning o‘rni katta.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib shuni aytish joizki pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarida milliy qadriyatlar asosida kasbiy kompetensiyalar tizimini yaratish uchun quyidagilar muhim deb hisoblaymiz: a) maqsadni qat’iy belgilash; b) kasbiy ko‘nikma hosil qilish; v) kompetensiyalar orqali (qoraqalpoq milliy qadriyatlari) bilim ko‘nikmalardan foydalanish; g) maqsadga erishish.

Barcha fanlarni o‘zlashtirish jarayonida talabalarining hunarmandchilikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, ixtisoslik fanlar blokidagi fanlarning barcha mavzulari hunar o‘rganishga, talabalarining hunarmandchilikka oid kasbiy kompetensiyalarini oshirishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, o‘quv rejada ixtisoslik fanlarini yuqori kurslarda o‘qitilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu bois, bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalaridan milliy qadriyatlar asosida foydalanish bosqichlari quyidagicha ko‘rsatsak maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1-bosqich. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda kasbiy bilimlar va tajribalar majmuasi deb qaraladi va kasbiy kompetensiya faoliyatning kamida ikkita komponentini puxta o‘zlashtirib olishi.

2-bosqich. Bu bosqichda bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchisida milliy qadriyatlar asosida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ko‘nikmalarni o‘zlashtirish o‘zida uchta kasbiy komponentini egallashi.

3-bosqich. Mazkur bosqichda bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilari o‘zining faoliyatini tanqidiy tahlil qilish; o‘quv jarayonida qo‘llay olish; ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish; zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish; ko‘nikmalariga ega bo‘lishi hamda metodik faoliyatning komponentlaridan kamida to‘rttasini puxta egallashi kerak.

4-bosqich. Ushbu bosqichda komponentlarning mohiyatini anglash; kasbiy kompetensiyalarni oshirish; ilmiy-tadqiqot ishining maqsad va vazifalarini aniqlash; ularni pedagogik faoliyatga yo‘naltirish; ilg‘or texnologiyalar va nostandart o‘quv mashg‘ulotlariga mos o‘tkazish e’tiborga olinishi zarur.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining bir yoki bir necha yondosh sohalarda bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalarning samarali o‘zlashtirilishini, shuningdek, ularda kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishining pedagogik asoslari milliy qadriyatlar va kasbiy

kompetensiyalarni rivojlantirishda psixologik-pedagogik ishlar natijalari tahlili ko‘rsatadiki, ushbu jarayonning samaradorligi quyidagi shart-sharoitlarga amal qilishga bog‘liq: kasbiy kompetensiyalarda texnologik hujjatlar, o‘qitishning texnik vositalari va faoliyatga yo‘naltiruvchi asoslarini yaratish; texnologik fikrlashini rivojlantirish, muammoli metoddan foydalanish; kasbiy kompetensiyalarni taqqoslash, qiyoslash, tahlil, sintez va boshqa usullarni qo‘llash orqali bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining aqliy faoliyatini shakllantirish; yangi texnika konstruksiyalarini taqqoslash, qiyoslash imkonini beruvchi ko‘rgazmali vositalaridan foydalanish. Pedagogik texnologiyaning muhim g‘oyasi – ijobiy natijaga erishish, uning g‘oyasini amalga oshirish uchun, eng avvalo, o‘qitish tartibini, didaktik tizimni yaratish zarur [4].

Demak bundan bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishning pedagogik asoslari ilm-fanning rivoji bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘ramiz.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni va xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagilarida qo‘llash mumkin: yangi nazariy materiallarni o‘rganish va bayon etishda; nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda; o‘rganilgan o‘quv materialini mustahkamlash, nazorat qilish va tekshirishda; talablarning amaliy mashg‘ulotlarida; ochiq darslar [3].

Olib borgan tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning muhim omillari tushunchasining mohiyati quyidagicha: bilimlar, ko‘nikmalar, qadriyatlar va yo‘nalishlar; bugungi tezkor globallashuv sharoitida milliy moddiy va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash; millatning o‘ziga xos an‘analari, urf-odatlar va o‘lmas qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turish va kasbga yo‘naltirishni o‘z ichiga oladi.

1. Xalq hunarmandchiligi – uzluksiz ta’lim tizimida o‘rganilishi va o‘rgatilishi qulay bo‘lgan milliy qadriyatlardan hisoblanadi.

2. Milliy qadriyatlardan hisoblangan xalq hunarmandchiligining turli sohalarini ta’lim bosqichlarida tizimli ravishda o‘rganish bu sohaning rivojlanishi yosh avlodning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

3. Xalq hunarmandchiligi milliy qadriyatlar sifatida o‘rganilishi bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini mehnat va kasbga tayyorlash jarayonining asosi hamda poydevorini tashkil etmog‘i lozim.

4. Milliy qadriyatlardan hisoblangan xalq hunarmandchiligi sohalarida buyumlarni tayyorlash, ularni o‘rganish va o‘rgatishning o‘ziga xos pedagogik ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llashni talab etiladi.

5. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida milliy qadriyatlarning muhim omillari va ilmiy nazariy asoslarida milliy qadriyatlarni o‘rganish va ta’limning ushbu bosqichiga mos tushadigan, jismoniy, aqliy, ruhiy rivojlanishlarni e‘tiborga olish hamda hunarmandchilikning mahalliy sharoitlarda keng tarqalgan turlari tanlab olinishi lozim.

6. Milliy qadriyatlardan samarali foydalanishda uning mazmuni o‘quv reja, dastur, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik va metodik ishlanmalar va tavsianomalar tuzishda yoritilishi va ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘llanilishi lozim.

7. Xalq hunarmandchiligining turli sohalaridan eng zarurlarini texnologik ta’lim mashg‘ulotlar yoki jarayonlarni o‘quv reja-dasturlariga bosqichma-bosqich turlarga taqsimlangan holda kiritib borish lozim.

8. Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbga yo‘naltirish va hayotga tayyorlashning milliy-tarixiy asoslaridan biri bo‘lishi lozim.

9. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy qadriyatlarni mashg‘ulot va jarayonlar davomiyligida o‘rgatish ta’lim tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Xulosa: Oliy ta’lim tizimi uzluksiz ta’lim tizimining 4-bosqichi hisoblanib, u bakalavriat va magistraturalarni o‘z ichiga qamrab olgan. Oliy ta’limning tasniflagichida pedagogika sohasi dastlabki soha hisoblanadi. Shu sababli, pedagogika sohasidagi ta’lim yo‘nalishi talabalariga chuqur bilim berish bilan bir qatorda, ularda tadbirkorlik va hunarmandchilik kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori. www.lex.uz.
2. Jo‘raev A.P. Dasturlashtirilgan ta’lim vositalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish: Toshkent, 2019. –144 b.
3. Bobomurodova L.E. Innovatsion ta’lim jarayonida bo‘lajak texnologik ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarining kasbiy-metodik ijodkorligini takomillashtirish – Samarqand: 2022. – 127 b.
4. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: – Toshkent, 2019. – 200 b.

INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING SPECIALIZED SUBJECTS

Hojiyeva Iroda

Ph.D. researcher at TSUE

i.hojieva@tsue.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157448>

Abstract. *Innovative educational technologies have revolutionized the way we learn and teach. With the advent of technology, educators now have access to a plethora of tools and resources that can be used to enhance the learning experience of students. In particular, specialized subjects such as science, technology, engineering, and mathematics (STEM) have greatly benefited from these innovative educational technologies. These technologies have not only made learning more engaging and interactive but have also helped students to better understand complex concepts. In this paper, we will explore the various innovative educational technologies that are being used to teach specialized subjects and the impact they are having on student learning outcomes.*

Keywords: *educational technologies, economics education, gamification, simulation, online learning platforms, game design elements, psychological need satisfaction, leaderboards, microeconomics simulation, macroeconomics simulation, safe and controlled environment, critical thinking, decision-making skills, interactive elements, adaptive learning technology*

Literature review

In recent years, there has been a significant increase in the use of innovative educational technologies to enhance teaching and learning in specialized subjects such as science, technology, engineering, and mathematics (STEM). The integration of these technologies has led to a shift from traditional teacher-centered approaches to more student-centered and interactive learning experiences. One of the most popular educational technologies used in STEM education is virtual and augmented reality. These technologies provide students with immersive experiences that allow them to explore complex concepts more engagingly and interactively. Research has shown that virtual and augmented reality can improve student engagement, motivation, and understanding of STEM concepts (Chen et al., 2018; Kirschner et al., 2020).

Another innovative educational technology that has gained popularity in STEM education is gamification. Gamification involves the use of game elements such as points, badges, and leaderboards to motivate and engage students in learning. Studies have shown that gamification can enhance student motivation, engagement, and learning outcomes in STEM subjects (Hamari et al., 2014; Landers et al., 2019). In addition to virtual reality and gamification, other innovative educational technologies such as robotics, coding, and 3D printing are also being used to teach specialized subjects. These technologies provide students with hands-on experiences that allow them to apply their knowledge and skills in real-world contexts. Research has shown that these technologies can improve student learning outcomes and prepare them for future careers in STEM fields (Barron et al., 2011; Chauhan et al., 2018).

Overall, the integration of innovative educational technologies in teaching specialized subjects has led to improved student engagement, motivation, and understanding of complex concepts. As technology continues to evolve, educators need to stay abreast of new developments and incorporate these technologies into their teaching practices to enhance student learning

outcomes. The article on innovative educational technologies in teaching specialized subjects provides valuable insights into the use of technology in STEM education. The discussion highlights the various technologies that are being used to enhance student learning outcomes and engagement, such as virtual and augmented reality, gamification, robotics, coding, and 3D printing.

Changing the methods and technologies of teaching at all levels, increasing the importance of those who form the experience of responsible choice and responsible activity of students the need to stimulate independent work and instill practical skills in information highlights. Therefore, by implementing the principles of student-oriented education, there is a need for a new model of Education built on the basis of modern information technologies was. Seeing them as one of the components of a holistic education system, we are guided by the information we facilitate access, open opportunities for changing educational activities, and the student we will build an educational system that will be an active and equal participant in educational activities. Consequently, the use of information and communication technologies in the educational process is carried out at the modern OSCE we believe that this is one of the ways to improve the quality of Education.

Discussion

The least among the most acute problems associated with the transition to distance education for those who are provided, it is not possible to use modern technologies. For communication some malfunctions of the electronic platforms used, access to the internet network instability, as well as from modern technical resources of professors and teachers' difficulties in its use have affected the quality of Education. We use ICT develops mathematical skills and abilities, increases the level of their culture, we came to the conclusion that it expands the worldview of students. Using a computer teaching management activates the mental activity of students, improves the efficiency of mastering increases and therefore affects the quality of Education. Computer as a training weapon one of the main objectives is to improve the level of education that determines the quality of programming and it consists in organizing student labor using pedagogical tools.

Interactive and interactive computer capabilities motivational of the educational process has a significant impact on the industry and its structure. Spelling or punctuation marks on the computer there are ample opportunities to create comfortable working conditions for understanding. Tables, a variety of visualization in educational programs in the form of diagrams, references forms are not only static in dynamics using graphics, color, sound, icons, etc. allows you to use not only information, but also various languages (English, German, Russian). High the use of ICT in mathematics. Activate students' attention, work forms diversification allows you to increase the creative potential of the individual. In the presentation the construction of diagrams, tables will save time, arrange the material more aesthetically allows to pose. Various interesting tasks allow you to make the lesson more interesting: crosswords, drawings, pictures, tests. Thus, students of higher education institutions are represented by their peers by they were able to watch and evaluate the prepared presentations and provide students with demonstrate not only knowledge of computer technology, but also creative abilities gave the opportunity to do.

In addition, from Information Technology at different stages of training it is advisable to use: in the presentation of new material (Power Point Program); training in stages (different training programs); at the time of control and verification (tested with assessment transfer); during the independent work of students (various educational programs). Thus, the content of the teacher's

activity changes: he stops only from the supplier of knowledge, and becomes a developer of new educational technologies. The nature of the student's educational activities also changes dramatically, because it is not only with the teacher and his bandmates, but also with the computer will also be able to communicate. This is one of the main tasks of modern higher education institutions allows you to solve the problem of quality of Education.

Education of our motherland includes comprehensive reforms and reconstruction works he has gone through and is going through a complex process like implementation. Of these the intended goal is to democratize school activities in its, humanitarian the development of principles, the content of educational work on the same basis, its form and consists in a complex update and further improvement of the style. Updated education literally means a new thought, common sense. In the present equal to the dignity, prestige and prestige of education in performers it is also necessary to have Initiative, dedication and business.

The attitude in education will be on the side of most bold movers. Bold movement. And attempt to man, Uzbek national as the classical exponent of pedagogy Abdullah Avlani insisted, the school science can provide enlightenment. From time immemorial, knowledge was valued in us. Those who are knowledgeable are in respect those. Therefore, the service of our country to receive knowledge and receive knowledge serving in the cause is our duty of Supreme humanity. These tasks are relevant one of the important conditions for solving foreign school and pedagogical experiments is learning.

Education through careful and diligent study of international experiences getting rid of hardened, growing forms of work, styles, losing their relevance in addition to being, it has additional rich resources in updating it in a worthy way we will. The head of State said that there is a human resource problem in the country. it was said that the sectors needed modern specialists in line with the pace of reform. To this end, the entire educational system is being improved. Preschool the development is a thorough ground for school lessons. Common middle the quality of education is being improved on the basis of Advanced International experience and modern requirements. Presidential schools, named after our great allies, like specialized schools, creativity schools, Timurbek’s schools modern and innovative educational institutions were established. International experiences in them the fact that it has been established indicates that mature cadres will mature in the future. On November 26, 2019, the president of the Republic of Uzbekistan, announced that the school adopted a resolution “on measures for the establishment of schools”.

In the Address sent by the President to the Oliy Majlis in January of this year improvement of school curricula based on advanced foreign experience, training revision of downloads and subjects, bringing them to international standards he emphasized the need to adapt, improve the quality of textbooks and literature. Improvement of material and technical support in schools, international in the educational process defined the tasks of applying modern pedagogical technologies. Only 10 percent of mathematics, chemistry, physics, and biology classes in our country allocated to practical training. In developed countries, this indicator is 30-50 is a percentage. Therefore, the Ministry of Public Education Information Technologies and Communications wide range of digital technologies in educational programs of the Ministry of Development use, the task of increasing the scope of practical training in specific sciences was set.

Today, the level of development of any nation state and society, first of all, his attention to human capital and human development is a step in this direction measured by actions. Today,

attention is paid to the content of education is reaching the conditions in developed countries... This is proof We will analyze the education system of foreign countries:

Japanese education system

There is no concept of `gifted student` in Japanese education. because each student has a special talent. Within the advanced countries, the specific direction of Japanese education occupies a leading position. In particular, the composition of the Japanese educational system is as follows:

Pre-School, Primary School, junior high school, Upper Secondary School, higher education institutions that are part of higher education systems.

In elementary school, teachers teach children to criticize, that is, to criticize the bad aspects of their behavior, the shortcomings of the school. It can be seen from this that the teacher is not limited to teaching only, but also affects the comprehensive development of the child. Japan is the only state within developed countries where teacher salaries are also high among heads of state.

Compulsory education environment. This stage of education includes children from 6 to 15 years old. Financial assistance is provided to children from needy families.

Upper secondary school includes grades 10-11-12, with day, correspondence, evening sections of such schools. In Upper Secondary Schools, students in the entire educational process take 80 Tests. Students are involved in English, technical education and special testing at their own discretion, in addition to compulsory core subjects.

Students from upper and high school or 12 years of ordinary school are admitted to their universities. Admission to universities is divided into 2 stages: the 1st stage is held in a residential area, for which tests are carried out in Japanese, Mathematics, Physics, Chemistry, sociology, history. Higher education is compulsory in Japan, and it is continuous with professional education related. The role and responsibility of mothers in raising children in Japan is especially great. They consider themselves Noble before the family dynasty and the state so that their children can grow up intelligent, wise and hardworking. In Japan, a lot of methodological manuals and recommendations are published on family education, and a lot of pedagogical advice is given on radio and television.

Home parties in Japanese families are noteworthy. It is a perfect, side-protected device, with a bookcase on the partition, a highlighter, a clock, a pen, paper, a micro calculator and other necessary items, as well as built-in to the alarm buttons that call their parents if necessary. The level of Japanese high schools is slightly higher than the level of US high schools.

As can be seen from the above, the educational system in Japan has acquired high harmony, both in form and content. There are many aspects that are worth learning. Another side of attention is the presence in Japan of such progressive countries as the United States, France, Germany in the world, which are not limited to only national traditions advanced pedagogical work experiences are also creatively assimilated. Such experiments put the educational system of our Republic at a higher level there is no doubt that it will come in handy when lifting.

German education system:

Germany is one of the foci of World enlightenment and culture. In this state, each citizen has the right to freely develop his personality, choose a school, place of study and profession, depending on the inclination and ability of his talents. The school education system consists of primary and secondary education institutions. All public schools are free to attend. In Germany, School Education is divided into the following school types: primary's school; orientation schools; basic school; real school; gymnasium; comprehensive school; special school.

Primary school is the foundation of the education system. After elementary school, students switch to directional school. A basic or full Folk School is mandatory for all students who graduate from primary school and do not attend a real school or gymnasium. The teachers of the main school feel that they are social educators, not teachers. But students in the main school are forced to receive a professional education, despite poor mastering share. Real schools are affiliated to the second phase and usually include grades 5-10. The Real school provides a higher level of extended general education and prepares students for vocational training courses so that they have a profession that places a high demand on independent thinking, a sense of responsibility, human leadership skills.

German education has a very complex system with a specific direction. Justifying himself in obtaining a seat in the German state from among the progressive states there is an incoming education system.

Conclusion.

Solving the problem of the quality of education to the changes of the external environment of educational institutions, how timely and objectively respond to the needs of society, social procedures, how effective and pedagogically based methods and technologies depend on the choice that.

REFERENCES

1. Галиуллин Р.Ф. Развитие предпринимательства в вузах России // Вестн. Удмурт. унта. 2015. Т. 25. Вып. 3. С. 15–21.
2. Кайль Я.Я., Епинина В.С., Ламзин Р.М. Основные тенденции и проблемы развития GR-менеджмента // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки СКАГС. 2017. № 3.
3. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilmfan (metodik qo’llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
4. Yo’ldoshev J.F. Xorijda ta’lim (metodik qo’llanma) - Toshkent: 1995- yil
5. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -, , Boshlang‘ich ta’lim“ jurnali. 2019- yil. 12- son.
6. Ламзин Р.М., Наумова Е.Ю. Функциональные ресурсы современного публичного управления // Инновационные методы решения социально-экономических проблем образования и науки: сб. ст. по итогам Всерос. конкурса исследоват работ магистрантов и аспирантов. Уфа, 2017. С. 13–16.
7. R.Pashova. Amerika maktablarida.- , , Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 2019- yil. 3-son.;
8. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xos yo‘nalishi uslub va tahlili. Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son

**BO’LAJAK PEDAGOGIK KADRLARNING KASBIY PEDAGOGIK
TAYYORGARLIGI MUAMMOSI VA UNING ILMIY-PEDAGOGIK TAHLILI
(TEXNOLOGIK TA’LIM YO’NALISHI TALABALARI MISOLIDA)**

Umarov Xusan Abduraximovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Texnologik ta’lim
metodikasi” kafedrasida dotsent v.b., p.f.f.d., PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158450>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo’lajak pedagogik kadrlar hususan Texnologik ta’lim yo’nalishi talabalarining kasbiy pedagogik tayyorgarligi muammosi va uning ilmiy-pedagogik tahlili borasida so’z borgan.*

***Kalit so’zlar:** innovatsiya, texnologiya, interaktiv metodlar, o’qitish metodlari, evristik ta’lim, integratsiyalangan ta’lim, interfaol ta’lim, informal ta’lim, pedagogik texnologiyalar masalalari.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о проблеме профессиональной педагогической подготовки будущих педагогических кадров, в частности студентов направления технологического образования.*

***Ключевые слова:** инновации, технологии, интерактивные методы, методы обучения, эвристическое образование, интегрированное образование, интерактивное образование, информальное образование, вопросы педагогических технологий.*

***Abstract.** This article deals with the problem of professional pedagogical training of future teaching staff, in particular students in the field of technological education.*

***Keywords:** innovation, technology, interactive methods, teaching methods, heuristic education, integrated education, interactive education, informal education, issues of pedagogical technologies.*

1. Kirish.

Hozir O‘zbekistonda ta’limga katta e’tibor berilmoqda, ta’lim sifatiga va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga yangi talablar qo’yilmoqda. Bugungi oliy ta’lim tizimi kasbiy faoliyatini takomillashtirishga qodir shaxsning kasbiy, ijodiy faolligini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur jadal rivojlanayotgan davrda bo’lajak o’qituvchilarga qo’yilayotgan talablarni aniqlash fan, texnika, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida talabalar o’qitishni tashkil qilish va uning uslublarini muntazam takomillashtirish imkoniyatini beradi. Bu esa o’z navbatida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi, jamiyatning o’sishiga ta’sir etmay qolmaydi. Kadrlar tayyorlashning boshqa yo’nalishlarida bo’lgani kabi, oliy pedagogik ta’lim mazmunida ham bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy faoliyati sohasini kengaytirish va sifat jihatidan o’zgartirish bilan bog‘liq tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O’qituvchining an’anaviy funksiyalari bilan bir qatorda (o’qitish, ta’lim, rivojlanishga yordam berish, baholash, ota-onalar bilan ishlash va boshqalar) ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida o’z kasbiy faoliyatini avvaldan loyihalash kabi kasbiy funksiyalar dolzarblashib bormoqda. Chunki rivojlanayotgan jamiyatimizga o’z tanlovlarining oqibatlarini avvaldan bashorat qilib, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila oladigan, zamonaviy bilimli, yuksak ma’naviyatli va ishbilarmon kadrlar kerak.

Bu borada mamlakatimizda ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020 yil 19 mayda qabul qilingan O‘zbekiston respublikasining “Ta’lim to’risida”gi qonuni, 2017 yil 20

apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2909-sonli qarori, 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931-son qarori, 2019 yil 19 fevraldagi 146-son qarori, Bundan tashqari 2014 yil 28 avgustda qabul qilingan “Ijtimoiy sherikchilik to‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni kabilarni keltirish mumkin. Mazkur islohotlar ta’limini amaliy hamda kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va kompetentlikdan bo‘lajak kadrlarni tayyorgarlik sifatini baholash vositasi sifatida foydalanish borasida yangi izlanishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida individual bilim, tipik ko‘nikmalar emas, balki murakkab pedagogik muammolarni hal qilishga qodir o‘qituvchining kasbiy jihatdan muhim kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘llarini aniqlash bilan bog‘liq butun bir muammolar tizimi yo‘nalishini tadqiq etish extiyojini yuzaga keltirdi.

Shunday ekan, zamonaviy o‘qituvchi kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, onglilik va loyihalash (mavjud vaziyatlarni tahlil qilish, ustuvor muammolarni hal qilish usullarini shakllantirish, o‘z faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlarini ko‘rish va h.k.) asosida tashkil etishi bilan bir qatorda mazkur jarayonda u bilan birga xarakter qilishi mumkin bo‘lgan, yakdil hamkorlarni topishi va ular bilan tandemda samarali xarakter qilishga muvofiq bo‘lishi lozim.

Xozirgi kunda barcha ta’lim muassasalari o‘zlarining bitiruvchilarini tayyorlash jarayonida ularga kelajakda ish beruvchi tashkilotlar bilan birga hamkorlikda ishlashlari lozimligi xech kimga yangilik emas. Ammo mavjud xamkorlik zamon talablariga to‘liq javob beradigan darajada yetarlicha amalga oshirilmayotganligi sababli xamkorlikning zamonaviy innovatsion usullarini joriy etish muammosi hamon aktualigicha qolmoqda va mazkur yo‘nalishda ish olib borish maqsadga muvofiq

2. Asosiy qism (metodologiya, tahlillar, natijalar).

Texnologik ta’lim yo‘nalishining o‘ziga hosligi sabab mazkur yshnalish talabalarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash sifati ko‘plab omillarga bog‘liq. Masalan: o‘quv dasturining sifati; o‘quv jarayoniga jalb qilingan pedagogik universitetlarning ilmiy va pedagogik salohiyati; talabalar tayyorgarligi (shu jumladan abituriyentlar tayyorgarligi); o‘quv jarayonini vositalari sifati (moddiy-texnik, eksperimental baza; o‘quv-uslubiy ta‘minot; foydalaniladigan auditoriyalar; taqdim etilayotgan bilimlar va boshqalar); ta’lim texnologiyalari sifati va boshqalar.

Bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini innovatsion hamkorlik asosida rivojlantirish talabalarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini maqsadli shakllantirish uchun potensial imkoniyatini yaratishga qaratilgan o‘quv materiallarini tayyorlashni va talabalarning o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini maksimal darajada faol o‘zlashtirishga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga ta’sir etuvchi tashkiliy shakl, metod va usullarni tayyorlashda foydalanishni talab qiladi. O‘quv materiallari tarkibini tizimli ravishda tayyorlash quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: tizimli tahlil qilish, modellashtirish, sintez qilish, o‘quv materiallarining o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tarkibiy qismlarini ajratish va ilmiy bashorat qilish.

Talabalarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalariga bir qancha psixologik-pedagogik tadqiqotlar bag‘ishlangan bo‘lsada, tadqiqotchilarning katta qiziqishi va olingan natijalarning ahamiyatiga qaramasdan, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini shakllantirish muammosi hali to‘liq hal etilgan deb bo‘lmaydi. Buning asosiy sabablari quyidagilardir:

- bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining faoliyati mazmuni, mohiyati va rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiradigan kasbiy pedagogik tayyorgarligini shakllantirish jarayonining nazariy va pedagogik asoslarini yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarligini shakllantirish o‘rniga, ularning tayyorgarlik xaqidagi nazariy tushunchaga ega ekanligi bilan qanoatlanuvchi ananaviy yondoshuvlarning keng tarqalganligi va qo‘llanilishi;
- bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarlash jarayonini ilmiy-amaliy tashkil etishda tizimli ta’sir etish o‘rniga, alohida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lmagan tasodifiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan yondashuvdan foydalanilayotganligi;
- ta’lim sohasidagi sifatni baholashning zamonaviy talablariga javob beradigan, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini shakllantirish natijalarini aniqlash va baholash texnologiyasini ishlab chiqish darajalarining nomutanosibligi.

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan sabablar bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligi borasida tadqiqotlarni sifat va miqdor jihatdan ko‘proq o‘tkazilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Buning uchun eng avvalo tadqiqot ob’ekti bo‘lgan – kasbiy pedagogik tayyorgarlik tushunchasini taxlil etaylik.

Kasbiy tayyorgarlik deganda kishi psixik (ruhiy) xolati va jismoniy sog‘lomligining tegishli darajasi bajariladigan ish-faoliyat talablariga mos kelishi tushuniladi. Taniqli psixolog-olim K.K.Platonov ta’kidlaganidek, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi – shaxsning sub’ektiv holati bo‘lib, u o‘zini tegishli kasbiy faoliyatni bajarishga qobiliyatli va tayyor deb hisoblashini bildiradi [1].

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatning sifati va samaradorligi ko‘pgina omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan biri o‘qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi hisoblanadi. U har qanday faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun asosiy, majburiy shart va sharoit hisoblanadi.

Tayyorlik deganda shaxs rivojlanishining ma’lum bir darajasi, vaqtinchalik vaziyat, munosabat, faoliyatni tartibga solish mexanizmi, maxsus uzoq muddatli yoki qisqa muddatli ruhiy holat va muayyan harakatlarga yo‘naltirilgan shaxs kuchlarining jamlanishi tushuniladi. Tayyorlikni qiymat yo‘nalishlari darajasida talqin qilish mumkin, bu sifat va holat, va dinamik jarayon [2].

Kasbiy tayyorgarlik – bu ta’lim oluvchilarni ma’lum bir ish, ishlar guruhini bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni jadallashtirish maqsadidagi kasbiy ta’lim tizimi. Kasbiy tayyorgarlik talabalarning ta’lim darajasini oshirish bilan amalga oshmaydi. Davlat zarur hollarda asosiy umumiy ta’limga ega bo‘lmagan shaxslarga kasbiy tayyorgarlikni qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi. Kasbiy tayyorgarlikni boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi muassasalarida va boshqa ta’lim muassasalarida olinishi mumkin [3].

Bunday faoliyatga kasbiy yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma, qobiliyat shuningdek kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishni ta’minlovchi tashkiliy va pedagogik tadbirlar tizimi kiradi. Bu pedagogik institutlar, universitetlar va qayta tayyorlash fakultetlarida o‘qitish doirasida amalga oshiriladi. Mazkur jaoayonlarning muhim tarkibiy qismi – pedagogik amaliyot hisoblanadi.

Bundan tashqari umumiy hulosa sifatida, kasbiy tayyorgarlik – ma’lum bir faoliyat sohasida ishlashga imkon berish maqsadida, talabalar tomonidan muayyan ish yoki ishlar guruhini

bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashni jadallashtirishga qaratilgan o‘zlashtirish jarayon ekanligini ta’kidlashadi va malaka talablariga qarab mutaxassisdan tegishli kasbiy ta’limini talab qiladigan kasbiy tayyorgarlikning uchta asosiy bosqichini keltirishadi: oliy, o‘rta-maxsus, boshlang‘ich kasb-hunar (past malakali ishchilarni kurslarda tayyorlash, ishlab chiqarishda individual-jamoaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish va boshqalar). Demak tayyorgarlik, malakaning oshishi amaliy mehnat faoliyati jarayonida qo‘yilgan masalalarni mustaqil ravishda yechim topish va hal etish, ongli ravishda ta’lim olish – izlanish yo‘li bilan takomillashtiriladi. Hulosa o‘rnida aytish mumkinki, kasbiy tayyorgarlik – talabalar tomonidan muayyan vazifalarni, bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashni jadallashtirishga qaratilgan faoliyatdir.

Tayyorgarlik kabi munosabat tashqi va ichki sharoitlar, ongli ravishda yoki ongsiz ravishda axborotni idrok etish natijasida shakllanadi.

Tayyorgarlik, tashqi – kasbiy faoliyat jarayoniga nisbatan ma’lum bir xulq-atvor uchun ichki munosabat bilan belgilanadi, shuning uchun ruhiy holatning ajralib turadigan tarkibiy qismlari mavjud, masalan:

- o‘quv-bilish (gnostik) – buning natijasida pedagogik vazifalarni tushunish, ularning ahamiyatini baholash, natijalarni bashorat qilish yotadi;
- hissiy, mas’uliyat hissi – o‘qituvchining hamdardligi bilan ifodalanadi;
- motivatsion – o‘zini yaxshi tomondan ko‘rsatish zarurati, faoliyatda muvaffaqiyat qozonish istagi;
- irodaviy, kuchlarni safarbar qilish va noaniqlikni yengib chiqish kabilar.

Kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik holatining dinamik tuzilishi quyidagi o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan:

- yechimi maqsadga erishishga olib keladigan vazifalarni anglash;
- rejalashtirilgan harakatlar amalga oshiriladigan real sharoitlarni baholash, o‘tmishdagi (avvalgi faoliyatidagi yoki tarixda bo‘lib o‘tgan) ma’nosi jihatdan o‘xshash vazifalarni yechish bilan bog‘liq tajribalarni taxl etish va aktuallashtirish;
- mavjud tajriba va yuzaga keladigan ish sharoitlarini to‘g‘ri baholash asosida muammolarni hal qilishning maqbul usullarini aniqlash;
- maqsadga erishishda o‘z intellektual va emotsional-motivatsion resurslarini safarbar qilish, o‘z-o‘ziga singdirish. [4]

O‘qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik va amaliy tayyorgarligi tizimi ikki bosqichli ierarxik tizimga ajralib turadi.

1. Uzoq muddatli tayyorgarlik – bu har xil vaziyatlarda faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradigan shaxsiy fazilatlarining barqaror rivojlangan tizimi. Bunday tayyorlik doimiy ravishda kasbiy faoliyatda asosiy rol o‘ynaydi. Uzoq muddatli tayyorlanish tarkibi quyidagilardan iborat: kasbiy faoliyatga ijobiy munosabat; kasbning talablariga mos keladigan xarakter, qobiliyat, motivatsion xususiyatlar; kasbga oid bilimlar, ko‘nikmalar va boshqalar.

2. Situatsion tayyorlik – pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi, bu o‘z o‘zidan emas, balki tashqi o‘zaro ta’sirning tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan holda shaxsning individual faol samarali natijaga yo‘naltirilgan holati orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, kasbiy pedagogik tayyorgarlik – bu o‘qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida shaxsiy yondashuv asosida amalga oshiriladigan, aniq va tezkor qaror qabul

qilishi, o‘z ishiga yuqori qiziqish ko‘rsatishi, talabalari bilan samarali aloqani o‘rnatish va olib borish, pedagogik o‘zaro ta’sirning samarali usullariga ega bo‘lish qobiliyatini belgilovchi murakkab hodisadir.

"Kasbga tayyorlik" va "yaroqlilik" tushunchalarini belgilashda quyidagilarga e’tibor qaratish kerak: "tayyorlik" tushunchasi "pedagogik muvofiqlik" tushunchasidan ko‘ra kengroq va murakkabroq [5].

Kasbiy faoliyat, faqatgina inson o‘zining individual xususiyatlariga ko‘ra kasbning talablariga javob bergan holdagina muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin. Bu "kasbiy muvofiqlik" tushunchasining mazmuni hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlikning xarakteristikasi pedagogik jarayonning yakuniy maqsadini aks ettiradigan hujjat, barcha uchun standart bo‘lgan – professiogrammada aks etadi. Mutaxassisning sifat tavsifiy modeli sifatida professiogramma bir necha bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: shaxsiy va kasbiy-pedagogik fazilatlar; psixologik va pedagogik tayyorgarlikka qo‘yiladigan asosiy talablar; mutaxassislik bo‘yicha uslubiy tayyorgarlik mazmuni; maxsus tayyorgarliklar ko‘lami va mazmuni kabilar shular jumlasidandir.

Kasbiy kompetentlik, o‘qituvchining yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligining ifodasi bo‘lib, professiogramma va standart yordamida muntazam ravishda tartibga solinadi. Oxir-oqibat, kasbiy tayyorlik uning yuqori darajadagi modeli sifatida professiogramma bilan mos keladi (D.A.Nazakaz). Buning sababi, professional kompetentlik va tayyorlik shaxsiyatning bir xil holatidir, yagona farq shundaki, professional kompetentlik kasbiy talablarga mos keladigan psixofiziologik fazilatlar va predmet shartlari bilan tavsiflanadi va kasbiy tayyorgarlikda uni motivatsion xamda mohiyatan muhim tarkibiy qism deb atashadi.

M.I.Dyachenko, A.M.Stolyarenkolar[1] mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq quyidagi ikki jihatni ko‘rsatish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar:

1. Dastlabki tayyorlik – bu kadrlarning shu ishni bajarishga imkoniyati (qobiliyati) mavjudligi. U kishida barqaror psixologik tuzilmalarni – kasbiy faoliyatiga doir bilim, ko‘nikma, malakalar, kasb uchun muhim shaxsiy sifatlar mavjudligini o‘z ichiga oladi.

2. Bevosita tayyorlik – bu ma’lum shart-sharoitlarda mutaxassisning psixologiyasi kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligini anglatadi. Kasbiy tayyorgarlikning bu jihati bo‘lajak o‘qituvchining psixologik xolati vaziyatga qarab o‘zgaruvchanligi, harakatchanligi, dinamikligi bilan; mutaxassisning psixik holati va jismoniy sog‘lomligi bilan, jamoadagi ma’naviy-ruhiy vaziyat bilan xarakterlanadi.

Ma’lumki, o‘qituvchi shaxsining kasbiy tayyorgarligi uning chuqur bilimga, pedagogik mahoratga ega bo‘lishini, shuningdek o‘zini, o‘z kayfiyatini boshqara olishini, o‘zining psixologik, madaniy va jismoniy imkoniyatlarini ta’lim-tarbiya ishiga safarbar eta olishini nazarda tutadi.

Kasbiy tayyorgarlikning asosiy va murakkab jixati pedagogning psixologik, kasbiy-psixologik tayyorligi hisoblanadi va u kasbiy vazifalarni bajarishga mutaxassis ruhiy kuchlari – psixologiyasining tayyorlanganlik darajasi bilan bog‘liq.

G.I.Xozyainov [2] o‘z ishlarida pedagogik faoliyatga tayyorlikning asosiy tarkibiy qismlari (nazariy va uslubiy bilimlar, kasbiy-amaliy ko‘nikmalar, shaxsning faoliyati)ni faollashtirishda motivlarning yetakchi rolini asoslab, pedagogik faoliyat turiga ijobiy munosabatni asosiy tarkibiy qism sifatida ko‘rsatadi.


Shu kungacha pedagog olimlar tomonidan pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- pedagogik faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj va motivatsiya mazmuni hamda kasbning mohiyati to‘g‘risida bilim darajasi;
- pedagogik faoliyat natijalari uchun javobgarlikni anglash darajasi;
- bilim, ko‘nikma va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy fazilatlarini jalb qilish va faollashtirish darajasi;
- pedagogik faoliyatga ijtimoiy munosabat sifati, kasbiy qiziqishlar barqarorligi darajasi.

Ba’zida “kasbiy tayyorgarlik” tushunchasi “kasbiy kompetentlik” tushunchasi bilan belgilanadi, bu umumiy ma’nodagi kasbga tayyorlikni shakllantirish, mehnat vazifalarini bajarishga barqaror yo‘naltirishdir. Kasbiy kompetentlik – bu nafaqat natija, balki kasb-hunar va pedagogik ta’lim mazmunini muayyan tizimlashtirish orqali amalga oshiriladigan va to‘rt tarkibiy qismga ega bo‘lgan kasbiy tayyorgarlikning maqsadidir [2].

- Kasbiy va pedagogik bilimlar, ustalik bilan ketma-ket to‘rt bosqichda amalga oshiriladi: kasbiy ahamiyatli bilimlarni idrok etish, anglash, yodlab olish va shunga mos ravishda ularni tanish va yangi pedagogik vaziyatda qo‘llash;
- Kasbiy va pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, quyidagilarda namoyon bo‘ladi: empirik amaliyot jarayonida amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, odatdagi vaziyatlarda namunaviy faoliyat, notanish vaziyatlarda kasbiy faoliyat uslublarini takomillashtirish;
- Ijodiy pedagogik faoliyat tajribasi, bu jarayonga erishishda ushbu bosqichlardan o‘tiladi: pedagogik muammoni anglash va shakllantirish, qisman izlanuvchan va tadqiqot faoliyati;
- Pedagogik faoliyat jarayonida qadriyatli–emotsional yo‘naltirilganlik tajribasi, uch bosqichni o‘z ichiga oladi: o‘qituvchining xulq-atvorining ichki motivatsiyasini shakllantirish, ushbu modelga asoslangan kasbiy va pedagogik xatti-harakatlar, pedagogik faoliyatning ijodiy yo‘nalishi.

Shunday qilib, o‘qituvchining yaxlit pedagogik jarayonni amalga oshirishga tayyorligi mezonlarining umumiyliqi quyidagi sxema bilan ifodalanishi mumkin:



Kompetentlikka insonning mehnat faoliyati davomida qilgan harakatlarining miqdoriga qarab emas, balki faoliyatning natijasiga qarab baho berish to‘g‘ri bo‘ladi. Xuddi shuningdek, savodxonlik darajasiga qarab ham kompetentlikni belgilab bo‘lmaydi.

M.P.Choshanov fikricha, kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlariga quyidagilar kiradi:

- kompetentli odamning bilimlari amaliy tezkor va harakatchan, ular bu bilimlarni doimo yangilab turadilar;

- kompetentlik mazmunli (bilimlar) va jarayonlarga doir (ko‘nikmalar) komponentlariga ega. Muammoning mazmunini tushunishning o‘zi yetarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, ya’ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy tavsifi hisoblanadi;

- kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri yo‘llarni chiqarib tashlash, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik tor ma’nodan malaka talablari doirasida bevosita xizmat vazifalarini bajarish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan shaxs sifatleri yig‘indisining xarakteristikasi sifatida tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan kasbiy kompetentlik shaxs kasbiy sifatlarining negizi hisoblanadigan hamda mehnat va texnologik jarayonlarni tahlil qilish, texnik hujjatlarni va topshiriqlarni tahlil qilish, mehnat jarayonini bexato amalga oshirish, texnologik talablarga rioya qilish, qo‘shimcha malakalarni egallash, madaniyat va jarayonlarni tashkil etishning yuqori darajaliligi, texnologik jarayonda vujudga keladigan nosozliklarni bartaraf etish kabi faoliyatning elementlari orqali taqdim etilgan kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishni taqozo etadi.

V.P.Kozyreva [6] o‘zining tadqiqotlarida mutaxassislar faoliyatining turli darajalaridagi elementlarni tahlil qilish asosida faoliyat turlari va faoliyat turlari tarkibini, shuningdek faoliyatning aniq funksional birliklarini belgilaydigan kasbiy – pedagogik faoliyatning tarkibi hamda mazmunini taklif qildi.

V.D.Simonenko va M.V.Retivыxlar [7] ham mazkur fikrga qo‘shilgan holda quyidagicha ta’kidlashadi “Kasbiy tayyorlik – bu faol va maqsadli faoliyat bo‘lib, bu jarayonda mavjud va yangi olingan ma’lumotlarni qayta ishlash, tashqi tasodifiy, ikkilamchi elementlarni asosiy, ichki qismdan ajratish, o‘rganilayotgan vaziyatlarning mohiyatini aks ettirish, ular orasidagi mantiqiy aloqalarni o‘rnatish amalga oshiriladi.

Talaba bajarishga tayyor bo‘lishi lozim bo‘lgan kasbiy vazifalar ro‘yxati bitiruvchining malaka talablari (standartda)da aks ettirilgan va to‘liq ochib berilgan. U mutaxassisning ishlab chiqarish sohasidagi o‘rnini, o‘z mehnat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy va professional fazilatleri, dunyoqarashi, bilim va malakalariga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Yaqqol namoyon bo‘luvchi ichki kasbiy differentsiatsiyali sharoitida turli mutaxassislik o‘qituvchilari faoliyati barcha pedagogik jarayondagi umumiy tashkiliy va aniq pedagogik vazifalarni hal etishga qaratilgan, bu esa zamonaviy o‘qituvchini ajratib turadi.”

Shu kabi sohaga oid fikrlarni hamda texnologik ta’lim o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan zamonaviy ijtimoiy-texnik talablar hamda mehyoriy xujjatlarni o‘rganish natijasida aniqlanishicha, texnologik ta’limi o‘qituvchisi quyidagi kasbiy-pedagogik faoliyat turlarini amalga oshirish uchun tayyor bo‘lishi kerak: texnologiya hamda kasbiy ta’lim-tarbiya, ishlab chiqarish faoliyati, o‘quv-uslubiy ishlar, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, ilmiy-tadqiqot, madaniy – ma’rifiy faoliyat turlari va boshqalar.

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanishi mutaxassislaridan yangi kasbiy va shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Ularning orasidan tizimli fikrlashni, ekologik, huquqiy, axborot, kommunikativ madaniyatni, ishbilarmonlik madaniyatini, o‘zligini anglash shkningdek, metodik qobiliyatini, o‘z faoliyatini ongli tahlil etish qobiliyatini, noaniqlik sharoitida mustaqil

harakatlarni, ijodkorlikni, amalga oshirilgan ishlar uchun javobgarlik hissi kabilarni ta’kidlab o’tish mumkin.

3.Xulosa.

Texnologik ta’lim o’qituvchisi umumta’lim va maxsus o’quv fanlari bo’yicha nazariy hamda amaliy o’quv mashg’ulotlarini tashkil etadi va olib boradi. U ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etadi (zamonaviy mutaxassis shaxsini kasbiy jihatdan muhim va ahamiyatli fazilatlarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi) va olib boradi, yoshlarni kasbga yo’naltiradi, kasbiy ta’lim bo’yicha tajriba va tadqiqot ishlarini tashkillashtiradi hamda faol ishtirok etadi. Ta’lim muassasalarida tashkiliy – uslubiy ishlarni amalga oshiradi, pedagogik loyihalarni (ta’lim mazmuni, mustaqil ta’lim uslublari va innovatsion faoliyatni) yaratadi.

O’quv-uslubiy hujjatlar (asosiy ta’lim xujjatlari bo’lgan – o’quv rejalari, fan dasturlari, o’quv qo’llanmalari, metodik tavsiyalar)ni ishlab chiqadi, ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasini jihozlash va rivojlantirishda faol ishtirok etadi, shu bilan birga u kasbiy ta’lim muassasalari va tashkilotlarida tashkiliy va boshqaruv ishlarida faol ishtirok etadi.

Texnologik ta’lim o’qituvchisi bir vaqtning o’zida ikkita turli (heterogen): "odam-odam", "odam-texnika" tizimda ishlaydigan murakkab kamsonli kasblar guruhiga mansub va u ko’plab mutaxassisliklarga ega bo’lgan malakali kadrdir.

Tahlil etilgan ishlar va tadqiqotchilar fikrlaridan ko’rinib turibdiki zamonaviy bitiruvchilarini tayyorgarligiga qo’yiladigan talablar kelajakdagi kasbiy faoliyati doirasidagi vazifalari bilan belgilanadi. Ushbu talablarga javob berish uchun o’qishni tugatgandan so’ng bitiruvchilar bir qator kasbiy, ijtimoiy va madaniy ko’nikmalarga ega bo’lishlari kerak. Buning uchun bakalavrlar uchun shunday kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash kerak-ki, u nafaqat fan sohasini to’liq rivojlantirish uchun zamin yaratsin, balki hozirgi bosqichda oliy ta’lim tizimini qayta tashkil etish vazifalariga to’liq mos kelishi va jamiyatning barqaror rivojlanishi sharoitida bitiruvchining tegishli kompetentlik darajasini ta’minlashi lozim.

Demak, bakalavrlarning kasbiy tayyorgarligi doirasida bilimlarni bosqichma-bosqich yangilash, uning nazariy va eksperimental usullarini doimiy ravishda takomillashtirish tendensiyasini ham hisobga olish kerak. Oliy o’quv yurtining malakali bitiruvchisi ushbu o’zgarishlarni ko’rishi va kuzatib borishi va kasbiy faoliyatni doimiy ravishda yangilanib turadigan materiallar asosidagi professional yondashuv doirasida qurishi kerak. Bu esa yuqori darajadagi kasbiy ijodkorlik va kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini talab etadi.

REFERENCES

1. Щуркова Н.Е. Практикум по педагогической технологии. -М.: Педагогическое общество России, 1998. —250 с.
2. Хозяинов Г.И.Мастерство педагога в процессе образования и обучения [Электронный ресурс] : монография / Г.И. Хозяинов .— М. : Физическая культура, 2006 .— 224 с. — Библиогр.: с. 201-203. - ISBN 5-9746-0020-7 .— ISBN 978-5-9746-0020-7 .— Режим доступа: <https://rucont.ru/efd/286718>
3. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. — М., 2002. 223 б.
4. Дружинин В.“Психология” Учебник для гуманитарных вузов. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2001. - 656 с.
5. Шаврина О. Ю. Педагогика учителя. Уфа Стерлитамак, 2000
6. Козырева, Виктория Павловна. Формирование коммуникативной активности у детей с

множественными нарушениями в процессе коррекционной работы : диссертация ... кандидата педагогических наук : 13.00.03 / Козырева Виктория Павловна; [Место защиты: Моск. гос. гуманитар. ун-т им. М.А. Шолохова].- Москва, 2011.- 183 с.: ил. РГБ ОД, 61 11-13/918

7. Симоненко В.Д. ва Ретивых М.В. Общая и профессиональная педагогика: Учебное пособие для студентов, обучающихся по специальности «Профессиональное обучение» Под ред. В.Д. Симоненко, М.В. Ретивых. - Изд-во Брянского государственного университета, 2003
8. Х.А. Умаров, З.А. Умарова / "Использование электроннообразовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы". Перспективные информационные технологии / Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) 2018
9. Umarova F.A., Umarova Z.A., Umarov X.A. “Scientific and practical bases of creation and use of electronic educational resources in educational process.” European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 №. 12,2019. ISSN 2056-5852
10. Abdurakhimovich, Umarov Khusan. "Incessancy Of Education And Activities In The Development Of Professional Education." The American Journal of Social Science and Education Innovations 2.07 (2020): 256-263.
11. Khusan Abdurakhimovich Umarov. (2020). Formation of students’ professional readiness on the basis of innovative ways of cooperation in the conditions of uzbekistan (by the example of future teachers). Journal of Central Asian Social Studies, 1(01), 15-25. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume01issue01-a2>

KREATIVLIK - PEDAGOGNING INNOVATSION FAOLIYATINING ASOSI SIFATIDA

Odiljonova Aziza Abduxakimovna

Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158463>

Annotatsiya. Maqolada pedagoglarda kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish muammosi yoritib berilgan. Pedagoglarda kreativlik shakllanishining psixologik xususiyatlari yuzasidan olimlarning tadqiqotlari tahlil etilgan. Pedagoglarning standart tafakkuri va kreativ fikrlashini turli xil usullaridan foydalangan holda olib borilgan tadqiqotlar, ta’lim jarayonida kreativlik qobiliyatining ahamiyati haqidagi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ifodalangan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, standart tafakkur, qobiliyat, sezitiv davr, irsiyat, ijtimoiy muhit, tasavvur, motiv, innovatsiya, ijodiy fikrlash.

Аннотация. В статье раскрыта проблема формирования и развития творческих способностей педагогов. Анализируются исследования ученых о психологических особенностях формирования креативности педагогов. Исследования, проведенные с использованием различных методов нормативного и творческого мышления педагогов, представлены сведения о значении творчества в образовательном процессе. Выражены социально-психологические факторы, влияющие на развитие творческих особенностей.

Ключевые слова: Креативность, стандартное мышление, способности, сенситивный период, наследственность, социальная среда, воображение, мотив, новаторство, творческое мышление.

Abstract. The article describes the problem of formation and development of creativity among pedagogues. Researches of scientists on the psychological characteristics of the formation of creativity in pedagogues are analyzed. Research conducted using various methods of standard thinking and creative thinking of educators, information about the importance of creativity in the educational process is presented. Socio-psychological factors affecting the development of creativity characteristics are expressed.

Keywords: Creativity, standard thinking, ability, sensitive period, heredity, social environment, imagination, motive, innovation, creative thinking.

Kirish.

Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog‘liq jarayondir. Negaki o‘qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o‘zining sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo‘lishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida o‘rinli foydalana olishi lozim.

Innovatsiya – ingliz tilidan olingan bo‘lib, «In-ichida», «Novus-yangi», «yangilik», «yangilik kiritish» degan ma’noni anglatadi. U muayyan ijtimoiy birlikka (tashkilotga, aholiga, jamiyatga, guruhga, tizimga) yangi, nicbatan turg‘un unsurlarni kiritib borishi va ularning maqsadga muvofiq o‘zgarishidir.

«Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunosik sohasida paydo bo‘lib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma’nosini bildirgan. XX asrning 30 yillarda AQShda «firma innovatsion siyosati», «innovatsion jarayon» atamallari paydo bo‘ldi.

Innovatsiyalar ikki turga bo‘linadi:

•Stixiyali, ya`ni innovatsiyalarga bo`lgan ijtimoiy talablar natijasida paydo bo`lib, bunday innovatsiyalarni yaratishga doir oldindan mo`ljallangan reja, metod va texnologiyalar bo`lmaydi.

•Ongli, ya`ni ilmiy asosga ega maqsadga yo`naltirilgan innovatsiyalar.

Adabiyotlar tahlili.

Innovatsion pedagogika tushunchasi G`arbd 50 yillar oxirlarida, bizning mamlakatimizda esa keyingi 10 yillikdan boshlab qo`llanilib, olimlar ushbu sohani maxsus o`rgana boshladilar. Jahon pedagogik nashriyotlarda va jurnallarda innovatsion maqolalar chop etila boshladi. So`ngra YUNESKO qoshida ta`limni rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi tashkil etildi. Bu tashkilot turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta`lim masalalari bo`yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma`lumotlarni tarqatib bordi. Bu jarayonlar bilan bog`liq holda «innovatsion jarayon» tushunchasi vujudga keldi.

Innovatsiya jarayoni - tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizim bo`lib, u o`quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beruvchi innovatsion harakatlar.

Innovatsion jarayonlarga nisbatan ikki xil qarash mavjud:

•Hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g`oya yoritiladi.

• Alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o`zaro ta`siri, ularning birlamchi, raqobati va natijada birining o`rnini ikkinchisi egallashidir.

Innovatsion jarayonlar qo`yidagi bosqichlardan iborat:

1. Yangi g`oyaning paydo bo`lishi, ya`ni fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo`ladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi.

2. Kashf etish vaqti, ya`ni amalga oshgan ob`ekt, moddiy yoki ma`naviy mahsulot namuna ko`rinishidagi yangilik yaratish.

3. Yaratilgan yangilikni qo`shimcha ishlab, mukammallashtirish. Bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi.

4. Yangilikning tarqalishi uning yangi sohalarga diffuziyalanib (qo`shilib) keng tatbiq etilishi.

5. Yangilikning biror sohada hukmron bo`lishi. Yangilik o`z yangiligini yo`qotib, yangilik sifatida mavjud bo`lmay qoladi. Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo`lishi yoki uning yanada samarasi bilan almashishi bilan yakunlanadi.

Yangilikning ikki turi mavjud:

1. Birinchi marta yaratilgan yangilik. Bu yangilik ixtiroga teng, ya`ni yana o`rnatilgan yangi haqiqat demakdir.

2. Avvalgi mavjud bo`lgan nazariyani yanada takomillashtirib, zamonaga moslashtirishdan iborat.

Fanda innovatsion jarayonning kechishini 4 ta asosiy qonuniyatga bo`ysinishi aniqlangan:

1. Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni. Bunda pedagogik jarayonlar haqidagi tasavvurlar buziladi, pedagogik ong buziladi, pedagogik yangilik baholanadi.

2. Nihoyat amalga oshirish qonuni. Bunda yangilikning hayotiyliigi bo`lib, erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi

3. Komillashtirish qonuni. Bunda pedagogik innovatsiya qolipga tushadi va amaliy harakat tendentsiyasiga ega bo‘ladi.

4. Pedagogik innovatsiyaning davriyligi va qaytish qonuni. Bunda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Innovatsion jarayonlarning asosini qo‘yidagi yondoshuvlar tashkil etadi:

1. Madaniyatshunoslik, ya`ni inson uchun bilishning ustuvorligi.

2. Shaxsiy faoliyat, ta`limdagi yangi texnologiyalardan foydalana olish.

3. Ko‘p suhbatli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;

4. Individual - ijodiy (o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro munosabatlari, kreativ faoliyati) yondashuvi.

Innovatsion pedagogik jarayonlar qo‘yidagi belgilari bilan tavsiflanadi:

1. O‘quvchilarning o‘zini-o‘zi boshqarishi va ta`lim-tarbiya olishga yo‘naltirilganligi,

2. O‘quvchining bilish faoliyatining rivojlanganligi,

3. O‘quvchilarning faolligining oshganligi

Metodlar.

Pedagoglarda kreativlik xususiyatlarini rivojlantiruvchi metodikalar dasturi:

1. O‘qituvchining ijodiy fikrlashi, pedagogik masalalarini echish psixologik- pedagogik analizi.

2. O‘qituvchining innovatsion faoliyati: amalga oshirishning texnologiyasi va tuzilishi (nuqtai nazarlar bo‘yicha mulohazalar).

3. Yangilikni qabul qilishda psixologik to‘siqlar (nizolarsiz munosabatlar treningi).

4. Innovatsion munosabatlar rivojlanish uslublari: i jodiy masalalarni ochish kashfiyot uslublari. «Aqliy xujum», xayratlanarli savollar uslubi, innovatsion o‘yinlar va boshqalar.

5. O‘qituvchi mutaxassilik faoliyatida refleksiya (refleksiv qobiliyatlari trenningi).

O‘qituvchining innovatsion faoliyatga bo‘lgan qobiliyatini baholash va o‘ziga-o‘zi baho berish pedagogik karta Innovatsion faoliyatni amalga oshirishga o‘qituvchi mutaxassislik qobiliyatini baholash O‘qituvchi shaxsining individual xususiyatlari:

- Shaxsning asoslangan - ijodiy yo‘nalishi

- Shaxsning ijodiy faoliyat metodologiyasini egallab olish qobiliyati

- Qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish Pedagogik tadqiqot metodlarini bilishi

- Ijodiy faoliyatdashaxsiy ish olib borish imkoniyati

va taqqoslash, jamlash qobiliyati. O‘zi tashkil eta olish qobiliyati

O‘qituvchining kreativligi.

- Ijodiy faoliyatda hamkorlik va ozaro yordam qobiliyati

- Ko‘p sonli echimlarni amalda qo‘llash

- Muloxazalarning mustaqilligi (O‘z fikrini aytishdan uyalmaslik)

- Tasavvur etish, ijodiy hayol. (g‘oyalarni o‘rganishda intellektul` akliy erkinlik)

- Pedagogik faoliyatda bir xilliklardan voz kecha olish, fikrlar harakatsizlikni yenga

olish

- Tavakkalchilik

- Pedagogik faoliyat muammolariga ta`sirchanlik

- Tanqidiy fikrlash, muloxazalarga qobiliyati
- O‘z ishlarini tahlil qila olish qobiliyati

Natijalar.

Yuqoridagi fikrlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda o‘qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mahiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning tatqiqot ob’ektimiz bo‘lgan o‘qituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Shu bilan bir qatorda olim R.A.Mavlanova talaba-yoshlar orasidagi kreativlikni qiyosiy tajriba-sinov asosida tahlil qilishga harakat qilganlar va quyidagi ilmiy ma’lumotlarni taqdim etgan.

1. Olimaning fikricha «refleksiv - innovatsion amaliyot dasturi birinchidan, ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanadi. Emotsional refleksiv oshkoralik va xushmuomalalik muhitiga imkon beradi. Amaliyotga ijodiy fikrlashning rivojlantirish mashqlari kiritiladi.

2. Keyingi bosqich – hamjixatlikda ijodning hayotiyliigi o‘zi yoqtirgan hikoyalarni aytish keyin esa ularni maktab hayotiga kiritish, qahramonlar harakterini ko‘rsatib berish, syujet o‘ylab topish va ijro etish.

3. Shundan keyin u yoki bu personaj nomidan monolog o‘qiladi, qahramonlar harakteri analiz qilinadi.

4. Shundan keyin maktab muammolari ko‘rsatib beriladi, ulardan eng muhimlarini «+» belgisi bilan belgilanadi. Asosiy mashqlar esa o‘qituvchi innovatsioi faoliyati tarkibiy tashkil etuvchilarini modellashtiradi. Quyidagi mashqlar kiritiladi: assotsiativ davra, pedagogik konsulium, ijodiy tortishuvlar, ochiq darslar, praktikum dasturiga talabalarni o‘z refleksiv fikrlashini baholash, analiz qilish.

Xulosa va tavsiyalar.

Yuqorida aytilganidek o‘qituvchining kreativligi va innovatsion munosabati rivojlanayotgan muhit ta’siri ostida shakllanishi kerak. Tekshirishlarga asoslanib, ularga binoan ijodni qandaydir tahliliy vaziyatdan yoki mavjud bilim chegarasida chiqish deb belgilab, shunday tasdiqlash mumkin: kreativ muammoni shaxsiy fikrlarga to‘la dolzarb qo‘yishda ifoda etilgan chuqur xususiyatdir.

O‘qituvchi dolzarblasha oladigan muhit qo‘yidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim: Yuqori darajali noaniq potentsial va ko‘p variantlikka. Noaniqlik tayyor yo‘nalishlarni qabul qilmay o‘zlari izlanishlarini rag‘batlantiradi. Ko‘p variantlilik ularni topishga imkon beradi.

REFERENCES

1. Бухвалов В.А. Алгоритмы педагогического творчества / В.А. Бухвалов. - 2-е изд. - М.: Просвещение. - 2004 – С.96.
2. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. – Москва, 2010. – С. 148.
3. Гилфорда Дж. и М. Салливена Михайлова (Алешина) Е.С. Методика исследования социального интеллекта: Адаптация теста: Руководство по использованию. – СПб: ГП «Иматон», 2006.
4. Маслоу А. Новые рубежи человеческой природы /Пер. с англ. -М.: Смысл, 2009. – С. 425.
5. Торренс П. Тест творческого мышления - ТТСТ: Методические рекомендации по работе с тестом (для школьных психологов)/ Перевод Н.Б.Шумаковой, КИ.Щеблановой, Н.П.Щербо. - М., 2014. – С.44.

**BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA ETNOMADANIY
KOMPYETYENSIYANI MILLIY-HUDUDIY MATYERIALLAR VOSITASIDA
RIVOJLANTIRISH**

Suyarov Nodirjon Taxirovich

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10157356>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar, o‘quvchilarni vatanga bo‘lgan muhabbat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e‘tibor berish kerakligi hamda tasviriy san‘at darslarida Milliy-hududiy mazmundagi materiallar orqali "Tasviriy san‘at" fani dasturlarining an‘anaviy bo‘limlari va mavzularining konkretlashtiruvchi qismi hisoblanib, o‘qituvchilarning ish dasturlariga o‘lkashunoslikka oid hududiy ma‘lumotlar kiritish metodikasi bilan bog‘liq muhim jihatlarni qayd etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Madaniy dialog, ijodkorlik, metod, badiiy-estetik buyumlar, mintaqa, hudud, kompozitsiya, milliy g‘urur, estetik tarbiya.*

***Аннотация.** В данной статье проведен ряд научных исследований по вопросам развития художественно-эстетической компетентности будущих учителей изобразительного искусства, необходимости уделить особое внимание вопросам воспитания учащихся в духе любви к Родине, конкретизации традиционных разделов и тем предметных программ «Изобразительное искусство» на материалах национального и регионального содержания на занятиях по изобразительному искусству, отмечены важные аспекты, связанные с методикой внесения региональной информации, связанной с краеведением, в рабочие программы учителей.*

***Ключевые слова:** Культурный диалог, творчество, метод, художественно-эстетические предметы, регион, территория, композиция, национальная гордость,*

***Abstract.** In this article, a number of scientific studies have been carried out on the development of artistic and aesthetic competence of future teachers of fine arts, the need to pay special attention to the education of students in the spirit of love for the motherland, the concretization of traditional sections and themes of subject programs "Fine Arts" on materials of national and regional content on classes in fine arts, important aspects related to the methodology for introducing regional information related to local history into the work programs of teachers are noted.*

***Keywords:** Cultural dialogue, creativity, method, artistic and aesthetic objects, region, territory, composition, national pride.*

***Kirish.** Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar, o‘quvchilarni vatanga bo‘lgan muhabbat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e‘tibor berish kerakligi hamda tasviriy san‘at darslarida badiiy-didaktik o‘yinlar vositasida tasviriy san‘atni o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirish, bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini etnomadaniy kompetensiyani milliy-hududiy materiallar vositasida rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borish taqozo etmoqda.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoyishining “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” nomli bandida “Bolalarni sport bilan

ommaviy tarzda shug‘ullanishga, ularni musiqa hamda san’at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san’at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish” (2) kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bu o‘z navbatida mamlakatimizda yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishni ta’minlash borasida yangi davrni boshlab berdi va Respublikamizda badiiy ta’limning milliy tizimiga asos solindi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, Respublikamizda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalashning mukammal milliy tizimi shakllantirildi. Bu uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida iste’dodlarni tarbiyalashda o‘z samarasini bermoqda. Zero, bola dunyoga kelar ekan, unda ma’lum darajada ijodiy faoliyatning muayyan turiga nisbatan tabiiy moyilliklar mavjud bo‘ladi.

Maktabda o‘qitiladigan hamma predmetlarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: fan asoslaridan saboq beradigan o‘quv predmetlari (ximiya, biologiya, fizika, matematika, tarix, ona tili); estetik tarbiya berishga qaratilgan o‘quv predmetlari (tasviriy san’at, musiqa, ashula); amaliy faoliyatni o‘rgatadigan o‘quv predmetlari (jismoniy tarbiya, mehnat ta’limi, tasviriy san’at). Fan asoslarini o‘rgatuvchi predmetlarda o‘quvchilarga asosan ushbu sohaga oid bilimlar bayon etiladi. Tarbiyaviy yo‘nalishdagi predmetlar o‘quvchilarda nafosat va go‘zallikni tarkib toptiradi. Faoliyatni o‘rgatish predmetlari jismoniy chiniqish, mehnat qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tasviriy faoliyatning har bir turi o‘quvchilarda aqliy faollikni, ijodkorlikni, badiiy didni shakllantiradi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tabiatga muhabbat singapi insoniy fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bunday fazilatlarsiz ijtimoiy faol shaxsni shakllantirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham har qanday sohada ijodkorlikni namoyon etish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, muhimi, uni to‘g‘ri tashxislash, mazmunan to‘g‘ri yo‘nalish berish shaxsning ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda yetakchi mezon hisoblanadi.

Ma’lumki, har bir madaniyat shu maskanda yashovchilarning dunyoqarashini shakllantiradigan milliy, o‘ziga xos xususiyatlar tizimini o‘z ichiga qamrab oladi, bular esa, bizning fikrimizcha, shaxs tomonidan umuminsoniy, universal va etnomadaniy qadriyatlarining o‘ziga xos talqini natijasida yig‘iladi. *Etnomadaniyat* atamasi ikki iboradan tashkil bo‘lib: *etno* va *madaniyat* so‘zlari qo‘shilmasidan hosil bo‘lib, biror xalqning (masalan, o‘zbek xalqining) kelib chiqishi, uning madaniyati, turmush tarzi, ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayon (davrlarda ravnaq topib, hozirgi kunimizgacha rivojlanib kelayotgan ma’naviy hamda madaniy merosini o‘rganadigan fan hisoblanadi. Etno - yunoncha - *elat*, *xalq* demakdir va shu bilan birga, ma’lum bir elat yoki xalqqa bo‘lgan ishora, ko‘rsatuv. Bu ibora biror xalqning kelib chiqishi (etnogenez)ni ifodalaydi [20:55]. Madaniyatlararo integratsiya etnomadaniy ta’lim jarayonining asosiy va strategik maqsadi hisoblanadi. Agar alohida millat nisbatan qisqa vaqt ichida etnik o‘ziga xoslikka erisha olsa, madaniyatlararo integratsiyaga erishish mintaqada yashovchi barcha etnik guruhlar vakillarining sa’y-harakatlarini talab qiladigan uzoq jarayondir.

“Etnobadiiy ta’lim” tushunchasi XX asrning 90-yillarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Etnobadiiy ta’lim - etnomadaniy ta’lim turlaridan biri bo‘lib, uning mazmunini xalq badiiy madaniyati, ya’ni. xalq amaliy san’ati asarlari, ularni yaratish, ko‘paytirish, mavjud bo‘lish, saqlash, tarqatish va avloddan-avlodga o‘tkazishning an’anaviy shakllari va usullari majmui tashkil etadi. U quyidagi uch komponentni o‘z ichiga oladi: (1) ta’lim-tarbiyaning ilk bosqichidan (propedevtik) oila va ta’lim muassasalarida etnikmadaniy muhitni yaratish (xalq tarixi, madaniyati, urf-odatlar bilan tanishish); (2) ta’lim institutsional shakli (turli ta’lim muassasalarida

fundamental va etnobadiiy ta’lim); (3) faoliyatga yo’naltirilgan (to’garaklar, sinfdan tashqari ishlar), ijtimoiy-madaniy soha va ijodiy markazlar tomonidan ta’minlanadigan qo’shimcha ta’lim.

Zero, umuminsoniyat madaniy taraqqiyot jarayonlaridan nisbatan mustaqil milliy badiiy madaniyat rivojlanishining har bir bosqichi, jahon badiiy madaniyati taraqqiyoti tajribalarining konkret ijtimoiy-tarixiy sharoitlarida umumlashuvini ifodalaydi. Bundan tashqari, milliy badiiy asarlarning muayyan ijtimoiy ong shakllarini, shu jumladan shaxs ekologik onggi, badiiy-estetik tafakkuri va madaniyatini rivojlantirishdagi roli, ular tomonidan umuminsoniyat progressiv yangi tajribalarning o’zlashtirilishi etnobadiiy ta’limga bog’liq bo’ladi.

Tasviriy san’at o’qitish metodikasi sohasida “hududiy (mintaqaviy) komponent” tushunchasi mavjud bo’lib, pedagogika fanida doimiy tadqiq etib kelinadi. Hudud (lotincha *regio* - mamlakat, viloyat, tuman) - kenglik, makon (geografik, ijtimoiy hayot, madaniyat) bilan bog’liq bo’lib, bunda insonning ijtimoiylashuvi, hayot tarzining shakllanishi, milliy urf-odatlarini saqlab qolishi va kelajak avlodga yetkazish hodisasi sodir bo’ladi. Bu dunyoda ijtimoiy hayot normalarining yo’qolib ketayotgan bir davrda juda muhim sanaladi. Shu ma’noda tasviriy san’at darslarida milliy-hududiy mazmundagi materiallardan foydalanish nafaqat qadriyatlarni saqlash vositasi, balki, tasviriy san’at ta’limi mazmunini takomillashtirish omili sifatida ham ahamiyatlidir.

Ilmiy adabiyotlapda “mintaqa” va “hudud” tushunchalarining aniq ta’rifi mavjud emas buning sababi jahon zamonaviy mintaqashunoslik yo’nalishlarida tushunchalarning xilma-xil ma’noda qo’llanishidir. Shu o’rinda rus tadqiqotchilari V.G. Ignatov va V.I. Butov tomonidan berilgan ta’rifga to’xtalamiz. Olimlarning yozishicha: “O’lka - bu tupli millat kishilarini yagona jamoaga birlashtiruvchi umumiy hudud. O’lka - deb geografik, ijtimoiy va madaniy tarixiy o’ziga xoslikka ega bo’lgan va unda yashovchi aholi o’rtasida ma’lum iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy aloqalar o’rnatilgan hudud tushuniladi”.

Tasviriy san’at ta’limi mazmunini takomillashtirishda milliy-hududiy materiallardan foydalanish – deganda tasviriy san’at darslarida o’quvchilarning tarixiy-madaniy obidalar tarixini chuqur o’zlashtirgan va xalq amaliy san’at namunalaridan foydalangan holda Farg’ona vodiysi hududida yashovchi xalqlarning milliy-madaniyatini boshqa madaniyat vakillariga jumladan, jahonga tanitish ko’nikma va malakalarini takomillashtirish nazarda tutiladi. Milliy-hududiy madaniyat deganda ma’lum bir hududda, mintaqada yashovchi xalqlarning turmush tarzi, milliy-madaniy va ma’naviy hayotini tashkil etuvchi “butun madaniy va ma’naviy boyligi” tushuniladi.

Tahlil va natijalari:

Shu ma’noda tasviriy san’at darslarida milliy-hududiy mazmundagi materiallardan foydalanish nafaqat qadriyatlarni saqlash vositasi, balki, tasviriy san’at ta’limi mazmunini takomillashtirish omili sifatida, milliy-hududiy materiallarning badiiy va pedagogik imkoniyatlari art ta’limning milliy madaniyat va san’atga yo’naltirilgan etnobadiiy, zamonaviy o’qitish texnologiyalariga doir loyihaviylik, qayta ishlab chiqishga yo’nalganlik, natijaviylik kabi metodik-texnologik komponentlarini “madaniy dialog” konsepti bilan muqobillik darajasini bosqichma-bosqich kengaytirish orqali aniqlashtirilgan.

Xulosa: Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini tayyorlashda tasviriy san’atni o’qitish hamda amaliy bezak san’at mashg’ulotlarini o’rgatish metodikasi kursi alohida o’rin egallaydi. Chunki o’qitish metodlarini bilmay turib, mashg’ulot olib borib bo’lmaydi.

REFERENCES

1. Суяров Н.Т. Использование регионального компонента на уроках изобразительного искусства 5-7 классов. Jackson ville Florida, USA. December 30 th 2021. – P.1-3. <https://conferencepublication.com>.
2. Suyarov N.T., Erkaev E.T. (2021). Implementation of national-regional component in the educational process in the republic of Uzbekistan. Current research journal of pedagogics. Impact factor: 5.7. (USA), 2 (08), Volume 01, Issue 06, Avgust, 2021. –P.117-121. (ISSN 2767-3278). (Ulrich’s Periodicals Directory 18)
3. Ghiasi G., Larivière V., Sugimoto C.R. On the compliance of women engineers with a gendered scientific system // PLOS ONE. 2015.
4. Ганиева Г.Ж. Гендерные исследования в Центральной Азии. ЎзР ФА Шарқшунослик институти илмий тўплами. № 16 сон. Т. 2013, Б.131-136.
5. Кулиева Ш.Х., Каримова М.Н., Давлаткулова М.Х. (2014) Организация теоретических и практических занятий в процессе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой ученый №8, стр.804-807.
6. Каримова М.Н. (2019) Проблемы и перспективы преподавания предмета "Технология" в общеобразовательных школах. Вестник науки и образования №2-2, (56), стр.17-19.

BOSHLANG‘ICH SINIF “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

¹Artikova Muhayyo Botiraliyevna, ²Otamirzayeva Ko‘xinur Ilhomjon qizi

¹ADPU professori, p.f.d., professor O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shahri

²Doktorant, NamDU, O‘zbekiston Respublikasi, Namangan shahri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158503>

***Annotasiya.** Ushbu maqolada “Boshlang‘ich sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish” to‘g‘risida so‘z boradi. Shu paytgacha ona tili va o‘qish fanlari alohida o‘qitilar edi. Endi esa bu ikki fanni birlashtirgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” deb nomlangan fan tashkil qilindi. Bunda asosan o‘quvchilarning eng og‘riqli muammosi bo‘lgan og‘zaki javob beriladigan, og‘zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she‘rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** savodxonlik, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, grammatik savodxonlik, Ona tili va o‘qish savodxonligi, Xalqaro tadqiqotlar, mashq daftari, yangi darslik, o‘qish texnikasi.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена теме «Совершенствование методики преподавания предмета «Родной язык и грамотность чтения» в начальной школе». До этого родной язык и предметы чтения преподавались отдельно. Сейчас создан предмет под названием «Родной язык и грамотность чтения», объединяющий эти два предмета. При этом самой болезненной проблемой учащихся, которая является самой болезненной проблемой учащихся, является дача устных ответов и выполнение специальных заданий. Им отводится специальное время для чтения стихотворения, данного на заучивание.*

***Ключевые слова:** грамотность, понимание прочитанного, аудирование, грамматическая грамотность, родной язык и грамотность чтения, международные исследования, рабочая тетрадь, новый учебник, техника чтения.*

***Abstract.** This article is about "Improving the methodology of teaching the subject "Native language and reading literacy" in primary school." Until then, mother tongue and reading subjects were taught separately. Now, a subject named "Mother language and reading literacy" has been established, combining these two subjects. In this case, the most painful problem of the students, which is the most painful problem of the students, is to give oral answers and to perform special tasks. A special time is allocated for them to recite the poem given for memorization.*

***Keywords:** literacy, reading comprehension, listening comprehension, grammatical literacy, mother tongue and reading literacy, international studies, workbook, new textbook, reading technique.*

Kirish (Introduction). Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan o‘zgarishlar kelajakda mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta’lim tizimiga ham bog‘liq ekanligi barchamizga ma’lum. Shu bilan birga intellektual salohiyatning o‘sishi, uni sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta’lim samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o‘z ta’sirini o‘tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini o‘sishiga ham sezilarli darajada ta’sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta’limdagi strategik yo‘nalishlardan biri ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilyapti.

Ta’lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta’lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo‘shilishini taqozo etmoqda, o‘zini yaratish imkoni mavjud bo‘lgan innovatsion maydonda ko‘rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o‘zlashtirishdan iborat. Bu holat bugungi kunda dolzarbligi bilan muhimdir, chunki, ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta’lim muassasalarini yashash sharti (bevosita va ko‘chma ma’noda ham), kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo‘lib ham xizmat qiladi. Bugungi davr ta’lim muassasalari oldiga yangi talablarni, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday deydi: “Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak”.

Metodlar (Methods). Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlar va yozish xamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek faoliyatga yo‘nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e’tiborda bo‘lishi lozim. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri lug‘atlar ustida ishlashdir.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur muloxaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish o‘qish orqali tevarak atrof borliq xaqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish xar qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy kreativ fikrlash ko‘nikmasini egallash nazarda tutiladi.

Shu paytgacha ona tili va o‘qish fanlari alohida o‘qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” deb nomlangan yagona fan tashkil etildi. O‘qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she’rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy – ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Natijalar (Results). Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo‘lsa, yangisida bu kompetensiyani rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarga yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o‘qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo‘ladi.

Shu paytgacha ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning grammatikasini o‘rgatish, til strukturasi qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan.

Rang – barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko‘proq urg‘u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o‘qituvchilar uchun “O‘qituvchi kitobi”, o‘quvchilar uchun esa “Mashq daftari” ham bo‘ladi .

Eski darsliklar til strukturasi o‘rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko‘ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg‘u berilgan. Ya’ni asosiy e’tibor so‘z, uning ma’nolarini, o‘rindoshlari, qo‘llanish o‘rinlari, lug‘at boyligi kabi tomonlariga qaratilgan.

Amaldagi darslikdan o‘rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo‘lishidan ko‘ra, didaktik ahamiyatiga urg‘u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she’rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darslikdagi tushunarsiz bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlar izohsiz qoldiriladi edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo‘lgan so‘zlar darslikning orqa qismida maxsus lug‘atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo‘lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirishni boshlagan bola ma’lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o‘quvchilarning eng og‘riqli muammosi bo‘lgan og‘zaki tarzda bajariladigan, og‘zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan.

Yodlash uchun berilgan she’rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillik bir-birini to‘ldiradigan, o‘zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi kitobida ketirilgan “Hoshimjonning oilasi”da ko‘pincha ot so‘z turkumi keltirilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar oila a’zolarini tanish orqali ot so‘z turkumi haqida tushunchaga ega bo‘lishadi. Rasmlar orqali ham o‘quvchilarning fikrlashi kengayib boradi.

Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she’rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo‘lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratiladi edi. Endi esa darslikda o‘qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo‘ladi. Shu paytgacha ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning grammatikasini o‘rgatish, til strukturasi o‘id qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan.

Amaldagi darslikdan o‘rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo‘lishidan ko‘ra, didaktik ahamiyatiga urg‘u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she’rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan. Darsliklardagi tushunarsiz bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlar izohsiz qoldiriladi edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo‘lgan so‘zlar darslikning orqa qismida maxsus lug‘atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo‘lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirishni boshlagan bola ma’lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o‘quvchilarning eng og‘riqli muammosi bo‘lgan og‘zaki javob beriladigan, og‘zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she’rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to‘ldiradigan, o‘zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Ma’lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og‘zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta’lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so‘z qo‘llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni tushunish va anglash ko‘nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, ularning fanlardan yaxshi o‘zlashtirishlariga alohida e’tibor beriladi. Xususan, mamlakatimizda ham bu borada yaxshi o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab o‘quvchilarining bilimini baholash, ta’lim sifatini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish belgilab qo‘yildi.

Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash, unda munosib ravishda ishtirok etish uchun maktablarda aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish zarurligi biz o‘qituvchilar oldiga ko‘ndalang masala sifatida qo‘yildi. Bunga munosib tayyorgarlik ko‘rish uchun xalqaro tadqiqotlarning oldingi yillari natijalariga e’tibor berishimiz lozim. Xalqaro tadqiqotlarning so‘ngi 2016-yilgi natijalarini kuzatsak, Rossiya davlati yetakchi bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Rossiya metodiga nazartashlasak, unda ko‘proq ota-onalar bilan hamkorlik masalalariga e’tibor qaratganlarini kuzatamiz. Bunda turli ertak va hikoyalar ota-onalar tomonidan o‘qib berilgan hamda farzandlar bilan birgalikda savol-javoblar orqali o‘qilgan matn mustahkamlangan. Bolaning har bir voqeylikka nisbatan bo‘lgan munosabati tinglangan.

Keling, eng avvalo, matn hamda o‘quvchilarning matnni tushunish va anglash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi asosiy tushunchalardan biri o‘qish savodxonligiga to‘xtalib o‘tamiz. “Matn (arabcha-yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst) – yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat; bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi” [1]

“O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. O‘quvchilar matnlardan turli shakllarda ma’no olishlari mumkin. Ular maktabda va kundalik hayotda o‘quvchilar jamoalarida qatnashish va zavq olish, o‘rganish uchun o‘qiydilar” [2].

O‘qish savodxonligini oshirish borasida ko‘pchilik olimlar o‘z fikrlarini keltirib o‘tganlar. Xususan, rus olimasi Kovaleva Galina Sergeyevna boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini takomillashtirish yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirgan:

- Axborot matnlarini o‘qishga e’tiborini kuchaytirish (aniq shaklda bayon etilgan ma’lumotlar asosida oddiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirish);
- Gender xilma-xillikni kamaytirish;

– kompyuter bilan ishlashning navigatsion ko‘nikmalarini rivojlantirish (masalan, klaviaturada yozish) [3].

Muxokama bo‘limi (Discussion). Boshlang‘ich ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni tushunish va anglash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda, eng avvalo, o‘quvchida matn tuzish ko‘nikmasini shakllantirishimiz kerak. Birinchi sinfda, ya’ni savod chiqarish davridanoq dastlab og‘zaki so‘ngra yozma tarzda matn tuzishni o‘rgatish lozim. Bolalarga matn tuzishni o‘rgatish ulardagi quyidagi sifatlarni takomillashtirishga yordam beradi:

- atrof – muhit haqidagi tushunchalarning qay darajada shakllanganligini;
- fikr yuritish qobiliyatlarini,
- axborotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini;
- voqeylikka nisbatan mushohada yuritishni;
- munosabat bildirishni;
- voqea hodisa haqida xulosa chiqarishga.

Bunda bizga turli metodlar, didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar ham yordam beradi. Masalan, turli voqealar tasvirlangan rangli rasmlar juda katta qo‘l keladi. O‘qituvchi tomonidan o‘qish darslarining mustahkamlash qismida yoki uyga vazifa sifatida har bir o‘quvchiga alohida tarzda tayyorlangan suratlar beriladi. Bunda o‘quvchilar mustaqil ravishda hamda ota-onalarining ko‘maklari yordamida rasmlarga mos ravishda matn tuzishadi. 1-sinfning birinchi yarim yilligida bu mashq og‘zaki tarzda, keyinchalik yozma tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 2-,3-,4-sinflarda bolalar tomonidan tuziladigan matnlar soddadan murakkabroq ko‘rinishga o‘tib boradi. Ya’ni dastavval ikki, uch gapli matn tuzilgan bo‘lsa, bolaning yoshi, fikr doirasi ortiorishiga qarab matndagi so‘zlar va gaplar hajmi ham, sifati ham ortib boraveradi. Suratlariga qarab matn tuzish bolalarda dunyoqarashning o‘shishiga, adabiyotga nisbatan muhabbatning ortishiga, so‘z boyligining ko‘payishiga, tuzgan matnlariga va o‘qish darslarida matnni tushinish hamda anglash ko‘nikmalarini rivojlanishiga ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bolalarga ota-onalarning yordami juda muhim hisoblanadi. Suratga mos gaplarni bir-biriga ulab, moslab yozishda ota-onalarimiz ko‘makdosh bo‘lishi lozim. O‘quvchi matn tuzish jarayonida uni ongli tarzda tuzadi. Har bir so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish unga keyinchalik dars va darsdan tashqari holatlarda duch keladigan matnlarni tub ma’nosini tushunish hamda anglashga katta yordam beradi [4].

Xulosalar (Conclusions):

1. Mavzuga doir manbalardan rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or pedagogik tajribalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga zarur bilim va ko‘nikmalarni innovatsion texnologiyalar, metod, usul va uslublar orqali yetkazib berish to‘g‘risida nazariy ma’lumotlar o‘rganildi.

2. Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to‘yaxlit matn yaratishgacha bo‘lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirishni boshlagan bola ma’lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o‘quvchilarning eng og‘riqli muammosi bo‘lgan og‘zaki javob beriladigan, og‘zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she’rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to‘ldiradigan, o‘zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

REFERENCES

1. www.yuz.uz
2. Pedagogika ensiklopediya II jild “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti. Toshkent – 2015. 259-bet.
3. “O‘qish madaniyatini oshirish” ilmiy-amaliy seminari materiallari 2018
4. Kuznetsova M.I “PIRLS 2021 solishtirma tadqiqoti doirasida o‘qish savodxonligi shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”
5. www. Markaz.tdi.uz 6. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun /K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – B 16-27-3
6. Bolalar ensiklopediyasi 3-nashri -T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. -664b.
7. X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldasheva, G.Mamatova, H.Boqiyeva. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi – T.: TDPU, 2009-70-bet.
8. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh. 2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi(1-2-qismlar) T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. - 240 b.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, I V-jildlar. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2005-2006-yillar.

MUSTAQIL TA’LIM JARAYONIDA TALABALARGA MUTAXASSISLIK FANLARNI O’QITISHDA O’QUV MATERIALLARINI IMITATSION-VARIATIVLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Obidov Jamshidbek G’ayratjon o’g’li

Farg’ona politexnika instituti dotsenti (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158522>

***Annotatsiya.** Bugungi kunda gipermatn, gipermedia, grafika va kompyuterli ovoz dasturlarining yaratilishi nafaqat axborot texnologiyalaridan ta’lim tizimida samarali foydalanishga, balki undan fan mavzulari bo’yicha noan’anaviy darslarni tashkil etishga imkon yaratmoqda. Innovatsion metodlar orqali ham Imitatsion modellar yaratilishi mumkin. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarga mutaxassislik fanlarni o’qitishda o’quv materiallarini Imitatsion-variativlik asosida shakllantirishning didaktik xususiyatlari ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba’zi hollarda esa murakkab obyektlarni o’rganishning yagona vositasiga aylanadi.*

***Kalit so’zlar:** Innovatsion metod, innovatsion texnologiyalar, imitatsion model, Education modeling, imitatsion-variativlik, modellashtirish.*

***Аннотация.** В настоящее время создание гипертекстовых, гипермедийных, графических и компьютерных звуковых программ позволяет не только эффективно использовать информационные технологии в системе образования, но и организовывать нетрадиционные уроки по научным темам. Имитационные модели также могут создаваться с помощью инновационных методов. В процессе самостоятельного обучения дидактические особенности формирования учебного материала, основанные на имитации-вариативности преподавания студентам профильных предметов, облегчают процесс научного исследования, а в ряде случаев становятся единственным средством изучения сложных предметов.*

***Ключевые слова:** Инновационный метод, инновационные технологии, имитационная модель, Education modeling, имитационно-вариационное моделирование.*

***Abstract.** Currently, the creation of hypertext, hypermedia, graphic and computer sound programs allows not only the effective use of information technologies in the educational system, but also the organization of non-traditional lessons on science topics. Simulation models can also be created through innovative methods. In the process of independent education, the didactic features of the formation of educational materials based on imitation-variation in teaching specialized subjects to students facilitate the process of scientific research, and in some cases become the only means of studying complex objects.*

***Keywords:** Innovative method, innovative technologies, imitation model, Education modeling, imitation-variation, modeling.*


Kirish.

Mustaqil ta’limni o’qitishda talabaga tushunarli bo’lishi uchun turli metodlar orqali dars o’tiladi. Bu narsa talabaga qiziqtirish uyg’otadi. Buning natijasida fanga bo’lgan qiziqish yanada kuchayadi, shundan so’ng natija bilinadi. Innovatsion texnologiyalarni o’rgatishda eng birinchi uning qanday metodda o’qitilishi muhim hisoblanadi.

Metod tushunchasi ham uslub tushunchasiga ega bo‘lib har xil uslublarni qo‘llab talabaga yoki o‘rganuvchiga mustaqil ta’limni sifatli tarzda yetkazishga aytiladi. Metod tushunchasi nafaqat tili o‘rganishda balki turli sohalarda ham qo‘llanilmoqda.

Innovatsion metodlar orqali ham Imitatsion modellar yaratilishi mumkin, chunki metod virtual resurslarni qanday qilib ro‘yobga chiqarib uni havola qilishini ta’minlaydi. Demak Imitatsion modellar orqali virtual resurslar yaratishda nafaqat uning o‘quv metodik qarashlariga balki uning meyoriy tarkibiga ham e’tibor qaratish kerak. Chunki tarkib orqali uning yo‘nalishi anqlanadi. Strukturasi tuzilib jarayonni yaratish Imitatsion-variantivlik asosida shakllantiriladi.

Imitatsion model qurish jarayonida mutaxassislik fanlarini ayniqsa innovatsion texnologiyalardan mavzularni tanlab olish va ularga tasvir grafalarini harakatga keltirish, bu uning to‘liq amalga oshirilganini bildiradi va uning modellashtirish muhiti va tashkil etuvchi imitator quyidagi 1-rasmda keltirilgan. Chunki so‘nggi jarayon faqat tekshirish jarayoni bo‘lib unda tayyor modelni faqatgina amalda qo‘llash qoladi xolos.



1-rasm. Imitatsion modellashtirish muhiti va imitatorlar strukturaviy shakllantirish tasviri.

Ta’lim modellashtirish muhitlari (ingliz. Education modeling) [1] hozirda ancha keng tarqalgan kasbiy funksiyalari bo‘lajak muhandis-metrolog yoki mahsulot sifati menejerlarini tayyorlashda, umuman olganda qo‘llaniladigan har bir Imitatsion atama "odam - mashina" deb ataladi. Haqiqatga maksimal darajada yaqinlashishni ta’minlash, masalan texnika oliy ta’lim sohalari muhandislariga optimal qarorlar va turli xil ta’lim traektoriyalarni, uning aspektlarini hamda unga mos ravishda kognitiv mezonlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Muntazam va nostandart professional vaziyatlar asosan kelajakdagi sifatli ta’lim yoki mustaqil ta’limning ahamiyatini oshirishda maqsadli imitatsion variantivlikni shakllantirishni ta’minlaydigan kreativ-modellashtiruvchi o‘quv muhiti ta’lim sifatini boshqarish tizimining aspektlari bilan kasbiy ko‘nikmalari almashinuvi tajribasi mustaqil ta’lim jarayonidagi talabaning rolini aniqlab berishga xizmat qiladi.

Zamonaviy professional ta’limiy amaliyotlarning katta qismi, u yoki bu tarzda, Imitatsion-variantivlikni ta’minlash bilan bog‘liq dinamik, murakkab tuzilish va muhandis uchun ma’lum bir xavfni ifodalovchi mutaxassislar va ilmiy adabiyotlarda ko‘pincha "muhandis-mashina" intellekti deb ataladigan muhiti. Bu holat kasb-hunar ta’limi sohasidagi mutaxassislarning katta qiziqishini tushuntiradi o‘rganilayotgan kasbiy tizimlar ularning modellari bilan almashtiriladigan

simulyatsiya muhitida faol va interaktiv ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va pedagogik jarayonga integratsiya qilishdan iborat.

Imitatsion o‘quv muhitini ishlab chiqish faqatgina mustaqil ta’lim jarayonida emas, balki raqamli ta’limda an’anaviy ta’lim jarayoni uchun ham dasturiy ta’minot ko‘rinishidagi ularning dizayni ishdan oldin amalga oshiriladi ijobiy va salbiy professional tajribani umumlashtiradigan va sxematiklashtiradigan tahlilchilar, o‘rganish sababiy munosabatlar va munosabatlarni amalda ta’minlashda o‘qituvchilarning o‘rni ham katta variativ qobiliyatlarini o‘quv jarayoniga va yakuniy muhitlarga integratsiya qilish, shu tariqa, yaxlit didaktik tizimni shakllantirishni namoyon etadi [2].

Imitatsion-variativlik asosida takomillashtirilgan modellar yaratishda o‘quv-metodik aksiomalari hamda uning me’yoriy tarkibi.

Hozirgi kunda jamiyat hayotida innovatsion sohaning jadal rivojlanishi, iqtisodiyotda intellektual mahsulot, axborot va ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat ulushining o‘sishi shunga olib keldiki, innovatsiyalar xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va intellektual salohiyat kabi, mamlakatning boyligi hisoblana boshladi. Mamlakatimiz va uning har bir fuqarosi manfaatlarini yo‘lida innovatsion va ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanishning mamlakatda kompleksli innovatsion siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirish uchun qonunchilik asoslari yaratmasdan turib hech ham imkoni yo‘q edi.

Bozor islohotlarining amalga oshirilishi, mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, jahon iqtisodiy tizimining bilimlar va axborot rolining o‘sishi tomon o‘zgarishi, yangi texnologiyalar va kapital bozori o‘rtasidagi aloqalar kuchayishi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning yetakchi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida rivojlanish umumiy qonuniyatlari va tendensiyalarini bilish, shuningdek, boy tabiiy resurslar, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyatga ega bo‘lgan O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holdagina O‘zbekistonning innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tish yo‘llari va usullarini ishlab chiqish mumkin. Zamonaviy dunyoda intellektual mahsulotning tijoratlashuvi, fan va texnika rolining tubdan o‘zgarishi sababli har bir davlat, shuningdek, alohida korxonalar darajasigacha bo‘lgan quyi boshqaruv darajasidagi strukturalar bozor sharoitlarida ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatga resurslar ajratish, bu faoliyat natijalarini amalga oshirishga o‘z munosabati xaqida tasavvurga ega bo‘lishi, ya’ni mamlakat, mintaqa, tashkilot va alohida shaxsning belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga samarali erishish imkonini beradigan o‘z innovatsion siyosatini ishlab chiqishi lozim.

Xulosa va takliflar

O‘qitish nazariyasiga va bu sohaga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar natijalari ko‘rsatadiki, bugungi kunda o‘qitish asosan an’anaviy tushuntirish usullariga tayangan holda olib borilmoqda. Gipermatn, gipermedia, grafika va kompyuterli ovoz dasturlarining yaratilishi nafaqat axborot texnologiyalaridan ta’lim tizimida samarali foydalanishga, balki undan fan mavzulari bo‘yicha noan’anaviy darslarni tashkil etishga imkon yaratmoqda. Taraqqiy etgan xorijiy davlatlar oliy o‘quv yurtlarida hamda respublikamizning yetakchi ta’lim muassasalarida kompyuter texnologiyalari asosida o‘qitish jarayonini tahlil qilinganda bir nechta yo‘nalishlarni ko‘rish mumkin [3].

Imitatsion-variativlik asosida takomillashtirilgan modellashtirish – bilish obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar) ni ularning Imitatsion-variativlik asosida takomillashtirilgan modellari

yordamida tadqiq qilish, mavjud predmet va hodisalarning Imitatsion-variativlik asosida takomillashtirilgan modellarini yasash va o‘rganishdir. Imitatsion-variativlik asosida takomillashtirilgan modellashtirish uslubidan hozirgi zamon fanida keng foydalanilmoqda. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarga mutaxassislik fanlarni o‘qitishda o‘quv materiallarini Imitatsion-variativlik asosida shakllantirishning didaktik xususiyatlari ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba’zi hollarda esa murakkab obyektlarni o‘rganishning yagona vositasiga aylanadi.

REFERENCES

1. O.Mamaraufov., Imitatsion modellashtirishning dasturiy vositalari. Taqdimot 14.03.2016// <https://prezi.com/bfyxcqngabry/imitatsion-modellashtirishning-dasturiy-vositalari/>
2. Rasulovna M. K. et al. Innovation teaching method in primary education //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – T. 5. – C. 31-34.
3. Afzal Sayed Munna, Md Abul Kalam, “Teaching and learning process to enhance teaching effectiveness: a literature review”. School of Business, University of Wales Trinity Saint David, Winchester House, 11 Cranmer Rd, Vassal, London, UK. International Journal of Humanities and Innovation (IJHI) Vol. 4 No. 1, 2021 pp. 1-4

**BOSHLANG‘ICH SINIF “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARIDA
BOG‘LANISHLI OG‘ZAKI NUTQNI O‘STIRISH (2-SINF SINIF “ONA TILI VA
O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLIKLARIDA BERILGAN HIKOYALAR ASOSIDA)**

Payziyeva Zilola Xamidxon qizi

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasi, Yangi Namangan tumani, 62-maktab

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158534>

***Annotasiya.** Ushbu maqolada “Boshlang‘ich sinf Ona tili va O‘qish savodxonligi” darslarida bog‘lanishli og‘zaki nutqini o‘stirish” haqida so‘z boradi. Chunki, o‘quvchilar o‘qishni qunt bilan o‘rganish orqali fan asoslarini ongli o‘zlashtirib, fikr doirasini kengaytirib umumtaraqqiyot darajasini uzluksiz oshira boradilar. Ular qayerda ishlamasin, qayerda o‘qimasin, baribir o‘qishga murojaat qiladilar. O‘qish barcha bilimlarni o‘rganishda eng muhim vositadir, u insonning ijtimoiy hayotida uchraydigan barcha ishlar uchun zarurdir. O‘qish boshqa fanlarni o‘qitish vositasi hamdir. Jamiyat tarixi, tarbiyaviy va boshqa gumanitar fanlar ham o‘qish yordamida o‘rganiladi. O‘qish darslari esa ta’lim berish bilan bir qatorda o‘quvchilar nutqini o‘stirishga ham xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** O‘qish darslari, nutq, bog‘lanishli nutq, nutq o‘stirish, hikoyani qayta o‘qish, didaktik o‘yin.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена теме «Развитие коммуникативной устной речи на уроках родного языка и читательской грамотности начальной школы». Потому что, прилежно обучаясь, студенты сознательно осваивают основы науки, расширяют диапазон своего мышления, непрерывно повышают уровень общего развития. Независимо от того, где они работают или где учатся, они все равно обращаются к учебе. Чтение – важнейший инструмент усвоения всех знаний, оно необходимо для всех видов деятельности в общественной жизни человека. Чтение также является средством преподавания других предметов. С помощью чтения также изучаются история общества, педагогика и другие гуманитарные науки. Уроки чтения служат не только обучению, но и развитию речи учащихся.*

***Ключевые слова:** уроки чтения, речь, связная речь, развитие речи, чтение рассказов, дидактическая игра.*

***Abstract.** This article is about "Development of communicative oral speech in the classes of Mother tongue and Reading Literacy of primary school". Because, by diligently studying, students consciously master the basics of science, expand their range of thought, and continuously increase the level of general development. No matter where they work or where they study, they still turn to study. Reading is the most important tool for learning all knowledge, it is necessary for all activities in the social life of a person. Reading is also a means of teaching other subjects. History of society, educational and other humanities are also studied with the help of reading. Reading lessons serve not only to teach, but also to develop students' speech.*

***Keywords:** Reading lessons, speech, connected speech, speech development, story reading, didactic game.*

Kirish (Introduction). “Bizning havas qilsa arziydigan tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boylıklarimiz bor. Men ishonamanki, Xudo xohlasa, havsa qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham, albatta, bo‘ladi”, degan edi Muhtaram Prezidentimiz Toshkent shaxri vakillari bilan saylovoldi uchrashuvidagi

nutqida [1] Darhaqiqat, yosh avlodni tarbiyalash juda murakkab jarayon hisoblanib, bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ro‘li muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayonida mohirona tadbiiq eta olishi, ta’limning yangi – yangi yo‘l va usullarni izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, og‘zaki va yozma nutqini shakllantiruvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni qo‘llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun esa, boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil qilishda ta’lim texnologiyalari, turli xil metod, usullar va tarqatma materiallardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchisining rivojlanishi va kamol topishi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqa fanlar qatori O‘qish fani ham bolaning har tamonlama rivojlanishida muhim omil sanaladi. O‘quvchilar o‘qishni qunt bilan o‘rganish orqali fan asoslarini ongli o‘zlashtirib, fikr doirasini kengaytirib umumtaraqqiyot darajasini uzluksiz oshira boradilar. Ular qayerda ishlamasin, qayerda o‘qimasin, baribir o‘qishga murojaat qiladilar. O‘qish barcha bilimlarni o‘rganishda eng muhim vositadir, u insonning ijtimoiy hayotida uchraydigan barcha ishlar uchun zarurdir. O‘qish boshqa fanlarni o‘qitish vositasi hamdir. Jamiyat tarixi, tarbiyaviy va boshqa gumanitar fanlar ham o‘qish yordamida o‘rganiladi. O‘qish fani bolaning umumiy taraqqiyotida ham, bilim va mehnatga havasini uyg‘otishda ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, uning yozma shakli butun madaniyatimiz boyliklarini, fan-texnika yutuqlarini avaylab saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi yagona xazinadir, ya’ni u orqali biz milliy qadriyatlarimiz haqida ma’lumot olishimiz, bugungi fan taraqqiyoti natijasida vujudga kelayotgan yangiliklar bilan tanishishimiz mumkin. Demak, adabiyot ham, tarix ham, madaniyat ham hamma meros o‘qish orqali o‘rganiladi.

Yoshlikda olingan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir, deydi dono xalqimiz. Bola yoshligida 2-3 yil ichida shuncha narsani o‘rganib, ko‘p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan va metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qitganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Demak, o‘qishni bolaga yoshligidan o‘rgatish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun quyi sinflarda o‘qish savodini oshirish o‘qitish uchun ajratilgan soatlar ko‘proqdir. Bu fan o‘quvchilarni aqliy, axloqiy va estetik tarbiyada juda katta o‘rin tutishi bilan maktab ta’limida yetakchi hisoblanadi va bundan buyon ham o‘qitish muhim ahamiyatga ega bo‘lib qoladi. Ayniqsa, har bir bolaning shakllanishida o‘qish ulkan ahamiyatga ega. Yuksak ma’naviyatli va madaniyatli kishini, avvalo, uning og‘zaki va yozma nutqi boshqalardan ajratib turadi. O‘quvchilarning ijodiy kuchi va bilish qobiliyatini, mustaqil ishlash malakasini oshirishda ham alohida ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, o‘qitish o‘quvchilarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashda ham alohida o‘rin tutadi.

O‘quvchilar maktabga kelgunlariga qadar ham o‘qish savodidan foydalana olish ko‘nikmasiga ma’lum darajada ega bo‘ladilar. Maktabda o‘qish bolalardagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi, takomillashtiradi va adabiy til normalari tomon yo‘naltiradi. O‘qish orqali har bir o‘quvchining nutq qobiliyati o‘sib, so‘z boyligi oshib boradi. O‘quvchilar ilmiy, siyosiy, badiiy kitoblarni o‘qish bilan o‘z bilim saviyalarini oshirib boradilar. Bu, albatta, til orqali amalga oshadi. Grammatika o‘qitish va nutq o‘stirish bo‘yicha olib borilgan ishlar o‘quvchilarning fikrini tartibga soladi, ya’ni mantiqiy fikrlashga, bilimlarini yozma va og‘zaki tarzda maqsadga muvofiq ravishda bayon etishga o‘rgatadi, kishi yuksak saviyali, madaniyatli bo‘ladi, o‘quvchining aqliy mehnat malakalarini o‘stiradi. Bolalarni o‘qitish kabi masuliyatli kabi vazifa pedagoglarning zimmasiga

yuklatilgan ekan, bu mas’uliyatni his qilgan holda sidqidildan, jonkuyarlik bilan xizmat qilish zarur.[2] Har bir o’qituvchi o’z faniga nisbatan barqaror, bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga erishishlari lozim. “O’qish” faniga qiziqtirish dars mashg’ulotlarini qiziqarli tashkil etish, topshiriqlarning rang-barangligiga erishish, ko’rgazmali, aydiovizual va texnik vositalardan unumli foydalanish, dars mashg’ulotlarining amaliy yo’nalishini kuchaytirish, o’quvchini ta’lim jarayonining sub’ektiga aylantirish singari omillar bilan chambarchas bog’langan.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o’zaro aloqa va xabar funksiyasini, o’zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O’quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir.

Nutq o’stirish nima? Agar o’quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko’zda tutilsa, nutq o’stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug’ati, sintaktik qurilishini, bog’lanishli nutqni) aktiv amaliy o’zlashtirish tushuniladi. Agar o’qituvchi ko’zda tutilsa, nutq o’stirish deganda, o’quvchilar tilning talaffuzi, lug’ati, sintaktik qurilishi va bog’lanishli nutqni aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va priyomlarni qo’llash tushuniladi. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o’quvchilar nutqini o’stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo’lishi kerak. O’quvchilar nutqini o’stirishning metodik talabi o’quvchi o’z fikrini, nimanidir og’zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo’lishi lozim. Bu material qanchalik to’liq, boy, qimmatli bo’lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo’ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so’z, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo’ladi. Shuning uchun nutq o’stirishning uchinchi sharti -nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Boshlangich sinflarda shu o’rinda badiiy asar turlaridan hikoya, she’r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o’rganiladi. Ulardan tashqari, ilmiyommabop maqollarni o’rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, o’quvchilarga ta’siri ham har xil buladi. Shunga ko’ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o’qishda o’qituvchi unga mos metodlarni tanlashi talab etiladi.[3]

Metodlar (Methods). Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo’lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqea hayotning muhim tomonlari uumlashtirib tasvirlanadi. “Hikoya ko’pincha kishi hayotida bo’lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir”. Hikoya mazmunan boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o’quvchilarni asar qahramonning xatti-harakati, tashqi ko’rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko’prok qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo’lgan hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog’lab olib boriladi.

Boshlangich sinflarda hikoyani o’qishga bag’ishlangan ixohli lug’at darslarida o’qilgan hikoya mazmunini ochish, lug’at ustida ishlash, o’qilgan matni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi.

Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tashlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo’ladi. Hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni takkoslash, voqea-hodisalar, xatti-xarakat o’rtasidagi bog’lanishlarni aniqlash va uumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o’qish darsida o’quvchilar ma’nosini tushunmaydigan so’z va iboralar ma’nosini

tushuntirish ham muhim, shu bois ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So‘z ma’nosii tushuntirishga ko‘p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo‘lgan so‘zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi. Hikoyani o‘qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish asosiy o‘rin egallaydi.

Hikoya o‘qilgach, o‘quvchilar o‘ylashi, uz mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O‘qilgan asar yuzasidan beriladigan daslabki savollardan maqsad o‘quvchilarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta’sir etgani, bolalar kim yoki nima qaqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo‘nalishini ochishga, hayotiy personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat asarning asosiy g‘oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda asar syujetni to‘liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar ko‘rilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Savollarni, odatda, o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va kishini jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog‘lanishni to‘liq esda saqlab qolishda o‘quvchilarga yordam beradi. Hikoyani o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g‘oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash jarayonida tanlab o‘qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o‘zlari savol tuzishi, suz bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o‘qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi. Kichik badiiy hikoyani ixohli o‘qish darsni uyushtirishda quyidagi plan varianta sxemasi e’tiborga olinadi:

1) hikoyani o‘qishga tayyorlash hikoyada tasvirlangani kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika...);

2) hikoyani (to‘liq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini) o‘qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o‘quvchining ifodali o‘qishi;

3) idrok etishni tekshirish qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o‘rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suxbat;

4) hikoyani qayta o‘qish (hikoyani qismlarga bulish, o‘quvchilarga o‘qitish, ayrim so‘zlar ma’nosini tushuntirish);

5) hikoyaning har bir bo‘limi yuzasidan suhbat o‘tkazish va sarlavha topish; hikoya rejasini tuzish;

6) hikoyaning ayrim bo‘limlarini ifodali o‘qish;

7) reja asosida qayta hikoyalash;

8) hikoyani ifodali o‘qishga yoki saxnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda);

9) hikoyani ifodali o‘qish va ifodali qayta hikoyalash.[4]

Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog‘liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O‘quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 2- sinf “Ona tili va O‘qish savodxonligi” darsligining 1-qismida joy olgan hikoyalar:

1. Chumolining jasorati (Sa’dullo Quronov);
2. Nobel olaman
3. Shippak (Muhabbat Hamidova)
4. Sharikning tug‘ilgan kuni (Eduard Uspenskiy)

5. Kimni qo‘shni deymiz (Kamola Sodiq qizi);
6. Qish ro‘moli (“Quvnoq qo‘ng‘iroqcha” to‘plamidan);
7. Ushbu voqealar Odam tanasi degan olamda yuz beradi... (“Bolalar uchun biologiya” kitobidan); kabi qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Ushbu hikoyalarning barchasi o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berish bilan bir qatorda og‘zaki bog‘lanishli nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.[5]

Natijalar (Results). Bundan tashqari o‘quvchilarga nutqini o‘stirishning yan bir yo‘llaridan biri turli-xil didaktik o‘yinlarni dars jarayoniga joriy etishdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun didaktik o‘yinlar bilim olishning faollashtiruvchi ish turlaridan biri bo‘lib o‘quvchilarda tafakkur, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantiradi. Didaktik o‘yinlar o‘qish darslarida o‘quvchilarning qiziqishini o‘stiruvchi vositalardan hisoblanadi. Didaktik o‘yinlarning maqsadi o‘quvchilarning fanga, ta‘lim olishga, kitobga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishdir. Didaktik o‘yin bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg‘otadi va ma‘lumotlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu o‘yinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga, tartibga solishga, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilar uchun qiyin bo‘lgan bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Ta‘limiy o‘yinlardan, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma‘lum qismida foydalanish lozim. Boshqotirma, tez aytish kabi o‘yinlar muntazam o‘tkazib turilsa, o‘quvchilarda ma‘lum bir ko‘nikmalar hosil bo‘lib boradi. Dars jarayonida o‘yinlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazishda vazifalar, qoidalar va ularning natijalarini tashkil qilishni aniq belgilab olish lozim. Masalan o‘qish darslarida “So‘zdan so‘z yasash” o‘yinini o‘tkazish o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga, so‘z boyligini o‘stirishga yordam beradi. didaktik o‘yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo‘lish, jasur, qat‘iyatli bo‘lish qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Didaktik o‘yinlar maktab o‘qituvchilari va murabbiylar tomonidan ijod qilingan maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi tayyorlov guruhlaridagi bolalarga va maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan. O‘yin orqali bola jamoani tushunadi. O‘zi bajarayotgan mashg‘ulotga nisbatan ongli munosabatda bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilardagi tortinchoqlik, xato qilishdan qo‘rqish kabi noqulayliklarga barham beradi. Didaktik o‘yinlardan na‘munalar:

“Davom ettir”. O‘qituvchi hikoya boshlaydi. O‘quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish ko‘nikmasi rivojlanadi va so‘z boyligi ortadi, nutqi rivojlanadi. Bundan tashqari ularda mustaqillik, o‘z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi. “Davom ettir” o‘yinidan ona tili, o‘qish darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

1-variant: “Umida barvaqt maktabga kelayotganda yo‘lda...”

2-variant: “Havo ilib, qorlar eriy boshladi...”

3-variant: “Biz sinfimizdagi barcha o‘quvchilar, hayvonot bog‘iga bordik...”

“Bo‘lishi mumkin emas”. Bu o‘yinni o‘tkazishda o‘qituvchi hikoyani o‘qiydi. O‘quvchilar bo‘lishi mumkin bo‘lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim. Hazil -mutoyiba bilan o‘tadigan bu o‘yin ham o‘quvchilardan ziyraklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarga befarq bo‘lmilikni ham talab qiladi. Undan tashqari ularning darsdan tashqari bo‘lgan ilmiy - badiiy adabiyotlarga va ilmiy ommabop filmlarga qiziqishini orttiradi va hikoya tinglash

ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Bu o‘yin bir necha marta o‘tkazilgach, keyinchalik o‘quvchilarga shunday hikoyachalar tuzishni ham topshirish mumkin.

“Xotira” o‘yini. O‘qituvchi mavzuga oid so‘zlarni aniq, ammo tez aytadi. Gul, qalam, gulzor, qalamdon. O‘quvchilar ham shu tartibda takrorlab aytishi lozim. Xat-savod o‘rgatish davri o‘quvchilar faoliyatini hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bolaning aqli, irodasi, dunyoqarashi shu davrda shakllanadi, rivojlanadi. O‘yinlar esa ularning qiziqishini oshiradi, kayfiyatini ko‘taradi. Didaktik o‘yinlar, amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchining nutqini o‘stiradi.

“Hikoya” O‘qituvchi xattaxtaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob kabi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

“O‘zaro bog‘liqlik”. O‘quvchilarga rasmi kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o‘quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi. Masalan: “Bu olma. Olma bog‘da o‘sadi va mevalarga kiradi. Uni o‘quvchilar juda yaxshi ko‘rishadi”. Keyin ikkinchi bola ham o‘zidagi predmet haqida gapiradi va o‘zidagi predmet bilan birinchi o‘quvchidagi predmetni o‘zaro bog‘liqligini aytishi kerak. Masalan: “Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o‘quvchilar yaxshi ko‘rishadi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi”. Keyin uchinchi o‘quvchi o‘zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o‘zidagi predmet orasidagi bog‘liqlikni topishi kerak. O‘yin shu tartibda davom etadi.

“Umumiylikni izlash”. O‘quvchilar aylana qurib o‘tiradilar. Olib boruvchi o‘quvchilardan biriga to‘pni otayotib, bir-biri bilan bog‘lanmagan ikkita so‘zni aytadi. Masalan: maktab va o‘quvchi, kitob va javon, quyosh va gul... To‘pni tutib olgan o‘quvchi so‘z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to‘pni qaytaradi.

“Safar”. O‘quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma’lum bir joygacha bo‘lgan yo‘lini tasvirlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar bir necha kun davomida “obyekt”ni mustaqil kuzatadilar va uni og‘zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e’tibor talab etiladigan bu o‘yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga e’tiborli bo‘lish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o‘yinlardan foydalanganda o‘quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug‘at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

Muxokama bo‘limi (Discussion). Yuqorida keltirilgan ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o‘stirishga yo‘naltirilgan har bir mashg‘ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g‘oyasi bevosita ta’lim jarayonida o‘z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o‘zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta’minlanadi.

Xulosalar (Conclusions):

1. O‘quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta’lim mazmuni yoki o‘qituvchigagina bog‘liq emas. Barcha imkoniyatlar to‘laligicha ishga solinsagina fikrni og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatish jarayoni oson kechadi.

2. Didaktik o‘yinlar o‘qish darslarida o‘quvchilarning qiziqishini o‘stiruvchi vositalardan hisoblanadi. Didaktik o‘yinlarning maqsadi o‘quvchilarning fanga, ta’lim olishga, kitobga bo‘lagin qiziqishlarini uyg‘otishdir. Didaktik o‘yin bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg‘otadi va ma’lumotlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu o‘yinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga, tartibga solishga, qiziqish va qobiliyatlarini

rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

REFERENCES

1. Mirziyoyev SH. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. “O‘zbekiston” HMUY, 2017. 482 bet.
2. F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari. T.: “Istiqlol”,2006y.
3. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish metodikasi” T.: Fan va texnologiyalar 2009yil.
4. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo‘llanma TDPU 2016yil.
5. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2021
6. G‘ulomov A., Ne‘matov X , O‘qish mazmuni. Toshkent, "O‘qituvchi", 1995 yil.
7. Ishmuhamedov R., Abdukadirov A., Pardayev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. Toshkent, 2008.
8. Qosimova K. Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldoshova Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent, Noshir nashriyoti, 2009.
9. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. I-II-jildlar. To‘plovchi Safo Matjon. Toshkent, Cho‘lpon, 2006.
10. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. – T.:O‘qituvchi.
11. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.:Sharq, 2000.
12. Muhiddinov A.G‘. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O‘qituvchi, 1995.
13. <http://www.ziyonet.uz/>
14. <http://www.pedagog.uz/>
15. <http://www.edu.uz/>

“SIFAT SO‘Z TURKUMI” MODULINI O‘QITISHGA DOIR INTERFAOL
METODLAR VA ULARNING SAMARALI JIHATLARI

Yakubova Feruza Anvarovna

O‘zJOKU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158548>

Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatidan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlarni ma’naviy va jismoniy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdir. Barkamol shaxsning shakllanishi esa, unga chuqur va sifatli bilim berish, kasbga to‘g‘ri yo‘naltirish, tanlagan sohasi sirlarini mukammal egallashlari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu maqolada ona tili ta’limida interfaol metodlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari, darsni interfaol metodlardan foydalanib tashkil qilishning samarali jihatlari xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Uzluksiz ta’lim, kompetent, ijtimoiy faol, globallashuv. Integratsiya, metodika, lingvistik xususiyat, aqliy hujum, o‘quv material, dastur, zamonaviy metod, axborot texnologiyasi, jarayon, kompetensiya.

Аннотация. Основная цель проводимой в нашей стране образовательной политики-воспитание молодежи как духовно и физически зрелой личности. С другой стороны, формирование гармоничной личности тесно связано с предоставлением ей глубоких и качественных знаний, правильной профессиональной ориентацией, совершенным владением секретами выбранной области. В данной статье рассматриваются особенности применения интерактивных методов в обучении родному языку, эффективные аспекты организации урока с использованием интерактивных методов.

Ключевые слова: непрерывное образование, компетентность, социальная активность, глобализация. Интеграция, методика, лингвистическая характеристика, мозговой штурм, учебный материал, программа, современный метод, информационная технология, процесс, компетенция.

Abstract. The main goal pursued by the educational policy implemented in our country is to educate young people as spiritual and physically mature individuals. The formation of a harmonious personality, on the other hand, is closely related to the fact that they give him deep and high-quality knowledge, direct him to the profession correctly, and perfectly master the secrets of his chosen field. This article covers the specifics of the application of interactive methods in native language education, the effective aspects of organizing a lesson using interactive methods.

Keywords: continuing education, competency, socially active, globalization. Integration, methodology, linguistic feature, mental attack, educational material, program, modern method, information technology, process, competence.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnik taraqqiyotning bugungi zamonaviy bosqichi uzluksiz ta’lim-tarbiya oldiga demokratik jamiyatda erkin yashay oladigan, huquqiy madaniyati shakllangan, ijtimoiy munosabatlarga kirishimli, umuminsoniy qadriyatlarga yo‘nalgan ijtimoiy faol, zamonaviy bilimlarga ega, ma’naviy yetuk va kompetentli mutaxassislarni tarbiyalash vazifasini qo‘ygan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifat-samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.(1) Talabalarda maxsus, shaxsiy va individual yo‘nalishdagi kompetensiyalarni shakllantirishning tashkiliy-metodik ta’minotini takomillashtirish, kasbiy faoliyat obyektlariga mos o‘quv

dasturlarini ishlab chiqish, ularni innovatsion ta’lim sharoitiga mos ravishda kelgusidagi faoliyatga tayyorlash muhim o’rin turadi.

Bugungi kunda jahon miqyosida ro’y berayotgan globallasuv va integratsiya jarayonlari til o’qitish metodikasidagi tub burilishlarga sabab bo’lmoqda.. Zero, til bilim olish, fikr ifodalash va madaniyatlararo muloqot qilishni amalga oshirish vositasi bo’lganligi bois barkamol shaxsni kamol toptirish, shuningdek, har bir mutaxassisning kasbiy layoqatini belgilovchi muhim omildir. (2)

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida keng qo’llanilayotgan o’qitishning zamonaviy interfaol metodlari har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlanishiga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasining ko’tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o’qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirilib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo’naltiruvchi matn, loyiha, rolli o’yinlar kabi metodlarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. (2)

Uzluksiz ona tili ta’limida sifat so’z turkumi materialni leksik va grammatik jihatdan muayyan ketma-ketlikda o’rganish va topshiriqlarni murakkablashtirib borishni taqozo etadi. Sifatni o’rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko’rinishi, maza-taomi, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o’rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma’nosi uni ot bilan bog’liq holda o’rganishni talab qiladi.

O’quvchilar belgi bildirgan sifatlarning nutqdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko’p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarni tushirib qoldirib, so’ngra sifatlari bilan o’qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko’rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so’zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko’rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, sujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi.

Nutqdagi so’z boyligining katta qismi atrofdagi narsa-hodisalar, harakat-holat, belgi-xususiyatlarning nomi sifatida yuzaga kelgan. Bola maktabga kelgan kundan boshlab, ta’lim jarayonida tilning lug’aviy birliklarini o’zlashtirib boradi. O’quvchi lug’atining boyishiga, birinchi navbatda, uni o’rab olgan muhit, o’qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo’lgan muloqot katta ta’sir ko’rsatadi.

Ona tilidan nazariy bilimlar, o’quvchilarni o’qishga o’rgatish badiiy matnlar tahlili asosida amalga oshiriladi. Shu bois ham badiiy asar matnlari o’quvchilar lug’atini boyitish va nutqi o’stirishda muhim manbadir. Ona tili ta’limida lug’at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. Lug’at ustidagi ishlar o’rgatilayotgan mavzular va o’quv materiallari bilan bog’liq holda olib boriladi. Ta’lim oluvchilarga ma’nosini notanish so’zlar barcha so’z turkumlari doirasida uchraydi. Ularning ma’nosi biror metod yoki usullar yordamida o’quvchilarga yetkazilishi lozim. Aks holda o’quvchilarning nutqi qashshoqlashishi mumkin.

Fikrni aniq va ta’sirchan ifodalashda belgi bildirgan so’zlar – sifatlar alohida o’rin tutadi. Uzluksiz ta’lim ona tili darslarida sifatning rang, shakl, maza, hajm, xususiyat bildiruvchi ma’no turlari o’rganiladi.

Amalda rang bildiruvchi sifatlarning badiiy nutqda qo’llanadigan turlaridan nutqda

yetarlicha foydalanmaydi, chunki bunday sifatlarning ma’nosini – qanday rangni bildirishini o’rgatishga e’tibor berilmaydi. Shu bois ko’p hollarda ayrim so’zlarning ot yoki sifat ekanligini farqlanmay qo’llaniladi. Masalan, badiiy matnlarda “zangori, zumrad, malla, jigarrang, yo’l-yo’l, qo’ng’ir, lojuvard, bo’z, alvon, malla-lojuvard, nimrang, olachipor, ola-zangor, targ’il, chipor, moviy, ola-bula, moshrang, sarg’ish-ko’kish“ kabi rang bildiruvchi sifatlar qo’llanildiki, ularning ma’nosi talabalardan so’ralganida ko’pincha aniq aytib bera olmadilar.(3)

Tahlil va natijalar.

Sifat so’z turkumini o’rganishda sharhlash metodidan foydalanib misollarni ko’rib chiqamiz. Talaba matn ustida ishlaganda, “Matndan rang bildiruvchi so’z(sifat)larni toping. Uning qanday rang ma’nosini bildirayotganini ayting” kabi topshiriqlar asosida rang bildiruvchi sifatlar ustida mustaqil ishlarni tashkil etishni yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda yaxshi samara beradi. Misollarga murojaat qilamiz: 1.Yoz kunlari Maxdumning bog’i oq, *nimrang, ola-zangor (olachipor), mala-lojuvard* va boshqa tus kapalaklarning yalt-yult uchishlari bilan alohida bir ko’rinishga kirar edi. (“Mehrobdan chayon”, A.Qodiriy.) Mazkur jumladagi *“nimrang”* sifati ham izoh talab qiladi. Zero, bu sifat “rangi och”, “och rang“ ma’nosini bildiradi, talaba uni biror rangning ochiq ma’nosida anglamasligi mumkin.

“Ola-zangor“, “malla-lojuvard” sifatlarning ma’nosini izohlashda ularni tarkibiy qismlarga ajratib tushuntirishga to’g’ri keladi.

“Ola-zangor“: “Ola“ – oq-qora, oq-malla hokazo qorishiq rang, “zangor” – “yashil va ko’k orasidagi rang, ularning qorishiq tuslisi, och havo rang, moviy” rang ma’nosini bildiradi. “Ola” – oq-qora, oq-malla hokazo qorishiq rang deyilishidan kelib chiqib, “ola-zangor” sifati – “yashil va ko’k ranglarning qorishig’i” ma’nosini bildiradi .

“Malla-lojuvard” sifati (“malla“ – jigar ranga moyilroq och sariq rang) –“tiniq och sariq rang” ma’nosini bildiradi.

2.Tol kurtaklari yorilib, undan *bo’z* momiq g’unchalar chiqadi. (M.Alaviya) gapida *“bo’z”* so’zi “ko’kka moyil oq rang” ma’nosini bildiriyapti. Bu so’z, asosan, otlarning rangiga nisbatan ishlatilishi, uning boshqa ma’nolari ham borligi (“Bo’z” – ekilmay yotgan yer, “bo’z” – qo’l dastgohida paxta ipidan to’qilgan mato, “bo’z” – o’tsimon cho’l o’simligi, chalov, “bo’z“ (yigit) – turmush tajribasiga ega bo’lmagan yigit. Demak, “bo’z” so’zi otdan boshqa, ya’ni shaxsga nisbatan ham qo’llanilar ekan) aytib o’tilsa, bu so’z qo’llangan o’rinlarda matn mazmunini to’g’ri anglashlariga yordam beradi.

“Bo’z momiq” birikmasi ustida quyidagicha ishlash mumkin:

Monitorida *“bo’z momiq”* birikmasi yozilgan slayd aks etadi. Uning ma’nosini izohlash bo’yicha quyidagicha savol-topshiriqlar beriladi:

– Matndagi “bo’z momiq” birikmasining ma’nisini izohlashga harakat qiling.

“Bo’z momiq” birikmasi o’rnida yana qanday so’zni ishlatish mumkin?

Yordam sifatida *“bo’z”* va *“momiq”* so’zlarining o’z va ko’chma ma’nolari doskaga yozib qo’yiladi:

Bo’z – paxtadan to’qilgan mato.

Bo’z – oqqa moyil rang.

Bo’z – ekilmay yotgan yer.

Bo’z – turmush tajribasiga ega bo’lmagan bola (yigit).

Bo’z – o’tsimon cho’l o’simligi, chalov.

Momiq – toza oq paxta.

Momiq – yumshoq yung, tivit

Momiq – paxtaday yumshoq, oppoq (ko‘chma ma’no).

Qo‘shimcha topshiriq. Matnni qayta o‘qing. Shu birikma qo‘llangan jumlaning toping.

– Tol kurtaklari yorilib, undan bo‘z momiq g‘unchalar chiqadi.

O‘ylang. Jumladagi **“bo‘z momiq”** birikmasining ma’nosini doskadagi qaysi ma’nolar orqali izohlash mumkin?

– **“Bo‘z momiq”** – “yumshoq oq rangdagi” degan ma’noni bildiradi. Bunday yondashuvlar talabalarda katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy.

3. Oq rang ketib, bo‘z yerni **alvon** rang qopladi. Dala-tuz, tog‘, o‘nqir, past-baland qirlar ko‘k va **alvon** rangga ko‘milib burkandi. (Yu.X.Hojib. “Qutadg‘u bilig). Mzkur misoldagi **“alvon”** so‘zi arabcha bo‘lib, “qizil, qip-qizil, qirmizi” rang ma’nosini anglatadi.

Sifatlar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishi yaxshi ma’lum. Bu holatni rang bildiruvchi “oq” va “qora” sifatlarida ham ko‘ramiz.

Masalan, Katalakday tor va zax uylarda odamlar **qora** chiroq yoqib o‘tirardilar. (“Toshkent”, E.Malikov)

Rang bildiruvchi sifatning o‘z va ko‘chma ma’nolari taqqoslash usuli yordamida tushuntirish ham yaxshi samara beradi. Bunda sifatning ma’no xususiyatlari va darajalaridagi farqlar o‘zaro qiyoslanadi. Rang bildiruvchi sifatlar doirasida antonimik va omonimik hodisalar ham mavjud. Talabalar bu hodisalar doirasida sifatlar ifodalayotgan ma’no izohlanmasa, gap mazmunini noto‘g‘ri tushunishlariga olib keladi. Masalan:

Bizda yashab, qolmay armoni,

Uchib o‘tar turna karvoni.

Yer-u **ko‘kni** qoplab suroni

Xush qol, kuz!

(Yu.Shomansur)

– **Ko‘k** maysalar yer ko‘ksini yorib chiqadi.

She’riy parchadagi **“ko‘k” so‘zi** osmon ma’nosini, 2-gapdagi **“ko‘k”** rang ma’nosini bildiradi. Bu sifatlar o‘zaro omonim.

Shuningdek, “Ona yurtning omon bo‘lsa, Rangi ro‘ying **somon** bo‘lmas” maqolida **“somon”** so‘zi ot, bug‘doy, arpa, sholi yanchilganda poyalarining maydalanishidan hosil bo‘ladigan mahsulot ma’nosini ifodalaydi. Somonning rangi sariq bo‘lgani uchun maqolda ko‘chma ma’noda – “sariq rang” ma’nosida qo‘llangan.

Otlar **–day, -dek** qo‘shimchalarini olib, rang ma’nosida qo‘llangan, rang o‘xshatish yo‘li bilan ifodalagan:

Baland ishkamlarga o‘rmlab chiqqan husayni, charos va boshqa xil tok navdalarida katta-katta uzum boshlari **oltinday** tovlanar edi. (N.Maqsudiy)

Bu gapda “oltinday” so‘zi “sariq, sap-sariq” ma’nosida kelgan.

Uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan oliy ta’lim tizimida talabalarda kasbiy sifatlarini rivojlantirish nafaqat ta’lim mazmuniga, balki kelgusi faoliyatida qo‘llaydigan bilim, malaka va ko‘nikmalar, shuningdek, shaxsiy sifat va fazilatlarini rivojlantirishni ham nazarda tutiladi.(4)

Xulosa. Aytish joizki, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayoni talabalarda o‘qitishga yangicha yondashish, o‘z kasbiga va o‘zgalarga, ya’ni ta’lim oluvchilarga o‘ta talabchanlik bilan munosabatda bo‘lishni

taqozo etadi.(5) Talabalarning mustaqil bilim olishi, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, ularda zarur kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi o‘qituvchilarning asosiy diqqat markazida bo‘lishi kerak. O‘quv mashg‘uloti jarayonida zamonaviy metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanib mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ma’ruza, seminar, sayohat, bahs-munozara, suhbat, konferensiya, muammoli ta’lim, intervyu, diskurs kabi darslarni tashkil etish, ularning muvaffaqiyatli hal etilishini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilganda, ona tili ta’limi mazmunini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, xususan, sifatni intefaol metodlar asosida o‘qitish talabalarni kelgusi faoliyotga tayyorlash, ularda zarur kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

REFERENCES

1. Yo‘ldoshov J.F, Usmonov S.A.Zomonaviy pedagogic texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. –T.: Fan va texnologiya, 2008. 64-6.
2. Muslimov N, Usmonboyeva M, Mirsoliyeva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik.-T. Nizomiy nomidagi TDPU, 2017.- 165 b.
3. Muslimov N, Usmonboyeva M, Mirsoliyeva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik.-T. Nizomiy nomidagi TDPU, 2017.- 205 b.
4. Matchonov S. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Ishonchli hamkor, 2021. – 695 b.
5. Abdullayev M., Jo‘rayev A. Interfaol o‘qitish metodlari – ijodiy shaxsni tarbiyalash kafolati // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2016. – № 7. – B. 22.
6. Asqarova M. va boshq. O‘zbek tili praktikumi. – T.: TDPU, 2007.

**PEDAGOGIKA TA’LIM MUASSASALARI MAGISTRATURA BOSQICHINING
HUQUQ TA’LIMI YO‘NALISHLARIDA EKOLOGIYA HUQUQI MUAMMOLARI
FANINI O‘QITISHNING AYRIM MASALALARI**

Suvankulov Jamshid Abdulahadovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, yuridik fanlar bo‘yicha
falsafa doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158489>

***Annotatsiya.** Maqolada pedagogika oliy ta’lim tizimidagi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi - huquq ta’limi magistratura yo‘nalishlarida ekologiya huquqi muammolari mavzusini o‘qitishning dolzarb huquqiy masalalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ekologik – huquqiy munosabatlar sub’ekti ekanligi tanqidiy tahlil qilindi. Bu borada, ekologik faoliyat, ekologik faoliyatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirokining huquqiy masalalari tushunchalariga tahrif berildi va asoslantirilgan takliflar bildirildi.*

***Kalit so‘zlar:** “Yashil makon”, ekologiya huquqi, mahalla, ekologiya, ekologik faoliyat, subhekt, ekologik faoliyatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirokining huquqiy masalalari.*

***Аннотация.** В статье рассмотрена методика преподавания социальных и гуманитарных наук в педагогической системе высшего образования - актуальные правовые вопросы преподавания темы проблем экологического права в магистратуре юридического образования, органов самоуправления граждан, эколого-правовых отношений. критически проанализированы. В связи с этим даны толкование понятия природоохранной деятельности, правовые вопросы участия органов самоуправления граждан в природоохранной деятельности и даны обоснованные предложения.*

***Ключевые слова:** «Зеленое пространство», экологическое право, микрорайон, экология, природоохранная деятельность, предмет, правовые вопросы участия органов самоуправления граждан в природоохранной деятельности.*

***Abstract.** The article discusses the methodology of teaching social and human sciences in the pedagogical system of higher education - current legal issues of teaching the topic of environmental law problems in the master's degree in legal education, self-government bodies of citizens, environmental-legal relations. critically analyzed. In this regard, an interpretation of the concept of environmental activities, legal issues of participation of self-government bodies of citizens in environmental activities are given, and substantiated proposals are given.*

***Keywords:** “Green space”, environmental law, microdistrict, ecology, environmental activities, subject, legal issues of participation of citizens’ self-government bodies in environmental activities.*

Kirish. O‘zbekistonda ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashish davlat ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, bu borada strategik vazifalar belgilangan. Bunday vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontse‘tsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi ‘F-5863-sonli Farmonida o‘z aksini to‘gan. O‘z navbatida ekologik qonunchilik izchillik bilan takomillashtirilmoqda.

Hozirgi vaqtda jamoatchilik instituti sifatida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining ekologik mazmun-mohiyati ortib bormoqda. Ular ekologik - huquqiy

munosabatlarning haqqoniy subhektiga aylanib, fuqarolarning ekologik huquqlarini, shuningdek jamiyatning ekologik manfaatlarini tahminlash va himoya qilishda muhim rolga o‘ynamoqdalar. Eng muhimi, mazkur organlarning ekologik faoliyati shakllanishi va rivojlanishida davlat rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan taklif etilayotgan g‘oyalar, kontse‘tsiyalar va ko‘rsatmalar muhim siyosiy-g‘oyaviy asoslar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda ekologik muammolarni hal qilishga jiddiy yondoshish lozimligiga Sh.Mirziyoyev alohida ehtibor qaratgan edi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi ‘F-60-sonli Farmoni 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasida “mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uning jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish, ularning vakolatlarini kengaytirish (Taraqqiyot stretegiyasining 1-bo‘limi, 1-maqsad), mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish (Taraqqiyot stretegiyasinin 6-bo‘limi, 79-80-maqsad)” belgilangan [2].

Mamlakatimizda ekologik huquqiy muammolar bo‘yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularda ekologik faoliyatda mahallalarning ishtiroki muammosi hozirgacha alohida masala sifatida keng tadqiq etilmagan. Shuning uchun mazkur muammoni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirokida hal qilish yo‘llarini ilmiy yondashuv orqali tadqiq qilish muhimdir [3].

Qabul qilingan qonunchilik normalarining ayrimlari ekologik muammolarni ham hal etishga qaratilgan.

Mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish bo‘yicha mamlakatimizda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ekologik faoliyat amalga oshirilmoqda.

Chunonchi, bu borada “mahallalardagi fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining samarali faoliyat yuritishi aholi keng qatlamlarining tashabbuskorligini oshirishga, xalqimizning ulkan aqliy va mahnaviy salohiyatini mumkin qadar ko‘roq jalb etishga imkon beradi” [4].

Shu o‘rinda, qanday faoliyatni ekologik faoliyat deyish mumkin, degan tabiiy savol tug‘iladi. Atrof tabiiy muhit va uning obhektlarini tiklash, sog‘lomlashtirish, qayta ishlab chiqarish va muhofaza qilishga qaratilgan barcha faoliyat turlarini ekologik faoliyat deyish mumkin.

Mamlakatimizda yuritilayotgan oqilona ekologik siyosat davlat va jamoatchilik tomonidan tabiatni muhofaza qilish va undan samarali foydalanilishini nazorat qilish, aholining ekologik xavfsizligini tahminlashga oid ekologik faoliyat amalga oshirilishini taqozo qiladi.

Rossiya yuridik manbalarida ekologik faoliyat tushunchasiga aniq tahrif berilmasa-da, ekologik faoliyat ekologik nazorat, ekologik eks‘ertiza va boshqa shu kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi haqida fikr-mulohazalar keltirilgan ” [5].

Bundan tashqari, tabiatni muhofaza qilish faoliyati, ekologiya sohasida insonning xo‘jalik faoliyati, litsenziyalash faoliyati, iqtisodiy faoliyat, ekologik audit faoliyati, ekologik eks‘ertiza faoliyati, ekologik nazorat faoliyati kabi tushunchalar aks etgan va ekologik faoliyat ekologik xavfsizlikni tahminlash shakli ekanligi keltirilgan.

Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini ekologiya huquqining o‘ziga xos jihatlaridan biri sifatida huquqshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, M.K.Najimov ekologik qonunchilikning o‘ziga xos jihatlaridan biri - unda tahqiqat ustunlik qilish, im‘erativ xususiyatga ega bo‘lgan majburiyatlarning yuklatilishi bo‘lib, ekologik jihatdan foydali, qonuniy axloq hamda tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rag‘batlantiruvchi mehyorlar solishtirma vazni u qadar katta bo‘lmaydi. Bu ekologik munosabatlar

muhofaza xususiyatiga ega va vertikal bo‘lishi, ularni tartibga solishda hokimiyat vositasi - buysundirish ustunlik qilishi bilan izohlanadi.

Ekolog–huquqshunos olim R.Ikramov ilmiy ishida fuqarolarning qulay tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini tashkiliy-huquqiy jihatdan tahminlash masalalari, uni himoya qilishning huquqiy shakllari, ushbu huquqni buzilishining oldini olish va himoya qilish bo‘yicha huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati, jumladan, ichki ishlar, ‘rokuratura organlarining ekologik faoliyati masalalarini atroflicha o‘rganib, fuqarolarning ekologik huquqlarini tahminlash masalalarini tahlil qilgan.

Mamlakatimizda ham ekologik faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 a’reldagi “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etishni tahminlash chora-tadbirlari haqida” gi Q-2915-sonli qarori, 2017 yil 11 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasini tashkil etish haqida” gi ‘F-5041-sonli Farmoni, 2017 yil 18 a’reldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat ins’ektsiyasini tashkil etish haqida” gi ‘F-5018-sonli Farmoni kabilar bunday faoliyatni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘ldi.

Biroq, adabiyotlarda va qonunchilikda ekologik faoliyat tushunchasiga aniq tahrif berilmasa-da, uning mazmun-mohiyati yoritib beriladi.

Tahlil va natijalari. Bunda qonunchilikda “ekologik faoliyat” tushunchasining mazmuni aks etganligini quyidagilarda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish haqida” gi Qonunining 29-moddasida ekologik nazorat vazifalaridan biri sifatida “tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish va ekologik dasturlarning bajarilishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirokini tahminlash” belgilangan [6].

Ushbu normada tabiatni muhofaza qilish faoliyatida, yahni ekologik faoliyatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtiroki ko‘rsatilgan.

Shuningdek, “Ekologik nazorat haqida”gi Qonunining 3-moddasida “Ekologik nazoratning tabiatdan foydalanishdagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish, aniqlash va chek qo‘yishga, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimi” ekanligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2015 yil 8 oktyabrdagi 287-sonli qarori bilan tasdiqlangan Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizamning 12-bandida “fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamoatchilik ekologik nazorat sohasidagi faoliyati tegishli hududda amalga oshirilishi” qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 23 noyabrdagi “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida” gi 940-son qarorida, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2018 yil 15 fevraldagi “Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini tahminlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 177-son qarorida fuqarolar yig‘inlarining va undagi jamoat tuzilmalarining ekologik faoliyati nazarda tutilgan.

Mazkur qonunlarda va ekologiya sohasidagi boshqa normalarda “tabiatni muhofaza qilish faoliyati”, “ekologik nazorat sohasidagi faoliyat”, “xo‘jalik faoliyati”, “zararli faoliyat”, “o‘zga xil faoliyat”, “boshqa yo‘sindagi faoliyat”, “boshqa xil faoliyat”, “zararli obyektlar faoliyati” kabi tushunchalar ishlatilib, ularning hech qaysi biriga tahrif yoki izoh berilmagan.

Shunga ko‘ra, umumiy mahnoda ekologik faoliyat bu - tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolat doirasida amalga oshiradigan atrof

tabiiy muhitga bevosita yoxud bilvosita tahsir ko‘rsatadigan ekologik muammolarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni tahminlash faoliyatidir.

Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish faoliyatida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirokining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qonunchiligi hamda bir qator ekologik qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi.

Shu o‘rinda, “ishtirok etish” tushunchasining mazmun - mohiyati nimadan iborat ekanligiga alohida to‘xtalib o‘tsak.

Aytib o‘tish kerakki, “ishtirok etish” tushunchasi jinoyat qonunchiligida “ishtirokchilik” tushunchasi tarzida ochib berilgan bo‘lsa, bu masala fuqarolik qonunchiligida munosabat subhektlarining “ishtirok etishi” shaklida namoyon bo‘ladi. Endi Konstitutsiyadagi ishtirok etish degani nimani anglatadi?

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining “ishtirok etish” instituti Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida ham belgilangan [7].

Bunda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat ishlarini, jumladan ekologiya sohasidagi faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

2013 yildagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” gi Qonunda mahalla tuzilmalarining ekologiya sohasidagi faoliyatini tartibga soladigan bir qator normalar o‘z ifodasini to‘gan bo‘lib, uning 11 - moddasida mahalla fuqarolar yig‘inlarining tabiatni muhofaza qilishda ko‘maklashish faoliyati, qonun hujjatlarining, o‘z qarorlarining ijrosi ustidan jamoat nazoratini o‘tkazish faoliyati, tabiatni muhofaza qilish yuzasidan tegishli hududdagi tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish faoliyati kabilar o‘z ifodasini to‘gan. Ushbu holatlar mahalla tuzilmalarining ekologiya sohasidagi faoliyatda ishtirok etishi belgilanganligini ko‘rsatib turibdi.

Shuningdek, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar haqida” gi Qonunning 10-moddasida “fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tashkil etilishi, muhofaza qilinishi va ulardan foydalanish tadbirlarini o‘tkazishda davlat organlariga ko‘maklashishi, bunda ular takliflarining inobatga olinishi” ham ishtirok etishning muhim xususiyatlaridan biri ekanligini ko‘rsatib turibdi .

Bundan tashqari, ekologiya muammolarini hal qilishga oid huquqiy masalalarda jamoatchilikning ishtirok etishi xalqaro huquqiy xujjatlarda ham nazarda tutilgan. Mazkur masalalar bo‘yicha 1998 yilda Orxusda qabul qilingan “Atrof muhit masalalariga taalluqli bo‘lgan masalalar bo‘yicha axborotni qo‘lga kiritish, qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoatchilikning ishtirok etish huquqi va odil sudlovga erishish to‘g‘risida”gi Konventsiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu holatlarda ham o‘zini o‘zi boshqarish organlarining atrof muhitni muhofaza qilishda davlat organlariga ko‘maklashish orqali ekologik muammolarni hal etishda ishtirok etishi masalasi huquqiy aks ettirilgan.

Albatta, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari aholisi uchun munosib ekologik qulay hududni tashkil qilmasdan turib, ularning jamiyat ishlarida faol ishtirok etishini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Shuning uchun davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev bu haqda Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday degan edi: “aholi turmush sharoitini yaxshilash, uni munosib turar-joy bilan tahminlash, xalqimiz farovonligini oshirish doimo ehtiborimiz markazida bo‘ladi”.

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ekologik faoliyatiga ehtibor berilayotganining ikkita muhim sababi bor, deb hisoblaymiz. Bularning birinchisi, mamlakatimizda bu tuzilmalarning atrof muhitni muhofaza qilishda faol ishtirok etish zaruriyati bo‘lsa, ikkinchisi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklangan ayrim ekologik vakolatlarni takomillashtirish orqali jamiyatimiz hayotini demokratlashtirishdan iboratdir.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ekologik faoliyatda ishtirokini atrof muhitni muhofaza qilishga oid turli qonunlar va qonunosti hujjatlarida ham aks etganligini tahkidlash o‘rinli.

“Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi talablarida “Suv isteg‘molchilari va nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolar suvlardan foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazayotganlarida davlat organlariga ko‘maklashishi”, keltirilgan.

Ushbu moddadan ko‘rinadiki, unda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining suvni muhofaza qilishdagi ishtiroki masalasi umumiy tarzda, yahni fuqarolarning ishtiroki sifatida aks ettirilgan, bu esa fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlariga berilgan vakolatni aniq belgilamaydi. SHuning uchun, biz ushbu moddaning nomini quyidagicha tahrirda, yahni: “Suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazishda suv istehmolchilari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolarning ishtiroki” tarzida bayon qilish maqsadga muvofiq bo‘lardi, deb o‘ylaymiz.

***Аннотация.** При совершенствовании системы подготовки кадров в области архитектуры и строительства подготовка к инновационной инженерной профессиональной деятельности осуществляется в результате образования, обеспечивающего интеграцию общеобразовательных и профильных дисциплин.*

***Ключевые слова:** здание, сооружения, сооружения, прочность, единство, приоритет, система госстандарта, проектирование, строительная техника, фасад, план, деформация, инновационная инженерия, общепрофессиональная, специализация, интеграция, инновационная инженерия*

***Abstract.** When improving the system of training in the field of architecture and construction, preparation for innovative engineering professional activities is carried out as a result of education that ensures the integration of general education and profile disciplines.*

***Keywords:** building, structures, structures, strength, unity, priority, state standard system, design, construction equipment, facade, plan, deformation, innovative engineering, general professional, specialization, integration, innovative engineering*

Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini ilg’or xorijiy tajriba hamda xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish hamda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o’zaro integratsiyasini mustahkamlash maqsadida [2] Arxitektura va qurilish sohasida muhandislarni tayyorlovchi yo’nalishlarning fan dasturlari va ishchi dastur sillabuslarini tadqiqotimiz aspektida tahlil qilib chiqdik. Jumladan, 60730300-Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) ixtisosligi o’quv reja fan dasturi va ishchi dastur sillabusi mazmunini tahlil qilib, mazkur yo’nalish uchun quyidagi fanlar umumkasbiy, ixtisoslik va tanlov fanlarini asosiy ahamiyat kasb etadi degan xulosaga keldik:

1. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan ixtisoslik fanlarini ilmiy hamda nazariy jihatdan bog’liqligini ta’minlovchi umumkasbiy fanlar:

- Chizma geometriya va muhandislik grafikasi;
- Qurilish mexanikasi;
- Injenerlik geodeziyasi;
- Injenerlik geologiyasi;
- Qurilish materiallari va buyumlari
- Umumiy elektrotexnika;
- Qurilish ekalogiyasi;

- Qurilishda axborat texnologiyalari;

Talabalarni quyidagi umumkasbiy fanlarni o‘zlashtirishi arxitektura va qurilish muhandisligida amalga oshayotgan real jarayonlarni tabiatning umumiy qonunlari pozitsiyasidan turib tahlil qila olish qobiliyatini paydo qiladi. [6]

2. Maxsus bilimlar, kasbiy faoliyatdagi bilim va ko‘nikmalarni, arxitektura va qurilish sohasida ishlab chiqarishning o‘zaro integratsiyasini mustahkamlashga oid fan texnika yutuqlari, muammolari va ularning rivojlanish istiqbollari haqidagi tasavvurlarini hosil qiluvchi ixtisoslik fanlari:

- Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi;
- Binolar energiya samaradorlik injiniringi;
- Qurilish jarayonlari texnologiyasi. Qurilish mashinalari.
- Bino va inshootlarning texnik holatini baholash
- Qurilish konstruksiyalarini loyihalashda komp’yuter texnologiyalari;
- Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar;
- Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi;
- Yog‘och konstruksiyalari;
- Metall konstruksiyalari;
- Temirbeton va tosh konstruksiyalari;
- Bino va inshootlar zilzilabardoshligi;

Mazkur guruh fanlarini o‘rgatishdan asosiy maqsad arxitektura va qurilish sohasida talabalarda tabiatning umumiy qonuniyatlarini amalga oshishi haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishdan iborat. Natijada talabalar kasbiy masalalarning asosiy variantlari bo‘yicha muhandislik hisob-kitoblari metodikalariga, ko‘p maqsadli qurilish jarayonlarini loyihalashtirish va konstruksiyalash asoslariga ega bo‘ladilar [6].

3. 60730300- “Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish)” ta’lim yo‘nalishidagi ixtisoslik tanlov fanlar bloki;

“Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish)” ixtisoslik tanlov fanlariga oliy ta’lim muassasasi Ilmiy Kengashi qaroriga asosan “Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash asoslari” nomli fan kiritiladi, fan dasturi ishlab chiqilib va shu fan dasturi asosida ta’lim berish amalga oshiriladi.

Nazariy jihatdan qaralganda umumkasbiy fanlarning fanlararo integratsiyasini ta’minlagan holda o‘qitish, shundan so‘ng “Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish)” ixtisoslik tanlov fanini o‘quv rejasiga “Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash asoslari” nomli maxsus fan kiritish orqali umumkasbiy va ixtisoslik fanlari orasidagi integratsiyani ta’minlagan holda ta’lim berish natijasida innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash amalga oshiriladi. [5]

Oliy ta’lim muassasasi ta’lim jarayonining vazifasi faqatgina o‘quv va ilmiy ma’lumotlarni taqdim etishdan iborat emas. Balki, zamonaviy qurilish muhandislarni tayyorlashda kasbiy sifatlarni shakllantirish va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash jarayoni quyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha bilim olishni o‘z ichiga oladi: a) gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy; b) matematik va tabiiy-ilmiy; v) umumkasbiy; g) ixtisoslik. Talabalarga bunday asosda ta’lim berishda ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, kasbiy tayyorgarlikni ta’minlovchi fanlarini o‘qitish orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasalarining ko’pchilik ixtisosliklarida “Qurilish mexanikasi” fani asosiy hisob- konstruktorlik kursi hisoblanadi, uni o’zlashtirish davomida talabalarda bo’lg’usi kasbiy faoliyatlarida mahsuldor ishlashlari uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar shakllanadi. Davlat ta’lim standartlarida aniqlangan barcha fanlar hozirgi vaqtda malaka talablariga egadir. Shu sababdan ham “Qurilish mexanikasi” fanining o’ziga xos vazifalaridan biri – talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirishdir. Kasbiy sifatlarni ta’lim-tarbiya va amaliy faoliyat jarayonida shakllanadigan, xizmat vazifalarini samarali bajara oladigan shaxsda rivojlanadigan sifatlardir va ular quyidagilar:

- ixtisoslik fanlarini o’rganish va chuqur egallash uchun zarur bo’lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko’nikma va o’quvlarni shakllantirishi;
- umumkasbiy vazifalarni hal etishda fan va ta’limning zamonaviy muammolariga doir bilimlardan foydalanishga tayyorlash;
- talabalarni berilgan shartlarga ko’ra inshootlar va konstruktsiyalarning mustahkamligi, bikrligi va ustuvorligini loyihalashtirishga o’rgatish; [1]
- Davlat standartlashtirish tizimi va konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi talablari asosida qurilish muhandislik chizmalarini tuzish tartibi va qoidalarini; qurilish chizmalarini o’qish va fasad, reja, qirqim chizmalarini bajarish talablarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- bino, inshootlar va konstruktsiyalar elementlarida xosil bo’ladigan kuchlanganlik xolatini va deformatsiyalanishni muxandisona taxlil qilish; [1]
- quruvchi muhandislarga inshoot va uning elementlarini tejamli, mustahkam, chidamli va muqobil shakllarini topib loyihalash va qurishni o’rgatish [1]

Talabalardan talab etiladigan bilim va ko’nikmalarning mazmuni o’quv dasturida ko’rsatilgan 60730300- “Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish)” ixtisosligi bo’lib, unda ixtisoslik uchun “Qurilish mexanikasi” faniga ajratilgan soatlar 1- jadvalda keltirilgan. Kelajakda har bir ta’lim yo’nalishlarida talaba tanlov fanlarini ulushini oshirish ta’lim-fan-ishlab chiqarish tamoyillariga asoslangan holda mutaxassislar tayyorlash malakasini qo’llanilishi innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga qo’llashni takomillashtirishga qaratilgan isloxot hisoblanadi.

60730300- “Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish)” ixtisosligi uchun “Qurilish mexanikasi” faniga ajratilgan soatlar


1- jadval

O’quv fani nomi	Jami soat	Ma’ruza	Amaliy mashg’ulot	Laboratoriya mashg’uloti	Mustaqil ta’lim
Qurilish mexanikasi	540	120	104	16	300
III, IV, V, VI – semestrlar					


Qurilish mexanikasi fani 3,4,5 va 6-semestrlarda o’qitiladi. Fan uchun o’quv vaqti shunday taqsimlanganki, har bir ma’ruza mashg’ulotiga bittadan amaliy va laboratoriya mashg’uloti to’g’ri keladi. Fanni o’zlashtirish uchun ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. Mashg’ulotlarning bunday ketma-ketligi taqdim etilayotgan materialni o’zlashtirilish jarayonini nazorat qilib borish imkoniyatini berib, zarur bo’lganda bu jarayonni muvofiqlashtirib boshqarish imkoniyatini beradi. “Qurilish mexanikasi” fani oldida turgan vazifalar: ilgari o’zlashtirilgan fanlardan nazariy bilimlarni tizimlashtirish va muhandisda kasbiy sifatlarni shakllantirish maqsadida ularga kasbiy yo’naltirishni berish; fizika va mexanikaviy

qonunlarni bilish asosida talabalarni turli mexanik jarayonlarni tushuntirishga; masala yechimini har tomonlama tahlil asosida optimal yechimini topishga hamda o‘z nuqtai nazarida tahliliy asoslagan holda turishga o‘rgatish. [6]

Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) ta’lim yo‘nalishi fan bloklaridan tadqiqotimizda foydalaniladigan fanlarni nazariy jihatdan ikkita, tashqi va ichki integratsiyalarini hosil qilamiz (1-rasmlar).



1-rasm. Fanlar bloklarining o‘zaro bog‘liqligi



2-rasm. Nazariy mexanika, Materiallar qarshiligi va Qurilish mexanikasi fanlarining o‘zaro bog‘liqligi

Birinci va ikkinchi semestrlarda o‘zlashtirilgan barcha fanlar umumkasbiy bo‘lgan “Qurilish mexanikasi” fani uchun fundament bo‘lib hisoblanadi, o‘z navbatida mazkur fan tabiiy-ilmiiy fanlar bilan maxsus fanlarni bog‘lovchi qism hisoblanadi.

“Qurilish mexanikasi” fani umumtexnik fanlarning mantiqiy yakunlovchi fan hisoblanadi. “Qurilish mexanikasi” fanini o‘zlashtirish uchun umumkasbiy fanlardan “Nazariy mexanika”, “Materiallar qarshiligi”, “Qurilish materiallari va buyumlari”, “Gruntlar mexanikasi zamin va poydevorlar” va ayniqsa “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanlarini puxta o‘rgangan bo‘lishlari shart. Yuqoridagi 2-rasmda “Nazariy mexanika” va “Materiallar qarshiligi” fanlarini “Qurilish mexanikasi” faniga bog‘liqligi aynan qaysi mavzularda ko‘rinishi keltirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki bo‘lg‘usi arxitektura va qurilish sohasidagi muhandislar umumkasbiy fanlarni qanchalik puxta o‘rganishi ularning ixtisoslik fanlarini, bitiruv oldi amaliyotlarini, bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umumkasbiy fanlarni o‘rganish

mobaynida talabalarda kasbiy kompetensiyalari shakllansa, ixtisoslik va tanlov fanlari orqali ularning kasbiy kompetentligi hosil bo‘ladi.

Talabalarni kelgusi muhandislik kasbiy faoliyatlarida innovatsion muhitda ish olib borishi, tempaintellektual o‘zgarishlarga ya’ni hozirgi texnika va texnologiyalarni tez sur’atda jadal rivojlanish jarayonida raqobatbardosh kadrlar bo‘lib shakllanishi, yangiliklarga tezkor moslashuvchan bo‘lishlari talab etiladi. Termiz muhandislik-texnologiya instituti “Surxon Sanoat Qurilish” kompaniyasi bilan tuzilgan hamkorlik shartnomasiga ko‘ra 60730300-Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) ta’lim yo‘nalishi talabalari ishlab chiqarish amaliyotlarini mazkur kompaniyada o‘zkaadi. “Surxon Sanoat Qurilish” kompaniyasining ishlab chiqarish hamda zamonaviy bino va inshootlar qurilishlari zamon talabiga mos holda takomillashtirilib, ishlab chiqarish va qurilish salohiyati ortib bormoqda. Kompaniyaga yosh mutaxasislarni o‘qish davomida ishga qabul qilgandan so‘ng ular amaliyotni aynan shu kompaniya tassarufidagi qurilish korxonalarida o‘taganliklariga qaramay yosh muhandislarni yetakchi mutaxasislar tomonidan 3 oydan – 6 oygacha qayta tayyorlanadi. Kompaniyadagi tajribali mutaxasislar bilan fikrlashganimizda ularning fikricha talabalar aynan qurilish korxonalaridagi yangi zamonaviy qurilish texnologiyalarni ishlash prinsiplari, qurilish jarayonlarini yangi avlodlarini, yangi ma’lumot sifatida qabulishlari lozim. Talabalar oliy ta’limdan ishlab chiqarishga tayyor kompetentli kadr sifatida borib, tezda ishlab chiqarish jarayonlariga moslashib ketishlari zarur.

“Surxon Sanoat Qurilish” kompaniyasi va oliy ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik shartnomasiga ko‘ra korxonadagi mutaxasislar bilan oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari birgalikda ta’lim berish sharoitini yaratish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Ishlab chiqarish korxonasining muhandislarga qo‘yilgan talablari ya’ni paradigmalariga ko‘ra talabalarni o‘qitish maqsadida ishlab chiqarish korxonasi tomonidan “Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash asoslari” deb nomlangan yangi fan kiritish, uni dasturini ishlab chiqish va ishlab chiqarish korxonasi-oliy ta’lim muassasasi tizimida yetakchi mutaxasislar bilan tajribali o‘qituvchilar hamkorlikda ixtisoslik fani sifatida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. “Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash asoslari” fanini o‘qitish orqali bo‘lg‘usi muhandislarning innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash, ularni kasbiy kompetentli muhandis darajasida tayyorlash nazarda tutilgan. [4]

Oliy ta’lim muassasalari ko‘pchilik ixtisosliklarida “Qurilish mexanikasi” fani asosiy hisob-konstruktorlik kursi hisoblanadi, uni o‘zlashtirish davomida talabalarda bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatlarida mahsuldor ishlashlari uchun zarur bo‘lgan kompetentlik shakllanadi. [3] Davlat ta’lim standartlarida aniqlangan barcha fanlar hozirgi vaqtda malaka talablariga egadir. Shu sababdan ham “Qurilish mexanikasi” fanining o‘ziga xos vazifalaridan biri bo‘lgan ya’ni talabalarda umumkasbiy sifatlar shakllantirildi.

REFERENCES

1. “Qurilish mexanikasi” fan dasturi. 60730300-Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) ta’lim yo‘nalishi malaka talablari. Toshkent. 2021 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.11.2022 yildagi PQ-416-son
3. R.Mavlonova, O.To‘raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. Darslik. Toshkent. “O‘qituvchi” 2001.
4. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. Toshkent, 2006.-160

b

5. Avlaev O.U., Jo‘raeva S.N., Mirzaeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent, 2017.-226 b.
6. 60730300-Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi “Malaka talabi” 2022 yil

**PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI AXBOROTLASHGAN TA’LIM MUHITIDA
RIVOJLANTIRISH METODLARI
Mingyasharova Sevara Abdulla qizi**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159281>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning axborotlashgan ta‘lim muhitidagi tizimli yo‘nalishlariga to‘xtalgan. Har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodning buguni zamon talablariga to‘la qonli javob berishlari uchun axborot kommunikatsiyasining o‘rni beqiyosdir. Shuni hisobga olgan holda axborotlashgan ta‘lim muhitidagi ayrim jihatlar alohida e‘tibor berilgan. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun kerakli tavsiya va ko‘rsikmalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Axborotlashgan ta‘lim, metodika, pedagogika, kasbiy mahorat, malaka.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются системные направления развития профессиональных компетенций будущих инженеров в информационно-образовательной среде. Несравненное место информационного общения для того, чтобы каждое подрастающее молодое поколение давало полнокровные ответы на запросы времени. Учитывая это, особое внимание было уделено отдельным аспектам образовательной среды. Даны необходимые рекомендации и указания по развитию профессиональных компетенций будущих инженеров.

Ключевые слова: *Информационное образование, методика, педагогика, профессиональное мастерство, квалификация.*

Abstract. *This article focuses on the systematic directions of development of professional competencies of future engineers in the informational educational environment. The place of information communication is incomparable for every growing young generation to give full-blooded answers to the demands of the time. Taking this into account, special attention was paid to certain aspects of the educational environment. Necessary recommendations and instructions for the development of professional competences of future engineers are given*

Keywords: *Informed education, methodology, pedagogy, professional skill, qualification.*

Kirish. Mamlakatimizda zamon talablari asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish, jumladan, oliy ta‘lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq yettita ustuvor yo‘nalishlarda quyidagi yo‘nalishlar ham asosiy o‘rin egallab turibdi:

-ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

-milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; [1,2]

Shulardan kelib chiqqan holda har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va salohiyatli shaxs bo‘lib yetishishlari uchun nafaqat tarbiyachi ustozlar balki barchamiz ma’sulmiz desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz kutgan natijaga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchilar va tarbiyachi ustozlar o‘zlarining bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib, mustahkamlab, ularni rivojlantirib, o‘z ustilarida ko‘proq shug‘ullanishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yigirma birinchi asr axborot texnologiyalari asri bo‘lib, har bir yosh avlod kelajagi va ertangi kuni uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot kommunikatsiyalarining rivojlanishi butun dunyo bo‘ylab taraqqiy etib bormoqda. Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini oliy ta’lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog‘i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat’iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o‘stirishda tutayotgan o‘rni va ta’siri ortib borayotganligini inkor etib bo‘lmaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’lim sohasida, o‘quv faoliyatida va o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta’limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi. O‘qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Yillar davomida to‘plangan ilm-fan xazinasini bugungi yosh kelajak avlodga o‘rgatish, ularni dunyodagi ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiya va axborot tizimlari yordamida jahon standartlariga to‘g‘ri keladigan yetuk mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash bugungi davrning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Hozirgi kunning muhim talablaridan yana biri, o‘quv jarayonini to‘liq kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda olib borishdir. [3.47]

Ta’lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohatlarni respublika pedagoglari ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va o‘quv jarayoniga qo‘llash bilan mustahkamlashlari zarur. Buning uchun pedagoglarimizni o‘quv jarayoniga texnologik yondashuvlarini o‘rgatish talab etiladi, bu esa pedagogik texnologiyadan foydalanishdan tashqari uni O‘zbekiston madaniyati, an’analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy shakllanishi oliy o‘quv yurti dargohida kasbiy ta’lim olish jarayonida boshlanadi. Texnika oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-reja va fanlar bo‘yicha dasturlarida bo‘lajak muhandislarga shu kasbning sir-asrorlarini o‘rgatish, ilmiy bilimlar berish, muhandislik kasbi haqida ma’lumot berish va ko‘nikma hosil qilish nazarda tutiladi. [4. 389-396 b]

Ta’lim jarayonida fanlar bo‘yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko‘nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llashga ham imkon beradi. Bunday mashg‘ulotlar tanlagan kasbi to‘g‘ri ekaniga ishonch hissini uyg‘otadi.

Yurtimizda ta’lim tizimini o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining milliy g‘oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo‘lishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o‘tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko‘tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir.

Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga, e‘tibor qaratish lozim. Pedagogik faoliyat va muloqot jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetensiyaga ega bo‘lib borish uchun mutaxassis o‘zida insonparvarlik, ijtimoiy-refleksiv, bilim hamda ko‘nikmalar, ijobiy kasbiy “Men”- siyosi, ba’zi shaxsga xos sifatlar (intellekt, iroda, empatiya, kuzatuvchanlik, mehribonlik, hissiy bag‘rikenglik va boshqalar)ni shakllantirishga oid mashg‘ulotlar bilan shug‘ullinishi maqsadga muvofiqdir.[5.142]

Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqozo qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Bo‘lajak muhandislarni yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun tarbiyachi pedagogning ham bilim, ko‘nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning ma’lum sifatleri amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko‘rinishdagi ko‘p yoqlik bo‘lishi, bir vaqtning o‘zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqozo qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Pedagogik mahoratni egallashda kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallash pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo‘lish ijobiy natijalar beradi. Albatta bunday muhitda o‘zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlar bilan taqqoslab, ularni to‘g‘ri va haqqoniyligiga ishonch hosil qilib, o‘ziga bo‘lgan ishinchni yanada orttirib, mavjud bilimlarni boyitish, xato va kamchiliklarni to‘g‘irlash va sayoz bilimlar ustida ko‘proq shug‘ullanish imkoniyatini yaratib beradi. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg pedagogning doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug‘ullanishi haqida quyidagicha fikrni aytgan. “O‘qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanmogi lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o‘xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o‘qituvchilardan hech qanday natija kutib bo‘lmaydi”.[6.157]

Tahlil va natijalari:

Axborotlashgan ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarga kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun avvalombor ularning kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalana olishlik darajalarini tekshirib ko‘rish va shunga mos tarzda ularga tushunchalar berish lozim. O‘tiladigan har bir fanga ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, elektron doskalar hamda fanga oid qiziqarli materiallardan foydalanish albatta kutilgan natijaga erishishga yordam beradi. Shaxsning ma’lum sifatleri amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko‘rinishdagi ko‘p yoqlik bo‘lishi, bir vaqtning o‘zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur.

Xulosa: Jahondagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish indeksi bo‘yicha yetakchilik qilib kelayotgan davlatlarning pedagogik tajribalariga asosan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish hamda ta’limning sifat darajasini yangi bosqichga ko‘tarishda bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida muhandislik ta’lim yo‘nalishi talabalarini xalqaro standartlar darajasidagi mutaxassislik faoliyatiga tayyorlashda elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalanish orqali mehnat bozori talablariga muvofiq pedagogik kasbiy kompetensiyasini shakllantirish zaruratini taqozo qiladi

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli farmoni.
2. SH.M.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / SH.M.Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016
3. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 47
4. Shomirzayev M. K. Combined In Technology Courses Use Of Technologies //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 05. – P. 389-396. b.
5. Qodirov B.E. Elektpon axbopot ta’lim muhitida o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi: Diss. ... p.f.f.d. (PhD) – Termiz: 2021. – 142 b.
6. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy nazariy asoslari. — T:Fan 2007y, - 157 b.

RAQOBATBARDOSH KADRLARNI KASBIY TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Adizova Sevara Yusupovna

Buxoro Muhandislik –Texnologiya Instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159306>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy kadrlar tayyorlashda talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o‘ziga xos pedagogik, psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilib, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda talabalarning innovatsion kasbiy moslashuvchanligini takomillashtirish masalalariga e‘tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** innovatsiya, kasbiy moslashuvchanlik, kreativ faoliyat, pedagogik madaniyat, tashabbuskorlik, ilg‘or g‘oyalar, optimallik, innovatsion kasbiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, namoyish qilish, tasvirlash, mutaxassis kadr, shaxsiy sifat, innovatsion texnologiya.*

***Аннотация.** В данной статье размышляются об уникальных педагогических и психологических особенностях процесса подготовки студентов к инновационной профессиональной деятельности в современной подготовке кадров, акцентируя внимание на вопросах повышения инновационной профессиональной гибкости студентов при преподавании профильных предметов.*

***Ключевые слова:** инновации, профессиональная гибкость, творческая деятельность, педагогическая культура, инициатива, передовые идеи, оптимальность, инновационная профессиональная деятельность, профессиональная подготовка, демонстрация, представительство, экспертный состав, личные качества, инновационные технологии.*

***Abstract.** This article reflects on the unique pedagogical and psychological features of the process of preparing students for innovative professional activities in modern personnel training, focusing on the issues of increasing the innovative professional flexibility of students when teaching specialized subjects.*

***Keywords:** innovation, professional flexibility, creative activity, pedagogical culture, initiative, advanced ideas, optimality, innovative professional activity, professional training, demonstration, representation, expert composition, personal qualities, innovative technologies.*

Kirish. Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirishda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omil sifatida foydalanishga e‘tibor kuchaydi. Shuning uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va unda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli, uning xalqaro tajribasini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

So‘nggi vaqtlarda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar pirovard natijasi ong-tafakkuri ozod inson shaxsini tarbiyalash, zamonaviy yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ekan bu o‘z - o‘zidan integratsion ta’lim klasterlarini innovatsion yondashuvlar asosida tuzishni taqazo etadi.

Bo‘lajak mutaxassis kadrlar kasbiy mahorati va kasbiy moslashuvchanligi raqobatdosh kadrlarning oliy ta’limga samarali tayyorlash imkonini beradi. Pedagoglarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o‘rganish natijalari talabaning o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogning shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, pedagogning kasbiy mahoratga ega bo‘lishi, bilimdonligi va

ktivligi talabalarda ongli faollik hamda mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda texnika oliy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha ananaviy ta’limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb – innovatsion o’zgarishlarga tayyorgarlik ko’rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Innovatsion jarayon – bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o’zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o’zgarib boruvchi yaxlitligidir.

O’qituvchi faoliyatining innovatsiyalarga yo’nalganligi psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijasini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish imkonini beradi. Pedagogik tadqiqotlar natijasini ommalashtirish uchun amaliyotchilarni olingan natijalar bilan maxsus tanishtirish talab etiladi. O’qituvchilarni yangi tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyatga egaligiga ishonitirish asosida ularda yangiliklarni o’zlashtirish ehtiyoji hosil qilinadi. “Yangi pedagogik g’oyalari va texnologiyalarning ommalashtiruvchisi va targ’ibotchisi kimlar bo’lishi kerak?” degan haqli savol tug’iladi. Alohida o’qituvchi yoki ta’lim muassasasi tajribasini o’rganish, ommalashtirish oliy ta’lim muassasasi professor - o’qituvchilari, umumta’lim muassasalarida ishlaydigan ilg’or pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday guruhlarni tashkil etish zaruriyati bir qator holatlar bilan ifodalanadi:

1. Pedagogik yangilik muallifi uning istiqboli haqida zarur ma’lumotlar va aniq bahoni bera olmaydi.
2. Ilg’or g’oyalarni ommalashtirish pedagogdan qo’shimcha vaqt, kuch-quvvat va og’ir mehnatni talab qiladi.
3. Muayyan yangilik har doim ham uning muallifi tomonidan ilmiy-metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaydi.
4. Mualliflar o’zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo’llari, yondashuvlarini bayon qilishda o’zlari va hamkasblarining shaxsiy xususiyatlari bilan bog’liq holda to’xtalishlarga va to’siqlarga duch keladilar.
5. Ijodiy guruh o’z zimmasiga nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ’ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida o’qituvchilar faoliyatiga tuzatishlar kiritish, talabalarning kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasini ham oladi.

Tatbiq etishga yo’naltirilgan faoliyatni boshqarishda innovatsiya muallifining o’zi ishtirok etmaydi. Bunday yondashuv ijodkor o’qituvchining imkoniyatlarini kengaytirish va uni muayyan maqsadga yo’naltirishga xizmat qiladi. Shu tariqa pedagogik innovatsiyalar yaratuvchilari va ommalashtiruvchilarining quvvatlari bir nuqtaga jamlanib, muayyan maqsadga yo’naltiriladi. Pedagogik innovatsiyalar o’zining muayyan tavsifiga ega.

Pedagogik innovatsiyalarning talabalarning kreativ faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan o’lchovlari quyidagilardan iborat:

-innovatsion usullarning yangiligi;

- optimalligi;
- yuqori natija berish imkoniyatiga egaligi;
- ommaviy tajribada ijodiy qo'llash imkoniyatiga egaligi.

Innovatsion usullarning asosiy o'lchovi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg'or pedagogik tajribalar bilan tengligidadir.

Shuning uchun ham innovatsion jarayonda faoliyat ko'rsatishni istovchi o'qituvchilar uchun yangilikning asosiy mohiyati nimadan iboratligini bilish muhim ahamiyatga ega. Agar bir o'qituvchi uchun mazkur tajriba tamoman yangi hisoblansa, ikkinchisi uchun yangi bo'lmasligi ham mumkin. Shuningdek, talabalar uchun ham ayni bir usulning yangilik darajasi turli-tuman bo'lishi mumkin. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy o'ziga xosliklari, individual-psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Bo'lajak kadrlarning kreativ funktsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullarning yangiligi bir necha darajalarda namoyon bo'ladi. Ular:

- ✓ absolyut daraja;
- ✓ lokal-absolyut daraja;
- ✓ shartli daraja;
- ✓ sub'ektiv daraja kabilar.

Bu farqlar ularning qo'llanish sohasi va aniqlik darajasi bilan bog'liqdir.

Pedagogik innovatsiyalar samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va talabalarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni kiritish asosida imkon qadar kam kuch va vaqt sarflagan holda yuqori samaradorlikka erishish hamda kafolatlangan natija olish nazarda tutiladi. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi.

Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi.

Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajriba-sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda talabalarning kreativ funktsiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Innovatsiya natijasida ta'lim jarayonida quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. Tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi;
2. Ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;
3. Subektlarning faoliyati to'la yangilanadi;
4. Yangi texnologiyalar yaratiladi;
5. Faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;
6. Amaliyotning o'zi ham yangilanadi

Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o'qituvchining pedagogik ijodning rang-barang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma'lum bo'lgan g'oyalar, kontseptsiyalar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar talabalarning kundalik

harakati mazmunini tashkil etishi lozim. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak kadrlar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion jarayonlarni o'rganish maqsadida qo'llaniladigan tashxislash metodlari quyidagilardan iborat ekanligini bo'lajak kadrlarning ongiga aniq yetkazish lozim. Ular:

-talabalarining kasbiy ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ular faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlash;

-talabalarining qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, kontseptsiyalar hamda ilg'or innovatsion tajribalarni izlab topish va oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish;

-talabalarining pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash jarayonidagi o'ziga xoslik va ularning turli-tuman ko'rinishlarini aniqlash, bunda namoyish qilish, tasvirlash, ochiq darslar o'tkazish, yangi manbalar ustida ishlash, ma'ruzalar tashkil etish, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etish kabi ish turlaridan keng foydalanish kabilar.

Raqobatbardosh mutaxassis kadrlar kasbiy moslashuvining o'ziga xos xususiyati ichki va tashqi shart-sharoitlarga bog'liq. Mutaxassisning kasbiy moslashuv jarayoniga ta'sir o'tkazuvchi tashqi sharoit va omillarga quyidagilar kiradi:

-kasbiy faoliyatning maqsadi, mazmuni, vositalari va tashkiliy texnologiya xususiyatlari.

-kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlarning xususiyatlari.

Talabani kasbiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi ichki shart-sharoit va omillarga kasbiy moslashish imkoniyatining darajasi, shaxs organizmining moslasha olish sifati va kasbiy faoliyat motivlarining pedagogik faoliyat talablariga aynan mos kelishidir. Yosh mutaxassisning kasbiy moslashuvi muhit bilan kasbiy faoliyati o'zaro ta'sir ko'rsatadigan quyidagi asosiy predmetli sohalarda amalga oshiriladi:

1. Kasbiy-faoliyatli: pedagogik faoliyatga, uning maqsadlari, mazmuni, vositalari, texnologiyasi, ish tartibi va jadalligiga moslashish.

2. Tashkiliy-me'yoriy: ta'lim muassasasida belgilangan tartib-qoidalar, tashkiliy me'yorlar, mehnat intizomi va boshqa talablarni bajarishga ko'nikma hosil qilish.

3. Ijtimoiy-kasbiy: kasbiy-ijtimoiy vazifalar, pedagog shaxsi va kasbiga xos vazifalarni bajarishga moslashish.

4. Ijtimoiy-psixologik: ijtimoiy-psixologik vazifalar, pedagoglar jamoasida mavjud norasmiy, axloqiy me'yorlar, xulq qoidalari, qadriyatlar va muomala-munosabatlarga ko'nikma hosil qilish.

5. Ijtimoiy holatlar: pedagogik faoliyatda bajariladigan mavjud shart-sharoitlarga, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, milliy madaniy va boshqa muhitlarga moslashish hosil qilish. Yosh mutaxassis uchun kasbiy moslashuvda kasbiy-faoliyatli moslashuv yetakchi rol o'ynaydi.

Bugungi zamonaviy kadrning kasbiy-faoliyatli moslashuvining samarali kechishida zamonaviy innovatsion o'qitish uslubining o'ziga xos xususiyatlari hisoblangan quyidagi jihatlarga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir;

-ta'lim jarayonini ilmiy-g'oyaviy tamoyillarga moslab dasturlashtirish va rejalashtirish;

-o'quv-uslubiy materialining murakkablik darajasi va o'rganish sur'atini ta'lim oluvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlariga moslash;

-ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy tayyorgarliklarining o'zaro bog'liqligi va bir-biriga uyg'unlashuvini ta'minlash;

-ta’lim oluvchilarning faolligi va ta’lim jarayonining avtonomligini oshirish;
- ta’lim oluvchilarning individual-amaliy va jamoaviy ishlarini birga qo‘shib olib borish;
-ta’lim jarayonini zamonaviy texnik vositalar hamda ko‘plab pedagogik dasturiy vositalar yordamida jadallashtirish;

-ta’limni tabaqalashtirish va mutaxassislik o‘quv fanlarini kompleks-kompyuter dasturlarining eng yangi loyihalarida birlashtirish.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bo‘lajak kadrlarning hosil qilgan kasbiy ko‘nikma, malaka va tajribalarini tashxislash hamda ularni tashxislash metodlari bilan qurollantirish kasbiy pedagogik ta’lim jarayonini innovatsion g‘oyalar asosida qayta qurish talabalarning kreativ faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida talabalarni ijodiy faoliyat ko‘rsatish, tashabbuskorlikka undash imkoniyati vujudga keladi.

Agar mamlakat va jamiyat qanchalik rivojlangan bo‘lsa unda har bir inson alohida qadrlanadi va o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Talabalar bugungi kunda ro‘y berayotgan voqealar, axborotlar oqimining jadallashuviga ongli munosabatda bo‘lish tajribasini egallashlari kerak. Ularda axborotlarni saralash, voqea-hodisalarga obyektiv munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarining hosil bo‘lishi nihoyatda muhim. Bo‘lajak mutaxassis kadrlar kundalik ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni tahlil qilish asosida ularni munosib baholash, shu asosda atrofdagilarning xatti - harakatlariga tanqidiy munosabatda bo‘lishlari lozim.

REFERENCES

1. Karimova G., Azamatova N. Bo‘lajak pedagog kasbiy mahoratining shakllanish mezonlari. // “Xalq ta’limi” jurnali. T.: 2006, 3-son. –54-57-b.
2. Нишоналиев У. Инновационные педагогические технологии обучения и развития. / В сб. материалов научно-практической конференции “Актуальные вопросы профессионального воспитания молодежи”. - Алма-Ата: Респ. издат. каб. казахск. акад. образования им. И.Алтынсарина, 2000. -С. 235-240.
3. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. - М.: “Издательство Магистр”, 1997. -С. 224.
4. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodlari to‘plami: amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston milliy universiteti, 2003. –94b.
5. Urinov U., Adizova S. Pedagogical conditions for the development of students in industrial practice. E3S Web of Conferences 284, 09017 (2021).
6. Adizova S.Yu. Innovation In Science, Education, And Production Integration As A Successor // International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 29, No. 8, 2020, pp. 3167-3172. <http://serisc.org/journals/index.php/IJAST/issue/view/290>
7. Адизова С.Ю. Машинасозлик йўналиши талабаларида касбий компетенциялар ва техник қобилиятини ривожлантириш имкониятлари //“Таълим ва инновацион тадқиқотлар” халқаро илмий методик журнал. (2021 йил №3) ISSN 2181-1709 (P).
8. Adizova S.Yu. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini yuqori texnologiyali korxonalaridagi kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi holati tahlili // Kasb – hunar ta’limi. – Toshkent, 2021. №3.
9. Adizova S.Yu. Texnik sohada innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars berish jarayonida talabalar intellektual bilimining shakllanishi // “Yoshlarni qo‘llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”ga bag‘ishlangan ilmiy anjumani tezislar to‘plami. Buxoro. 2021yil. 28-29 may.

O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Erkayev Bekzod Karimovich

Nizomiy nomidagi TDPU, “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158761>

***Annotatsiya.** Mamlakatimizda ta’lim tizimini boshqarish organlari tomonidan umumta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarining yuqori ko‘rsatkichlariga erishish maqsadida juda ko‘p islohatlar amalga oshirilmogda. O‘quvchilarning ijodkor shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi ularning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda ularga ta’lim jarayonlarida kreativ sifatlarini oshirilishiga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishga bog‘liq. Ushbu amaliy harakatlar o‘quvchilarda yangi yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.*

***Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, o‘quvchilar, kreativlik, kreativ sifatlar, kreativ qobiliyat, kreativ muhit, kreativ fikrlash, ijodkorlik, shaxsga xos kreativlik sifatlar.*

***Аннотация.** В нашей стране проводится множество реформ органами управления системой образования с целью достижения высоких показателей образовательного процесса в общеобразовательных учреждениях. Формирование и развитие студентов как творческих личностей зависит от взаимной сочетаемости изменений их внутреннего и внешнего мира, социально-экономических условий, реализации задач, направленных на повышение их творческих качеств в образовательном процессе. Эта практическая деятельность создает у учащихся потребность в достижении новых достижений и прогресса в определенной степени, помогает в определенной степени развивать их способности к обучению.*

***Ключевые слова:** образовательная система, обучающиеся, креативность, творческие качества, творческие способности, творческая среда, творческое мышление, креативность, творческие качества личности.*

***Abstract.** In our country, many reforms are being carried out by the educational system management bodies in order to achieve high indicators of educational processes in general education institutions. The formation and development of students as creative individuals depends on the mutual compatibility of changes in their internal and external world, socio-economic conditions, and the implementation of tasks aimed at increasing their creative qualities in educational processes. These practical activities create the need for students to achieve new achievements and progress to a certain extent, help to develop their learning abilities to some extent.*

***Keywords:** educational system, students, creativity, creative qualities, creative ability, creative environment, creative thinking, creativity, personal creativity qualities.*

Kirish. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, uni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga

ko‘tarildi. Jumladan, yangi tahrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun [1] ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama yetuk, jahonning eng rivojlangan mamlakatlari yoshlari bilan bellasha oladigan, kreativ fikrlay oladigan o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilayotganligining isbotidir.

Muhtaram Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida [2] hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ta’lim tizimini takomillashtirish va shu orqali o‘quvchi-yoshlarning kreativ sifatlarini shakllantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Asosiy qism. Respublikamizda barcha umumta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini zamon talablari asosida tashkil etish, unga eng ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish va bu orqali ta’lim sifat-samaradorligiga erishish dolzarb hisoblanadi. Bu o‘rinda o‘quvchi-yoshlarning kreativ sifatlarini rivojlantirish, kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni ishlab chiqish masalasi alohida ahamiyatga ega. Avvalo, “Kreativlik” tushunchasiga izoh berib o‘tamiz. Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati hisoblanadi.

Metodologiya. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Shuningdek, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, o‘quvchilar e’tiborini ta’lim jarayonlariga faol jalb etishni ta’minlaydi.

Psixolog olimlar V.V.Davidova, A.V.Zaporojsa, B.F.Lomovalarning ta’kidlashicha [3]. psixologiyada bu tushuncha ikkita yo‘nalishda: - “ijodkor shaxsning hayotiy tajribasi va individual xususiyati (shaxsiyatli omillar); ijodiy tafakkur va uning mahsulari (kreativ omillar-tafakkur ongliligi, aniqligi, o‘zgaruvchanligi, muammolarga nisbatan sezuvchanligi, o‘ziga xosligi, topqirligi, ularning yechimini topishda konstruktivligi) sifatida ko‘rib chiqadi”.

Kreativlik. Kreativlik (inglizchada creativty) o‘ziga xos qadriyatlar yaratish, nostandart, ijodiy qarorlarni qabul qilishga irod individual xususiyatlarga egalik qobiliyatidir. O‘quvchilardagi kreativlik kuchli idrok qilish qobiliyati, muammoni hal etish yo‘llarini izlash, xushyorlik, ziyraklik, yangi g‘oyalarni ilgari surish, tanqidiy fikrash kabi faoliyatlarida namoyon bo‘lib, yangicha g‘oyalarni ishlab chiqishga qaratilgan ijodiy faoliyat hisoblanadi.

Falsafiy ensiklopediya lug‘atida kreativlik (lotincha creo-idoj qilmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatij ko‘rinishda yechimini topishga yo‘naltirilgan ijodiy o‘zgarishlarga bo‘lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi [4].

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining intellektual-ijodiy ishiga bir qancha talablar qo‘yilib, bular asosan o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlaridan amalda mustaqil foydalana olishi, o‘zini namoyish qilishga qaratilgan imkoniyatlardan to‘daqonli foydalana olishi kabi faoliyatlarida aks etadi.

Tahlil va natijalar. Umumta’lim maktablari geografiya ta’limida o‘quvchilarning tabiat va inson munosabatlari, tabiiy geografik voqea va hodisalarni tushunib yetish, geografik qobiq, Yer va uning ichki tuzilishi, koinot bilan bog‘liq bo‘lgan materiallarni o‘zlashtirish asnosidagi

kreativ qobiliyatida kuchli tafakkur va o‘quvchilar tomomidan o‘rganilayotgan geografik ob’ektlarning his etilishi va tushunib yetilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Geograf olim A.S.Abduvohidov geografiya ta’limi jarayonlarida o‘quvchilarning ijodkorligini oshirish masalalariga to‘xtalib, shunday yozadi: “O‘quv-biluv faoliyati ijodkorlikka yo‘naltirilsagina o‘quvchilarning yaratuvchanlik qobiliyati rivojlantirib boriladi [5]”. Masalan:

1. Ijodkorlik asosida ish yuritishda faqatgina ob’ektning o‘zi bilangina cheklanmay, sub’ekt (o‘quvchi-o‘quvchi)ning ijodkorligi, moyilligi, ehtiyojiga qarab ish tutilsa, ijobiy natijalar beradi, ya’ni ijodkorlikka yoshlikdan o‘rgatish mumkin va zarur.

2. Umuman ulug‘ kashfiyot namoyondalarining fikrlash algoritmini yaxshi o‘zlashtirganlar, atroflicha bilimga ega bo‘lganlar. Ular asosan evristik metod va usullarni yaratganlar, shular asosida ijodkorlik namunalarini namoyon qilganlar.

Foxt Babushkinning ta’kidlashicha kreativlik bu – hayratlanish va idrok qilish, nostandart vaziyatlarda o‘z yechimini topish mahorati, bu aniq bir maqsadda yangilikni kashf etishga yo‘nalganlik va o‘z tajribasini chuqur anglab olish qobiliyatidir.

O‘quvchilardagi ijodiy faoliyat tanqidiy tafakkur qila olish, interfaol harakat qila olish, kuchli iroda kabilar bilan chambarchas bog‘liq faoliyat hisoblanadi. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini amalga oshirish ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalarini, elektron ta’lim vositalarini qo‘llashni talab etadi.

Geograf olimlar Vaxobov X., N.R.Alimkulov., N.B.Sultonovalarning fikriga ko‘ra geografiyani o‘qitishda o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatni tarkib toptirish o‘quvchilar bilan birgalikda va o‘quvchilar mustaqil bajaradigan ishlar: darslik, yozuvsiz xarita, rasm, jadval, statistik ma’lumotlar va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash hamda amaliy mashg‘ulotlarni bajarish katta ahamiyatga ega [6].

O‘quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda ularda ijodiy tasavvurni shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi. Chunki aynan ijodiy faoliyatning olib borilishi avvalo ijodiy tasavvur qilishdan boshlanadi.

Geografiya ta’limida o‘quvchilar geografik xaritalar bilan ishlashda, yozuvsiz xaritalar bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda, shuningdek biror geografik hudud bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilganda, tabiiy-geografik hodisalar haqida fikr yuritganda, biror hududning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishganlarida avvalo ularda ijodiy tasavvur hosil bo‘ladi va bu orqali ularda ijodiy faoliyat amalga oshiriladi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning izlanishlarida geografiya fanini o‘quv fani sifatida ijodiy rivojlantirish mumkinligi va geografiya ta’limidagi ijodkorlik prinsiplari:

- 1) ijodkorlik obrazli fikrlash yoki xulq-atvorni nazarda tutishi;
- 2) ijodiy faoliyatning maqsadga muvofiqligi, ya’ni qo‘yilgan maqsadga erishishga qaratilganligi;
- 3) bu jarayonlar qandaydir o‘ziga xos (original) narsalarni yaratishi kerakligi;
- 4) natija maqsadga nisbatan muhim ahamiyatga ega bo‘lishi zarurligi asoslab berilgan.

N.V.Martilova tadqiqotida ixtisoslashgan geografiya ta’limida amaliy landshaftshunoslikni o‘rganish asosida o‘quvchilarning ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish muammosi hal etilgan bo‘lib, unda ijodiy faoliyat tajribasi ta’limning shaxsiy faoliyatli yo‘nalishini aks ettiruvchi maqsad-sub’ekt va ta’lim mazmunining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelishi, shaxsning ijodiy faolligini rivojlantirish jarayoni va kreativ ta’lim mahsuli sifatida tavsiflanishi mumkinligi aniqlangan [7].

Psixologlarning fikrilariga ko‘ra, o‘quvchilarning materiallarni o‘zlashtirishi kitob olib o‘qigandan ko‘ra, ko‘z bilan ko‘rib, ekranda o‘qib o‘zlashtirishi samaraliroq bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha animasiyalar, multimedia vositalari, videodarslar, elektron tasvirlar, ovozli jarayonlar mavzu materialining asl mohiyatiga tushunib yetishlariga qulaylik yaratadi.

G.Ya.Nechepurenko o‘zining “O‘quvchilarda ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishda “geografiya” o‘quv fanining imkoniyatlari” deb nomlangan maqolasida geografiya ta’limida ta’lim oluvchilarda shakllantiriladigan individual ijodiy faoliyat tajribasining mazmunini aniqlashda keltirilgan o‘quvchilar ijodkorligining uchta darajasini ajratib ko‘rsatadi [8]: Bular quyidagilar:

1-daraja: o‘quv faniga qiziqishi noaniq, mujmal xarakterga ega. O‘qituvchining muayyan yo‘l-yo‘riqlari bilan peshqadamlikka intilish paydo bo‘ladi. O‘quvchilar o‘quv faoliyatini amalga oshirishda ma’lum darajada mustaqillikka ega. Ularda murakkab masalalarning yechimi bo‘yicha nostandart fikrlash qobiliyati shakllanmagan bo‘ladi;

2-daraja: o‘quv faniga qiziqish yanada kengroq xarakterga ega, har qanday bilimlarni to‘plash istagi rivojlangan. O‘quvchilar mantiqiy operatsiyalarni yaxshi egallagan, bilimlarni yangi vaziyatlarga ko‘chirishga qodir. Shu bilan birga, ular amalga oshirilgan faoliyatni tahlil qila olmaydilar, o‘z ishidagi xatoliklarni har doim ham ko‘rmaydilar;

3-daraja: ijodkorlik faoliyat uslubiga aylanadi. O‘quv faniga qiziqish barqaror tabiatga ega. O‘quvchilar mustaqil ravishda ta’lim olish qobiliyatini namoyon etadilar, peshqadamlikka moyil. Maqsadlarga erishishda qatiyatli, jamoaviy ishlashga intiladi.

V.A.Blajenov o‘zining “Geografiyada rivojlantiruvchi ta’lim usullari” (“Приемы развивающего обучения в географии”) nomli kitobida “ijodiy faoliyat tajribasi” tushunchasining mohiyatini geografik ko‘nikma va malakalar majmui sifatida talqin etgan [9].

A.G.Zaxarov esa geografiya kursini o‘rganishda o‘quvchilar ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish muammosi bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqot ishida “ijodiy faoliyat tajribasi” tushunchasiga quyidagi ta’rif berilgan: shaxsning o‘ziga va atrofdagi olamga bo‘lgan munosabati ijobiy o‘zgarishiga olib keluvchi nazariy bilimlar (faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladigan), ko‘nikmalar va yangi muammolarni izlab topish usullari va ularni amaliy hal etish yo‘llarining birligini nazarda tutadigan ma’naviy mahsul [10].

Yu.V.Mitrofanova o‘z joyi geografiyasini o‘rganishda yangi pedagogik texnologiyalar vositasida o‘quvchilarning individual ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish mavzusida amalga oshirgan tadqiqot ishida “ijodiy faoliyatning individual tajribasi – bu o‘quvchilarga ijodiy topshiriqlarni bajarishda samarali yechimlarni topishga, motivatsiya va refleksiyaning faollashtirish asosida yangini yaratish jarayonida shaxsan ishtirok etishga imkon beradigan ko‘nikmalar majmuidir”, degan xulosaga kelgan [11].

B.A.Kolobovanning fikriga ko‘ra, o‘quvchilarning ijodiy o‘lkashunoslik faoliyati nafaqat muammoni hal qilishning yangi usulini aniqlashda, balki ularning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan aqliy hatti-harakat usullarini o‘zaro moslab, bir butunlik hosil qilishda va ularni yangi vazifalarga ko‘chirishda namoyon bo‘ladi. Uning ta’kidlashicha, faol ijodiy faoliyatning shartlaridan biri o‘quvchilarga nafaqat ijodiy topshiriqlar berish, balki ularni o‘quv ishlarining turli usullari: qiyoslash, sabab-oqibat aloqalarini o‘rnatish, xulosalar chiqarish va geografik axborotlarni tahlil qilishga o‘rgatish lozim [12].

Ta’kidlash joizki, geografiya ta’limida ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishga oid ilmiy metodik izlanishlarda psixologik va didaktik tadqiqotlar natijalaridan keng foydalanilgan [13].

I.Ya.Lerner o‘z ilmiy ishlarida geografiya ta’limida shakllanadigan ijodiy faoliyat tajribasining mazmuni tomonidan ajratib ko‘rsatilgan ijodiy ish tartiblari: bilimlar va ko‘nikmalarni yangi vaziyatga mustaqil ko‘chirish, tanish vaziyatlarda muammoni ko‘ra bilish, faoliyatning oldindan ma’lum bo‘lgan usullarini yangisiga mustaqil ravishda moslab, bir butunlik hosil qilish, yechimning tubdan yangi usulini yaratish kabilar bilan izohlangan [14].

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarini aniqlash, shakllantirish va uni rivojlantirish ularning kelajakda har tomonlama yetuk, keng fikrli, denyoqarashi keng insonlar bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi. Buning uchun o‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2020 y., 23-sentyabr, 13-16-modda.
2. 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Давыдова В.В., Запорожца А.В., Ломова Б.Ф. Психологический словарь. – М.: Педагогика, 1983. – 448 с.
4. Философия: Энциклопедический словарь / Под ред. А.А.Ивина. – М.: Гардарики, 2004. – 1072 с. (ИСБН 5-8297-0050-6).
5. Abduvoxidov A.S., Z.A.Ganiyev. “Geografiya ta’limi metodikasi”. Samarqand.: 2021 yil. 49-52 b.
6. Vaxobov X., Abdulqosimov A.A., Alimkulov N.R. Materiklar va okeanlar. - Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. 574 b.
7. Мартилова Н.В. Экология и эстетика объектов ландшафтной архитектуры в урбанизированной среде мегаполисов», М.: 2009.
8. Нечепуренко Г.Я. "Отсенка качества географического образования". М.: 2017. 87-88 С.
9. Блаженев В.А. Приемы развивающего обучения географии. – М.: Дрофа, 2006. – 60 с.
10. Захаров А.Г. Сто приемов учебного успеха ученика на уроках географии: Методическое пособие для учителя по освоению и использованию педагогической технологии «ИСУД» - дидактического ресурса личностно-ориентированного образовательного протесса – М.: «5 за знания», 2006. – 128 с.
11. Митрофанова Ю.В. Политическая система и государственная политика РФ в постсоветский период – М.: 2018. 82-85 с.
12. Колобова Б.А. Совершенствование системы дополнительного экологического образования подрастающего поколения в северном регионе. Монография. Издательство Нижневартковского государственного гуманитарного университета. 2009. 123-124 с.
13. Абдуллаева Д. Н. МАКТАБ ГЕОГРАФИК ТАЪЛИМИ ОРҚАЛИ ГЕОЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ //Современное образование (Узбекистан). – 2022. – №. 12 (121). – С. 36-42.
14. Lerner I.Ya. [Pedagogicheskie zametki iz-za reshetki](#). М.: 1990. 45-48 S.
15. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAJ:0EnyYjriUFMC

GEOEKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH: YONDASHUVLAR VA PEDAGOGIK MEZONLAR

Abdullayeva Dilnoza Narzullayevna

Nizomiy nomidagi TDPU “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasida dotsent v/b., p.f.f.d
(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158803>

***Annotasiya.** Maktab o‘quvchilari geoeologik madaniyatni shakllantirish jarayoni pedagogik konsepsiya doirasida, avvalo o‘zining nazariy va uslubiy darajadagi yondashuvlari, tamoyillari va mezonlari bilan ajralib turadi. Shu bois yondashuvlar va mezonlar tizimining tahlili orqali konsepsiyaning yaxlit manzarasini yaratish mumkin bo‘ladi. Ushbu maqolada umumta’lim maktab o‘quvchilarida geoeologik madaniyatni shakllantirishdagi yondashuvlar tahlili va ularning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** geoeologik madaniyat, geoeologik bilimlar, madaniy va ekologik yondashuv, ekogumanistik yondashuv, tizim-sinergetik yondashuv, ettiradigan fazo-vaqt yondashuvi, aksiologik yondashuv, muammoli-vaziyatli yondashuv, Shaxsiy faoliyatli yondashuv, madaniy kompetensiya.*

***Аннотация.** Процесс формирования геоэкологической культуры школьников отличается своими теоретико-методическими подходами, принципами и критериями в рамках педагогической концепции. Следовательно, посредством анализа системы подходов и критериев удастся создать целостное представление о концепции. В данной статье описан анализ подходов к формированию геоэкологической культуры у школьников и их педагогических условий.*

***Ключевые слова:** геоэкологическая культура, геоэкологическое знание, культурно-экологический подход, экогуманистический подход, системно-синергетический подход, обеспечивающий пространственно-временной подход, аксиологический подход, проблемно-ситуационный подход, личностно-деятельностный подход, культурная компетентность.*

***Abstract.** The process of formation of geoeological culture by schoolchildren is distinguished by its theoretical and methodological approaches, principles and criteria within the framework of the pedagogical concept. Therefore, through the analysis of the system of approaches and criteria, it will be possible to create a holistic picture of the concept. This article describes the analysis of approaches to the formation of geoeological culture in secondary school students and their pedagogical conditions.*

***Keywords:** geoeological culture, geoeological knowledge, cultural and ecological approach, ecohumanist approach, system-synergistic approach, enabling space-time approach, axiological approach, problem-situational approach, personal activity approach, cultural competence.*

Kirish. Bugungi zamonda ekologik muammolarning o‘ziga xos dolzarblik kasb etishi tufayli pedagogika fani ilmiy tadqiqotlari doirasida, kam o‘rganilgan, maktab o‘quvchilarining mushtarak geografik-ekologik madaniyatini shakllantirish masalasi, ilmiy muammo sifatida maydonga kirib kelmoqda. Ma’lumki, ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biri bu kelajakda geografik va ekologik madaniyatning yuqori darajasiga ega bo‘lgan, muntazam o‘zini o‘zi rivojlantirishga, jamiyat taraqqiyotiga va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga yo‘naltira oladigan, koevoluyusion g‘oyalarni idrok etish va amalga oshirishga hamda insoniyatning barqaror

rivojlanishini ta’minlashga qodir bo’lgan shaxsni shakllantirish vazifasidir. Ushbu vazifani hal qilishning muvaffaqiyati juda ko’p omillarga bog’liq bo’lib, ular orasida yosh avlodning geokologik bilimlarini amalda geokologik madaniyatga yo’naltirish davri muhim rol o’ynaydi. Jumladan, pedagogik shart-sharoitlar doirasida maktab o’quvchilarining geokologik madaniyatini shakllantirishdagi yondashuvlar alohida e’tiborga molik.

Asosiy qism. Geokologik madaniyatni shakllantirishda mavjud yondashuvlar tahliliga ko’ra, pedagogik shart-sharoitlar doirasidagi metodologik nuqtai nazardan, geokologik madaniyatni shakllantirishda *madaniy va ekologik* yondashuv ta’sirchan vosita sifatidagi o’rni e’tiborga sazovor. Zero, unda ta’limning madaniy jihatlari kontekstida maktab geografiyasini ekologizatsiya qilishning o’quv geokologik modellari tarkibiga kiritilgan va geokologik tarkibni amalga oshirishning ketma-ketligi va uzluksizligini aks ettiradigan yondashuv qo’llaniladi. Shuningdek, geografiya ta’limi (geografik bilimlar) barqaror rivojlanish uchun zarur bo’lgan ekologik madaniyatni shakllantirishda, ya’ni ekologik bilimlarni to’ldiruvchi muhim omil hisoblanishiga alohida urg’u beriladi [1].

Mavjud ilmiy adabiyotlarda, geografik bilimlarning sintezini va ekogumanistik g’oyalarga asoslangan barqaror rivojlanish nazariyasini aks ettiradigan yondashuv – *ekogumanistik yondashuv* sifatida tavsiflanadi. Chunki ushbu sintez natijasida barqaror rivojlanish uchun insonning atrof-muhit bilan uyg’un o’zaro ta’siriga qaratilgan geokologik bilimlar tizimi shakllanadi. Bu yondashuv mazmunan o’zaro munosabatlarni uyg’unlashtirish, inson va tabiatning birgalikda yaratilishini anglash, tabiat va insonning umuminsoniy qadriyatini, hayot sifatini, insonning ijtimoiy-tabiiy muhit uchun mas’uliyatli rolini tan olish g’oyalariga asoslanadi. Maktab o’quvchilari darajasida ushbu yondashuv shaxsning tabiatga muhabbatini tarbiyalashga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi bo’lib ta’lim mazmunini tanlashda materialni uzatishning shakllari, usullari va pedagogik texnologiyalarini, uni o’zlashtirish darajalarini va harakatlarning semantik shartlilikini hisobga olishni talab qiladi. Chunki, matn blokidagi sifat o’zgarishi, odatda, protsessual blokidagi o’zgarishlarni, masalan, o’quvchilar faoliyatini tashkil etish texnologiyalari, metodlari, usullari va shakllarini, keltirib chiqaradi.

Geokologik fazoni bilishning inson-inklyuziv modellaridan foydalanishni talqin etadigan yondashuv *tizim-sinergetik yondashuv* deb ta’riflanadi. Ushbu yondashuv, asosan geo-eko-ijtimoiy tizimlar, ya’ni dunyoning geografik-ekologik ko’rinishini belgilab beradi. Unda universal birlik g’oyasi hukm so’radi hamda izchillik, chiziqsizlik, ehtimollik, vaziyatlilik asosida tanlash, prognozlash, boshqarish kabi jarayonlar amalga oshiriladi [2]. Chunki, geokoijtimoiy tizimlarning murakkab, o’zini o’zi tashkil etuvchi tizimlar sifatida rivojlanish mexanizmlarini anglash, inson va atrof-muhit o’rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish hamda o’zaro uyg’un rivojlanishining koevolyusion ideallariga murojaat qilish uchun ob’ektiv asos bo’ladi. Tizim-sinergetik yondashuvning pedagogik mohiyati qadriyatli bilimlarni, ya’ni kecha-bugun-erta tushunchalari uzviylikda insonning atrof-muhit bilan o’zaro ta’sirining madaniy naqshlarini o’tkazishga asoslanib, geokologik madaniyatni shakllantirish natijasida o’quvchilarning shaxs sifatidagi ijtimoiylashuvi va o’zini o’zi rivojlantirishiga zamin yaratadi [3]. Ushbu yondashuv, geografik va ekologik bilimlarning o’zaro integratsiyasini aktuallashtiradi va maktab o’quvchilarining geokologik madaniyatini shakllantirishning muhim shartiga aylanadi.

Yana bir muhim jihat, tizim-sinergetik yondashuvning pedagogik samarasi, uning yumshoq boshqaruv g’oyalaridan oziqlanishi va yagona ta’lim maydonida maqsadli tashkil etilgan ta’lim muhitini yaratish orqali geokologik madaniyatni shakllantirishga imkoniyat berishdan

iborat. Bunday muhit o‘zini o‘zi boshqaradigan rivojlanish rejimida shaxsiy o‘zini o‘zi harakat qilish uchun imkoniyatlar koridorini ta’minlaydi. Natijada, tashqi muhitning roli ichki va tashqi nisbati asosidagi mexanizmlar bilan belgilanadi [4].

Tadqiqot davomida geoeologik madaniyatni shakllantirishning inson va atrof-muhit birligi hodisasi sifatidagi murakkab shakli munosabatlar o‘zaro mavjudlik asosi sifatida hamda muvofiqlik va hamjihatlik zarurati ko‘rib chiqildi. Unda geoeologik madaniyatni shakllantirish sharoitida maktab o‘quvchilarining haqiqiy ijtimoiy-tabiiy muhiti shaxs tomonidan geoeologik o‘rganish ob‘ektlarini belgilashni ta’minlaydigan ta’lim muhiti sifatida qaraldi, ya’ni hissiy va oqilona bilish asosida muayyan ekologik vaziyatga ko‘nikish, o‘zini harakatga undash va geoeologik makonni saqlash va rivojlantirish masalalar o‘rganildi. Natijada, tizim-sinergetik yondashuvning ta’sirchanlik darajasi aniqlandi.

Geoeologik makonning uzluksizligi va diskretligini, unda insoniyat jamiyatining o‘tmish-bugun-kelajak vektoridagi maqomini aks ettiradigan *fazo-vaqt yondashuvi* ham o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu yondashuv geoeologik madaniyatni shakllantirishning protsessual tarkibiy qismi bosqichlarini belgilab, insonning o‘z atrofidagi ko‘p o‘lchovli makonning madaniy o‘zlashatirishini ifoda etadi.

Pedagogik va psixologik talqindagi *aksiologik yondashuv* maktab o‘quvchilarining geoeologik madaniyatini shakllantirishda, eng avvalo, o‘zining interiorizatsiya jarayonlarini ta’minlashga qaratilgan jihati bilan e’tiborli. Chunki, unda amaldagi tashqi xatti-harakatlarni ichki zaruriy harakatlarga aylantirish jarayoni kechadi, jumladan, tashqi ijtimoiy faoliyatni o‘zlashtirish tufayli insonda ijtimoiy faollik tuyg‘ulari shakllanadi. Aksiologik yondashuv, geoeologik madaniyatning koevoluyon qadriyatlariga ega bo‘lgan shaxs tomonidan, o‘sha qadriyatlarni shaxsiy ma’nolarga aylanishini, shaxsning hayotni tasdiqlovchi xatti-harakatlarining ichki regulyatoriga aylantiradigan qadriyatli munosabatlar va yo‘nalishlarni o‘zlashtirishini talqin etadi.

Koevoluyon ekologik qadriyatlar tizimi, o‘zida inson va tabiatning o‘zaro qadrimmatini, ularni bag‘rikenglik va sheriklik ruhida yanada rivojlantirishni aks ettiradi. Natijada, geoeologik madaniyatni shakllantirishni uslubiy tizimining barcha tarkibiy qismlarini qamrab oladi hamda barqaror rivojlanishni ta’minlaydigan shaxsning geoeologik kompetensiyasi va ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish dinamikasini belgilaydi.

Haqiqiy ekologik muammolarni ko‘rish, o‘rganish, hal qilish va oldini olishga qodir bo‘lgan hayotiy faoliyat sub’ekti sifatida shaxsni shakllantirish g‘oyalarini qamrab olgan va geoeologik madaniyatning muammoli-ijodiy yo‘nalishini belgilaydigan, aniq muammoli va vaziyatli yondashuvlarni o‘zaro bog‘liqlikda ifoda etuvchi *muammoli-vaziyatli yondashuv* maktab geoeologik ta’lim muhitini yaratishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Chunki, ushbu yondashuv, geoeologik va madaniy o‘zaro ta’sir vaziyatlarini yaratish asosida haqiqiy ekologik ijtimoiy va shaxsan muhim ekologik muammolarni geoeologik tarkibga kiritishni nazarda tutadi. Vaziyatli yondashuv muammoni muayyan vaziyat va sharoitlarga bevosita qo‘llash imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan. Uning markaziy nuqtasi vaziyat va aniq vaziyatga e’tibor sababli, joriy jarayonlar o‘zaro bog‘liq holatda ko‘rib chiqiladi.

Kundalik hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy darajadagi turmush tarzining sifati va mazmuniga ta’sir etuvchi omillarning ta’lim dasturlarida nazarda tutilgan geografik va ekologik bilimlar bilan asoslanishi, o‘quvchilarning geoeologik madaniyatini ongli shakllanishi va hayotiy zaruratga aylantirishiga muhim va asosli zamin yaratadi.

Shaxsiy faoliyatli yondashuv shaxsni faoliyat sub’ekti sifatida shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, olimlar talqiniga ko‘ra, unda inson o‘zini, o‘zining dunyoda mavjudligini anglatadigan maxsus faoliyati belgilanadi [5]. Yondashuv o‘quvchi shaxsini geokologik madaniyat jihatlariga kirishi va o‘zini o‘zi anglashning individual strategiyasini (moslashish, tushunish, ijodiy yondashish) yaratishga yo‘naltiradi. Natijada, uning atrof-muhit bilan ziddiyatsiz, o‘zaro dialogik ta’sir qilish uchun zarur bo‘lgan yangi fazilatlarini belgilaydi.

Madaniy va kompetensiyaviy shaxs shakllanishi g‘oyasining talqini, asosan *madaniy kompetensiyaviy yondashuvda* ko‘zatiladi. Shuning uchun, ushbu yondashuv doirasida, geokologik kompetensiya umumiy madaniy kompetensiyaning ajralmas, tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Ma’lumki, borliqni inson tomonidan madaniy o‘zlashtirishi, ya’ni madaniyat orqali shaxsning o‘zi-o‘zini shakllantirishi faqat ma’lum ijtimoiy faoliyat orqali mumkin bo‘ladi. Bu erda, madaniy-ekologik nuqtai nazardan, ekologik jihatdan maqsadli bo‘lgan faoliyat nazarda tutiladi. Shu o‘rinda, S.Glazachevning tadqiqotidagi fikrni asosli ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Uning yozishicha, “ekologik faoliyat sub’ektiga aylanish – bu faoliyatni o‘zlashtirish, ushbu faoliyatning mantiqiy va axloqiy-ma’naviy texnikalariga ega bo‘lish, uni amalga oshirish va ijodiy o‘zgartirishga qodir bo‘lish demakdir” [6]. O‘qituvchining bunday faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiruvchi mezon ko‘rsatkichi bu kompetensiya hisoblanadi. Shaxsning geokologik madaniyatini shakllantirish sharoitida esa geokologik kompetensiyaning motivatsion, axborot-kognitiv, qadriyatli-me’yoriy, kommunikativ, amaliy va ijodiy jihatlarini e’tiborga olish zarur.

Yuqorida ta’kidlangan barcha yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan va ierarxik bo‘ysunishga asoslangan yondashuv *geokologik yondashuv* deyiladi. Geokologik yondashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra, uslubiy tizimning barcha tarkibiy qismlarida amalga oshiriladi. Maqsad komponentida u maktab o‘quvchilarining geokologik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Mazmun komponentida geokologiyani bilishning inson o‘lchamidagi ajralmas modellari – geokotizimlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan. Protsessual va texnologik komponentlarda shaxs tomonidan geokologik makonning “moslashish-tushunish-ijodiy yondashish” vektoridagi o‘zlashtirishi jarayonida ishtirok etadi. Uslubiy tizimning natijaviy-baholovchi komponentida ushbu yondashuv geokologik madaniyat nuqtai nazaridan o‘quvchining shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirish faoliyati orqali ifodalanadi.

Tadqiqotimiz davomida, adabiyotlarda metodologik jihatdan ilmiy asoslangan madaniy va ekologik, ekogumanistik, tizim-sinergetik, fazo-vaqt, aksiologik, muammoli-vaziyatli, shaxsiy-faoliyatli, madaniy kompetensiya, geokologik (1-jadval) kabi yondashuv turlari ko‘rib chiqildi hamda shu asosdagi maktab o‘quvchilarining geokologik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha mavjud mexanizmlar ta’sirchanlik darajasiga aniqlik kiritib, ularni tamomillashtirish yuzasidan nazariy va metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsad sifatida belgilandi.

1-jadval

Geokologik madaniyatni shakllantirishda yondashuvlar tavsifi

Yondashuvlar tiplari	Tavsifi
madaniy va ekologik	- ta’limning madaniy jihatlarini kontekstida maktab geografiyasini ekologizatsiya qilishning o‘quv geokologik modellari tarkibiga kiritilgan va geokologik tarkibni amalga oshirishning ketma-ketligi va uzluksizligini aks

**“RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA FAN – TA’LIM – ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
2023-yil 22-noyabr**

	<p><i>ettiradigan yondashuv qo‘llaniladi;</i></p> <p>- geografiya ta’limi (geografik bilimlar) barqaror rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ekologik madaniyatni shakllantirishda, ya’ni ekologik bilimlarni to‘ldiruvchi muhim omil hisoblanishiga alohida o‘rg‘u beriladi</p>
ekogumanistik	<p>- o‘zaro munosabatlarni uyg‘unlashtirish, inson va tabiatning birgalikda yaratilishini anglash, tabiat va insonning umuminsoniy qadriyatini, hayot sifatini, insonning ijtimoiy-tabiiy muhit uchun mas’uliyatli rolini tan olish g‘oyalari asoslanadi;</p> <p>maktab o‘quvchilari darajasida ushbu yondashuv shaxsning tabiatga muhabbatini tarbiyalashga qaratilgan pedagogik shart sharoitlar majmuasi bo‘lib ta’lim mazmunini tanlashda materialni uzatishning shakllari, usullari va pedagogik texnologiyalarini, uni o‘zlashtirish darajalarini va harakatlarning semantik shartlilikini hisobga olishni talab qiladi</p>
tizim-sinergetik	<p>geo-eko-ijtimoiy tizimlar, ya’ni dunyoning geografik-ekologik ko‘rinishini belgilaydi, unda universal birlik g‘oyasi hukm so‘radi hamda izchillik, chiziqsizlik, ehtimollik, vaziyatlilik asosida tanlash, prognozlash, boshqarish kabi jarayonlar amalga oshiriladi</p>
fazo-vaqt	<p>- geoekologik madaniyatni shakllantirishning protsessual tarkibiy qismi bosqichlarini belgilab, insonning o‘z atrofidagi ko‘p o‘lchovli makonning madaniy o‘zlashtirishini ifoda etadi;</p> <p>- geoekologik madaniyatni shakllantirishning global, mintaqaviy, mahalliy miqyosdagi ta’limiy geoekologik modellari aniqlanadi va ishlab chiqiladi</p>
aksiologik	<p>- interiorizatsiya jarayonlarini ta’minlashga qaratilgan, unda amaldagi tashqi xatti-harakatlarni ichki zaruriy harakatlarga aylantirish jarayoni kechadi, jumladan, tashqi ijtimoiy faoliyatni o‘zlashtirish tufayli insonda ijtimoiy faollik tuyg‘ulari shakllanadi;</p> <p>- aksiologik yondashuv, geoekologik madaniyatning koevolusion qadriyatlariga ega bo‘lgan shaxs tomonidan, o‘sha qadriyatlarni shaxsiy ma’nalarga aylanishini, shaxsning hayotni tasdiqlovchi xatti-harakatlarining ichki regulyatoriga aylantiradigan qadriyatli munosabatlar va yo‘nalishlarni o‘zlashtirishini talqin etadi</p>
muammoli-vaziyatli	<p>- geoekologik va madaniy o‘zaro ta’sir vaziyatlarini yaratish asosida haqiqiy ekologik ijtimoiy va shaxsan muhim ekologik muammolarni geoekologik mazmunga kiritishni nazarda tutadi;</p> <p>- vaziyatli yondashuv muammoni muayyan vaziyat va sharoitlarga bevosita qo‘llash imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan bu‘lib, markaziy nuqtasi vaziyat va aniq vaziyatga e’tibor sababli, joriy jarayonlar o‘zaro bog‘liq holatda ko‘rib chiqiladi</p>
shaxsiy-faoliyatli	<p>- unda inson o‘zini, o‘zining dunyoda mavjudligini anglatadigan maxsus faoliyati belgilanadi;</p> <p>- o‘quvchi shaxsini geoekologik madaniyat jihatlariga kirishi va o‘zini o‘zi anglashning individual strategiyasini (moslashish, tushunish, ijodiy yondashish) yaratishga yo‘naltiradi hamda uning atrof-muhit bilan ziddiyatsiz, o‘zaro dialogik ta’sir qilish uchun zarur bo‘lgan yangi</p>

	<i>fazilatlarini belgilaydi</i>
madaniy kompetensiya	<p>- madaniy va kompetensiyaviy shaxs shakllanishi g‘oyasining talqinida</p> <p>geoekologik kompetensiya umumiy madaniy kompetensiyaning ajralmas, tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi;</p> <p>- borliqni inson tomonidan madaniy o‘zlashtirishi, ya’ni madaniyat orqali shaxsning o‘zi-o‘zini shakllantirishi faqat ma’lum ijtimoiy faoliyat orqali mumkin bo‘ladi</p>
geoekologik	<p>- uslubiy tizimning barcha tarkibiy qismlarida amalga oshiriladi;</p> <p>- maqsad komponentida u maktab o‘quvchilarining geoekologik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan;</p> <p>- mazmun komponentida geoekologiyani bilishning inson o‘lchamidagi ajralmas modellari – geoekotizimlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan;</p> <p>- protsessual va texnologik komponentlarda shaxs tomonidan geoekologik makonning “moslashish-tushunish-ijodiy yondashish” vektoridagi o‘zlashtirishi jarayonida ishtirok etadi;</p> <p>- uslubiy tizimning natijaviy-baholovchi komponentida ushbu yondashuv geoekologik madaniyat nuqtai nazaridan o‘quvchining shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirish faoliyati orqali ifodalanadi</p>

Maktab o‘quvchilarining geoekologik madaniyatini shakllantirish maqsadida, maktab geografik va ekologik ta’limi tizimiga tavsiflangan yondashuvlarni tatbiq etish jarayoni, albatta, ma’lum tamoyillar tizimini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Xulosa. Maktab o‘quvchilarining geoekologik madaniyatini shakllantirish jarayonida o‘quvchining o‘zini o‘zi rivojlantiradigan tabiatini shakllantirish va uni namoyon qilish uchun ideal shart sifatida haqiqiy estetik jihatdan uyg‘un muhitga murojaat qilish alohida o‘rin tutadi. Inson va tabiat o‘rtasidagi sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini rivojlantirishda muhim omil, bu tabiat ob’ektlarining go‘zalligi, mo‘rtligi, himoyasizligi haqidagi ob’ektiv ma’lumotdir. Chunki, shu tariqa, o‘quvchi tabiat qonunlarining inson bilan o‘zaro bog‘liqligini bilish, faoliyat nuqtai nazaridan atrof-muhitdagi jarayonlarga amaliy ijodkorlik bilan yondashish malakalarini to‘g‘ri shakllantiradi.

REFERENCES

1. *Винокурова Н.Ф.* Культурно-экологический подход в модернизации географического образования: теоретико-методологические основы и методика реализации // Теория и методика обучения географии: история и современные направления развития. - СПб., 2004. - С. 18-25.
2. *Князева Э.Х.* Синергетика. Нелинейность времени и ландшафты коэволюции - М.: Комкнига, 2007. - 156 с.
3. *Каган М. С.* Системно-синергетический подход к построению современной педагогической теории / М.С. Каган // Синергетическая парадигма. Синергетика образования. - М.: Прогресс-традиция, 2007. - С. 223-234.

4. *Мануйлов Ю.С.* Средовый подход в воспитании - М., Н. Новгород: Изд-во Волго-Вятской академии государственной службы, 2002. - 157 с.
5. *Петровский В.А.* Личност в психологии, парадигма субъектности - Ростов-н/Д: Феникс, 1996. - 512 с.; *Демидова Х.Х.* Проблемная личностно-смысловая ситуация / Х.Х. Демидова // География в школе, 2010. - № 4. - С. 21 - 22.
6. *Глазачев С.Н.* Теоретические основы формирования экологической культуры учителя: Дисс. в виде науч. докл. на соиск. учён. степ, д-ра пед. наук. / С.Н. Глазачев. - М., 1998. - 68 с.

CONTINUOUS PHASE AND MEANS OF USE IN UZBEK LANGUAGE

Latipov Aziz Akbaralievich

Independent researcher of the Samarkand state institute of foreign languages

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158841>

Annotatsiya. O‘zbek tilida davomiylik faza odatda analitik konstruksiya yordamida ifodalanadi. Davomiylik faza ma’nosining aspekt qiymatlari bilan bog‘langan variantlari ham analitik tarzda ifodalanadi. Maqolada fe’llarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri leksikasi, davomiy zamon, ravishlar, analitik konstruksiyalar va qo‘shma fe’llar kabi turli xil vositalar yordamida ifodalash ma’nolari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: davomiylik faza, birikmalar, faza davomiyligi, harakat, boshlanish, aniq holatni saqlab qolish, harakatni takrorlash, bir vaqtdan ikkinchisiga yo‘naltirish, reja.

Аннотация. Фаза продолжение в узбекском языке обычно выражается с помощью аналитической конструкции. Аналитически выражаются и варианты значения продолжительной фазы, связанные со значениями аспектов. В статье рассматриваются значения, выражаемые с помощью различных средств, таких как прямая лексика глаголов, длительное время, формы, аналитические конструкции и сложные глаголы.

Ключевые слова: фаза продолжение, соединения, продолжительность фазы, действие, начало, решение, сохранение состояния, повторение действия, направление от одного времени, плана к другому.

Abstract. Continuous phase in Uzbek language is usually expressed using an analytical construction. Variants of the continuous phase meaning associated with aspect values are also expressed analytically. The article considers the meanings about expressing through various means, such as direct lexicon of verbs, continuous tense, forms, analytical constructions and compound verbs.

Keywords: continuous phase, compounds, phase duration, action, beginning, preclude, preservation of a state, the repetition of an action, the direction from one time, plan to another.

Introduction. In Uzbek language, the continuous phase is usually expressed using an analytical construction. By analytical construction, we mean compounds verbs formed with auxiliary verbs. The meaning of pure continuation, which is not connected with the values of the aspect (kind, hue), that is, the meaning of the continuation of the process that started and was interrupted for some reason, is not expressed in the Uzbek language in a synthetic form (through a single verb). This meaning is expressed by the compounds *to continue (to be continued)*.

Research methodology. The continuous phase is expressed by the combination of a noun (*to continue*) and an auxiliary verb (*to do*). Variants of the continuous meaning associated with aspect values are also expressed analytically. In such analytical compounds, if the meaning of the process is covered by the transitive form of the verb (-ib), the aspectual signs associated with the meaning of phase duration are connected with auxiliary verbs. Verbs of different types can be used as helpers: *stand, sit, stay, expressing the situation; walking action verbs (verbs such as to walk, to go, to come) participating not in their own meaning, but in the transitive meaning.*

Pay attention to the examples: *someone is working (reading...), they are talking, he is reading the newspaper, he is writing a letter, he was writing something (compound verb structure), Days went by days (context).*

Analysis and results. The verb *to go* can have meanings related to the duration phase. Continue: *I'm knitting a scarf, by going to school (songs), G'ijim ro'mol to'qiyman, maktab borib o'qiyman (qo'shiqlar) There's a heated conversation. Days went by. Qizg'in suhbat boryapti. Kunlar ketidan kunlar borardi.* The leading verb indicates the gradual development of the action expressed: *The wind is getting stronger. The patient's condition is improving. The morning is breaking. As time passed, Prophecy could feel her sister changing before her eyes.* [2,132]. Shamol kuchayib borayotir. Bemorning ahvoli yaxshilanib boryapti. Tong yorishib bormoqda. Vaqt o'tib bormoqda, Bashorat singlisining ko'z o'ngida o'zgarib borayotganini sezardi. (A.Muxtor. Opa-singillar [2,132].

The leading verb - *(i) b* with the adverbial form denotes the continuation and development of an action or the accompanying progress of an action. For example: ahvoli yaxshilanib bormoqda, [8, 75]. *His condition is getting better* [8,75].

The verb *to come* - *(i) combined* with the leading verb in the adverbial form, is used as an auxiliary verb and indicates the action that has been going on for a long time: Nurining buyruqlariga so'zsiz bo'ysunib kelgan Gulnor, hech nima o'ylamasdan o'rnidan turdi (Oybek, Qutlug'qon); *Gulnor, who obeyed Nuri's orders without a word, came up without thinking about anything* (Oybek, Kutlugkhan); Men bu sirni shu choqqacha ichimda saqlab kelayotgan edim, endi aytmasam bo'lmaydi [2, 378]. *I have been keeping this secret inside me until now, now I need tell it* [2,378].

When the leading verb combined with the adverbial form *-(i) b, to come* represents an action that continues for a certain period of time. For example: *Bu kitobni o'qib kelmoqdaman; Men bu sirni shu choqqacha ichimda saqlab kelayotgan edim, endi aytmasam bo'lmaydi. I have been reading this book ; I have been keeping this secret inside me until now, and now I can't tell it.*

It is included in the group of compound verbs in the form of adverb: *to come and stand* [8,206].

The verb *to go* can also mean the continuation of the action, of the process duration, the beginning and the continuation. For example: Davom etmoq: *Imtihon ketayapti. Majlis ketayapti. O'rmonjon, odatda, ish sustroq yoki yomonroq ketayotgan uchastkalarga borar edi; Harakatni davomiyligi: Otabek ... yangi va eshitilmagan fikrlarni so'zlab ketdi.* [5, 383]; *Continue: The exam is going on. The meeting is going. The forester usually went to the sections where the work was slower or worse; Continuity of action: Otabek ... spoke new and unheard thoughts* [5, 383]; In the function of an auxiliary verb, when it is attached to the form of the adverb with the affix *-a / ay*, it indicates the beginning and continuation of the action quickly and strongly: Samandarov ... *qo'lidagi qog'ozni Boltaboyga berib, unga allanimani tushintira ketdi.* [5,383]. *Samandarov ... gave the paper in his hand to Boltaboy and went to explain to him the name.* [5, 383].

Went comes as an auxiliary verb and expresses the permanence, repetition or duration of the action. *The clock is ticking. Come back often. I see him every day. Water flows in this stream in winter and summer. He (Mahmoud Torabi) worked with his two brothers, Muhammad and Ali, from dawn to dusk, making a big living. (M. Osin, The story of our ancestors). Ikramjon turned and looked at him (Nizamjon). Drops of tears were trembling on his gray beard. (S. Ahmad, Ufq). To carry. Constantly receiving, always receiving. The old man was receiving a pension.* (receiving is combined with various lexical-semantic verbs in this function (walking is an action, i.e.

procedural or interactive actions that occur at the same time (*to swing, to flow, to carry* - additional verb).

-(i) *b* comes in the adverbial form with the affix and indicates that the action is continuing at the same time with the preceding adverbial. *Study while working. On the way, I remembered you. He was surprised while reading the column. The wrestler picked up the stag that had come out on his shoulder, held it by both ends, and turned it around a couple of times.* [8,227].

It was getting dark in the desert, everyone was gathered, drinking tea in the big tent, by the light of the stone lantern, and he was talking from side to side. (S. Ahmad, *Ufq*).

Another (leading) verb *has -ib* acting as an auxiliary verb with the adverbial form means the duration of the action and its extension: *I will not talk much about this; there is no need to think about it for a long time* [8,619].

to stretch is directly related to the duration phase and is explained by the combination - "*to continue*". Look at the examples given in the dictionary: *My conversation with the moon continued for a long time, and the morning came. (Enthusiastic). Tantiboivachcha, having finished the night's party and drinking with a long sleep, continued of the castle door to the garden. (Oybek, Kutlug qon).*

The verb combined to prolong with nouns indicates the continuous of the action (*process*) *they express: the meeting was prolonged, the construction period is lengthening, the conversation was prolonged* [8,550]. It also indicates continuity in the adverbial form.

First of all, this verb is not used as an auxiliary verb, but always retains its lexical meaning.

Conclusion/Recommendations. In short, the semantic scope of the continue phase includes *the preservation of a state, the repetition of an action, the direction from one time, plan to another*, includes meanings such as *prolongation of movement, continuation of interrupted movement*. These meanings can be expressed through various means, i.e. direct lexicon of verbs, continuous tense forms, analytical constructions and compound verbs. If the expression of the continuous phase in English is primarily related to the lexical meaning of verbs and long tense forms, in Uzbek language the continuous phase is expressed in most cases with the help of analytic verb combinations.

REFERENCES

1. Gulomov A.G. The verb. – Tashkent, 1954. – 88 p.
2. Mominova A. Aspectual semantics of verbs in modern German and Uzbek languages. Philol. science. Doctor of Philosophy (PhD) Diss. Samarkand – 2021.
3. Pavlov V.M., Rizaev B.Kh. On the principles of identifying formation phase verbs expressing the meaning of the termination of the process // Uchen. zap. Tartu State University, No. 537. Aspectuality and means of its expression. Tartu, 1980. p. 128-139.
4. Petrova I.M., Beklemesheva N.N. Cognitive conditioning of variability of a complicated compound verbal predicate with a phase binomial. Philological sciences. Questions of theory and practice. Tambov: Certificate, 2019. Volume 12. Issue 8. c. 216-225.
5. Shukurov O.U. Paradigm of forms of action: Philol. science. name diss. – Against, Karshi, 2004. -126 p.
6. Tiunova S.P. Means of expressing phase in modern English. Tomsk, 1990.
7. An explanatory dictionary of the Uzbek language. 2 roofs. M.: "Russian language" publishing house. -1981.

8. Uzbek-russian dictionary. –Tashkent, 1988.
9. Vostryakova A.V. Semantic and syntactic features of aspectual constructions [Electronic resource] / <http://cyberleninka.ru> – you can find: <http://cyberleninka.ru/article/n/semantiko-sintaksicheskie-osobennosti-aspektualnyh-konstruktsiy-s-fazovym-glagolom-get>

THE IMPACT OF INTRINSIC OR EXTRINSIC MOTIVATION ON TEENAGERS IN LEARNING ENGLISH

Abdulkhaeva Nodirabegim

Teacher of Nordic International University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158866>

Abstract. *The article provides information on how intrinsic or extrinsic motivation affects students' English language learning in connection with the Critical Period Hypothesis. Students learn English better when they are intrinsically motivated, or extrinsically motivated, that is, some students learn English because of their interest in the language. This is considered intrinsic motivation, while other students are forced to learn English because of their parents' wishes because they want to work in a better job, and to name but a few.*

Keywords: *intrinsic motivation, extrinsic motivation, the Critical Period Hypothesis, teenagers, dominance, communication, acquire.*

Аннотация. *В статье представлена информация о том, как внутренняя или внешняя мотивация влияет на изучение английского языка студентами в связи с гипотезой критического периода. Студенты изучают английский лучше, когда они имеют внутреннюю или внешнюю мотивацию, то есть некоторые студенты изучают английский язык из-за своего интереса к языку. Это считается внутренней мотивацией, в то время как другие студенты вынуждены изучать английский язык по желанию своих родителей, потому что они хотят работать на лучшей работе, и это лишь некоторые из них.*

Ключевые слова: *внутренняя мотивация, внешняя мотивация, гипотеза критического периода, подростки, доминирование, общение, приобретение.*

Annotatsiya. *Maqolada kritik davr gipotezasi bilan bog'liq holda o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishiga ichki yoki tashqi motivatsiya qanday ta'sir qilishi haqida ma'lumot berilgan. Talabalar ingliz tilini ichki motivatsiyaga ega bo'lganda yaxshiroq o'rganadilar, yoki tashqi motivatsiyaga, ya'ni ba'zi talabalar ingliz tilini tilga qiziqishlari tufayli o'rganadilar. Bu ichki motivatsiya hisoblanib, boshqa talabalar esa ota onasini xohishi, yaxshiroq ishda ishlashni xohlaganligi va shu kabilar tufayli ingliz tilini o'rganishga majbur.*

Kalit so'zlar: *ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, tanqidiy davr gipotezasi, o'smirlar, hukmronlik, muloqot, sotib olish*

Introduction. In current society acquiring foreign languages is taking a predominant role in terms of exchanging ideas and getting in touch with people from all over the world. To identify issues in acquiring a second language and overcome problems scholars are carrying out research. For instance, there has been a plethora of research conducted on the difference between intrinsic and extrinsic motivation and their influence on learners' acquiring foreign languages, meanwhile, numerous researches have been done on the critical period hypothesis. Different age level learners, particularly, teenagers can be motivated by a variety of factors such as internal interest, future goals, parents' wishes and to name but a few. Some researchers such as Lightbrown and Spade (2013) noted that “age differences will determine the most appropriate way for teachers to motivate students” (p. 161). Because different age-level learners have various sources of motivation, it is easier for teachers to conduct the lesson. Even though there have been several researches conducted regarding types of motivation and the Critical Period Hypothesis, the dominance of intrinsic or extrinsic motivation in teenagers is faced infrequently. Teenagers are the ones between children

and adults, most of them have already chosen their own way, therefore most teenagers are not taught foreign languages because of their parents’ wish as children, or unlike adults a great number of teenagers don’t work that they don’t have to learn particular FL because of job requirements. Therefore, they have enough time to work on themselves, and to be engaged with their own interests. On the other hand, it is time to think about future perspectives, namely, higher education and finding well-paid jobs. Since I started working, I have faced teenage students who are learning foreign languages because of their own interests, future perspectives, or just their parents’ wishes. So, teenagers are motivated both intrinsically and extrinsically. Therefore, in this research, I intended to investigate which type of motivation is dominant in teenagers taking into consideration their opinions.

Intrinsic and Extrinsic Motivation

Basically, motivation is defined as the driving force behind human behavior. Dörnyei and Ushioda (2001) made an investigation of motivation in teaching and learning and defined this term as “The word motivation derives from the Latin verb *movere* meaning ‘to move’. What moves a person to make certain choices, to engage in action, to expend effort and persist in action – such basic questions lie at the heart of motivation theory and research” (Dörnyei & Ushioda, 2011, p. 3). There are two types of motivation:

- a) Intrinsic motivation
- b) Extrinsic motivation (instrumental motivation)

People can have an intrinsic motivation to learn a second language when they want to learn internally as Covington and Muller (2001) confirmed, “intrinsic motivation has been defined variously as a tendency to engage in activities for their own sake, just for the pleasure derived in performing them or for the satisfaction of curiosity” (p. 163). Dörnyei (2001) supported that idea concluding that intrinsic motivation connects to mere performance for relishing of taking part in activities. In addition to his statement Stipek (2002) concurs that people are intrinsically motivated to do assignments to improve their abilities.

On the other hand, learners are not always intrinsically motivated to participate in learning foreign languages (Urdu & Turner, 2005). In some situations, there are several external factors that make students be willing to acquire a second language. Vansteenkiste and Lens (2006) define extrinsic motivation as the desire of people to take part in learning in order to gain something different from the task itself such as to get a good job, to pass an examination, and so on. The internal desire isn’t dominant in this type of motivation, but external factors. Brown (2014) supported the idea saying that extrinsic motivation is triggered by parents, peers, and teachers.

Even though there are a plethora of external factors to be impacted, some researchers believe in the dominance of intrinsic motivation in language acquisition. For instance, Maslow (1970) confirms that a learner should have all basic necessities in order to have intrinsic motivation. If basic needs are met, learners can participate actively in acquiring new things. In Maslow’s view of motivation, intrinsic motivation was claimed more powerful than extrinsic in reaching the highest level, self-actualization as the culmination of human achievement in his pyramid (Brown, 2001). It stands for that to learn a new language, students are highly motivated intrinsically.

The importance of Critical Period Hypothesis in language acquisition

In learning a second language, Singleton (1995) states, “younger – better in the long run” (p. 13), however, he points out that there are several exceptions, for instance, most bilingual adults

